O‘smir sportchilardagi stressga barqarorlik bo‘yicha olingan natija bilan tortinchoqlik shkalasi natijasining korrelyatsion tahlili o‘rtacha ko‘rsatkichga ega bo‘lib, musbat aloqadorlikni ko‘rsatmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, o‘smir sportchilardagi bir me’yorda aql bilan fikr yuritishlari, boshqa odamlarga yaxshi munosabatda bo‘lishlari, odamlardagi to‘g‘rilik va samimiylikni qadrlashlari, adolatli yondoshishlari bilan xarakterlanadi, bu xislat esa ularda stressga barqarorlik darajasini ijobiy jihatdan namoyon bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, ulardagi teran fikrlash, mulohazalilik, yuzaga keladigan vaziyatlarga ijobiy yondashish, boshqalarning ichki kechinmalarini tushunish va hamdard bo‘lish jihatlari ham stressga barqarorlikni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, stressga barqarorlik tushunchasini izohlashda ko‘plab psixolog olimlar turli xil fikr-mulohazalarni bildirganlar, ularning fikrida yakdil tushuncha yo‘qligiga qaramay, stressga barqarorlik tushuncha negizida aqliy, irodaviy va hissiy jihatdan zo‘riqishlar natijasida yuzaga keladigan stressni bartaraf etishga yordam beradigan shaxs xususiyatlari majmui tushuniladi. Shu asosda u nafaqat professional faoliyatda, balki hayotiy, ijtimoiy faoliyatda namoyon bo‘ladigan zo‘riqishlarni o‘zi va boshqalarni salomatligiga zarar yetkazmasdan yengib o‘tadi.

O‘smir sportchilarning frustratsion tolerantligi xolatining namoyon bo‘lishida shaxs xislati bo‘lmish nazokatlilik bilan o‘zaro aloqadorligi ijobiy jihatdan kuzatildi. O‘smir sportchilarning mashg‘ulotlar, musobaqa va hayotiy faoliyatlari jarayonida duch keladigan stressni yuzaga kelishiga olib keladigan ko‘ngilsiz holat va voqea-hodisalarga munosabat bildirishda ular boshqalarning hissiyotlarini, ruhiy holatlarini inobatga olish, his qilish, muammolarni hal qilishda o‘z fikrlarini hissiy bayon qilish, muloyimlik bilan yondoshishlari natijasida muammoni ijobiy jihatdan hal qilishga erishishlari bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga o‘smir sportchilarning frustratsion tolerantlik holatining ijobiy jihatdan shakllanishida ulardagi nazokatlilikning o‘zini namoyon qilish, hushmuomalalik, munosabatdagi kirishimlilik kabi sifatlari ham muhim hisoblanadi.

Korrelyatsion tahlil qilish jarayonida namoyon bo‘ldiki, shaxs xislatlaridan ruhiy tuturiqsizlik, ijtimoiysizlik, odamovilik va tortinchoqlik shkalalari bilan o‘smir sportchilardagi frustratsiya holati o‘rtasidagi manfiy aloqadorlikni ko‘rsatmoqda. Aytish joizki, o‘smir sportchilar bilan o‘tkazilgan tadqiqotda bu xislatlar ijobiy jihatdan namoyon bo‘lgan edi, shu nuqtai nazardan yondoshgan holda faoliyat jarayonida yuzaga keladigan stressogen vaziyatlarda o‘smir sportchilar o‘zlarini frustratsion tolerantlik munosabatini namoyon qilganlarini ko‘rish mumkin. O‘smir sportchilar bunday vaziyatlarda o‘zlarida ichki bezovtalikni yo‘qligi, nizolardan uzoqroq bo‘lishga xarakat qilishi, tartib-qoidalarga amal qilish, o‘zlarini bosiq va erkin tutishlari, boshqalarga hurmat ko‘rsatishi, o‘z fikrlarini ayta olishlari,

muloqotga kirisha oladigan, o‘z hissiyotlarini boshqara oladigan, real fikrlaydigan xislatlari bilan frustratsion tolerantlik munosabatlarini ijobiy jihatdan yuzaga chiqara oladilar.

Shunday qilib, o‘smir sportchilarning faoliyatida yuzaga keladigan stress holatlari va undan chiqishda frustratsion tolerantlikni stressogen vaziyatlarga bo‘lgan munosabatining ijobiy ta’sirini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Shuningdek o‘smir sportchilardagi frustratsion tolerantlik munosabatini ijobiy jihatdan namoyon bo‘lishida o‘smir sportchilarning shaxs xislatlari ham ahamiyatga ega, ulardagi xislatlarini shakllanishida esa sport kurashi turlarining ta’siri natijasi deb ayta olamiz.

Xulosa o‘rnida rus psixologi R.S.Nemovning frustratsiya to‘g‘risidagi quyidagi fikrlarini keltirib o‘tmoqchimiz: “Nazariy jihatdan qaraganda, frustratsiya tajovuzni keltirib chiqaruvchi asosiy yoki yagona sababchisi hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, frustratsiya tajovuzning ma’lum bir shaklini vujudga keltiradiki, shunda tajovuzkor xatti-harakat yuzaga keladi, buni sababi esa frustratsiya bo‘ladi, shuningdek, tajovuzning namoyon bo‘lishi uning o‘lchami bilan mutanosib bo‘ladi. Shuningdek insonning tajovuzkor xatti-harakatlarini namoyon qilishi uning mukofot yoki jazoni kutishi bilan belgilanadi. Frustratsiya masalasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, tajovuzdan tashqari tajovuzkor bo‘lmagan xatti-harakat holatlarni ham namoyon qilishi mumkin”. Shaxsning stressogen vaziyatlardagi holati uni amalga oshirgan faoliyati asosida tahlili etiladi. Shu sababli ham shaxsni stressogen vaziyatlardagi xolatini o‘rganadigan muammoning mohiyatini ochib berish uchun shaxs faoliyati asosida yondoshiladi.

Birinchidan, shaxsni stressogen vaziyatlardagi faoliyatning mazmuni to‘la-to‘kis uni yuzaga keltirgan tabiiy, biologik va ma’naviy ehtiyoj bilan shartlanmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o‘zgacha negizga qurilishi mumkin. Mabodo ehtiyoj motiv (lotincha motiv turtki, harakatga keltiruvchi degan ma’noni anglatadi) sifatida faoliyatga ichki turtki berib, uni jadallashtirishga, faollashtirishga erishsa, u vaziyatda faoliyatning mazmuni, shakllari ijtimoiy shart-sharoit, talablar, zaruriyat, tajriba kabilar bilan belgilanadi.

Modomiki shunday ekan, odam nima uchun bunday yo‘sinda xatti-harakat amalga oshirgani, uning nimani ko‘zlab ish qilayotgani mos kelmaydi, chunki uni faollikka undovchi turtki, xohish-istak bilan faoliyatni yo‘naltiruvchi aniq maqsad o‘zaro mutanosib emas. Binobarin, faoliyat faollik manbai hisoblanmish ehtiyoj sifatida yuzaga kelgan tarzda faollikning yo‘naltiruvchisi tariqasidagi anglanilgan maqsad bilan idora qilinadi.

Ikkinchidan, shaxsni stressogen vaziyatdagi faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlash uchun psixika narsa va hodisalarning xususiy ob’ektiv xossalarini aks ettirishi, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘l-yo‘riqlarini aniqlab berishi lozim.

Uchinchidan, stressogen vaziyatdagi shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro‘yobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi yo‘q faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalashi lozim. Shuning uchun faoliyat bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo‘r berishsiz amalga oshishi amri mahol, chunki u har ikkala omil bilan uzviy aloqaga kirishganidagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi, xolos.

Stress holatidagi insonlar bilan ishlash davomida psixokorreksion blokni yaratish, ma’lum bir texnika va metodlarni qo‘llash ushbu muammoni bartaraf etishda muhim hisoblanadi. U nihoyatda rang-barang yoki psixokoreksiyaning ma’lum bir yo‘nalishida aks etgan bo‘lishi mumkin. Asosiysi, bu dastlabki psixodiagnostik ma’lumotlarga tayangan holda psixokorreksiya ishida qaysi tezlik va jadallikda harakatlanish lozimligi, yo‘nalishlarini belgilab olish hisoblananib, bu borada inson shaxsining ijtimoiy demografik omillari, individual va yosh xususiyatlari, stressli vaziyatning ahamiyatlilik darajasi, ijtimoiy muxitdagi vaziyat xususiyatlari psixologik korreksiya jarayonida albatta inobatga olinishi zarur.

Zamonaviy sportda asosiy talab sportchilarning yuqori hissiy barqarorlikka ega bo‘lishi hisoblanadi. Hissiy barqarorlik esa insonning stressli omillar ta’sirida ham yuqori psixik ish qobiliyatini saqlab qolishidir. Yuqori hissiy barqarorlikka ega bo‘lgan sportchilarda esa hissiy yetuklik, qiziqish, intilish, matonat va irodaviy sifatlar yaxshi shakllangan bo‘ladi. Bunday xislatlar esa sportchini muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlab beradi. Shuning uchun ham psixologlar bu xislatni sportchi shaxsining muhim xarakteristikasi deb hisoblaydilar, chunki ekstremal va stressogen vaziyatlarda hissiy barqarorlik xislati sportchi faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlab beradi va sportchi har qanday psixik yuklamalarga bardosh beradi.

Biz o‘smir sportchilarning stress holatiga barqarorlikni oshirishda, sport faoliyati jarayonida sportchini o‘ziga, faoliyatga va muloqotga munosabati, o‘smir sportchilarning shaxs sifatlarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etishini e’tirof etgan holda murabbiylar va o‘smir sportchilarga stressni yengish uchun psixologik trening mashg‘ulotlaridan foydalanishlarini tavsiya etamiz. Quyida

o‘smir sportchilarni shaxs sifatlarini rivojlantiruvchi psixologik treninglardan namunalar keltirilgan bo‘lib, mazkur psixologik trening mashg‘ulotlari o‘smir sportchilarda o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishda, ularning shaxs xususiyatlari va shaxs xislatlarini shakllanishida samarali bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari tahlili izohidan kelib chiqib, aytish mumkinki, stressga barqarorlik – shaxsning stressogen vaziyatlarda nafaqat irodaviy, balki hissiy, aqliy, xulq-atvor hamda ijtimoiy jihatdan ham barqarorligi bo‘lib, bu barqarorlik shaxsga stress vaziyatlarda faoliyatini muvaffaqiyatli yakunlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar.

1. Abdurasulov R.A. Sport mashg‘ulotlarining o‘quvchi - sportchilar shaxsini shakillanishidagi roli (Yakkakurash turlari misolida). Psixol. an.dok. diss.avtoref. –T. 2018.
2. Величковский Б.Б. Многомерная оценка индивидуалной устойчивости к стрессу. Автореф. дис. канд. психол. наук. - М., 2007. – 28 с.
3. Мелников В.М., Ямполский Л.Т. Введение в экспери-менталную психологию личности. -М.: Просвещение. 1986. 319с.
4. Марищук В.Л. Перераспределение функционалных резервов в организме спортсмена как показател стресса. //Стресс и тревога в спорте. - М., 1994. - С. 58-73.
5. Апчел В.Й., Лимаренко В.М., Павлова Н.В., Леонтев О.В. Исторические аспекти изучения проблеми стресса. Вестник российской военно - медитсинской академии, 4(40) - 2012. с. 255-260
6. Ахмедова Х.Б. Изменения личности при посттравматическом стрессовом расстройстве (по данним обследования мирного населения, пережившего военние действия). авторефер. дисс. доктора психол. наук.: 19.00.04 - М. – 2004
7. Бадмаева Д.Г. Саморегулятсия активности личности в стрессових ситуасиях (на примере екзаменасионного стресса). авторефер. дисс. канд. психол. наук.: 19.00.01 - Красноярск - 20071.
8. Boymirzayeva D.D. Oliy o‘quv yurtlari talabalarida frustrasiyaning namoyon bolishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) disser. avtoref.: 19.00.05. Toshkent – 2021
9. Butayeva U.A. Psixologik yetuklikning ijtimoiy-psixologik asoslari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) disser. avtoref.: 19.00.01. - Toshkent – 2019
10. Винокуров А.И. Взаимосвязь личностных и индивидных характеристик человека: Автореф.дис. ...канд. психол. наук. -СПб., 1996. -23 с.
11. Гушин Д.М. Акмеологическая профилактика стресс-фрустрасионних состояний спетсиалистов спетсподразделений. авторефер. дисс. канд. психол. наук.: 05.26.02; 19.00.13 -М.- 2013

Ruziyev Nodirbek Ikromovich
O‘zbekidton Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti psixologik xizmat boshlig‘i

HARBIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARIDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahonda harbiy ta’lim tizimini isloh qilish, unga nisbatan innovatsion yondashuvlarni tahlil qilish va harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida so’z boradi. Bundan tashqari harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish borasida ilmiy adabiyotlar tahlili olib borilgan.*

Kalit so’zlar: *kommunikatsiya, muloqot madaniyati, intelekt, individuallik, psixologik xususiyatlar, innovatsion yondashuv, taktik tayyorgarlik, harbiy vatanparvarlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ У КУРСАНТОВ ВОЕННО-УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматривается реформирование системы военного образования в мире, анализ инновационных подходов к ней и социально-психологические особенности формирования культуры общения у курсантов военно-учебных заведений. Кроме того, проведен анализ научной литературы по формированию культуры общения у курсантов военно-учебных заведений.*

Ключевые слова: *коммуникация, культура общения, интеллект, индивидуальность, психологические особенности, инновационный подход, тактическая подготовка, военный патриотизм.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF A CULTURE OF COMMUNICATION IN CADETS OF MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. *This article will talk about the reform of the military education system in the world, the analysis of innovative approaches to it and the socio-psychological features of the formation of a culture of communication in cadets of military educational institutions. In addition, the cadets of military educational institutions carried out an analysis of scientific literature on the formation of a culture of communication.*

Key words: *communication, communication culture, intelligence, individuality, psychological characteristics, innovative approach, tactical training, military patriotism.*

Kirish. Jahonda harbiy ta’lim tizimini isloh qilish, unga innovatsion yondashuvlarni olib kirish bilan birga talaba-kursantlarni tayyorlashning modernizatsion metodikasini ishlab chiqish, ularning jangovarlik ruhiyatini oshirish, jismoniy irodasini mustahkamlash va taktik tayyorgarligini rivojlantirishga doir harbiy-pedagogik mashg'ulotlarni isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda talaba kursantlarda jangovar ruhni oshirish, jismoniy tarbiyaga doir ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari, taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga doir konsepsiyalar qabul qilingan. Shu bilan birga, chaqiriqqacha harbiy ta’lim tizimini isloh qilish orqali yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ulardagi Vatan oldidagi xizmatlariga doir mas’uliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan jamoatchilik ishlari, ijtimoiy harakatlar va pedagogik ilmiy tadqiqotlar ham rag'batlantirilmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va xalqaro institutlarida yoshlarda va kursant-talabalarda jangovarlik ruhiyati, jismoniy imkoniyatlari, taktik tayyorgarligi va harbiy bilimlarni rivojlantirish, shu bilan birga fidoyi, bilim va tajribasini Vatanga baxshida etuvchi avlodni shakllantirishga doir ko'plab loyihalar, dasturlar va fundamental ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu orqali harbiy xizmatchilarda jismoniy-taktik tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari va ta’lim texnologiyasini ishlab chiqishga keng yo'l ochmoqda. Shu bois, rivojlangan mamlakatlarda harbiy ta’limni zamonaviylashtirish, kursant-talabalarda zamon ruhiyatiga xos ko'nikmalarni, harbiy-taktik tayyorgarligini oshirish, jismoniy tayyorgarligi va irodasini chiniqtirish, ularning xalqaro harbiy munosabatlarga oid teran tafakkurini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi 406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati tog’risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 30-avgustdagi 105-1-sonli

“O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi” to'g'risidagi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 12-dekabrdagi PQ-436-II-sonli ”Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida”gi farmonlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish, jismoniy madaniyatni, jismoniy tayyorgarlikni, jangavor ruhiyatni va taktik bilimlarni oshirishga doir tadqiqotlarni olib borgan olimlar qatoriga R.Hamroqulov O.Musurmonova, Sh.Sharipov, J.Yo'ldoshev, U.Begimqulov, A.Abduqodirov, O'.Tolipov, A.Abdullayev, Sh.Xankeldiyev, A.Atayev, F.Kerimov, I.Koshbaxtiyev, R.Salomov, A.Xasanov, S.Uraimov, X.Xaydaraliyevlarni kiritish mumkin.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.K.Brudnov, I.Ridanova, Y.Kruglova, A.A.Gubaydullin, O.E.Lebedev, V.K.Tagirov, N.A.Fedotova, L.P.Matveyev, V.Ilinicha, O.Fadayeva, V.Medvedovlar tomonidan harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish, taktik tayyorgarlik, harbiy vatanparvarlik va jismoniy tarbiya va salomatlik masalalari o'rganilgan. G'arbda pedagog olimlardan A.L.Spivak, I.A.Yanyuk, Y.L.Sun, S.Samiy, S.Mahmudiy va Y.Kochlar tomonidan harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish, jismoniy tarbiya va tayyorgarlik, salomatlikni mustahkamlash va jismoniy-ruhiy irodani chiniqtirishga doir tadqiqot ishlarini olib borilgan. Biroq, chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo'nalishi kursantlarida jismoniy-taktik tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari maxsus tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan. Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda, chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo'nalishi talabalarida jismoniy-taktik tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni, tashkiliy-pedagogik jihatlarini ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga keladi.

Mamlakatimiz olimlaridan A.Abduqodirov, N.B.Azimov, Sh.R.Barotov, P.S. Ergashev, A.M.Jabborov, G.N.Ibragimova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.S.Safoyev, G‘.B.Shoumarov, O‘.B.Shamsiev, X.E.Usmanova, E.G‘.G‘oziyev, F.A.Choriyev va boshqalar shaxsdagi kommunikativ kompetenlikni rivojlantirish bo‘yicha muayyan darajadagi tadqiqotlar olib borilgan.

Tahlil va natijalar. Harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muhim kategoriyalardan biri muloqot psixologiyasidir. Aynan «Men – Sen», «Men – Biz», «Biz – Ular» formulalari asosida kechadigan muloqot jarayonida shaxsning xususiyatlari, holati va xarakteri namoyon bo‘ladi. Samarali, ishchan muloqotni yuqori darajada ta’minlash uchun kishilar chuqur psixologik bilimlarga asoslangan zamonaviy muomala texnologiyalaridan foydalanishni o‘zlashtirishlari lozimdir.

Muloqot jarayonida sheriklar orasida, masalan, o‘zaro munosabatga kirishuvchi tomonlardan birining shaxsiy mavqeiga nisbatan hurmatsiz munosabat tufayli turli qarama – qarshiliklar va hatto jiddiy ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Yoki u yoki bu axborotni uzatish jarayonida so‘zdan ehtiyotsizlik, no‘noqlik bilan foydalanish oqibatida axborotlarda muhim darajadagi yo‘qotishlarga yo‘l qo‘yilishi xizmat vazifalarini bajarishda jiddiy xatoliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi holatlar paydo bo‘lmasligi uchun maxsus muloqot texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganish talab etiladi.

Harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish muloqot psixologiyasida qo‘llaniladigan kategoriyalardan yana biri mehnat guruhi psixologiyasidir.

Bugungi kunda kooperatsiyalarsiz, ya’ni bir necha yoki ko‘plab kishilarning xatti-harakatlarini umumlashtirmasdan, uyushtirmasdan turib, ishchan faollik haqida gapirish mumkin emas. O‘z navbatida samarali kooperatsiya mehnat jarayoni qatnashchilarining barchasi uchun umumiy bo‘lgan xatti-harakat va xulq-atvor qoidalarini qabul qilinishini taqozo etadi. Shuning uchun har qanday guruhning shakllanishi jarayonida guruhiy maqsadlar, ehtiyojlar, manfaatlar, guruhiy normalar, guruhiy ong, axloqiy psixologik hodisalarga ehtiyoj tug‘iladi.

Insoniy faollikning ajralmas sifatlaridan yana biri uyushganlik va tartiblilikdir. Faollikni tartibga soluvchi axloqiy qoidalar va me’yorlar inson hayotini, uning farovonligini saqlash va ta’minlashga yo‘naltirilgandir.

Harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish axloqiy – etik me’yorlar inson faolligining barcha shakllarini qamrab oladi, ular universaldir, ammo har bir sohada ushbu yozilmagan qonunlar o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Bunday qoidalar to‘plami odatda professional etika deb ataladi. Azaldan tibbiyot xodimlari, o‘qituvchilar va boshqa kasb egalari uchun axloqiy qoidalar to‘plami mavjud.

Harbiy ta'limda professional etikaning muhim shakllaridan birini muloqot etikasi tashkil etadi, chunki, uning zamiridagi bosh omil inson omilidir.

Shaxslararo munosabatlardagi egoizm nafaqat munosabatlarga ziyon yetkazadi, balki ularni butunlay izdan chiqaradi. Shuning uchun munosabatlarni doimiy ichki nazorat mexanizmi vositasida axloqiy – etik me'yorlar asosida qurish muhimdir. Ishchan muloqot etikasi oxir – oqibatda o'zaro hamkorlikka sharoit yaratuvchi sheriklarning axloqiy qoidalar va me'yorlarga mos xatti-harakatlariga asoslanishi kerak.

G.M.Andreevaning fikriga ko'ra, har qanday sohada muomalaning eng muhim birligi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanchalik ahamiyat kasb etsa, u ham muomalada xuddi shunday muhim rol o'ynaydi. Muomala hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keluvchi, shaxslararo muloqot rivojining ko'p qirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi fanida e'tirof etilganidek, harbiy ta'lim kursandlarida muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo'ladi.

1. Kommunikativ (asosan bir tomonlama) axborot uzatish.
2. Interaktiv (ikki tomonlama o'zaro ta'sir).
3. Perseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilish).

Harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilaridan o'zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo'lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bo'lmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar.

2. Muomalaning ikkinchi tomoni muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki xatti-harakati va xulq-atvori bilan ham ta'sir o'tkazish hamda ta'sirlanishdan iboratdir.

3. Muomalaning uchinchi tomoni shundan iboratki, bunda muloqotga kiruvchilarning (muloqotdoshlarning) o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayonida namoyon bo'ladi, insonning inson tomonidan idrok qilishi yuzaga keladi. Bu jarayonning eng zarur tomoni unda muloqotga kirishuvchi sheriklarning biri aqlli, farosatli, tajribali, saviyasi yuqori inson sifatida ikkinchisining ishonchini qozonganligi uchun uni idrok qilish juda muhim ekanligi anglanadi yoki bir-birlarini oldindan u bari bir hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotni fahmlay olmaydi, degan taxminga suyangan ruhiy holat vujudga keladi [2].

Kursandlarda kommunikativ muloqotning asosiy xususiyatlari quyidagilarda o'zi fodasini topadi:

1) hamkorlikdagi faoliyat jarayonida shaxslararo o'zaro ta'sir va muloqot qonuniyatlarini o'rganish;

2) Sharq allomalarining muloqot haqidagi qarashlarini tahlil qilish;

3) kursandni faollikka undovchi muomalaviy imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlab o'tish;

4) kursandlarda kasbiy layoqatni faollashtirishga qaratilgan muloqotni shakllantirish;

5) shaxslararo munosabatlami muvofiqlashtirishda muloqotning rolini orttirish;

6) o'zaro ta'sir etishning ayrim oqibatlarini hisobga olish. Bundan tashqari muloqotning inson ijtimoiy hayotida bajaradigan vazifalari (funksiya) ham mavjud.

L.A.Karpenko taklif etgan tasnifga ko'ra muloqotning quyidagi vazifalari ajratiladi:

- aloqa o'rnatish vazifasi - suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash;
- informatsion vazifa - suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar va rejalami almashish;
- faoliyatga undash - suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish (rag'batlantirish);
- koordinatsion vazifa - suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdagi harakatlarni muvofiqlashtirish;
- tushunishni ta'minlash vazifasi - suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;
- amotiv vazifa - suhbatdoshda muayyan hissiyotlami uyg'otish hamda ularni o'zgartirish;
- munosabat o'rnatish vazifasi - munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rinni, mavqeni aniqlash;
- ta'sir ko'rsatish vazifasi - suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o'zgar-tirish.

Harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida kommunikativ kompetentligi quyidagi shaxs sifatlarini o'z ichiga oladi:

- turli muloqot qatnashchilari bilan emotsional aloqalar o'rnata olish qobiliyati, ular bilan zaruriy chegarada ishonchli munosabatlarni o'rnatish va uni ta'minlash;

- suhbatdoshning ichki dunyosini, uning psixologik o‘ziga xos tomonlarini, ehtiyojlari, xatti-harakat motivlari, psixik holatlarini seza olish va tushunish qobiliyati;
- insonlarga nisbatan xushmuomala va do‘stona munosabat, dialog qatnashchisini eshitish qobiliyati, suhbatdosh kechinmalariga emotsional munosabat bildira olish qobiliyati;
- muloqotning verbal va noverbal vositalaridan foydalanish malaka va ko‘nikmalarini egallash;
- ziddiyatli vaziyatlarida kommunikativ xatti-harakat strategiyalaridan samarali foydalana olish, sharoitdan kelib chiqqan holda muomala shaklini o‘zgartira olish malakasi;
- hamkorlik, kompromiss va kelishuvlarga qobiliyatlilik;
- ekstremal vaziyatlarda o‘z emotsiyalari, kayfiyatini nazorat qila olish qobiliyatining rivojlanganligi;
- o‘ziga bo‘lgan bahoning adekvatligi;
- yumorni tushunish qobiliyati.

Xulosa. Harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish shaxslararo munosabatlar mavzusining sharq mutafakkirlari, xorij va o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha olimlar mazkur masalaning kishilik jamiyati uchun ahamiyati g‘oyatda yuqori ekanligini e’tirof etishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Ch.R.Nasriddinov «Harbiy psixologiya» Fan nashriyoti, Toshkent 2004
2. A.Sotib-Oldiev «Harbiy pedagogika» Sharq nashriyoti, Toshkent 2009 y.
3. Barotov SH.R, Avezov O.R « Psixologiya nazariyasi va tarixi» Durdona nashriyoti. Buxoro 2019.
4. Исоқов А.А. Академик лицей ўқувчиларининг инглиз тилида грамматик кўникмаларини такомиллаштириш технологиялари: Пед. фан. ном. дисс. – Т., 2008. – 160 б.
5. Мўминова Ф.М. Инглиз тилини уқитишда замонавий инновацион технологиялардан фойдаланиш // Молодой ученый. –2020. −№ 18. 590 –592 б.
6. Simon Gill. Michaela Cankova. Oxford basics. Intercultural activities. Oxford university press. 2002. – 65 pages.

Kudratova Lola Ravshanovna
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti “Amaliy psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi,
“Salam school” Xalqaro nodavlat ta’lim muassasasi psixologi

UYUSHMAGAN YOSHLAR IJTIMOIY PSIXOLOGIK PORTRETINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari ustida fikrlar yoritilgan, turli yechimlar keltirib o’tilgan. Shaxs shakllanishida ta’sir etadigan turli omillar psixologik tahlil etiladi. Ijtimoiy qatlam orasida alohida yondashuv va e’tibor talab etadigan uyushmagan yoshlash bilan ishlashda ularning qiziqish, hamda qobiliyatini aniqlash, rivojlantirish orqali ijobiy tomonga o’zgartirish mumkin deb hisoblaymiz.*

Kalit so’zlar: *Shaxs, qobiliyat, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy tajriba, xulq-atvor, uyushmagan yoshlar*

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE SOCIAL PSYCHOLOGICAL PORTRAIT OF UNORGANIZED YOUTHS

Annotation*. This article sheds light on the socio-psychological problems of unorganized youth and provides various solutions. Various factors affecting personality formation are analyzed psychologically. We believe that it is possible to change in a positive direction by identifying and developing their interest and abilities in working with unorganized youth, which is a special approach among the social strata.*

Key words: *Personality, ability, education, social experience, behavior, unorganized youth*

ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПОРТРЕТА НЕОРГАНИЗОВАННОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В статье освещаются социально-психологические проблемы неорганизованной молодежи и предлагаются различные пути их решения. Психологически анализируются различные факторы, влияющие на формирование личности. Мы считаем, что можно измениться в положительную сторону, выявляя и развивая их интерес и способности к работе с неорганизованной молодежью, что является особым подходом среди социальных слоев.*

Ключевые слова: *Личность, способность, образование, социальный опыт, поведение, неорганизованная молодежь*

Kirish. Xuddi Senat va Qonunchilik palatasidagi kabi, yoshlar parlamenti vakillari maktabi tashkil etiladi. Shuningdek, iqtidorli yoshlar orasidan yangi avlod zaxira kadrlari –**“Kelajak liderlari”**ni shakllantiramiz.[1] Ko’rinib turibdiki, yoshlar masalasi O’zbekistonda Prezident e’tiboridagi siyosiy va o’ta dolzarb masala bo’lib sanaladi. Har qanday shaxs dunyoga kelar ekan u aynan biror bir ijtimoiy guruhda voyaga yetadi, o’sib unadi, tarbiyaladi, ma’naviy-madaniy tajribalarni o’zlashtiradi. Uning qanday kamol topishi esa u yashayotgan jamiyatning ijtimoiy-psixologik muhitiga ham bog’liq bo’ladi. Bir chaqaloq umri davomida turli yosh davrlarida yashab o’tar ekan, ushbu davrlarda u o’zini atrofga namoyon etib boradi. Kimdur komil shaxs sifatida, kimdir esa turli muammolar bilan o’zida har xil pozitsiyalar aks ettiradi, ijtimoiy rollarda yashab o’tadi va o’zligini shakllantiradi. Shaxs hayoti davomida orttirgan ijtimoiy tajribasiga asoslanib unda qadriyatlar tizimi ham u, bu hayotiy me’yorlar o’zlashtirilib oladi. Atrof muhit ta’sirida o’zi o’sib ulg’aygan va shaxs sifatida kamol topgan ijtimoiy muhitga nisbatan turlicha munosabat bildira boshlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Individning shaxs sifatida o‘z mo‘ljalini yo‘qotib qo‘yishi uni halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Natijada unda hamma narsaga ishonchsizlik, negativizm, boshqa odamlar taqdiriga beparvolik, hayosizlik, madaniyatsizlik va hokazo illatlar namoyon bo‘lishi hech gap emas.[2] Shaxs shakllanishida eng muhim poydevor oila ekanligi hammamizga a’yon. Oilaviy tarbiyaning to’g’ri yo’lga qo’yilishi, tartib-intizom muammolari uning huquqiy vazifalarini belgilaydi. Bunda, eng muhimi, oilaning har bir a’zosiga ichki intizom madaniyati, o’z burchi va mas’uliyatini anglashi bilan birga, oilaviy munosabatlarni hurmat qila bilishi, oilaning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish yuritishi, oila manfaatdorligini ta’minlashga intilishi, oila sha’nini sharaflashi lozim bo’ladi. Shu tariqa hukumat doirasida oilaning jamiyatda tutgan o’rniga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Uyushmagan yoshlarning jamiyatda qanday yuzaga kelishi, shakllanishi haqida ilmiy tadqiqodlarda turlicha qarashlarni uchratishimiz mumkin. Shaxsda ustanovka va qiziqishlarning shakllanishi va ularning

barqaror, doimiy tus olishi xilma-xil omillar, komponentlarga bog'liq bo'ladi. Xususan, bolalar va o'smirlarda shaxsiy, qat'iy ijtimoiy maqsad va yo'nalishlarning shakllanmaganligi hamda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ichki motivlarga ega bo'lish va bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy zararli, ham ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanish va boshqalar g'ayriijtimoiy va g'ayriaxloqiy ustanovkalar va qiziqishlarning shakllanishiga hamda uning doimiy tus olishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, qiziqishlar ijtimoiy va psixologik mazmunga ega bo'lib, ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayoni mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Qiziqish ijtimoiy muhit shart-sharoitida jamoada, ijtimoiy munosabatlarda shakllanadi hamda u shaxs xohish-irodasi va ongiga bog'liq bo'lmagan holda ehtiyojlarni qondirish maqsadida muayyan obyektga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu qiziqishning obyektiv mazmunga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, qiziqishning sub'ektiv asosi ham mavjud bo'lib, u kishi faoliyatini yo'naltiruvchi, undovchi motiv sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, qiziqish nafaqat mazmun jihatdan, balki namoyon bo'lish shakli bo'yicha ham shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi[3] Yosh avlodning shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi jamiyat tomonidan belgilangan odob-axloq, xulq me'yorlariga mos bo'lishi ularning komil inson bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uyushmagan yoshlar xulq-atvorida jamiyatning shaxsga qo'yadigan ijtimoiy-psixologik, axloqiy talab va normalariga nisbatan bo'ysunmaslik, qarshi chiqish holatlari ko'p kuzatiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirda respublikamizda ham jinoyat sodir etganlarning har to'rttadan bittasini ishsiz shaxslar tashkil etadi[4] Kriminologlarning fikricha, ishsizlikning 10 %ga ko'payishi jinoyatchilikning 3,4–6,5 % o'sishiga olib keladi[5] Uyushmagan yoshlar muammosini bartaraf etishda jtimoiy-psixologik omillari chuqur o'rganilib, shundan so'ng puxta yechim ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Uyushmagan yoshlar o'z ortidan yetaklab kelayongan fiziologik,genetik, ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-psixologik buzilishlar insoniyat uchun chuqur jarohat yetkazishi mumkin. Kelajak avlod uchun ijtimoiy havotir uyg'otishi hech gap emas. To'g'ri yechim bilan esa bu qatlamdan ko'p ijobiy yutuqlar kutishimiz ham mumkin.

Xulosa Uyushmagan yoshlarning ongi, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlari hamda shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi faoliyat turlariga jalb etish, o'z iqtidori va qobiliyatini ko'rsatishga yo'l ochib berish, ijtimoiy-psixologik qo'llab quvvatlash juda muhimdir. Ya'ni, yoshlarni o'z xalqi va Vataniga sadoqatli qilib tarbiyalash, yoshlarda falsafiy dunyoqarash, o'zini-o'zi idora va nazorat qilish sifatlarini shakllantirish, o'z shaxsiy hayotiga maqsadli yondashuv hissini uyg'otish, ularga reja va amal birligida harakat qilishni o'rgatish kerak.Shunda ularda g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga nisbatan ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiyaviy masalalar amalga oshiriladi. Uyushmagan yoshlarning imkoniyatlari ijobiy tomonga yo'naltirilganda u katta kuchga aylanishi, jamiyat uchun foydali bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-iyun kuni O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida so'zlagan nutqidan

2. Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. (Монография) – Т., 2008. –34-б.

3. Умаров Б.М. Тарбияси оғир болалар келиб чиқишининг ижтимоий психологик сабаблари. // «Педагогик таълим» журнали, Т., 2011, 2-сон. -24-27- б.

4. Тартиб-интизом ва масъулиятни кучайтириш, жиноятчиликнинг олдини олиш муҳитини мустаҳкамлаш – ҳуқуқбузарликлар профилактикаси самарадорлигининг асосий омилидир // Постда. – 2017. – 18 нояб.

5. Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари: Монография. – Т., 2005. – Б. 80

Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o‘g‘li
Alfraganus universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: raimdjanovmirkarim@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-0896-393X

SHAXS KOMMUNIKATIV XULQ-ATVORINING INTERNET TARMOG‘IDA NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. *Ilmiy maqolada Shaxs kommunikativ xulq-atvorining internet tarmog‘ida namoyon bo‘lishi yuzasidan empirik ma’lumotlar tahlili berilgan bo‘lib, bundan tashqari natijalar tahlili statistik xulosalar bilan izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *Internet, virtual olam, ijtimoiy tarmoq, kommunikativ xulq-atvor, ta’lim jarayoni.*

РЕФЛЕКСИЯ ЛИЧНОСТИ КОММУНИКАТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В СЕТИ ИНТЕРНЕТ

Аннотация. *В научной статье представлен анализ эмпирических данных о проявлении коммуникативного поведения личности в сети Интернет, кроме того, анализ результатов сопровождается статистическими выводами.*

Ключевые слова: *Интернет, виртуальный мир, социальная сеть, коммуникативное поведение, образовательный процесс.*

REFLECTION OF PERSONAL COMMUNICATIVE BEHAVIOR ON THE INTERNET NETWORK

Annotation. *The scientific article provides an analysis of empirical data on the manifestation of personality communicative behavior on the internet network, in addition, the analysis of the results was explained by statics conclusions.*


Keywords: *Internet, virtual world, social network, communicative behavior, educational process.*

Kirish. Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan asosiy muammo internet tarmog‘ida shaxs kommunikativ xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bundan ko‘zlangan maqsad asosida talabalar shaxsida internet tarmog‘ida kommunikativ xulq-atvor shakllarining namoyon bo‘lish darajalari o‘rganiladi.

Asosiy qism. Shaxsda internetdagi kommunikativ xulq-atvor shakllanishiga qaratilgan diagnostika ishimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi. Mazkur so‘rovnomada internetdan foydalanishning turli ko‘rinishlariga munosabatni tavsiflovchi holatlar keltirilgan bo‘lib, virtual olamga sarflanadigan vaqt, internetning ta’lim jarayoniga ta’siri, uning mohiyati va qo‘llanilish maqsadlari bo‘yicha sinaluvchilarning munosabatlarini o‘rganish mumkin. Tadqiqot so‘rovnomasi respondentlar guruhida o‘tkazilib, to‘plangan ma’lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda jadval va diagrammalarda aks ettirildi.

Keltirilgan ko‘rsatkichlar talabalarning virtual olamdan qancha fursat foydalanishlarini aniqlash maqsadida «Internet uchun kuniga qancha vaqt sarflaysiz?» deya berilgan savolning javoblaridan olingan. Mazkur natijalarga ko‘ra, sinaluvchilarning 7,8%i kun davomida yarim soatgacha, 4,6%i bir soatgacha, 18,7%i bir soatdan ikki soatgacha internetga vaqt sarflashlarini ta’kidlashgan. Ushbu ko‘rsatkichlardan anglash mumkinki, respondentlar virtual dunyo uchun sutka davomida turlicha vaqt sarflashadi, bunda asosan kamroq vaqt ajratadiganlarga qaraganda bir necha soat mobaynida ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazadiganlar soni ko‘pchilikni tashkil etadi.


Shuningdek, talabalarning 29,2%i 2 soatdan 4 soatgacha, 16,4%i 4 soatdan 6 soatgacha, 13,7%i 6 soatdan ko‘proq vaqt mobaynida interga tashrif buyurishi, 9%i aniq javob bera olmasligi aniqlandi. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, respondentlarda virtual olamga vaqt sarflash bir kun davomida 2-4 soatni tashkil etishi ko‘proq uchraydi. Ushbu davr mobaynida ular internetda turli saytlarga kirish, ijtimoiy tarmoqlarda do‘stlar bilan muloqot qilish, o‘zaro ma’lumot almashish, qidiruv tizimlarida kerakli axborotlarni izlash va shu kabi boshqa maqsadlarni amalga oshirishlari mumkin.



1-rasm. Respondentlarda internetdan foydalanishga sarflanadigan vaqtning ifodalanishi (N=600)

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlardan ta’kidlash joizki, respondentlarning internet tarmog‘idan foydalanish davomiyligi bir-biridan farq qilib, turli vaqt mobaynida virtual olamdan foydalanishlari ma’lum bo‘ldi. Xususan, ular orasida 2 soatdan 4 soatgacha fursatda global tarmoqqa tashrif buyurish holatlari yetakchi o‘rinda turadi.

Tadqiqot davomida talabalarning internetdan muntazam ravishda foydalanishi ta’lim olish jarayoniga salbiy ta’sir qilishi va mazkur holatga nisbatan respondentlarning munosabatlarini o‘rganishga harakat qildik. Buning uchun ularga «Nima deb o‘ylaysiz, umuman Internet ta’lim olishga xalaqit qiladimi yoki yo‘qmi?» savoli bilan murojaat qilindi. Ushbu savolga sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda 2-rasmda aks ettirildi.



2-rasm. Internetning ta’lim jarayoniga ta’siri bo‘yicha bildirilgan munosabatlar (N=600)

2-rasmda aks ettirilgan natijalarga ko‘ra, sinaluvchilarning 7,7%i internet tarmoqlaridan muntazam ravishda foydalanish ta’lim jarayoniga to‘liq salbiy ta’sir qilishini ta’kidlab, «Ha, to‘la-to‘kis» javob

variantini tanlashgan. Mazkur koʻrsatkichlardan anglash mumkinki, ayrim talabalar virtual olamga berilish, asosiy vaqtni ijtimoiy tarmoqlarga sarflash bilim olishga toʻsiq boʻladi deb hisoblashadi.

Shu bilan birga, respondentlarning eng koʻp qismi, ya'ni 40,4%i «Koʻproq darajada ha» fikrini ma'qullab, global tarmoqlar ma'lum miqdorda xalal beruvchi omil deb hisoblashi ma'lum boʻldi. Natijalardan shuni qayd etish joizki, sinaluvchilar virtual dunyoga koʻp tashrif buyurish, turli saytlarda behuda vaqt ketkazish talabalarning oʻz ustida ishlash, koʻnikmalarini rivojlantirish jarayonlariga muayyan darajada salbiy ta'sir oʻtkazishini qayd etishgan.

Respondentlarning 24,1%i internetning ta'limiy jarayonlarga xalal berishi boʻyicha «Koʻproq darajada yoʻq» javob variantini tanlaganliklari aniqlandi. Bundan shuni qayd etish mumkinki, talabalar ilm olishi, oliy ta'lim muassasalarida berilayotgan mustaqil ta'lim topshiriqlari va vazifalarni erkin bajarishda internetdan foydalanish holatlari deyarli salbiy ta'sir qilmasligini oshkor etishgan.

Shu bilan birga, talabalarning 27,8%i internet tarmoqlarining ta'lim jarayonlariga mutlaqo toʻsiq boʻlmasligini bildirib, «Yoʻq, xalaqit qilmaydi» degan javob variantlarini berishgan. Natijalardan koʻrinib turibdiki, aksariyat sinaluvchilar global tarmoqlardan keng foydalanish, turli saytlarga tashrif buyurish, veb-sahifalarni doimiy kuzatib borish, oʻz vaqtini internetda kerakli va qiziqarli ishlarga sarflash holatlari shaxsning ta'lim olishiga, bilim va koʻnikmalarini rivojlantirishga toʻsqinlik qilolmasligini tasdiqlashgan.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ma'lum boʻladiki, respondentlar internet tarmoqlaridan muntazam ravishda foydalanish ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir qilishi boʻyicha turli munosabat bildirishadi. Shunga qaramasdan, sinaluvchilarning koʻpchilik qismi global tarmoqlar shaxsning ta'lim olishiga ma'lum miqdorda xalal beruvchi omil deb hisoblashini kuzatishimiz mumkin.

Tadqiqot davomida respondentlarning internet haqidagi tushunchalari va unga nisbatan bildiriladigan munosabatlar namoyon boʻlishini oʻrganishga harakat qildik. Buning uchun ularga «Internet siz uchun nimani anglatadi?» savoli bilan murojaat qilindi. Mazkur savolga sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda 3-jadvalda aks ettirildi.

3-jadval

Respondentlarda internet haqidagi tushuncha va tasavvurlarning namoyon boʻlishi (N=600)

№	Javob variantlari	Tanlovlar qiymati
1.	Internet men uchun yangi bilimlar olishga asosiy manba boʻlib qolmoqda, doimo meni qiziqtirayotgan savollar oqimida boʻlishga imkon beradi.	81,6%
2.	Internetda ishlayotgan vaqtda yangi muloqot doirasi paydo boʻladi	24,1%
3.	Internetning koʻngil ochish bobidagi imkoniyatlari dam olishga va kundalik ishlardan chalgʻishga yordam beradi	41,4%
4.	Internet men uchun axborot almashuvining qulay usuli xolos	52,9%
5.	Internet intellektual, kommunikativ va ijobiy qobiliyatlarni amalga oshirishga imkon beradi	30,7%
6.	Internetda ishlash ishbilarmonlik bobida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi	35,3%
7.	Internetda ishlayotganda, texnologik va axborot jihatidan eng ilgʻor boʻlgan hamjamiyatga aloqador ekanligingni his etasan	17,4%
8.	Internetda ishlayotgan vaqtda kerak boʻlmagan aloqalarning yuzaga kelishi muqarrar boʻladi	14,7%
9.	Internetda ishlash koʻp vaqtni oladi va ishlardan chalgʻitadi	46,3%
10.	Internet boʻyicha ayrim sheriklar mening doʻstimga aylanishdi	13,4%

11.	Internetda ishlash shaxsning mukammal bo‘lishiga yordam beradi	18,2%
12.	Internetda muloqot qilishda o‘z fikrimni bildirish va qaror qabul qilishda ishtirok etish men uchun muhim hisoblanadi.	15,8%
13.	Meni internetda anonim ishlash imkoniyati o‘ziga tortadi	9,9%
14.	Men uchun internetda yanada vakolatli foydalanuvchilaring yangi foydalanuvchilarga yordam bera olishi, ishbilarmonlik, hamkorlikni yangi pog‘onaga olib chiqishi muhim hisoblanadi	14,9%
15.	Internetda ishlash shunga olib keladiki, oddiy muloqot o‘zining jozibadorligini yo‘qotishga sabab bo‘ladi	19,5%
16.	Internet zamonaviy jamiyatda yuz beradigan vakolatli va xayrixohlik ruhidagi muloqot qilish borasidagi kamchiliklarning o‘rnini to‘ldirishga imkon beradi	15,5%
17.	Meni faqat tarmoqda muloqot qiziqtiradi	7,5%

Izoh: so‘rovnoma natijalarining 100% dan ortiqligi sinaluvchilarning bir qancha javob variantlarini tanlashi bilan bog‘liq

3-jadvalda berilgan natijalardan ma’lumki, sinaluvchilarning 81,6%i internet yangi bilimlar olishga asosiy manba bo‘lishi, doimo insonni qiziqtirayotgan savollar oqimida bo‘lishga imkon berishi, 24,1%i unda ishlayotgan vaqtda yangi muloqot doirasi paydo bo‘lishi, 41,4%i internetning ko‘ngil ochish bobidagi imkoniyatlari dam olishga va kundalik ishlardan chalg‘ishga yordam berishini qayd etishadi. Ularning fikricha, virtual olamdan foydalanish shaxsda ilgari ma’lum bo‘lmagan axborotlarni olish, qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishish, muloqot ko‘nikmalarining kengayishi, hayot muammolaridan chetlashish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Shuningdek, respondentlarning 52,9%i internet o‘zi uchun axborot almashuvining qulay usuli ekanligi, 30,7%i intellektual, kommunikativ va ijobiy qobiliyatlarni amalga oshirishga imkon berishi, 35,3%i internetda ishlash ishbilarmonlik bobida muvaffaqiyatga erishishga yordam berishini ta’kidlashadi. Bundan ko‘rinadiki, talabalarda internetdan keng foydalanish o‘quv faoliyatida kerakli ma’lumotlarni izlash, aqliy salohiyatini rivojlantirish, muloqot ko‘nikmalarini tarkib toptirish, yashirin layoqatlarini ro‘yobga chiqarishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Sinaluvchilarning 17,4%i internetda ishlayotganda texnologik va axborot jihatidan eng ilg‘or bo‘lgan hamjamiyatga aloqador ekanlikni his etishga yordam berishi, 14,7%i undan foydalanayotgan vaqtda kerak bo‘lmagan aloqalarning yuzaga kelishi muqarrar ekanligi, 46,3%i internetda ishlash ko‘p vaqtni olishi va ishlardan chalg‘itishini bildirishgan. Keltirilgan natijalardan ayon bo‘ladiki, ayrim talabalar virtual dunyoda vaqtni sarlash mobaynida o‘zini zamonaviy jamiyat a’zosi sifatida his qiladi, shunga qaramasdan, aksariyat sinaluvchilar internetning salbiy tomonlariga ham urg‘u berib, internetda ishlash natijasida behuda vaqt sarflanishi, asosiy va rejalashtirilgan ishlarning qolib ketishi holatlari kuzatilishi mumkin deb hisoblashlari tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldi.

Shu bilan bir qatorda, respondentlarning 13,4%i internetda ayrim sheriklar ularning do‘stiga aylanishi, 18,2%i virtual olam shaxsning mukammal bo‘lishiga yordam berishi, 15,8%i unda muloqot qilishda o‘z fikrini bildirish va qaror qabul qilishda ishtirok etish o‘zi uchun muhim ekanligi, 9,9%i anonim ishlash imkoniyatining o‘ziga tortishi kabi jihatlarni global tarmoqning afzallik tomonlari sifatida qayd etishlari aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, turli saytlarda tanishgan insonlar bilan qadron bo‘lib qolish, veb-sahifalardagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish orqali subyekt rivojlanishi, onlayn muhokamalarda fikr bildirish, o‘z shaxsni yashirish imkoniyatiga ega bo‘lish kabi omillar internet olamining ijobiy tomonlari sifatida talabalar tomonidan idrok qilinishiga olib keladi.

Sinaluvchilarning 14,9%i uchun internetda yanada vakolatli foydalanuvchilarning yangi foydalanuvchilarga yordam bera olishi, ishbilarmonlik, hamkorlikni yangi pog‘onaga olib chiqishi muhim hisoblanadi. 19,5% respondentlar internetda ishlash oddiy muloqotning jozibadorligini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi deb hisoblasa, 15,5%i virtual dunyo zamonaviy jamiyatda yuz beradigan vakolatli va xayrixohlik ruhida muloqot qilish borasidagi kamchiliklarning o‘rnini to‘ldirishga imkon beradi deya fikr yuritishadi. Respondentlarning 7,5%i esa ularni faqat tarmoqda muloqot qiziqtirishini

qayd etishgan. Mazkur natijalardan shu narsa ayon bo‘ladiki, ayrim talabalar fikricha, internet insonlarning turli tarmoqlarda bir-birini qo‘llab-quvvatlashiga imkon berishi, ijobiy hamkorlikni yuzaga keltirishi bilan birga, jonli muloqotning rivojlanishiga to‘siq bo‘lishi ham mumkin.

Yuqorida keltirilgan natijalardan ma’lum bo‘ladiki, respondentlarda internet haqidagi tushunchalar va unga nisbatan bildiriladigan munosabatlar namoyon bo‘lishi bir-biridan farq qiladi, ayniqsa, internet yangi bilimlar olishga asosiy manba bo‘lishi, doimo insonni qiziqtirayotgan savollar oqimida bo‘lishga imkon berishi boshqa jihatlarga qaraganda ko‘proq yetakchi o‘rin tutadi.

Tadqiqot davomida respondentlarning internet tarmog‘idan foydalanish jarayonidagi asosiy motiv va maqsadlari o‘rganildi. Shu nuqtayi nazardan ularga «Internetdan qanday maqsadlarda foydalanasiz, asosiy motiv nimadan iborat?» degan savol bilan murojaat qilindi. Mazkur savolga sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda 4-jadvalda aks ettirildi.

4-jadval

Respondentlarning internet tarmog‘idan foydalanishdagi maqsad va motivlari bo‘yicha bildirgan munosabatlari tahlili (N=600)

№	Maqsad turlari	Tanlovlar qiymati
1.	Axborot olish maqsadida (shou-biznes, sport, jahon va mamlakatimiz yangiliklari)	73,5%
2.	Do‘stlar bilan muloqot qilish (yoki tanishish) uchun	46,5%
3.	Ko‘ngilochar saytlarga kirish uchun	21,1%
4.	Fan mavzularini o‘zlashtirish uchun	66,0%
5.	Musiqa, kino va seriallar yuklab olish uchun	62,6%
6.	Internetdan kiyim-kechak xarid qilish uchun	49,7%
7.	Elektron pochta orqali kerakli ma’lumotlar olish va jo‘natish uchun	23,8%
8.	Elektron kitoblarni o‘qish uchun (badiiy yoki fanga oid)	60,9%
9.	Eng oxirgi yangiliklardan xabardor bo‘lish uchun	49,5%
10.	Ish qidirish uchun	14,4%
11.	Ko‘pchilik singari shunchaki zamonaviylikni ko‘rsatish uchun	7,5%
12.	Saytlar orqali guruhlarga a’zo bo‘lish uchun (guruhlar orqali muloqot qilish uchun)	6,4%
13.	Pornografik saytlarga kirish uchun	1,1%
14.	Internet o‘yinlarini o‘ynash uchun	5,9%
15.	Boshqa maqsadlarda	5,4%

Izoh: so‘rovnoma natijalarining 100% dan ortiqligi sinaluvchilarning bir qancha javob variantlarini tanlashi bilan bog‘liq

Intuitsiya - bu sezgi hisoblanib, to'g'ridan-to'gri batafsil mulohazalarga murojaat qilmasdan, murakkab savollarga javob topish, haqiqatni tushunish, bu haqida tahmin qilish qobilyati hisoblanadi. Intuitsiya yana bu qat'iy fikrlash zanjirlari bilan yuklanmagan "aqliy sakrash" hisoblanadi. U to'satdan anglash, tahmin qilish, tushunish bilan ajralib turadi va shaxsning ekstrapolyatsiya qilish, bilimlarni yangi vaziyatlarga o'tkazish qobilyati, uning intellektning plastikliligi bilan bog'liq hisoblanadi. Ammo bu "aqliy sakrash" faqat yuqori darajadagi tajriba va kasbiy bilimlarni umumlashtirish bilan mumkin hisoblanadi. Shu o'rinda ijodiy xayolning murakkab ko'rinishi mavjud bo'lib, uni ijodiy tafakkur sifatida o'rganamiz.

Ijodiy fikrlashning barcha bosqichlari o'zaro bog'liq bo'lib, izchil amalga oshirish bajarilgan ish jarayonida eng yaxshi natijaga erishishga yordam beradi.

L.S.Vigotskiy o'z tadqiqotlarida yozadiki: "Ijodiy tassavur faoliyati juda murakkab bo'lib hisoblanadi va bir qator juda xilma hil omillarga bog'liq. Maktabgacha yosh davri tadqiqotlar uchun eng qiyin davr hisoblanadi, chunki bu yoshdagi bolalar kattalar ulardan nimani xohlashini aniq bilishi shakllanmagan bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'sishning salbiy tomonlari ko'pincha o'jarlik, itoatsizlik, tortishuvlar, injiqlik va boshqalar namoyon bo'ladi, bularning barchasi tadqiqot natijalariga ta'sir qilishi mumkin.

Xulosa. Mavzuni o'rganish davomida hamda tadqiqotdan olingan natijalarga ko'ra, biz bolalarda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ertaroq ahamiyat berishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, bola atrof muhitni o'zining xayoli, tasavvuri orqali anglaydi, o'rganadi, unga ma'lum nisbatda reaksiya bildiradi. Yana shunday jihati ham ahamiyatliki, bolaning kelajakdagi oladigan tajribalari, qanday yutuqlarga erishishi va o'z hayotini ta'minlay olishi ham shu aspektlarga bog'liq hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi ta'lim muassasalarida ijodiy yo'nalishdagi, mashg'ulot va ishlarni, ko'rgazmalarni tashkillashtirishga e'tibor qaratish ham ijobiy natija beradi. Shu o'rinda, bolani uydagi faoliyati ham ta'siri bo'lganligi uchun, ota-onalar bilan ham ishlash samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Пономарев Я.А. Психология творческого мышления. -М. Просвещение, 1960, -167с.
2. Грошева И.В., Евстафьевна Л.Г., Mahmudova D.T., Nabihanova Sh. B., Пак С.В., Джанпеисова Г.Э., Isxakova M.R “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o’quv dasturi. Toshkent 2018
3. Haydarov F.I., Halilova N.I., “Umumiy psixologiya” Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU. -2010.
4. Дьяченко О.М “Развитие воображения дошкольника” Методическое пособие для воспитателей и родителей. Москва. Мозайка-Синтез. 2007.
5. Реан А.А “Психология ребенка” от рождения до 11лет Методики и тесты.
6. https://www.dissercat.com.

Barotov Xumoyin Sharifovich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARI KASBIY KAMOLOTIDA SOTSIAL-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy mahorati va psixologik kompetenligining o‘zaro aloqadorlik masalasi o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar: *sotsial intellekt, kasbiy kompetentlik, kasbiy mahorat, kasbiy pozitsiya, kognitiv, emotsionallik, sotsial moslashuvchanlik, koskom-2.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В этой стате обсуждается взаимосвяз между профессионализмом и психологические компетентностю медитсинского персонала.*

Клучевые слова: *социалний интеллект, профессионалная компетентност, профессионалные навики, профессионалное положение, познавателная, эмоционалная, социалная гибкост, коском-2.*

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Annotation. *This article discusses the relationship between, professionalism, and the competence of medical personnel.*

Key words: *social intelligence, professional competence, professional skills, professional position, cognitive, emotional, social flexibility, koskom-2.*

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda globallashuv jarayonining kechishi o‘ziga xos ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga mos kadrlar tayyorlashni va shaxsga ijtimoiy-psixologik ta’sir etishni ta’minlovchi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari kasbiy kompetentligiga bo‘lgan ehtiyojining yanada ortib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Zero, barcha davlatlarda o‘ziga xos tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida jismoniy tarbiya o‘qituvchilari faoliyatiga qo‘yiladigan talablar uning kasbiy, shaxsiy va intellektual faoliyati bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratishni taqazo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan keyingi yillarda chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi, salohiyati juda yuksak bo‘lishi lozimligi ko‘rsatilgan. Jumladan, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatini rivojlanishi, birinchi navbatda, ushbu jarayonni tashkil etuvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining dunyoqarashi va tafakkuridagi o‘zgarishlarga ya’ni ularning kasbiy kompetentligiga bevosita bog‘liq. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy mahorati va kompetenligining o‘zaro aloqadorligi masalasi bir qator pedagogik-psixologik adabiyotlarda ochib berilgan. Unda kasbiy mahoratni tug‘ma xususiyatlar va fazilatlar bilan shartli belgilanmasligi ta’kidlangan va shu bilan birga ushbu mahoratning kasbiy kompetentlik bilan shartlanganligik holati alohida qayd etilgan.

Ayni paytda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi uning kasbiy bilimi va malakalari, boshqa bir tomondan kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlar mutanosibligi bilan baholanishi mumkin. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari professionalizmi uning kasbiy faoliyati sharoitida o‘zini turlicha namoyon qiladi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun kasbiy faoliyatning turli sharoitlarda bir tomondan kasb talablariga mos kelishi boshqa bir tomondan esa o‘zini kasbiy rivojlantirish mantiqiga rioya qilish, har qanday holatlarda ham ichki psixologik turg‘unlikni saqlash muhimdir.

Demak, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari kasbiy kompetentligining to‘liq tuzilmasi motivatsion-yo‘naltiruvchi bo‘g‘in, rivojlantiruvchi, tuzatuvchi korreksion va kasbiy maslahat xarakteriga ega bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

Shu nuqtayi nazardan jismoniy tarbiya o‘qituvchilari psixologik kompetentligini o‘rganish jarayonida har bir jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial psixologik kompetentligi va uning o‘ziga xos imkoniyatlarini o‘rganish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Yuqoridagilarga asoslanib tadqiqotimizda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi, uning psixologik kimpetentligiga ham bog‘liq degan mulohazani ilgari surgan holda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini tadqiq qilishda avvalo ularni psixologik kompetentligiga ta’sir etuvchi sotsial intellekt hamda emotsional intellekt omillarini o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Emotsionallik bilan sotsial intellekt tushunchalarini mazmunan tahlil etganda, bir biridan farq qiluvchi holat kuzatiladi, ya’ni intellekt tushunchasini kognitiv jihatdan inson ongi bilan bog‘liq ekanligi, emotsionallik va sotsiallik esa shaxs faoliyatining affektiv sohasiga yaqinroq ekanligini ifodalaydi,ammo muammoning mazmunida aks etayotgan ikki tushunchani tahlil etishda boshqacharoq pozitsiyadan turib yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Emotsional intellekt shaxsning emotsiyalari, ularning ifodalanishi va tartibga solinishini bildiradi. [5]

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sotsial inttellektini tadqiq etish dasturidan kutilayotgan g‘oyaning tub zamirida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyati va kasbiy kompetentligini yuqori natijalarga erishishiga yo‘naltirishini ta’minlashdan iborat. Biz sotsial intellektga doir izlanishlarga tayanib jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sotsial intellektini belgilovchi mezonlar majmuasini quyidagilarga ajratdik. [7]

Kognitiv;

1.1.Insonlar haqida, o‘zga insonlarni tushunishning maxsus qoidalarini bilish;

1.2. Sotsial xotira−insonlarni qiyofasi, ismini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan xotira;

1.3.Sotsial intuitsiya –insonlarning kayfiyatini, tuyg‘ularini, xatti-harakatlarini tushunish motivi, sotsial mazmundagi xulq-atvorni mos tarzda kuzatuvchanlik qobiliyati;

1.4. Sotsial voqelikni bashorat qila olish−shaxsiy xatti-hara-katlari rejasini shakllantirish, o‘zining faoliyatini jipslashtirishi, shaxsiy faoliyatini boshqalar ko‘zi bilan ko‘ra olishi va foydalanilma-gan muqobil imkoniyatlar orqali baholash.

Emotsional;

2.1.Sotsial ifodalalilik — emotsional ifodalilik, emotsional sezgirlik, emotsional nazorat o‘rnatish;

2.2.Birgalikda qayg‘urish —o‘zga insonlarning holatiga kira olish, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘ya olishi qobiliyati.

2.3.O‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyati — o‘zining emotsiyasi va kayfiyatlarini tartibga solish uquvi.

3.Xulqiy;

3.1.Sotsial idrok-suhbatdoshni tinglash malakasi,hazil-mutoyibani tushunish;

3.2.Sotsial o‘zaro ta’sirlashuv – hamkorlikda ishlashga shaylik va qobiliyatlilik, o‘zaro jamoaviy ta’sirlashuvga qobiliyatlilik;

3.3.Sotsial moslashuvchanlik – tushuntira olish va boshqalarni ishontira olish uquvi, o‘zga kishilar bilan chiqishib ketish qobiliyati, atrofdagilar bilan munosabatlarda samimiylikning namoyon etilishi.

Ushbu ajratilgan mezonlar jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sotsial intellektini ifodalovchi har bir baholash tartibini shakllantirishi mumkin bo‘ladi. Ushbu dastur faoliyat jarayonida sotsial intellektni rivojlanishini tashkil etuvchi umumiy yo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Dasturning yaxlit mazmuni jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sotsial intellektini tadqiq etish borasida izlanishimizni to‘laligini ta’minlaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial intellektini ta’minlashga qaratilgan psixologik yondashuv yo‘llarini izlashga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borayotgani psixologlar oldiga davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim tadqiqotlarni olib borish va bu boradagi barcha muammolarni bartaraf etishga astoydil kirishish vazifasini yuklamoqda. Chunki sotsial intellekt va psixologik kompetentlik o‘rtasidagi uyg‘unlikni o‘rganmay turib, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining psixologik kompetentligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar ko‘lamini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish aslo mumkin emas.

Psixologik tadqiqotlarda sotsial intellektning strukturasini o‘rganish borasidagi izlanishlardan ko‘ra, umumiy intellektning tuzilishiga daxldor yondashuvlar anchagina ekanligini ko‘zga tashlanadi (G. Ayzenk, Terstoun, R.B. Kettell, Dj. Gilford va boshqalar). Bugungi kunda ham sotsial intellekt muammosida eng ahamiyatli psixologik model sifatida Dj. Gilfordning nazariyasiga alohida e’tibor qaratiladi. [2]

Jamiyat jismoniy tarbiya o‘qituvchilari shaxsiga yuqori talablar qo‘yar ekan, unda psixologik yetuklik, kasbiy samaradorlik va sotsial talabchanlikka erishishni ta’minlovchi sotsial kompetentlikni taqozo etadi. Biz jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sotsial intellektining o‘ziga xosligini o‘rganish barobarida sotsial kompetentligini o‘rganishga murojaat qilishni lozim topdik. Buning uchun jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial kompetentligini aniqlashda V.N.Kunitsinaning «KOSKOM-2» so‘rovnomasidan foydalandik (kommunikativ va sotsial kompetentlikni aniqlash)[4].

Bu so‘rovnoma orqali jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial intellekti bilan sotsial-psixologik kompetentlik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish orqali muammoning yangi qirralarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sotsial intellekti shaxslilik sifatlari, shaxslik tiplari, emotsional intellekti bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganish singari ularning sotsial-psixologik kompetentligini bilan bog‘liq xususiyatlariga e’tibor qaratildi. Bu esa jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sotsial intellektidagi boshqa jihatlarni yoritishga ham yordam beradi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sotsial-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini o‘rganishda qator jabhalar asosida yoritildi. Dastlab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial va kommunikativ kompetentligini aniqlashdan olingan ko‘rsatkichlar jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining bosqichlarga ko‘ra foiz hisobida aniqlandi va so‘ngra sotsial intellektlari bilan o‘zaro korrelatsiya munosabatlari aniqlandi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligi taqdim etigan o‘n beshta band bo‘yicha aniqlandi. Olingan empirik natijalar shuni ko‘rsatdiki, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial kompetentligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar vazifasiga ko‘ra ham farq qilar ekan..

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial intellekti bilan sotsial kompetenliligining umumiy ko‘rsatkichlari orasidagi

korrelyatson bog‘lanish natijalari

	Shklalar	Sotsial intellekt			
		Muloqot ishtirokchisi-ning hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish	Noverbal muloqot harakatla rini tushunish	Verbal muloqot harakatla rini tushunish	Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuv-ni tahlil etish
Cotsial kompetentlik	Insonlarni tushunish	-0,109	-0,023	-0,059	-0,151
	Vaziyatlarni tushunish	0,060	0,236**	-0,022	0,003
	Uddaburonlik	-0,012	0,198*	-0,009	-0,009
	Axloqiy ustanovkalar	0,038	-0,044	0,054	0,006
	Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,130	0,068	0,017	0,043
	Emotsional barqarorlik	0,172*	0,025	-0,059	-0,033
	Imidj	-0,121	-0,115	-0,124	0,293**
	Sotsial psixologik kompetentlik	0,024	0,097	0,088	0,140
	Verbal kompetentlik	0,193*	-0,075	0,012	0,115
	Operativ sotsial-psixologik kompetentlik	0,038	-0,021	-0,119	0,247**
	Ego kompetentlik	-0,146	0,027	-0,065	-0,142
	Kommunikativ kompetentlik	0,063	0,001	0,148	0,310**
	Ishonchlilik	0,137	-0,018	0,053	0,227**
	Barqaror insoniy munosabatlar	0,115	-0,031	0,017	0,096
	Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	-0,200	0,042	-0,064	0,282**

Izoh: * r≤ 0,05, *** r≤ 0,01

Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining amaldagi holatlarida uddaburonlikka bo‘lgan kompetentlik ham noverbal muloqot harakatlarini tushunish bilan uyg‘unlashgan ekan (r(0,236, r≤ 0,01). Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining noverbal muloqot harakatlarini tushunish qobiliyatlari uddaburonlik imkoniyatlarini ham o‘sishini ta’minlarkan. Shuningdek, bir qator sotsial-psixologik kompetentlik jabhalari sotsial intellekt o‘rtasida to‘g‘ri korrelatsion bog‘lanishlar shakllangan ekan. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunishlari bilan emotsional barqarorlik (r(0,172, r≤ 0,05), shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish bilan imidj (r(0,293, r≤ 0,01),

muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish bilan verbal kompetentlik (r(0,293, r≤ 0,01), shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish bilan operativ sotsial-psixologik kompetentlik (r(0,247, r≤ 0,01), kommunikativ kompetentlik (r(0,310, r≤ 0,01), ishonchlilik (r(0,227, r≤ 0,01), shaxslilik –kommunikativ imkoniyatlari (r(0,282, r≤ 0,01) o‘zaro uyg‘un rivojlanayotgan ekan. Aytish mumkinki, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial intellekti bilan sotsial-psixologik kompetentligi o‘rtasida ijobiy bog‘lanishlar faoliyat jarayonida muhim, ammo ular to‘laqonli ko‘rinishga ega emas. Faqat beshta mezon bo‘yicha sotsial-psixologik kompetentlik sifatlari bilan sotsial intellekt o‘rtasidagi to‘g‘ri ichki munosabat shakllangan va bu ko‘rsatkichlar jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ning umumiy qiymatlari bo‘yichadir. Agar ularning bosqichlarga ko‘ra tahlil etadigan bo‘lsak, sotsial intellekt bilan kompetentlik o‘rtasidagi yana tarqoq bog‘lanishlar kuzatilishi shubhasiz.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar natijasi bugungi kunda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi va sotsial-psixologik kompetentlik uyg‘unligini taminlovchi dasturni ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llashga bo‘lgan talab va ehtiyojning mavjudligini yana bir tasdiqladi. Chunki muayyan maqsadlarga qaratilgan mazkur dasturni ishlab chiqish tizimda faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya o‘qituvchilari kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari kasbiy kompetentligi va sotsial-psixologik kompetentligini tadqiq qilish bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini xarakterlovchi komponentlar qatoriga sotsial-psixologik kompetentlikni qo‘shish mumkin. Bu esa, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining psixologik kompetentligini kasbiy kamolotdagi holatini yanada chuqurroq tushunish imkonini berdi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial-psixologik kompetentligi aniq mezonli va tizimli, ilmiy asoslangan tadqiqot metodikasi asosida aniqlandi. Bu uning kasbiy kompetentligi bilan mazmuniy bog‘liqligini tushuntirish imkonini berdi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari sotsial-psixologik kompetentligini umumiy intellekt, emotsional intellekt, empatiya, ekspert baholash bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilganligi natijalari singari sotsial-psixologik kompetentlik ko‘rsatkichlarida ham bosqichlanish kuzatildi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sotsial-psixologik kompetentligi bosqichlarga ko‘ra turli darajani aks ettirdi. Kasbiy kompetenlik bilan sotsial-psixologik kompetentlilik o‘rtasidagi korrelatsion munosabatlar jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining ta’lim bosqichsini o‘zgarishiga ko‘ra yaqqolroq bog‘lanishni aks ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Андреева Г.М. Сотсиалная психология. – М.: Аспект пресс 2000. – 139 с.
2. Гамезо М.В., Домашенко И.Н. Атлас по психологии. – М.: «Просвешение», 1986. – 112 с.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. – T., 2012. –172 b
4. Куницина В.Н., Казаринова Н.В., Поголша В.М. Межличностное обшение/ Учебник для ВУЗов. – СПб.: «Питер», 2002 – 322 с.
5. Майерс Д. Сотсиалная психология. СПб.: «Питер», 1997. – 688 с.
6. G‘oziyev E.G‘. Usmonova Sh. Intellekt psixologiyasi. – Toshkent: ToshDU, Universitet, 1996. – 48 b.
7. Sobirova D.A. Sotsial intellekt: nazariya va amaliyot/ Monografiya Toshkent.: “Fan”, 2013. – 160 b.

Djumaniyazova Muxayya Xusinovna
UrDU Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
E-mail: muhayyo@list.ru

TALABALAR O`QUV MOTIVATSIYAGA TA`SIR QILUVCHI OMILLARNING EMPERIK TAHLILI

Annotatsiya.*Ta'lim motivatsiyasi muammosi pedagogika fanida ham, ta'lim psixologiyasi fanida ham doimo dolzarb bo'lib, ta'lim motivatsiyasi o'quvchilar va talabalarning umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Ta'lim motivatsiyasiga ta'lim faoliyatining asosiy maqsadlariga muvaffaqiyatli erishishning asosiy omili sifatida qaraladi. Oliy ta'lim tizimida talabalarning o'quv motivatsiyasi, albatta, o'zining yo'nalishi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga ilmiy yondashuv elementlarin o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.*

***Kalit so`zlar****:ta`sir qiluvchi omillar, motivatsiya, shaxs, ta`lim muhiti, ta`lim jarayonidan qoniqqanlik, ta`lim – tarbiya jarayoni, qadriyatlar, yo`nalganlik, o`zlashtirish, muvaffaqiyat darajasi.*

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА УЧЕБНУЮ МОТИВАЦИЮ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *Проблемы учебной мотивации в как в педагогике, так и в психологии образования всегда актуальны, они определяют комплекс отношений учащихся и студентов к самому процессу общеобразовательной и профессиональной подготовки. Учебная мотивация рассматривается как основной фактор успешного достижения основных целей учебной деятельности. Мотивация обучения студентов в системе вузовского профессионального образования, конечно же, отличается своей направленностью, предметной спецификой и элементами научного подхода овладениями знаний, умений и навыков.*

Ключевые слова*: фактор, мотивация, личность, образовательная среда, удовлетворенность учебным процессом, педагогический процесс, ценности, направленность, рейтинг, уровень достижений*

EMPIRICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING STUDENT STUDY MOTIVATION

Abstract. *Problems of educational motivation in both pedagogy and educational psychology are always relevant; they determine the complex of attitudes of students to the very process of general education and professional training. Educational motivation is considered as the main factor in the successful achievement of the main goals of educational activities. The motivation for teaching students in the system of higher education professional education, of course, is distinguished by its focus, subject specificity and elements of the scientific approach to mastering knowledge, skills and abilities.*

Keywords: *factor, motivation, personality, educational environment, satisfaction with the educational process, pedagogical process, values, focus, rating, level of achievement*

Kirish. Bugungi kunda, pedagogik psixologiya fanida o'quv motivatsiyasi muammosi eng muhim muammolardan biri sifatida tan olingan. O'quv motivatsiyasi ta'lim faoliyatining asosiy maqsadlariga muvaffaqiyatli erishishning asosiy omili sifatida qaraladi. Ta'lim faoliyati tizimi va o'quv jarayonini yagona tashkiliy shablonlarga muvofiq qurish amaliyotda o'quvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlariga yetarlicha yo'naltirilgan emas, tashqi omil sifatida o'qitish shaklining ichki omillar bilan aloqasi juda kam hisobga olinadi. Zero, talabaning faolligini belgilovchi va uning faoliyatini rivojlantiruvchi omil - ta'lim (o'quv) motivatsiyasi hisoblanadi.

Milliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatdagi har qanday o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar har gal jamiyatning yangi ehtiyojlaridan kelib chiqib, pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, dolzarb savollar tug'iladi: Talabalarning motivatsion sohasiga qanday omillar ta'sir qilish mumkin? O'quv motivatsiyasiga ta`lim shakli va tahsil olayotgan bosqichi ta'sir qiladimi?

Hozirda ta'lim maqsadlari o'zgarmoqda - bilim olishdan shaxsni rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalarini o'zlashtirish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, muammoli vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qilish qobiliyati, shaxsiy yo'nalishlarni shakllantirish, o'zlashtirishga kreativ yondashuv, o'z-o'zini rivojlantirish va shaxsiy o'sish qobiliyati takomillshtirish bugungi kun talab va vazifasiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, pedagogik psixologiyada haqli ravishda asosiy masalalardan biri hisoblangan ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish uchun motivatsiya muammosi yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta'lim berish shaklining o'quv motivatsiyaga ta'sirining nazariy va metodologik masalalari rus psixologlaridan A.A.Andreev, A.A.Axayan, G.N.Butyrin, E.V.Vlasov, V.G.Domrachev, V.M.Danilchenko, V.E.Kadochkina, M.P.Karpenko, A.A.Kashaev, V.G.Kinelev, O.A.Lavrov, S.L.Lobachev, M.I.Nejurina, O.P.Okolelov, E.S.Polat, V.I.Soldatkin, I.V.Tixomirova, A.V.Xutorskaya) va xorijiy psixologlardan R.Delling, J.Daniel, D.Kigan, M.Mur, O.Peter, B.Xolmberglar tomonidan o'rganilgan[1].

Ta'lim faoliyatida shaxsning motivatsion sohasi genezisi qonuniyatlari aniqlangan, ular umumiy va o'ziga xos genetik tizim qonuniyatlarni to'ldiradi. Bu, xususan, asosiy motivatsion quyi tizimlarning har birida sezgir davrning mavjudligi; motivatsion sohani tashkil etishning ko'plab qonuniyatlarining genetik nisbiyligi; motivatsion qonuniyatlar harakatida gender farqlarining mavjudligi kabilarni qamrab oladi.

Ko'p tadqiqotchilar o'quv faoliyati uchun motivatsiya muammosi umumiy psixologik ma'noda motivatsiyaning kengroq muammosining bir qismi ekanligidan kelib chiqadilar[2]. Bundan kelib chiqadiki, motivatsiyani umumiy psixologik ma'noda o'rganishda yuzaga keladigan barcha toifalar, qonuniyatlar, qarama-qarshiliklar va qiyinchiliklar uni o'rganishdagi ta'lim faoliyati motivatsiyasiga tegishlidir.

Psixologiyada ta'lim faoliyati uchun motivatsiya muammosini o'rganar ekan, E.V.Karpova ta'lim faoliyati uchun motivatsiya muammosining hozirgi holatiga mehnat faoliyati uchun motivatsiya xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan maxsus yo'nalish ta'sir qilganligini ta'kidlaydi [3]. Bu tadqiqotlar ham sof nazariy, ham amaliy xarakterga ega edi. Bu fakt faoliyatning asosiy turlaridan biri - mehnat motivatsiyasini boshqa ikkita - ta'lim va o'yin bilan solishtirganda o'rganishning aniq ustunligini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda "o'rganish motivi", "o'rganish uchun motivatsiya", "o'quv faoliyati motivatsiyasi" tushunchalariga nisbatan sezilarli darajada kamroq ta'riflar mavjud. Umumiy psixologik munozaralardan farqli o'laroq, bu masala bo'yicha keskin muhokamalar minimal darajaga tushiriladi. S.P.Manukyanning fikricha, ehtiyojlar bilim olish motivlari emas. Ta'lim faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri - o'qituvchi javob beradigan ehtiyojning o'ziga xosligi – "o'rganish kognitiv ehtiyojni qondirishga qaratilgan"[4] .

O'quv faoliyatining motivlari deganda o'quv faoliyatining namoyon bo'lishini belgilovchi barcha omillar tushuniladi: ehtiyojlar, maqsadlar, munosabatlar, burch hissi, qiziqishlar va boshqalar. O'quv faoliyati motivatsiyasi o'quv faoliyatiga kiritilgan motivatsiyaning alohida turi hisoblanadi. Ko'pincha bu atama "kognitiv motivatsiya" tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi.

A.K. Markova fikricha, "o'qitishda o'quvchilarning o'quv jarayonining alohida tomonlariga yo'naltirilganligi motivdir. O'quv faoliyatiga eng mos keladigan sabab-bu maktab o'quvchilarining yangi harakat usullarini o'zlashtirishga yo'naltirilganligi" [5]. Shunga ko'ra, ushbu ta'riflar asosan ushbu tushunchalarning mazmunini dinamik tushunishga emas, balki tarkibiy qismlarga tegishli.

Ta'lim faoliyati motivatsiyasi sohasidagi bunday terminologik rivojlanmaganlik, ta'lim faoliyati motivatsiyasi muammosi bo'yicha yaxlit nazariy g'oyalarning yo'qligi va XX asrning 80-yillariga nisbatan so'nggi o'n yil ichida o'quv faoliyati motivatsiyasi bo'yicha aniq eksperimental-psixologik tadqiqotlarning

[1] Соколова Л.Н. Мотивация учебной деятельности студентов технического вуза // Новые технологии в образовательном пространстве родного и иностранного языка. 2013. № 1. С. 256-263.

[2] Евсюкова Т.В. Мотивация в системе образования // Вестник Академии / Ростовский государственный экономический университет «РИНХ». 2002. № 1 (14). С. 105-108.

[3] Карпова Е.В. Специфика современного состояния и перспективы развития проблемы мотивации учебной деятельности // Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. Сер. «Акмеология». 2006. №2. С. 8–18.

[4] Манукян С.П. Стимулы, мотивы и цели субъектов целепорождающего обучения / С.П. Манукян. Ереван: Зангак-97, 2005. 360 с.

[5] Маркова А. К., Матист Т.А., Орлова А.Б. Формирование мотивации учения: Книга для учителя. М. : АО «Издательство Просвещение», 1990. 192 с.

kamligi bilan bog'liq. Ta'lim motivatsiyasi juda murakkab tuzilishga ega va har bir yosh bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi[1].

Ta'lim faoliyatining determinantlari sifatida biron bir maxsus motivatsion shakllanishlarni ajratib ko'rsatish hali ham deyarli mumkin emasligi muhimdir.

Bularning barchasi ta'lim faoliyati sohasiga aniq tarzda “bog'langan” umumiy, “shakllantiruvchi” motivatsion sohalardir. B.Vaynerning fikricha, ta’lim motivatsiyasi ta’lim motivlarining yaxlitligi va tizimliligining kombinatsiyasidir[2]. O'quv faoliyati o’quvchi shaxsining ichki motivatsion salohiyatini maksimal darajada oshirishga yordam beradigan tarzda tashkil etilishi kerak. M.O.Rezvantsevaning ta'kidlashicha, “o'quv motivatsiyasi” atamasining ta'rifi uning mazmuni va semantik ma’nolari nuqtai nazaridan o'rganish qiyin bo'lgan masaladir. Bu atama ham keng (o‘rganishning ijtimoiy motivlari), ham tor (muayyan fanni o‘qitish motivlari sifatida) kontekstda ko‘rib chiqilishi mumkin” [3].

Muhokama. Bizning fikrimizcha, motivlarni faqat ichki va tashqi turlarga bo'lish yetarli emas degan fikr bor. Tashqi motivlarning o'zi ijobiy (muvaffaqiyat, yutuq motivlari) va salbiy (qochish, himoya qilish motivlari) bo'lishi mumkin. A.R. Mansurova ishida ta’lim motivatsiyasi turli xil rag’batlantirish – ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, ideallar, qiziqishlar, intilishlarni o‘z ichiga oladi. “Tizimli ta'lim sifatida o'quv motivatsiyasi kengroq tizim bilan - shaxsiy motivatsiya bilan bog'liq” . Muallifning fikricha, ta'lim motivatsiyasining markaziy tarkibiy qismi o'quvchilarni nafaqat bilimga, balki uni egallash usullariga yo'naltirishni o'z ichiga olgan ta'lim va kognitiv motivlardir[4].

Bugungi kunga kelib, umumiy psixologik tushunchadagi motivatsiya nafaqat murakkab, dinamik shakllanish, balki o'quv faoliyati motivatsiyasi ham shunga o'xshash, bundan kam bo'lmagan murakkab tashkil etilgan shakllanishdir, degan g'oya shakllangan. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va o'quv faoliyatining psixologik tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu faoliyat motivatsiyasining xususiyatlari ikkita asosiy toifaga birlashtirilgan. Bu uning uchun ham, umuman shaxsiyat tizimi uchun ham xos bo'lgan umumiy xususiyatlar; ta'lim faoliyatini rag'batlantirish uchun maxsus bo'lgan xususiyatlar, ammo ular shaxsning motivatsion tizimini tashkil etishning umumiy xususiyatlari bilan bog'liq va unga bog'liq. Binobarin, ta'lim faoliyati motivatsiyasi uning umumiy psixologik tushunchasida o'ziga xos turtki bo'lib, mazmuni va tuzilishining murakkabligi bilan tavsiflanadi va umuman, tizimli va juda o'ziga xos shaxs sifatida ishlaydi .

O'quv faoliyati uchun motivatsiya psixologiyasining kontseptual apparatini tahlil qilish zarur ko'rinadi, chunki u hozirgacha olingan natijalarni ko'rib chiqish va batafsil tavsiflashga yordam beradi. Umuman motivatsiya psixologiyasida qo'llaniladigan kontseptual apparatni va xususan, o'quv faoliyati motivatsiyasini qisqacha tavsiflab, biz ta'lim faoliyati motivatsiyasining empirik va eksperimental tadqiqotlarini ko'rib chiqishga to'xtalib o'tishni zarur deb hisoblaymiz. Motivatsiya hodisasi tadqiqotchilar e’tiborini uzoq vaqtlardan beri o‘ziga tortganini yuqorida aytib o‘tgan edik. Filogenez jarayonida motivatsiyaning, jumladan, tarbiyaviy motivatsiyaning kelib chiqishi haqidagi nuqtai nazar bir necha bor o‘zgarganligi va muayyan tarixiy davrda fanning rivojlanish darajasiga bog‘liqligi qayd etildi.

O'quv faoliyati motivatsiyasini eksperimental o'rganishning muhim bosqichi o'tgan asrning 70-yillari boshlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu muammo bo'yicha tadqiqotning kuchayishi bilan belgilanadi. Ushbu davrda pedagogik psixologiyada muammoli ta'lim sohasidagi ishlarning sezilarli darajada kuchayishi kuzatildi, o'quv faoliyati nazariyasi jadal ishlab chiqildi va aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi yanada rivojlandi. Shuning uchun tadqiqotchilar ishlab chiqilayotgan yo'nalishlar bilan bog'liq motivatsiyaning roli va ahamiyatiga e'tibor qaratishlari tabiiydir. Jumladan, V.N.Maksimova muammoli o'rganish va kognitiv qiziqishning o'zaro ta'sirining ko'p qirraliligi borligini, shuningdek, “o’quvchining kognitiv qiziqish darajasi vazifani tanlashni, uni hal qilishda ishtirok etish faolligini va kognitiv faoliyat motivatsiyasining xususiyatini belgilaydi. Yuqori kognitiv qiziqish kattaroq kognitiv ahamiyatga ega bo'lgan murakkabroq vazifalarni tanlashni va muammoli ta'limning o'quvchining aqliy rivojlanishiga eng samarali ta'sirini ta'minlaydi”[5] .

[1] Archer J. Achievement goals as a measure of motivation in university students // Contemporary Educational Psychology. 1994. Vol. 19. № 4. P. 430—446. doi:10.1006/ceps.1994.1031

[2] Weiner B. An attributional theory of motivation and emotion // Behaviorism. 1988. Vol. 16. № 2. P. 167—173.

[3] Азизова М.А. Мотивация в обучении // Экономика и социум. 2021. № 51 (84). С. 605-608.

[4] Djumaniyazova M.X. Talabalar o‘quv motivatsiyasini rivojlanishi - psixologik muammo sifatida. “Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnali. № 6 (8) 2023.148-153 betlar

[5] Запалацкая В.С. Мотивация к интеллектуальным достижениям в образовательных средах. М. : Издательство: Московский государственный областной университет, Москва, 2016. 118 с.

Ta’lim faoliyati maktab va bolalar bog‘chasiga tayyorgarlikdan tortib, oliy o‘quv yurtlarida o‘qit-ishgacha bo‘lgan shaxsni rivojlantirishning deyarli butun davrining muhim mazmunidir. Ta’lim olish har qanday shaxsga nisbatan jamiyatning ajralmas talabidir, shuning uchun o‘quv motivatsiyasi muammosi psixologiyaning asosiy muammolaridan biriga aylanadi. Ta’lim jarayonida shaxsning individual psixologik xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishi muayyan faoliyatning psixologik tuzilishi, uning yo‘nalishi va uni rag‘batlantiruvchi motivlarga bog‘liq holda sodir bo‘ladi .

Ta’lim motivatsiyasi rivojlanayotgan shaxsga nafaqat yo‘nalishni, balki ta’lim faoliyatining turli shakllarini amalga oshirish usullarini aniqlashga, hissiy-irodaviy sohani jalb qilishga imkon beradi. U har bir vaqt oralig‘ida o‘quv vaziyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydigan muhim ko‘p omilli aniqlash vazifasini bajaradi .

Talabalarni samarali bilim faoliyatiga jalb qilish va ta’lim mazmunini faol o‘zlashtirishga undash jarayonlari, usullari va vositalarining umumiy nomi “ta’lim motivatsiyasi” tushunchasidir.

Ta’lim faoliyati uchun motivatsiya odatda ta’lim faoliyatining namoyon bo‘lishini belgilaydigan barcha omillarni - ehtiyojlar, maqsadlar, munosabatlar, burch hissi, qiziqishlar va boshqalarni anglatadi.

Metodlar tahlili. Biz talabalarning o‘quv motivatsiyasiga ta`lim shaklining qay darajada ta`sir qilishini aniqlash uchun T.I.Ilinaning universitetida o’qish motivatsiyasini o’rganish metodikasini, Talabalarning o’quv motivlarini diagnostika qilish metodika (A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.T.Badmaeva tomonidan tahrirlangan) larini Urganch davlat universitetining sirtqi va kunduzgi bo`limlarida tahsil oluvchi talabalarida o`tkazdik (**1va 2 jadvallar**).

1-jadval

T.I.Ilinaning universitetda o’qish motivatsiyasini o’rganish metodikasi (ta`lim shakliga ko`ra) natijalar tahlili (Mann Uitni mezoni bo’yicha n=164)

Shkalalar	Talim shakli	N (soni)	O’rtacha rang	Ranglar sum-masi	U	p
Bilim olish	Kunduzgi	61	92,70	5655,00	2519,000	,034*
	Sirtqi	103	76,46	7875,00		
	Jami	164				
Kasb egallash	Kunduzgi	61	90,19	5501,50	2672,500	,107
	Sirtqi	103	77,95	8028,50		
	Jami	164				
Diplomga ega bo’lish	Kunduzgi	61	78,85	4810,00	2919,000	,446
	Sirtqi	103	84,66	8720,00		
	Jami	164				

Izoh: * p<0,05

T.I.Ilinaning universiteteda o’qish motivatsiyasini o’rganish metodikasi natijalar tahliliga ko’ra bilimlarni o’zlashtirish shkalasi bo’yicha kunduzgi va sirtqi ta’lim talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (U=2519,000; p<0,05). Ushbu holat kunduzgi ta’limda o’qiyotgan talabalarning bilim olishga intilish darajasi sirtqi ta’lim talabalariga nisbatan yuqori ekanligini ko’ramiz. Mazkur holat ta’lim jarayonining tashkil etilishi va kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalar ko`proq vaqtini oliygohga o`tkazishi, umrining ma`lum bir qismini o`qish faoliyati bilan mashg`ul bo`lishi bilan izohlanishi mumkin.

Kasbni egallash shkalasi bo’yicha aksincha, kunduzgi va sirtqi ta’lim talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=2672,500; p>0,05). Ya’ni har ikkala toifadagi o’qitish shaklida ham talaba kasbiy faoliyat nuqtai nazardan nazariy bilim olib, amaliy ko’nikmalarni egallay olar ekan.

Diplom olish shkalasi natijalar tahlilida kunduzgi va sirtqi ta’lim talabalari orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi (U=2919,000; p>0,05). Oliy o’quv yurtida tahsil olayotgan talabalarning har birida, qaysi kursda o’qishidan qat’iy nazar diplom olish motivi bir xilda kuzatilar ekan.

2-jadval

Talabalarning o'quv motivlarini diagnostika qilish metodikasi (A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.T.Badmaeva tomonidan tahrirlangan) natijalar tahlili (Mann Uitni mezoni bo'yicha n=164)

Shkalalar	Talim shakli	N (soni)	O'rtacha rang	Ranglar sum-masi	U	p
Muloqot	Kunduzgi	61	92,18	5623,00	2551,000	,043*
	Sirtqi	103	76,77	7907,00		
	Jami	164				
Qochish	Kunduzgi	61	103,20	6295,00	1879,000	,000***
	Sirtqi	103	70,24	7235,00		
	Jami	164				
Obro'	Kunduzgi	61	86,34	5267,00	2907,000	,423
	Sirtqi	103	80,22	8263,00		
	Jami	164				
Kasbiy	Kunduzgi	61	80,07	4884,00	2993,000	,611
	Sirtqi	103	83,94	8646,00		
	Jami	164				
Ijodiy	Kunduzgi	61	72,02	4393,00	2502,000	,027*
	Sirtqi	103	88,71	9137,00		
	Jami	164				
Ta'lim	Kunduzgi	61	93,46	5701,00	2473,000	,023*
	Sirtqi	103	76,01	7829,00		
	Jami	164				
Ijtimoiy	Kunduzgi	61	88,34	5388,50	2785,500	,223
	Sirtqi	103	79,04	8141,50		
	Jami	164				

Izoh: * $p<0,05$; *** $p<0,001$

Talabalarning o'quv motivlarini diagnostika qilish metodikasi natijalarini tahlil qilish davomida muloqot shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlarni kuzatildi ($U=2551,000$; $p<0,05$). Muloqot motivlari kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalarda sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalarga qaraganda yuqori bo'lar ekan. Bunda asosan kunduzgi ta'limda talabalarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlashga, birgalikda muloqot qilishga vaqt omilining yetarlicha bo'lishi sabab bo'la oladi. Shuningdek, qochish motivi shkalasi bo'yicha ham kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlarni kuzatildi ($U=1879,000$; $p<0,001$). Sirtqi ta'lim talabalarining kunduzgi ta'lim talabalaridagi kabi o'quv materialini o'zlashtirish va jamoaviy hamkorlik uchun vaqtning yetishmasligi qochish motivini pasaytiruvchi omil bo'lib xizmat qilar ekan.

Obro'ga ega bo'lish motivi shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($U=2907,000$; $p>0,05$). Chunki ikkala ta'lim shaklida ham sinaluvchilar talaba maqomiga birdek loyiq bo'ladilar. Bu esa kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari bir xil obro'ga ega bo'lishi bilan izohlanadi.

Kasbiy motivlar shkalasi bo'yicha ham kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($U=2993,000$; $p>0,05$). kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari o'qitish shaklidan qat'iy nazar, kasbiy ko'nikmalarni birdek egallaydilar. Bunga isbot sifatida yuqorida tahlil qilingan T.I.Ilinaning universitetda o'qish motivatsiyasini o'rganish metodikasi natijalar tahlilini ham keltirishimiz mumkin.

Ijodiy motivlar shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ($U=2502,000$; $p<0,05$). Unga ko'ra sirtqi ta'lim talabalarida kunduzgi ta'lim talabalariga qaraganda ijodiy motivlar yuqori darajada bo'lar ekan. Mazkur holat ularda ijod erkinligi uchun vaqt chegaralanmaganligi, o'qitish shaklida mustaqil izlanishni talab qiluvchi mustaqil ta'lim soatlarining ko'pligi, nazariya va amaliyot birligi mavjudligi bilan izohlanadi.

Ta'lim motivi shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi ($U=2473,000$; $p<0,05$). Kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalarda sirtqi ta'lim talabalariga nisbatan ta'lim motivi yuqori bo'lar ekan. Kunduzgi ta'lim shakli talabalari ta'lim jarayoniga

butun o'quv yili davomida moslashadilar. Ushbu moslashish xususiyati ularda ta'lim motivlarining oshishiga xizmat qiluvchi omil bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy motivlar shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=2785,500; p>0,05). Har ikkala ta'lim shaklida ham sinaluvchilar o'zaro munosabatga kirishadilar. Bu esa kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari birdek ijtimoiylashishga intilishi bilan izohlanadi.

Shungdek, biz talabalarning o'quv motivatsiyasiga kursining qay darajada ta`sir qilishini aniqlash uchun T.I.Ilinaning universitetida o'qish motivatsiyasini o'rganish metodikasini, Talabalarning o'quv motivlarini diagnostika qilish metodika (A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.T.Badmaeva tomonidan tahrirlangan) larini Urganch davlat universitetining sirtqi va kunduzgi bo`limlarida tahsil oluvchi talabalarida o`tkazdik (**3 va 4 jadvallar**).

3-jadval

T.I.Ilinaning universiteteda o'qish motivatsiyasini o'rganish metodikasi kurslar kesimida natijalar tahlili (Mann Uitni mezoni bo'yicha n=164)

Shkalalar	Kursi	N (soni)	O'rtacha rang	Ranglar sum-masi	U	p
Bilim olish	1-kurs	77	93,70	7215,00	2487,000	,004***
	4-kurs	87	72,59	6315,00		
	Jami	164				
Kasb egallash	1-kurs	77	84,77	6527,50	3174,500	,560
	4-kurs	87	80,49	7002,50		
	Jami	164				
Diplomga ega bo'lish	1-kurs	77	75,84	5839,50	2836,500	,089
	4-kurs	87	88,40	7690,50		
	Jami	164				

Izoh: *p<0,05

T.I.Ilinaning universitetda o'qish motivatsiyasini o'rganish metodikasi natijalar tahliliga ko'ra bilim olish shkalasi bo'yicha birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (U=2487,000; p<0,001). Ya'ni birinchi kurs talabalarida bilim olish motivi to'rtinchi kurs talabalariga qaraganda yuqori bo'lar ekan. Mazkur holatni izohlashda ulardagi yosh xususiyatidagi yetakchi faoliyatda bilim olish va kasbiy tayyorgarlik xususiyati bilan ham bog'liqligini keltirishimiz mumkin.

Kasbni egallash shkalasi bo'yicha aksincha birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=3174,500; p>0,05). Ya'ni har ikkala yosh guruhida kasb egallash motivi bir xilda namoyon bo'lar ekan. Yuqorida izohlab o'tilganidek, kasb egallash motivi ularning yosh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Diplom olish shkalasi natijalar tahlilida birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi (U=2836,500; p>0,05). Oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan talabalarning har birida, qaysi kursda o'qishidan qat'iy nazar diplom olish motivi bir xilda kuzatilar ekan. Natijada birinchi kurs talabalari ham, to'rtinchi kurs talabalari ham diplomga ega bo'lishlarini yaxshi bilishadi.

4-jadval

Talabalarning o'quv motivlarini diagnostika qilish (A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.T.Badmaeva tomonidan tahrirlangan) metodikasi kurslar kesimidagi natijalar tahlili (Mann Uitni mezoni bo'yicha n=164)

Shkalalar	Kursi	N (soni)	O'rtacha rang	Ranglar sum-masi	U	p
Muloqot	1-kurs	77	87,42	6731,50	2970,500	,208
	4-kurs	87	78,14	6798,50		
	Jami	164				
Qochish	1-kurs	77	94,62	7285,50	2416,500	,002***
	4-kurs	87	71,78	6244,50		
	Jami	164				
Obro	1-kurs	77	85,05	6549,00	3153,000	,516
	4-kurs	87	80,24	6981,00		
	Jami	164				
Kasbiy	1-kurs	77	80,89	6228,50	3225,500	,681
	4-kurs	87	83,93	7301,50		

	Jami	164				
Ijodiy	1-kurs	77	73,86	5687,00	2684,000	,026*
	4-kurs	87	90,15	7843,00		
	Jami	164				
Talim	1-kurs	77	86,43	6655,00	3047,000	,318
	4-kurs	87	79,02	6875,00		
	Jami	164				
Ijtimoiy	1-kurs	77	82,78	6374,00	3328,000	,943
	4-kurs	87	82,25	7156,00		
	Jami	164				

Izoh: * p<0,05; *** p<0,001

Talabalarning o'quv motivlarini diagnostika qilish metodikasi natijalarini tahlil qilish davomida muloqot shkalasi bo'yicha birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlarni kuzatilmadi (U=2970,500; p>0,05). Muloqot motivi namoyon bo'lish xususiyatlari birinchi va to'rtinchi kurs talabalarida o'xshash tarzda kechar ekan.

Qochish motivi shkalasi bo'yicha ham birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (U=2416,500; p<0,001). Qochish motivi asosan, birinchi kurs talabalarida to'rtinchi kurs talabalariga qaraganda yuqori darajada bo'lishi aniqlandi. Ushbu holatni tahlil qilishda birinchi kurs talabalarining yangi o'quv sharoitlari, ijtimoiy muhitga moslashish qiyinligini ham asos qilib keltirish mumkin.

Obro'ga ega bo'lish motivi shkalasi bo'yicha birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=3153,000; p>0,05). Chunki ikkala yosh guruhida ham sinaluvchilar talaba maqomiga birdek loyiq bo'ladilar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, birinchi va to'rtinchi kurs talabalari bir xil obro'ga ehtiyoj sezar ekanlar.

Kasbiy motivlar shkalasi bo'yicha ham birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=3225,500; p>0,05). birinchi va to'rtinchi kurs talabalari o'qish kursidan qat'iy nazar, kasbiy ko'nikmalarni birdek egallaydilar. Bunga isbot sifatida yuqorida tahlil qilingan T.I.Ilinaning universiteteda o'qish motivatsiyasini o'rganish metodikasi natijalar tahlilini ham keltirishimiz mumkin.

Ijodiy motivlar shkalasi bo'yicha birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi (U=2684,000; p<0,05). Unga ko'ra to'rtinchi kurs talabalarida birinchi kurs talabalariga qaraganda ijodiy motivlar yuqori darajada bo'lar ekan. Mazkur holat ularda ijod erkinligi uchun qo'shimcha nazariy bilim va amaliyotga chiqish imkoniyatining mavjudligi bilan ham izohlanadi.

Ta'lim motivi shkalasi bo'yicha birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=3047,000; p>0,05).

Ijtimoiy motivlar shkalasi bo'yicha birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=3328,000; p>0,05). Har ikkala kursdagi sinaluvchilar ham o'zaro faol munosabatga kirishadilar. Bu esa birinchi va to'rtinchi kurs talabalari birdek ijtimoiylashishga intilishi bilan izohlanadi.

Xulosa. Nazariy va amaliy tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga ega bo`ldik:

1. O`quv motivatsiyasi samaradorligi bir qator omillar bilan belgilanadi: ta'lim tizimining tabiati, pedagogik jarayonning tashkil etilishi, o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari, o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlari, talabaning o'ziga xos xususiyatlari (jinsi, yoshi, o'zlashtirish darajasi, intellektual rivojlanish va qobiliyatlar, qadriyatlar yo'nalganligi, o'z-o'zini hurmat qilish va boshqalar).

2. Motivatsiya shaxsning holatlari va munosabatlarini o'zgartirish jarayoni sifatida motivlarga asoslanadi, ular o'ziga xos motivlar, shaxsni harakat va harakatlarni bajarishga majbur qiladigan sabablar deb tushuniladi. Motivlarning roli ehtiyojlar va qiziqishlar, intilishlar va his-tuyg'ular, munosabat va ideallar o'rtasida o'zaro bog'liqdir. Shuning uchun motivlar juda murakkab shakllanishlar bo'lib, ularda muqobil variantlarni tahlil qilish va baholash, tanlash va qaror qabul qilish amalga oshiriladigan dinamik tizimlar mavjud.

3. Kunduzgi ta'limda o'qiyotgan talabalarning bilim olishga intilish darajasi sirtqi ta'lim talabalariga nisbatan yuqori. Lekin kasbni egallash va diplom olishga intilish motivlari kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari orasida bir xil darajada.

4. Obro'ga ega bo'lish, kasbiy motivlar, ijtimoiy motivlar kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida bir xil darajada rivojlangan. Lekin ijodiy motivlar sirtqi ta'lim talabalarida kunduzgi ta'lim talabalariga qaraganda yuqori bo`lsa, muloqot motivlari kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalarda sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalarga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi.

5. Birinchi kurs talabalarida bilim olish motivi to'rtinchi kurs talabalariga qaraganda yuqori ekanligi, lekin birinchi va to'rtinchi kurs talabalari orasida kasbni egallash motivi va diplom olish bir xil darajada mavjudligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Соколова Л.Н. Мотивация учебной деятельности студентов технического вуза // Новые технологии в образовательном пространстве родного и иностранного языка. 2013. № 1. С. 256-263.
2. Евсюкова Т.В. Мотивация в системе образования // Вестник Академии / Ростовский государственный экономический университет «РИНХ». 2002. № 1 (14). С. 105-108.
3. Карпова Е.В. Специфика современного состояния и перспективы развития проблемы мотивации учебной деятельности // Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. Сер. «Акмеология». 2006. №2. С. 8–18.
4. Манукян С.П. Стимулы, мотивы и цели субъектов целепорождающего обучения / С.П. Манукян. Ереван: Зангак-97, 2005. 360 с.
5. Маркова А. К., Матист Т.А., Орлова А.Б. Формирование мотивации учения: Книга для учителя. М. : АО «Издательство Просвещение», 1990. 192 с.
6. Archer J. Achievement goals as a measure of motivation in university students // Contemporary Educational Psychology. 1994. Vol. 19. № 4. P. 430—446. doi:10.1006/ceps.1994.1031

UDK:159.972

Zakirova Muxabbat Sabirovna
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti
E-mail: muxabbatxonzakirova68@gmail.com
orcid: 0000-0002-4925-244X

O‘QITUVCHINING KASBIY MUAMMOLARI VA STRESSI: PSIXOLOGIK YORDAM VA CHARCHASHNING OLDINI OLISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik-professional faoliyatda stress va hissiy charchoqning yuzaga kelishi, uning sabablari, belgilari yoritilgan. Oldini olish shartlari ko‘rsatib o‘tilgan*
Kalit so‘zlar: *Stress, hissiy charchoq, kognitiv muammolar, emotsional zo‘riqish, depressiya, motivatsiya*

ПРОФЕССИНОАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И СТРЕСС ПЕДАГОГА: ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА И ПРОФИЛАКТИКА УСТАЛОСТИ

Аннотация. *В данной статье описано возникновение стресса и эмоционального утомления в педагогической и профессиональной деятельности, его причины и симптомы. Указаны условия профилактики.*
Ключевые слова: *Стресс, эмоциональное истощение, когнитивные проблемы, эмоциональное напряжение, депрессия, мотивация*

PROFESSIONAL PROBLEMS AND STRESS OF THE TEACHER: PSYCHOLOGICAL SUPPORT AND PREVENTION OF FATIGUE

Annotation. *This article describes the occurrence of stress and emotional fatigue in pedagogical and professional activity, its causes and symptoms. Conditions for prevention are indicated*
Keywords: *Stress, emotional exhaustion, cognitive problems, emotional strain, depression, motivation*

Zamonaviy odam doimo stress yoqasida yashaydi. Bunga albatta yomon ekologiya, shahar hayotining qattiq ritmi, tajovuzkor ijtimoiy muhit, siyosiy beqarorlik, moliyaviy inqirozlar va boshqa shu kabi ko‘plab omillar sabab bo‘ladi. Stresssiz hayot mumkin emas. Stress inson hayotining doimiy hamrohiga aylanishga ulgurdi. Olimlarning fikricha, kichik stresslar muqarrar va zararsizdir, ammo haddan tashqari ko’p stress inson va guruh uchun katta, dolzarb muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, stresssiz professional faoliyat yo‘q. O‘qituvchilarning salomatligi va hayot sifati, boshqa ko‘plab kasbiy sohalarda bo‘lgani kabi, ko‘p jihatdan ish sharoitlari, ishni tashkil etilishi, mazmuni va faoliyatning boshqa xususiyatlariga bog‘liq. Biroq, ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta'lim muhitidagi stress omillari doimo keng tarqalgan bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda ayniqsa keng ko‘lamli bo‘lib qoldi. Zamonaviy o‘qituvchining ishi katta psixoemotsional holatlar bilan bog‘liq. Pedagogik ishda yuqori mas'uliyat, motivatsion va shaxsiy ishtirok, yosh maktab o‘quvchilari bilan muloqotda sezilarli hissiy “zo’riqish”, boshlang‘ich ta'limdagi sezilarli o‘zgarishlar davridagi ishning murakkabligi o‘qituvchi faoliyatining stressli xususiyatini belgilaydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, stress o‘qituvchining doimiy holatidir. Kasbiy faoliyat zamonaviy o‘qituvchiga yuqori talablarni qo‘yadi, bu esa o‘z psixologik resurslarini doimiy va maksimal safarbar qilishni talab qiladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar (L.M. Abolin, 1987; G.F. Zaremba, 1982; L.M. Mitina, 1992; S.V. Subbotin, 1992) ta'kidlashlaricha, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati eng stressli ijtimoiy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, stress omillari ko‘p bo‘lgan kasblar guruhiga kiritilgan. O‘qituvchilik kasbi odatda kasbiy faoliyatning intellektual va hissiy jihatdan eng qizg‘in turlaridan biri sifatida tan olingan. [Gorelova 2002, Mitina 1998, Klimov 1996, Podymov 1998, Kuper 1996 va boshqalar][1] . O‘qituvchi kasbi sog‘lig‘ining buzilishining chastotasi bo‘yicha yuqori xavfli kasblar guruhiga kiradi. Ma’lumki, taranglik darajasi bo‘yicha o‘qituvchining ish yuki menejerlar va bankirlar, bosh direktorlar va uyushmalar prezidentlari, ya'ni odamlar bilan bevosita ishlaydigan boshqa

[1] Логинова А.В. Профессиональный стресс и синдром профессионального выгорания в педагогической деятельности // Молодой ученый. 2015. №11. С. 1408–1410 / Логинова АВ. Профессионалъний стресс и синдром

mutaxassislardan o‘rtacha ko‘proqdir. O‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida ko‘plab stress omillariga, shu jumladan katta o‘quv yuklariga, kundalik va uzoq davom etadigan qiyin vaziyatlar bilan bog‘liq tez-tez ta'sirchan reaksiyalar, stressga o‘z vaqtida javob bera olmaslik, turli toifadagi odamlar bilan doimiy muloqot qilish, intensiv aks ettirishni talab qiladi. O‘qituvchining ishi noto‘g‘ri hissiy reaktsiya ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lgan har xil stressli vaziyatlarga to‘la. Stressli ta'sirning takroriy takrorlanishi yoki davomiyligi bilan hissiy qo‘zg‘alish turg‘un shaklga ega bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilarning kasbiy faoliyati intensivligining sabablari obyektiv va subyektiv omillar bilan bog‘liq.

•Obyektiv omillarga ish kunining ish yuki, faoliyatning tor muddatlari, mehnat natijalarining pasayishi, qoniqarsiz turmush sharoiti va past ish haqi kabi faoliyat shartlari kiradi. Bundan tashqari, ko‘plab ijtimoiy yuklar o‘qituvchining yelkasiga yuklanadi.

•O‘qituvchi faoliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan subyektiv omillarga o‘quvchilar va hamkasblar bilan muloqotga to‘sqinlik qiluvchi shaxsning individual xususiyatlari, ish tajribasining yetishmasligi, kasbiy o‘sishdan qoniqmaslik, noaniqlik yoki mas'uliyatning etishmasligi va boshqa shaxsiy fazilatlar kiradi.

Tadqiqotchilar A.K.Markova, L.M.Mitina, M.M.Ribakovalar pedagogik faoliyatning stressli holatlarining quyidagi tasnifini ajratadilar[1]:

1) o‘qituvchi va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar holati (huquqbuzarlik harakati, ziddiyatli vaziyatlar, o‘qituvchining talablarini e'tiborsiz qoldirish);

2) hamkasblar va ma'muriyat bilan munosabatlarda yuzaga keladigan vaziyatlar (topshiriqlarning ortiqcha yuklanishi, ish yukini taqsimlashdagi nizolar, o‘quv ishlarini ortiqcha nazorat qilish, maktabda noto‘g‘ri o‘ylangan yangiliklar va boshqalar);

3) o‘qituvchi va bolalarning ota-onalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar holatlari va boshqalar[2].

Biz bilamizki, o’qituvchi o’quvchilar bilan ishlaydi. Faoliyati jarayonida pedagoglar, o’quvchilar va ularning ota –onalari bilan muloqotda bo’ladi. Uning kasbiy faoliyatida charchashi yoki asbiylashishi bevosita pedagogik jarayondagi turli nizolarga, ota- onalar bilan muloqotdagi tushunmovchilikka, o’quvchilarning o’zlashtirish hamda ularning kayfiyatlariga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa o’z –o’zidan ta’limdagi o’zlashtirish darajasining pasayishiga olib keladi.

O’qituvchining kasbiy stress alomatlari quyidagilar:

- Doimiy charchoqni his qilish
- Motivatsiya yo‘qligi
- Ko‘ngilsizlik va boshqa salbiy his-tuyg‘ular
- Kognitiv muammolar
- Ishlashning yomonlashuvi
- Uyda va ishdagi shaxslararo muammolar
- O‘ziga g‘amxo‘rlik yetishmasligi
- O’z ishidan mamnun bo’lishning umumiy pasayishi
- Sog‘liqdagi muammolari

Kasbiy stressga eng moyil bo‘lgan kasb bu o‘qituvchilikdir, chunki ularning ishi doimiy stressli vaziyatlar bilan bog‘liq.Stress surunkali holatga kelganda esa bu vaqt davom etadi va o’qituvchi boshqa narsalarga e'tibor berishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

T.V.Farmanyuk o‘z tadqiqotida shaxsdagi emotsional zo‘riqish simptomlarining quyidagi variantlarini aniqladi:

- Emotsional zo‘riqishning his qilish;
- Asab tizimining izdan chiqishi;
- Xolsizlanish, tinkasi qurish;
- Insonparvarlikning rad etilishi;
- Shaxsning tan olinmasligi;
- Atrofdagilarning yuzaki muloqoti.

Charchoq ko‘pincha boshqa alomatlar bilan birga keladi, masalan:

- Depressiya va bir paytlar sizga yoqqan faoliyat bilan shug‘ullanish istagi yo‘qligi.
- Diqqatni jamlash yoki diqqatni jamlashda muammo.

[1]Логинова А.В. Профессионалъного выгорания в педагогической деятелъности [Professional burnout in teaching activities]. Молодой ученый. 2015;11:1408-10. Руссиан

[2] Водопьянова, Н.Е. Синдром выгорания: дидактика и профилактика [Текст] / Н.Е. Водопьянова, Е.С. Старченкова. – СПб. : Питер, 2008.

- Juda kam energiya va motivatsiya.
- Asabiylashish, tashvish va asabiylashish.
- Mushaklardagi og‘riq va zaiflik.

Boshqa charchoq belgilari:

- Charchagan ko‘zlar
- Charchagan oyoqlar
- Butun tananing charchoqlari
- Toliqqan yelkalar
- Noqulaylik (bezovtalik)
- Zerikish
- Sabrsizlik

Ko‘pincha noqulay sharoitlar, bezovtaliklar, dori-darmonlar va turmush tarzi omillari charchoqqa olib kelishi mumkin. Charchoq vaqtinchalik yoki surunkali holatda bo‘lishi mumkin (olti oy yoki undan ko‘proq davom etadi). Siz dietangizni, dori-darmonlarni, jismoniy mashqlar yoki uyqu odatlaringizni o‘zgartirish orqali charchoqni tezda bartaraf etishingiz mumkin. Agar asosan tibbiy holat charchoqqa sabab bo‘lsa, shifokor vaziyatni davolashi yoki uni boshqarishda yordam berishi mumkin. Charchoqning sabablari quyidagilardan iborat:

Turmush tarzi odatlari

Ba’zi turmush tarzi omillari charchoqqa hissa qo‘shishi mumkin. Bu omillarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Noto‘g‘ri ovqatlanish
- Spirtli ichimliklarni haddan tashqari iste’mol qilish
- Giyohvand moddalarni noqonuniy iste’mol qilish
- Stress
- Kuchlanish
- Faol bo‘lmagan (o‘tiradigan) turmush tarzi

Uyqu buzilishi

Ba’zi uyqu buzilishlari uzoq muddatli charchoq va haddan tashqari charchoqqa olib kelishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- Uyqusizlik
- Uyqu apneasi
- Narkolepsiya

Qanday tibbiy holatlar charchoqqa olib keladi?

Charchoq – bu tanangizning turli qismlariga ta’sir qiladigan keng ko‘lamli kasalliklar, buzilishlar va kamchiliklarning alomatidir. Charchoqning eng keng tarqalgan sabablaridan ba’zilari:

Infektsiyalar

Ko‘pgina infektsiyalar charchoqqa olib kelishi mumkin, jumladan:

- Mononukleoz
- OIV
- COVID-19
- Gripp
- Pnevmoniya
- Lyme kasalligi

Yurak va o‘pka muammolari

Charchoq yurak-qon tomir va o‘pka kasalliklarining keng tarqalgan alomatidir, masalan:

- Yurak kasalligi.
- Postural ortostatik taxikardiya sindromi (POTS)
- Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (KOAH)
- Amfizema
- Konjestif yurak etishmovchiligi

Ruhiy salomatlik holati

Muayyan ruhiy salomatlik holatlari tufayli charchoq kundalik ishlarni bajarishni qiyinlashtirishi yoki imkonsiz qilishi mumkin. Ushbu shartlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Depressiya
- Anksiyete
- Shikastlanishdan keyingi stress buzilishi (PTSD)

AutoImmun kasalliklar

Charchoq ko‘plab otoimmyun kasalliklarning alomatidir, jumladan:

- 1-toifa diabet
- Lupus
- Ko‘p skleroz (MS)
- Miyasteniya gravis
- Romatoid artrit
- Sjogren sindromi

Gormonal nomutanosibliklar

Endokrin tizimingiz bilan bog‘liq muammolar (tanangizdagi gormonlar ishlab chiqaradigan bezlar) charchoqqa olib kelishi mumkin. Gipotiroidizm charchoqning keng tarqalgan sababidir.

Boshqa surunkali sharoitlar

Ba’zi surunkali kasalliklar og‘ir, uzoq davom etadigan charchoqqa olib kelishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- Saraton
- Surunkali charchoq sindromi (shuningdek, CFS yoki miyalgik ensefalomiyelit deb ataladi)
- Fibromiyaljiya
- Buyrak kasalligi
- 2-toifa diabet

Kamchiliklar

Anemiya va boshqa vitamin etishmasligi (masalan, D vitamini yoki B12 vitamini) ko‘pincha charchoq uchun javobgardir. Suvsizlanish charchoqqa olib kelishi mumkin, chunki tananing ishlashi uchun ko‘p suyuqlik kerak.

Vazn muammolari va ovqatlanishning buzilishi

Ba’zi vazn muammolari va ovqatlanishning buzilishi charchoq va bir qator boshqa alomatlarga olib kelishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- Anoreksiya
- Bulimiya
- Ortiqcha vazn/semirish
- Kam vazn

Shifokorim charchoqni boshqarishda qanday yordam berishi mumkin?

Sizning charchog‘ingizga nima sabab bo‘lganini bilish uchun shifokor turmush tarzingiz va dori-darmonlaringiz haqida savollar beradi. Shuningdek, jismoniy tekshiruvdan o‘tkazadilar. Ular qon va siydikdagi ma’lum darajalarni tekshirish uchun ba’zi laboratoriya testlarini buyurishlari, hamda homiladorlik testini ham buyurishi mumkin.

Qanday qilib uyda charchoqni engillashtirsa bo‘ladi?

Agar tibbiy holat charchoqqa olib kelmasa, turmush tarzingizni o‘zgartirish simptomlaringizni yaxshilashi mumkin. Charchoqni kamaytirish uchun siz:

- **Yaxshi uyqu odatlariga amal qiling:** Har kecha yetti-to‘qqiz soat uxlashni maqsad qiling. Kofein ichmang, elektronikadan foydalaning yoki yotishdan oldin mashq qilmang. Har kuni bir vaqtning o‘zida yotishga va turishga harakat qiling.
- **Spirtli ichimliklar va spirtli moddalarni iste’mol qilishdan saqlaning:** noqonuniy giyohvand moddalarni iste’mol qilmang va spirtli ichimliklarni me’yorida iste’mol qiling.
- **Sog‘lom ovqatlaning:** muvozanatli dieta va ko‘p miqdorda suv tanangizni oziqlantirib, suv bilan ta’minlaydi.
- **Stressni boshqaring:** yoga, diqqat, meditatsiya va muntazam jismoniy mashqlar stressdan xalos bo‘lishga va ko‘proq energiya olishga yordam beradi.
- **Shifokorga murojaat qiling:** infektsiyalar, kasalliklar, vitamin yetishmasligi va boshqa sog‘liq sharoitlarini istisno qilish uchun uchrashuv tayinlang. Shuningdek, siz qabul qilayotgan dori-darmonlar haqida shifokor bilan gaplashib, ular sizning alomatlaringizga sabab bo‘ladimi yoki yo‘qligini bilishingiz kerak.
- **Tez-tez mashq qiling:** Sog‘lom turmush tarzi uchun muntazam jismoniy mashqlar juda muhimdir. Garchi bu intuitiv tuyulishi mumkin bo‘lsa-da, kuchli mashqlar unga o‘rganib qolganingizdan keyin o‘zingizni yanada baquvvat his qilishingizga yordam beradi. Ammo haddan tashqari ko‘p mashq qilish charchoqqa olib kelishi mumkin, shuning uchun siz uchun eng yaxshisi haqida shifokor bilan gaplashing.

• **Sog‘lom vaznga erishing va uni saqlang:** ideal vazningiz haqida shifokor bilan gaplashing va shu diapazonda qolishga harakat qiling.

Charchoq haqida qachon shifokorga murojaat qilishim kerak?

Vaqti-vaqti bilan charchash odatiy holdir. Har bir inson kasallik, uyqu buzilishi, sayohat yoki parhez yoki dori-darmonlarni o‘zgartirish tufayli vaqti-vaqti bilan qisqa charchoqni boshdan kechiradi. Ammo har doimiy charchagan bo‘lsangiz, shifokor bilan gaplashishingiz kerak. Shuningdek, agar:

- Sizning charchog‘ingiz bir necha kundan ko‘proq davom etadi
- Ishga borish yoki kundalik ishlarni bajarishda qiynalayapsiz
- Sizning charchoqingiz uchun aniq sabab yo‘q (masalan, yaqinda paydo bo‘lgan kasallik)
- Birdan paydo bo‘ladi
- Siz 65 yoshdan oshgansiz
- Siz ham ozgansiz

Charchoq sog‘liqning jiddiy holatining belgisi bo‘lishi mumkin. Agar sizda charchoq va boshqa alomatlar bo‘lsa, darhol tibbiy yordamga murojaat qilishingiz kerak, masalan:

- Nafas qisilishi yoki ko‘krak qafasi, qo‘l yoki yuqori orqa qismida og‘riq
- G‘ayrioddiy tez (taxikardiya) yoki sekin (bradikardiya) yurak urishi
- Yurak urishi yoki tartibsizlik (aritmiya)
- Bosh og‘rig‘i yoki ko‘rish muammolari (ayniqsa, yaqinda boshingizni urgan bo‘lsangiz)
- Ko‘ngil aynishi, qusish yoki qorin og‘rig‘i
- Mushaklar kuchsizligi
- O‘zingizga yoki boshqalarga zarar etkazish haqidagi fikrlar

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Водопянова Н. Е., Старченкова Е. С. Синдром выгорания: диагностика и профилактика. — СПб., 2005.
2. Водопянова Н. Е., Старченкова Е. С. «Синдром выгорания» в системе «человек — человек». — В кн.: Практикум по психологии менеджмента и профессиональной деятельности./ Под ред. Никифорова Г. С., СПб., 2001.
3. Величковская С. Б. Проблема развития профессионального «выгорания». Синдром «выгорания» у преподавателей иностранного языка. Статья // Психологические и педагогические проблемы развития образования. Вестник МГЛУ. — Выпуск 484. — М.: Изд-во МГЛУ. — 2004.
4. У.Нурбер. Эмоциональное выгорание. –М., 2021
5. Логинова А.В. Профессиональный стресс и синдром профессионального выгорания в педагогической деятельности // Молодой ученый. 2015. №11. С. 1408–1410 /

Qayumov Baxtiyor Zokirjon o'gli
Namangan davlat universiteti doktoranti

O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI PSIXOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANISHINI EMPIRIK TADQIQ ETISH

Annotatsiya. *Maqolada kreativlik tushunchasini psixologik tahlili berilgan. Xorij olimlarining kreativlik haqidagi fikrlari tizimlashtirilgan. Bundan tashqari, o'quvchilarda kreativlik rivojlanishini empirik natijalari taqdim etilgan.*

Tayanch tushunchalar: *Kreativlik, originallik, belgili tafakkur, innovasion fikrlash*

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ С ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ

Аннотация. *В статье проводится психологический анализ понятия творчества. Систематизированы мнения зарубежных ученых о творчестве. Кроме того, представлены эмпирические результаты развития творческих способностей учащихся.*

Основные понятия: *Креативность, оригинальность, символическое мышление, инновационное мышление.*

EMPIRICAL RESEARCH OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN STUDENTS FROM A PSYCHOLOGICAL POINT OF VIEW

Abstract. *The article provides a psychological analysis of the concept of creativity. The opinions of foreign scientists about creativity are systematized. In addition, the empirical results of the development of creativity in students are presented.*

Basic concepts: *creativity, originality, symbolic thinking, innovative thinking*

Kirish. Uzoq xorij psixologiyasida ijodkorlik tushunchasi "kreativlik" so'zi bilan izohlanadi. 60-yillarning oxirlariga kelib shaxs kreativligini boshqa psixik tuzulmalar bilan bog'lash an'analari boshlandi. Ayniqsa, tadqiqotlarda shaxsni muammoli vaziyatni bajarishdagi muvaffaqiyati uning kreativligi bilan korrelyativ aloqaga ega ekanligi aniqlandi. Dj. Gilford, N. Marsh, F. Xeddon, L. Kronbax, Ye.P. Torrens o'z tadqiqotlarida kreativlikni intellektdan ajratgan holda alohida aqliy faoliyat turi sifatida tadqiq etishgan. Kreativlikda shaxs masala yechishda bir nechta usullardan tezlikda foydalana olish qobiliyati deya tushunishgan.

Rossiyalik tadqiqotchilar ijodiy fikrlashni produktiv fikrlash natijasi deb qarashgan. Ular o'z tadqiqotlarida ijodiy fikrlash mexanizm va sabablarini tadqiq etishga e'tibor berishgan.

I.Y. Lerner ijodkorlikni tasniflashda uning mahsuldorligiga e'tibor qaratgan. Shaxs ijodkorligini namoyon qilayotgan chog'ida,avvalo o'zining individualligini namoyon qiladi deb hisoblagan. Olim ijodiy fikrlashning asosini quyidagicha ta'riflagan: shaxs o'z bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatga mustaqil ko'chira olish, tanish va standart sharoitlarda yangi muammolarni ko'ra olish, ob'yektning yangi vazifalarini anglay olish yoki ob'yekt qismlarini ajrata olish va uni tezda bir-biriga qayta munosabatini qura olish, muammoni yechishda ilgari yechimni yangisiga almashtira olish qobiliyatidir. Olimning fikricha, bu qobiliyatlarni tabiiy layoqat va mashq yordamida shaxsda shakllantirish mumkin. Lekin buni kimningdir xulq-atvorida ko'rib yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish natijasida qo'lga kiritib bo'lmaydi. Bizning fikrimizda olim, haqiqatda ijodkorlik mavjud asosini va mexanizmini juda chiroyli yoritib bera olgan. Uning fikricha, ijodiy fikrlash ko'proq shaxsning tabiiylik va irsiyat mahsuli sifatida namoyon bo'lgan [2].

V.N.Drujinining fikricha, shaxsdagi ijodkorlik bu fantaziya, g'oya, hayol jarayonlarining qayta ishlanishi bo'lib, u faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlaydi [1].

Ya.A.Ponamarev ijodiy fikrlashni intellektual faollik va faoliyat maxsuliga nisbatan sezgirlik yoki senzitivlik bilan izohlagan [6].

Yuqoridagi keltirilgan olimlarning fikricha, ijodiy fikrlash qachon yaxshi samara beradi. Qachonki, reja, dastur va natija o'rtasida mutanosiblik bo'lgan taqdirdagina ijodkorlik mexanizi ishga tushadi. Ijodiy faollikning asosiy motivi "yangi mahsulot yaratishga urunish istagi bo'lib hisoblanadi.

V.A. Krutesskiy ijodiy fikrlashni matematik qobiliyat doirasida izohlagan. Ijodiy fikrlash strukturasini kuyidagicha:

- matematik misol va topshiriq tuzulishini umumiy ongda idrok eta olish qobiliyati;
-misol va masalalarni yechish jarayonida matematik belgilar asosida sifat va son munosabatlarining mantiqiy yechimini qo‘ra olish qobiliyati;
- aqliy jarayonlarning egiluvchaligi;
- masala yechimida ratsional yo‘llarni ko‘ra olish qobiliyati;
-misol va masala yechimini tez va oson yo‘lga yo‘naltira olish qobiliyati;
- matematik xotira:
- fikrlashning matematik yo‘nalganligi [5].

Yuqorida keltirilgan olimning fikrlari o‘ziga hos bo‘lib, u matematik faoliyatdagi ijodkorlikni to‘liq yoritib bera olgan. Aslida matematik faoliyat bu aniq yo‘nalish bo‘lib, bunda ijodkorlikdan foydalanish mumkinligini izohlanganligi taxsinga sazovor bo‘lgan holat hisoblanadi. Bundan tashqari, V.AKrutesskiy matematik faoliyatdagi ijodiy fikrlash kompeonentlariga aqliy jarayonlarning tezligi, hisoblash qobiliyati, son va formulalarni eslab qolish qobiliyati va boshqalarni kiritadi [5].

Dj.Gilford kreativlikning 16 ta komponetini kiritgan. Ular quyidagilar:

- Fikrlash ravonligini – masala yechish jarayonida g‘oyalar soni;
- Fikrlashning egiluvchanligi – bir g‘oyadan boshqa g‘oyaga ko‘cha olish qobiliyati;
- Originallik – umumqabul qilingan qarashlardan farqli ravishda yangicha fikr yurita olish qobiliyati;
- Qiziquvchanlik – olamdagi muammolarga sezuvchanlik;
- Gipotezani ishlab chiqish qobiliyati;
- Irreallik – reaksiyani stimuldan mantiqiy mustaqilligi;
- Fikrlashning fantastikligi – stimul va reaksiya orasidagi manitiqiy bog‘liqlik mavjud holatda javobni reallikdan butunlay ajrata olish;
- Muammoga yechim topa olish, ya’ni analiz va sintez qila olish qobiliyati;
- Ob’yektga detallar qo‘shgan holda uni takomillashtira olish qobiliyati;
- va hakozalar [3].

D. Mekkinnon, K. Yamamoto, D. Xardgrivs va I. Boltonlarning tadqiqotlarida kreativlikni intellekt bilan munosabatini izohlashganda, “quyi chegara” gipotezasini ilgari surishgan. Intellektning quyi chegarasi kreativlikni namoyon etishga halaqt qiladi, lekin uning yuqori darajasi ijodiy muvafaqqiyatni belgilamaydi. Ularning fikricha, intellekt va kreativlik ma’lum darajagacha bir biriga ta’sir qiladi, ijodkorlik keyingi pag‘onalarda mustaqil jarayon bo‘lib namoyon qiladi [4].

- Kreativlik juda murakkab termin bo‘lib, u turli nazariyalar (falsafiy, psixoanalitik, xulq-atvor, rivojlantiruvchi, evolyusion, klinik, ijtimoiy, tashkiliy, ta’limiy, tarixiy-madaniy) yordamida aniqlangan.
- Falsafiy kategoriya sifatida kreativlik borasidagi fikrlar qadimiy Yunon faylasuflari Platon va Aristetellarning qo‘lyozmalarida kuzatishimiz mumkin. Platonning fikricha, ijodkorlik bu Xudo tomonidan yuqtirilgan ne’mat bo‘lib, u “Ilhom” kelaganda shiga tushadi. Aksincha, Aristotelning fikricha, ijodkorlik rasionallik namoyon bo‘lishi natijasida yuzaga keladi.

Asosiy qism. Biz tadqiqotda 7-sinf va 9-sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlanganlik darajasini aniqlashni vazifa sifatida belgiladik. Tadqiqot davomida kreativlik va ijodkorlikning boshqa jihatlarini aniqlash maqsadida J.Brunerning «Tafakkur va kreativlik» testidan foydalandik. So‘rovnoma 75 ta savoldan iborat. Respondent o‘ziga maqul kelgan xulosalarga “+” belgisi qo‘yadi. Respondent belgilagan javoblarni yig‘indisi qo‘shiladi. Natijada, tafakkurning namoyon bo‘lish turlari aniqlanadi. Javoblarni beshta tafakkur turlariga ajratiladi. Bular: predmetli tafakkur, ramziy tafakkur, belgili tafakkkur, obrazli tafakkur, kreativlik. J.Brunerning bu metodikasini afzal tomoni shundaki, u orqali respondetning ham tafakkurning turini ham kreativlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Respondentlar orasida 0-5 ballni to‘plashgani kreativlik darajasi quyi, 6-9 kreativlikning o‘rta darajasi, 10-15 kreativlikning yuqori darajasiga egaligini bildiradi.

1-jadval

J.Brunerning «Tafakkur va kreativlik» testi ko‘rsatkichlarini Kolmogorov - Smirnov mezoni orqali tahlil natijalari (N=460

Ko‘rsatkichlar	Minimal ball	Maksimal ball	Z	p
Predmetli tafakkur	,00	15,00	2,631	,000**
Belgili tafakkkur	,00	15,00	2,382	,000**
Obrazli tafakkur	,00	15,00	2,677	,000**
Kreativlik	,00	15,00	2,610	,000**

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

J.Brunerning «Tafakkur va kreativlik» testi shkalalarining normal taqsimlanish ko‘rsatgichlari tahlil qilinganda quyidagi natijalar kuzatildi (2.2- jadval). « Predmetli tafakkur» (Z=2,631; p<0,05), «Belgili tafakkkur» (Z=2,382; p<0,05), «Obrazli tafakkur» (Z=2,677; p<0,01), «Kreativlik» (Z=2,610; p<0,05) shkalalarining natijalari normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasligi aniqlandi.

Bundan kelib chiqadiki, tadqiqotning keyingi bosqichlarida «J.Burunner» testi shkalalari noparametrik mezonlar asosida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Biz tadqiqotda o‘smirlik davrini ob’yekt sifatida tanladik. O‘smirlik davrida ichki erkinlikning o‘sishida, o‘z-o‘zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o‘zgarishlari yuz beradi. Bunday o‘zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funksiya sifatida o‘smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig‘i bo‘lib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari o‘zi bilan o‘rtoq bo‘lgan bir guruh tengdoshlariga bog‘liq bo‘lmay qoladi. O‘rtoqlari o‘smirga o‘zi to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tasavvurlardan qaytib, jiddiy o‘ylab ko‘rishga uni majbur qilmoqchi bo‘lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o‘z fikrida qat’iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o‘zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o‘z xatti-harakatlarini o‘zi tahlil qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o‘smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. Endi o‘smirlar o‘yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko‘proq jiddiy ishlar bilan shug‘ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi.

Quyidagi jadvalda o‘quvchilarda tafakkur va kreativlikni rivojlanish darajasi sinflar kesimida aks etkan.

8-jadval

J.Brunerning «Tafakkur va kreativlik» testi bo‘yicha o‘quvchilarning sinf bosqichlari kesmida o‘zora tafovutlari (Manni Uitni mezoni asosida N=460)

Ko‘rsatkichlar	Sinaluvchilar Turi	O‘rtacha rang	σ	U	p
Predmetli tafakkur	7-sinf	239,19	2,28	24246,5	0,13
	9-sinf	221,01			
Ramziy tafakkkur	7-sinf	241,58	2,731	23929,5	,075
	9-sinf	219,70			
Belgili tafakkur	7-sinf	247,10	2,778	22676,5	,008**
	9-sinf	214,32			
Obrazli tafakkur	7-sinf	252,61	2,762	21427,5	,000**
	9-sinf	208,96			
Kreativlik	7-sinf	257,89	2,264	20227,0	,000**
	9-sinf	203,81			

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

Yuqoridagi jadvalda **J.Brunerning «Tafakkur va kreativlik» testi** 7-sinf va 9-sinf natijalarining berilgan. Unga ko‘ra, «Predmetli tafakkur» shkalasi bo‘yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatsiz farqlar aniqlandi. «Predmetli tafakkur» shkalasi bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida o‘rta arifmetik qiymat 239,19ga teng bo‘lsa, 9-sinflarda bu ko‘rsatkich 221,01 teng ekanligi ko‘rinib turibdi (U=24246,5;). «Ramziy tafakkkur» shkalasi bo‘yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatsiz farqlar aniqlandi. «Ramziy tafakkkur» shkalasi bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida o‘rta arifmetik qiymat 241,58 ga teng bo‘lsa, 9-sinflarda bu ko‘rsatkich 219,70 teng ekanligi ko‘rinib turibdi (U=23929,5;). J.Brunner testi natijalari ahamiyatsiz bo‘lsa ham, biz 7-sinf va 9-sinf natijalarida sezilarli farq mavjud ekanligini kuzatdik. J.Brunner testi natijasi 9-sinflarga nisbatan 7-sinflarda yuqoriroq ekanligi aniqlandi. «Belgili tafakkur» shkalasi bo‘yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Belgili tafakkur» shkalasi bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida o‘rta arifmetik qiymat 247,10 ga teng bo‘lsa, 9-sinflarda bu ko‘rsatkich 214,32 teng ekanligi ko‘rinib turibdi (U=22676,5; p<0,01). «Obrazli tafakkur» shkalasi bo‘yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Obrazli tafakkur» shkalasi bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida o‘rta arifmetik qiymat 252,61 ga teng bo‘lsa, 9-sinflarda bu ko‘rsatkich 208,96 teng ekanligi ko‘rinib turibdi (U=21427,5; p<0,01). «Kreativlik» shkalasi bo‘yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli

farqlar aniqlandi. «Kreativlik» shkalasi bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida o‘rta arifmetik qiymat 257,89 ga teng bo‘lsa, 9-sinflarda bu ko‘rsatkich 203,81 teng ekanligi ko‘rinib turibdi (U=20227,0; p<0,01). Demak, **J.Brunerning «Tafakkur va kreativlik» testi** bo‘yicha respondentlar orasida tafakkur turlarini hamda kreativlik natijalarini aniqlasak bo‘ladi. Bu metodikaning ayrim shkallarida ahamiyatli va ahamiyatsiz natijalar aks etdi. Lekin umumiy tendensiya shuni ko‘rsatadiki, 7-sinf natijalari 9-sinf natijasiga qaraganda yuqori ekanligi kuzatildi.

Xulosa. Kreativlik murakkab bilish jarayoni bo‘lib, u miya yarim sharlarining fiziologik yetilishiga bog‘liq. Kreativlik qobiliyat sifatida irsiy moyillik mavjudligi hisobiga bolada namoyon bo‘lishni boshlaydi. Lekin, to‘g‘ri yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya hamda neyropsixologik mashg‘ulotlar uni o‘z vaqtida to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Дружинина В. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003
2. Лернер И.Я. Проблемное обучение. - М.: Знание, 1974. - 64с.
3. Илинь И.П. Психология творчества, креативности, одаренности . : Питер; СПб.; 2009 ISBN 978-5-49807-239-5
4.Корнилов С. А. Вербальный интеллект и вербальная креативность как предикторы успешности обучения. Психология XXI века: Материалы научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. СПб., 2008. С. 271.
5. Крутецкий В.А. Психология математических способностей школьников. - М.: Просвещение, 1968. - 432 с.
6. Пономарев Я.А. Психология творческого мышления. - М.: Просвещение, 1960. - 167 с.

Shonazarov Asror Maxmaisoyevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Psixologiya” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI BOSHQARISHNING USLUBIY VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishning o‘ziga xos bo‘lgan samarali uslublaridan foydalanish va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini mazmun-mohiyatini ilmiy-nazariy va amaliy tomondan yoritib berish, boshqaruv qonuniyatlarining uslubiy jihatlarini keng qamrovli ochib berish nazarda tutilgan bo‘lib, bunda boshqaruv subyekti o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishi, ishchi-xodimlar o‘rtasidagi sog‘lom ijtimoiy muhitni yarata olishi, ichki va tashqi bozordagi talab va taklifni o‘rgangan holda ish unumdorligini oshirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.*

Tayanch so‘zlar: *Maxsus iqtisodiy zonalar, boshqaruv uslublari, sifatli kadrlar tayyorlash, boshqaruv uslublari, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ УПРАВЛЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫМИ ЭКОНОМИЧЕСКИМИ ЗОНАМИ

Аннотация. *Данная научная статья предусматривает использование уникальных эффективных методов управления особыми экономическими зонами и их социально-психологических особенностей с научно-теоретической и практической точки зрения, всестороннее раскрытие методологических аспектов законов управления, при этом важно, чтобы Управляющая организация серьезно выполняет свои обязанности, умеет создать здоровую социальную среду среди сотрудников, ориентирована на повышение производительности труда путем изучения спроса и предложения на внутреннем и внешнем рынках.*

Ключевые слова: *Особые экономические зоны, методы управления, качественная подготовка кадров, методы управления, социально-психологические характеристики.*

METHODOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANAGEMENT OF SPECIAL ECONOMIC ZONES

Abstract*. This scientific article envisages the use of unique effective methods of management of special economic zones and their socio-psychological features from a scientific-theoretical and practical point of view, a comprehensive disclosure of methodological aspects of management laws, in which it is important that the management entity performs its duties seriously, can create a healthy social environment among employees, and is oriented to increase work productivity by studying the demand and supply in the domestic and foreign markets.*

Key words: *Special economic zones, management methods, quality personnel training, management methods, socio-psychological characteristics.*

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, tadbirkorlik va kichik biznes vakillari bilan ochiq muloqatda bo’lish va ularni qo‘llab-quvvatlash, eksportbop va import darajasini oshirish va ularning o‘rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish, zamonaviy logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta’minlash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda maxsus iqtisodiy zonalar katta rol o‘ynaydi. Bu esa o‘z navbatida sohaga oid mavjud muammolarni hal etish, maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini yanada takomillashtirish va ularni boshqarishning ijtimoiy-psixologik asoslarini yaratish, sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar va xulosalarni ishlab chiqib ularni amaliyotga joriy etish, maxsus iqtisodiy zonalarni boshqaruvini sifat va samaradorligini tizimli tahlil asosida yanada qamrovini kengaytirish mavzuni jamiyat hayoti uchun naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy boshqaruv subyektlarining respublikamiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni va rolini oshirib borish, ishchi-xodimlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir etadigan muammolarni aniqlash va ularni o‘z vaqtida bartaraf qilish muhim hisoblanadi.

Insoniyatning rivojlanish tarixga nazar soladigan bo‘lsak, har qanday va jamiyatning rivojlanishini asosini samarali boshqaruv hamda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit tashkil etadi. So‘nggi yillarda respublikamizda siyosat, ta’lim, ilm-fan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy kabi ko‘plab sohalar singari boshqaruv sohasida ham ijodiy islohatlar amalga oshirilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi islohatlarning barchasi jahon hamjamiyati oldida yurtimizning mavqeyini yanada yuksaltirish, tashkilot, korxona va muassasalarni faoliyatini yanada rivojlantirish, raqobatga bardoshli hamd sifatli rahbar kadrlarni tayyorlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi islohatlarning natijasi kelgusida mamlakatimiz rivoji uchun xizmat qiladigan boshqaruv jarayonlarini izchillik prinsipi asosida takomillashib borishiga olib keladi. Shuning uchun ham turli tipdagi xarakter-xususiyatga ega bo‘lgan xodimlarni faoliyatlarini samarali yo‘lga qo‘yish orqali jamoani boshqarishda o‘zlarining bilim, ko‘nikma va malakalarini hamda o‘zlashtirilgan hayotiy tajribalarini yangicha yondashuvlar asosida ijtimoiy-psixologik jihatdan amaliyotda qo‘llay bilishini yanada takomillashtirish haqida fikr yuritiladi.

Yuqoridagi keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib ta’kidlash kerakki, ushbu yuqorida keltirilgan dolzarb masalalarni o‘z vaqtida hal etilish, zamonaviy boshqaruv uslublaridan oqilona foydalanish ayni paytda davlat va jamiyat ravnaqi uchun o‘ta muhim vazifalardan biri sanaladi.

Rahbarlardagi boshqaruv jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatdan uslubiy masalasining dolzarbligi bu tashkilotning butun faoliyati samaradorligiga bog‘liqdir. Boshqaruv jarayonlarining samaradorligi vaqt bilan taqqoslanishi mumkin. Boshqaruv sohasida rahbarlarga xos uslublar yondashuvlar yaxshi va aniq mexanizmlarning rejalashtirilgan natijasiga olib keladi. Shu bilan birga, yaxshi boshqaruv tizimi moslashuvchanlik bilan ajralib turadi va ushbu jarayon yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatida yuzaga chiqadi.

Boshqaruvning asl mohiyati shundaki, har bir jamoada boshqaruvga qobiliyatli bo‘lgan shaxslar alohida ajralib turadi va shu qobiliyatlari orqali boshqaruv jarayonlari umumiy qoidalarini, boshqaruv uslublarini hamda ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini asta-sekinlik bilan o‘zlashtirib boradi.

Boshqaruv obyektni (korxona, resurs) yoki subyekt (shaxs) boshqarishni anglatadi. Bu esa o‘z navbatida boshqaruv obyektni mazmunini anglatadi. Iqtisodiy va psixologik tahlillardan kelib chiqib aytganda, boshqaruv jarayoni – bir tomondan, rahbar va ishchi-xodimlar faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab oladigan o‘zaro munosabatlarni anglatsa, ikkinchi tomondan, tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, maqsadlarga erishish va rivojlanish uchun zarur bo‘lgan turli tadbirlar, muvofiqlashtirish, buyurtmaning saqlanishi bilan belgilanadi. Bularning barchasi boshqaruv jarayonining mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Zamonaviy boshqaruv jarayoni o‘z navbatida taktik va strategik vazifalarni o‘z ichiga qamrab olgan holda amalga oshiriladi:

1) xodimlar to‘g‘risida aniq va asosli ma’lumotlar bazasini yaratishni yo‘lga qo‘yish;

2) rahbar o‘z oldiga qo‘ygan rejalari asosida o‘z faoliyatini va (tashkilot, korxona, muassasa) faoliyatini prognozlashtirish;

3) boshqaruvda inson omili aralashuvisiz tashkil etish;

4) boshqaruv faoliyatini motivlashtirishga qaratilgan uslubiy va vositalardan foydalanish;

5) boshqaruvga doir qabul qilingan qaror va qoidalar mutanosibligini ta’minlashni yo‘lga qo‘yish;

6) davlat tomonidan berilayotgan topshiriqlarning nazoratini doimiy ta’minlashni yo‘lga qo‘yish;

7) boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishda ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni kreativlik asosida tashkil etish.

Yuqorida keltirilgan ustuvor masalalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, barch soha singari boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish va rahbar xodimlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish, ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchanlik sifatlarini va xodimlarning ish unimdorligini oshirish, milliylik asosida ularni doimiy motivlashtirish ilmiy tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ushbu keltirib o‘tilgan vazifalarni hal etish orqali kelgusida rahbarlarni o‘z o‘rnida lavozimlarga tayinlash, rahbarlardagi boshqaruv qobiliyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarishga erishladi.

Bu borada Prezident, Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha soha rahbarlari doimo insonlar tashvishi va muammolarini o‘ylab yashash har qanday rahbar uchun muqaddas vazifa bo‘lishi shartligi haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar.

Mening asosiy talabim – odamlarni tushunish, ularning quvonchu tashvishlari bilan yashash, yon-atrofdagi vaziyatga oddiy xalqning ko‘zi bilan qarash va baho berish, el-ulusdan ajralib qolmaslik kerak. Shundagina hudud yoki tarmoqni boshqarish va muhim qarorlar qabul qilishda aniq samara bo‘ladi.

Har bir rahbarning faoliyat mezoni – bu xalqning orzu-umidlarini o‘zi uchun asosiy maqsad qilib, ularni izchillik bilan ro‘yobga chiqarishdan iborat [1].

Darhaqiqat boshqaruv jarayonlarini zamonaviy va manfaatdor bo‘lishligini ta’minlash, rahbarlarning boshqaruv faoliyatini jamiyat hayotiga moslashtirish, ko‘rkam va natijador shakliga olib kelish ijtimoiy-psixologik jihatdan davlat va jamiyat oldidagi asosiy maqsadlarimizdan hisobladadi.

Jahon miqyosida olib qaraydigan bo‘lsak, boshqaruv sohasini rivojlantirishning me’yoriy asoslari yaratilgan. Ammo ko‘plab boshqaruvga doir muammolar hali ham mavjud. Shu boisdan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o‘rinbosarlari bo‘ladimi, hukumat a’zosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak”ligi ustuvor vazifa sifatida ta’kidlandi. Shu nuqtai nazardan oladigan bo‘lsak, rahbarlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini takomillashtirishning psixologik ta’sir mexanizmlari va texnologiyalari yo‘nalishlarini rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlar e’tiborga molik bo‘lib, ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi–O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 17.02.2020 yildagi O‘RQ-604-son”, “O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi Maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish dasturlari, O‘RQ-775-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)” qaror va farmonlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash va maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish dasturlarini ijtimoiy-psixologik asoslari nazariy va amaliy ahamiyatini amaliyotga joriy etish mazkur ilmiy tadqiqot ishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Statistik ma’lumotlarga tayangan holda shuni aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda 23 ta erkin iqtisodiy va 348 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularda umumiy qiymati 2,6 milliard dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 36 mingga yaqin ish o‘rni yaratilgan. Kichik sanoat zonalarida esa 5 trillion so‘mlik 1 ming 497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi ta’minlangan.

Albatta, bu quvonarli holat. Lekin mazkur zonalarda mahalliy va xorijiy investorlar o‘z faoliyatini to‘laqonli boshlashi uchun ayrim muammolar ham borki, bu yangi investorlar va tadbirkorlarni istiqbolli loyihalarni amalga oshirishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatyapti.

Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari muhokamasi yuzasidan joriy yil 27-aprel kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda bu masalaga alohida e’tibor qaratilib, tadbirkorlarni qiynab kelayotgan muammo – infratuzilma masalalarini hal etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbarining “Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori erkin iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida ishga tushirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarning yechimiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Unga muvofiq, joriy yilda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari infratuzilmasini yaxshilash uchun 1 trillion 600 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi. Endilikda 17 ta erkin iqtisodiy zonada qo‘shimcha elektr energiyasi, gaz, ichimlik suvi va oqova suvi tarmoqlari hamda avtomobil yo‘llarini barpo etish uchun 584 milliard so‘m, 145 ta kichik sanoat zonasi uchun 395 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Aytish kerakki, sanoatni innovatsion asosda tashkillashtirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, ilmiy-texnologik hamda innovatsion tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish bugungi kunning ustuvor vazifasidir. Bu borada yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarda jahon tajribalarini o‘zlashtirish, korxonalarda innovatsiyalarning joriy qilinishi, texnologiyalar transferini ta’minlash uchun texnopolislar, texnoparklar kabi erkin iqtisodiy hududlar va ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarining barpo qilinishiga yo‘naltirilgan qonunchilikni yaratish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Yirik investitsiya loyihalarini infratuzilma bilan ta’minlash maqsadida 232 milliard so‘m ko‘zda tutilgani, rivojlanishdan ortda qolgan 33 ta tumanda sanoat va biznesni jadal rivojlantirish uchun 264 milliard so‘m ajratilishi ayni muddao bo‘ldi. Bundan buyon biz deputatlar mazkur mablag‘larni ajratilishi va maqsadli ishlatilishi ustidan ta’sirchan parlament va deputatlik nazoratini o‘rnatishimiz lozim bo‘ladi.

Eng muhim masala erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalaridagi loyihalarni o‘z vaqtida ishga tushirish ekani aytilib, joriy yilda erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo‘lgan 332 ta loyiha, kichik sanoat zonalarida umumiy qiymati 9,5 trillion so‘m bo‘lgan 1 ming 800 ta

loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgani ta'kidlandi. Bu loyihalar esa yurtimizda sanoatni yana-da rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim omildir.

Maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyatini boshqarish va ularni samaradorligini oshirish bugungi kun uchun muhim ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyatini boshqarish davomida boshqaruvchi ishchi-xodimlarni faoliyatini yanada samarali tashkil etishda va ularni qiziqishlari, qobiliyatlarini motivlashtirishning kreativlilik darajasini oshira olishini shaxsiy fazilatga aylantira olishi, ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarni egallab o'zlarini faoliyatlarini to'g'i tartibga sola oladigan ijodiy tafakkurga ega bo'lgan boshqaruvchilarni sifatini va salmog'ini oshirish mumhim ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi.

Boshqaruv uslublari tushunchasi va ularning tasnifi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, boshqaruv jarayonini amalga oshirish va uning mazmun-mohiyatini ochib berish uchun zarur bo'lgan barcha vositalarning asosini bu albatta boshqaruv uslublari tashkil etadi.

Boshqaruv uslubi – muayyan maqsadlarga erishish maqsadida boshqariluvchi obyektga ta'sir ko'rsatish usullari va vositalari majmui.

Menejer muayyan vazifani hal qilayotganida turli uslublar uning ixtiyoriga maqsadlar qo'yish va ularni amalga oshirish uchun zarur vaqt va boshqa resurslar sarfini kamaytiruvchi qoidalar, usullar va yondashuvlar tizimini beradi. Biz ko'rib chiqayotgan boshqaruv uslublari mehnat jamoalariga, shu jumladan, alohida xodimlarga nisbatan qo'llaniladi.

Mazkur yondashuv boshqaruvning boshqariluvchi obyektlarga izchil ta'sir ko'rsatishni nazarda tutuvchi umumiy konsepsiyasi bilan bog'liq. Mehmonxona korxonalari, tashkilotlar, birlashmalar va mehnatkashlarning jamoalari boshqaruvning boshqariluvchi obyektlaridir.

Boshqaruv uslublarining ko'pligi va ularni tasniflashga nisbatan yondashuvlarning har xilligi muayyan boshqaruv vazifalarini hal qilishda ularning orasidan ko'proq samara beradigan uslublarni tanlab olish vazifasini og'irlashtiradi. Boshqaruv uslublarining rang-barangligi ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflash yordamida ularning butun majmuini tartibga solishni taqozo etadi. Boshqaruv uslublarini tavsiflashda ularning mo'ljali, mazmuni va tashkiliy shaklini ochib berish lozim.

Boshqaruv uslublarining mo'ljali ular muayyan boshqaruv obyekti (firma, bo'lim, bo'linma, kompaniya va h.k.)ga yo'naltirilganligini anglatadi.

Boshqaruv uslublarining mazmuni va mohiyati deganda obyektga ta'sir ko'rsatish o'ziga xos usullarining majmui tushuniladi.

Boshqaruv uslublarining tashkiliy shakli – yuzaga kelgan muayyan vaziyatga ta'sir ko'rsatish usullari. Ta'sir to'g'ri (bevosita) yoki egri (bilvosita, ya'ni vazifani qo'yish va uni hal qilishga rag'batlantiruvchi shart-sharoitlar yaratish) bo'lishi mumkin.

Mehmonxona korxonalarini boshqarish amaliyotida turli uslublar va ularning har xil uyg'unliklari bir qatorda qo'llanadi.

Shuni qayd etish kerakki, ko'plab psologik adabiyotlarda boshqaruv uslublari mazmuni, ta'sir obyekti va ularning tasnifi tushunchalarining yagona talqini mavjud emas. Biroq, tasniflash usulidan qat'iy nazar, boshqaruv uslublarining barchasi bir-birini to'ldiradi. Zero, ularning mo'ljali bitta – turli mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi odamlarga yordam berish. Boshqaruvning muayyan uslubida mazmun ham, mo'ljal ham, tashkiliy shakl ham muayyan tarzda mujassamlashadi. Shundan kelib chiqib, boshqaruvning quyidagi uslublarini ajratish mumkin:

1) iqtisodiy uslublar;
2) tashkiliy-ma'muriy uslublar;
3) ijtimoiy-psixologik uslublar.

Boshqaruv sohasida menejerning ishi "inson-inson" tizimida boshqaruv funksiyalarini bajarishdan iborat deb qaraladi. Bu boshqaruv jarayoniga rahbarlik uslubini tanlashga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Boshqaruv uslubi – menejerning amaliy faoliyati usullari, uslublari va shakllarining nisbatan barqaror tizimi hisoblanadi. Bundan tashqari, boshqaruv uslubi deganda boshqaruv qarorlarini tayyorlash va amalga oshirishda menejerning xulq-atvori hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ularning boshqaruv tarzi va usuli tushuniladi.

Ko'rib turganimizdek, boshqaruv uslubi bir-biri bilan muayyan darajada bog'liq. Uslub muayyan menejer o'z shaxsiy subyekt va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga muvofiq qabul qilgan boshqaruv uslublarini amalga oshirish shaklidir.

Boshqaruv uslublari va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'ta individual psixologik xususiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir, chunki u muayyan shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bilan

belgilanadi va aynan mana shu shaxsning odamlar bilan ishlash xususiyatlarini va qarorlar qabul qilish texnologiyasini aks ettiradi. Ikkita bir xil qalb sohibi bo‘lmaganidek, boshqaruv uslubi bir xil bo‘lgan ikkita menejer ham mavjud emas.

Maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish davomida boshqaruvga xos ko‘plab manbalar o‘rganildi va natijalar tahlil qilinib ularning har bir bo‘yicha boshqaruv uslublarinig o‘zaro moslik darajasi o‘rganildi. Ushbu jarayonda har bir uslubni amalga oshirish uchun muayyan fazilatlarga ega shaxslar zarur degan ma’noni anglatadi.

O‘ziga xos rahbarlik uslubiga ega bo‘lgan menejer o‘z faoliyatida turli boshqaruv uslublari (iqtisodiy, tashkiliy-ma’muriy, ijtimoiy-psixologik uslublar)dan foydalanishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta’kidlaydigan bo‘lsak, boshqaruv jarayonining asosi bo‘lgan rahbarlik uslubini tanlash menejer o‘z oldiga qanday vazifa qo‘yishiga ko‘p jihatdan bog‘liq hisoblanadi. Ular:

- boshqarish – rahbar tomonidan rasmiy topshiriqlarni belgilangan qoida va ko‘rsatmalarga asoslangan holda maqsadli amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan vakolatli shaxs sifatida gavdalanadi;
- boshqarish – rahbar qo‘l ostidagi xodimlariga aniq va rasmiy ko‘rsatmalarni beradi va o‘z topshiriqlarining bajarilishini diqqat bilan nazorat qiladi;
- boshqarish – rahbar qo‘l ostidagi xodimlariga aniq ko‘rsatmalar beradi va o‘z topshiriqlarining bajarilishini diqqat bilan kuzatib boradi;
- rahbarning tomonidan xodimlarni yo‘naltirish jarayoni – menejer qo‘l ostidagi xodimlarni boshqaradi va topshiriqlarining bajarilishini kuzatadi, biroq qarorlarni xodimlar bilan muhokama qiladi, ulardan takliflar kiritishni so‘raydi va xodimlarining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi;
- rahbarning qo‘llab-quvvatlash jarayoni – menejer xodimlari topshiriqlarni bajarayotganida ularga yordam ko‘rsatadi, ularning ijtimoiy-psixologik muammolarini tinglaydi va tegishli tavsiyalar beradi;
- to‘g‘ri qarorlar qabul qilish uchun javobgarlikni ular bilan baham ko‘radi;
- rasmiy ma‘noda vakolatlarni o‘tkazish – menejer o‘z vakolatlarining bir qismini ijrochilarga o‘tkazadi, muayyan qarorlar qabul qilish va korxona maqsadlariga erishish uchun javobgarlikni ularning zimmasiga yuklaydi.

Rahbarlik uslubi haqidagi masala birinchi marta K. Levin tomonidan ko‘rib chiqilgan. U rahbarlikning avtoritar, demokratik va anarxik uslublarini qayd etadi. Rahbarlik uslublarining quyidagi tasnifi zamirida mana shu yondashuv yotadi.

Avtoritar (avtokratik) uslubga hokimiyatning bir rahbar qo‘lida jamlanishi xosdir. Bunday rahbar barcha ishlar yuzasidan faqat o‘ziga ma’lumot berishni talab qiladi. Mazkur uslubga ma’muriyatchilikka tayanish, qo‘l ostidagilar bilan kam aloqa qilish xosdir. Bunday menejer qarorlarni shaxsan o‘zi qabul qiladi (yoki bekor qiladi), qo‘l ostidagilar tashabbus ko‘rsatishiga imkon bermaydi. U doim buyruq, ko‘rsatma beradi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, lekin hech qachon iltimos qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, avtoritar rahbar boshqaruv faoliyatining asosiy mazmuni buyruq va ko‘rsatma berishdan iborat.

Avtokrat-rahbarga dogmatizm va bir qolipda fikrlash xosdir. YAngiliklarni u juda ehtiyotkorlik bilan qabul qiladi yoki umuman qabul qilmaydi, chunki boshqaruv faoliyatida u ayni bir usullardan foydalanadi. Bu holda butun hokimiyat avtokrat-rahbar qo‘lida jamlanadi.

Rahbar o‘z fazilatlariga ko‘ra qo‘l ostidagi xodimlardan pastda tursa yoki uning qo‘l ostidagilar umumiy va kasbiy madaniyati darajasi haddan tashqari past bo‘lsa, u avtokratga aylanadi.

Ключевые слова: *Толерантность, социальный феномен,личное мнение, конформизм, позиция личности, умение, внешние, социальные признаки (такие как внешний вид, социальное положение, речь, взгляды, поведение), е внутренние личностные признаки (такие как способ мышления и ценностные ориентации).*

TOLERANTLIK ILMIY FENOMEN SIFATIDA

Annotatsiya. *Tolerantlik ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan tolerantlik munosabati va shaxsiy fikr, e'tiqodlardan voz kechish bilan bir xil emas.konformizm. Bizning fikrimizcha, tolerantlikni shaxsning ichki va tashqi pozitsiyasidan ko'rish mumkin: o'z e'tiqodlariga rioya qilish va muhim boshqaning fikr huquqini tan olish qobiliyati sifatida. Bu barcha muhim boshqalarning tashqi, ijtimoiy xususiyatlari (tashqi ko'rinishi, ijtimoiy mavqei, nutqi, qarashlari, xulq-atvori kabi) va ichki, shaxsiy xususiyatlari (fikrlash uslubi va qiymat yo'nalishlari kabi) jihatidan farq qilishini tan olishga imkon beradi.*

Kalit so'zlar: *Tolerantlik,ijtimoiy fenomen, shaxsiy fikr, muvofiqlik, shaxsning pozitsiyasi, mahorat, tashqi, ijtimoiy belgilar (tashqi ko'rinish, ijtimoiy mavqe, nutq, qarashlar, xatti-harakatlar kabi), e ichki shaxsiy xususiyatlar (fikrlash va qiymat yo'nalishlari kabi).*

TOLERANCE AS A SCIENTIFIC PHENOMENON

Annotation. *Tolerance as a social phenomenon is not equivalent to tolerance of social injustice and rejection of personal opinions, beliefs, as well as conformity. We believe that tolerance can be viewed from the internal and external perspective of a person: as the ability to adhere to one's own beliefs and recognize the right to an opinion from a significant other. This makes it possible to recognize the fact that all significant others differ both in external, social characteristics (such as appearance, social status, speech, attitudes, behavior) and in internal, personal characteristics (such as way of thinking and value orientations).*

Keywords: *Tolerance, social phenomenon,personal opinion, conformism, personality position, ability, external, social signs (such as appearance, social position, speech, views, behavior), internal personal signs (such as way of thinking and value orientations).*

Понятие толерантности формировалось на протяжении многих веков, поэтому оно довольно сложное, многогранное, на сегодняшний день имеющее множество аспектов и около сотни определений, и продолжающее активно расширятся по мере его исследования.

Особое знание этот феномен приобрел в теории педагогики в свете гуманистического подхода. Сам термин «толерантность» очень неоднозначен в своих истолкованиях. Если мы обратимся к прямому переводу этого термина, то оно происходит от латинского глагола «tolerante» - что буквально означает «переносить, выдерживать, терпеть». Понятие толерантности используется в политике, религии, медицине и многих других отраслях человеческого знания о жизни. И в контексте каждой науки оно приобретает свое особое звучание и смысл. В медицине, например, он означает выносливость - как способ переносить боль, или «ослабление реагирования на какой-либо фактор» .

В психологии же больше говорят о толерантности как об особом принципе построения взаимоотношений, основанном на способности человека воспринимать чужую непохожесть, «инаковость». На основе этого, мы считаем, что «толерантность» как психологический конструкт является одним из личностных качеств, позволяющих осуществлять эффективное взаимодействие.

Для расширения представления и понимания данного феномена, обратимся к словарям. Рассмотрим дословные определение толерантности на ведущих языках мира: -Tolerance (англ.) – готовность быть терпимым, снисходительным; -to tolerante (англ.) – быть терпимым, позволять существование различных мнений без их дискриминации. -Tolerance (фр.) – убежденность в том, что другие могут думать и действовать в манере, отличной от вашей собственной. -Tolerencia (исп.) – способность принимать идеи или мнения, отличные от собственных; - Kuan rong (кит.) – принимать других такими какие они есть, и быть великодушными по отношению к другим; - Tasamul (араб.) –прощение, снисхождение, мягкость, милосердие, сострадание, расположенность к другим, умение принимать других такими, какие они есть. - Толерантность; терпимость (рус.) – умение терпеть (выдерживать, выносить, мириться с чем-либо), принимать/признавать существование коголибо, примирять, приводить в соответствие с самим собой, быть снисходительным к чему-либо/кому-либо.

Определения, существующие на разных языках, в целом совпадают. Важно отметить о существовании в русском языке двух терминов, которые имеют схожие значения – толерантность и терпимость. Однако их нельзя считать тождественными, терпимость можно рассматривать как одну из составляющих в контексте толерантности, но, отнюдь, не выражающую ее сущность, более того на сегодняшний день существуют теории, которые противопоставляют эти два значения.

Таким образом, мы можем заключить, что это терпимость к людям, непохожим на нас – больным, слабым, бедным, угнетенным, терпимость к их мнениям, верованиям, поведению, привычкам, убеждениям.

Также толерантность как социокультурный конструкт подразумевает принятие ценностей других культур, людей, народов, и отказ от сведения этого многообразия к единению или преобладанию какой-либо точки зрения. Мы считаем, что толерантность можно рассматривать как гармонию в широком понимании, а также умение человека осознавать существование своих прав и свобод, не нарушая при этом права и свободы других людей. Все это можно назвать умением жить, и не мешать другим.

Толерантность как социальный феномен не равнозначен терпимому отношению к социальной несправедливости и отказу от личного мнения, убеждений, а также конформизм. Мы считаем, что толерантность можно рассматривать с внутренней и внешней позиции личности: как умение придерживаться собственных убеждений и признания права на мнение у значимого другого. Это дает возможность признать тот факт, что все значимые другие отличаются как по внешним, социальным признакам (таким как внешний вид, социальное положение, речь, взгляды, поведение), так и по внутренним, личностным признакам (таким как способ мышления и ценностные ориентации).

Таким образом толерантность отражает право человека на неконфликтное сосуществование в социуме, имея свою собственную индивидуальность. Толерантность следует воспринимать не как форму пассивного смирения или безграничного терпения, это не запрет на существование собственных убеждений. Толерантность, в нашем понимании, формируется на основе признания персонального права, а также свободы другого, выраженное в активном отношении к этому. Кроме этого, обсуждаемый конструкт может служить индикатором зрелости человека, выражать его жизненную позицию, интересы, а также готовность к их защите.

При этом стоит отметить существование уважительного отношения к позиции, а также ценностям других людей. Стоит понимать, что толерантность не исключает столкновений, конфликтных ситуаций, но она подразумевает решение сложных ситуаций путем сотрудничества, диалога, компромисса.

Следует подчеркнуть, что «терпимость», как некое дихотомическое образование по отношению к «толерантности» не дает возможности отразить полноту последнего термина, а также в некоторых случаях может служить антиподом. Е.Н. Иваненко , как и многие другие исследователи феномена толерантности в нашей стране , полагает, что терпимость удаляет общество от толерантности.

Толерантность – феномен многоуровневый. Большинство авторов считают возможным говорить о существовании нескольких взаимодополняемых, иерархических уровней толерантности,

таких как цивилизационном, международном, этническом, социальном, индивидуальном. Цивилизационный уровень толерантности, иначе именуемый социокультурной толерантностью, рассматривает особенности взаимодействия различных культур с позиций ненасилия.

Международная толерантность рассматривается как условие сотрудничества и мирной коммуникации различных государств, без учета их географического положения и разницы в размерах, разницы развития экономики, доминирующих этнических и религиозных парадигм. Особое место занимает этническая толерантность, основу которой составляет терпимость к образу жизни чужого, отличной от собственных обычаев и традицией как социальным конструктам, а также нравам, мнениям и идеям как личностным конструктам, которые формируются через различные критические ситуации как межличностного, так и внутриличностного выбора. Это чаще всего наблюдается у подростков в период формирования различных форм выбора, в момент сопоставления собственных этнических норм и стереотипов и стереотипов и норм, сформированных в иных социокультурных реалиях. Так же можно наблюдать проявление этнической толерантности при конфликтных ситуациях взаимодействия и коммуникации представителей различных этнических групп, как на межгосударственном, так и на внутригосударственном уровнях. Партнерское взаимодействие составляет основу социальной толерантности, в которую включены взаимодействие различных социальных групп общества, а также структурами власти. Подобное взаимодействие основано на необходимости и потребности в сотрудничестве в условиях уважения позиций сторон.

Социальная толерантность позволяет создать равновесие, а также гармонизировать отношения в обществе, признать права объединения представителей различных социальных групп для защиты и отстаивания своих прав и свобод. Наиболее частным уровней толерантности стоит считать индивидуальный, который включает в себя уважение другой личности, понимание существования взглядов, которые могут отличаться от собственных представлений.

Индивидуальная толерантность позволяет оценить человека на основе его конкретных черт и поступков, исключая возможные ожидания, а также национальные, религиозные и другие социальные параметры личности.

Межличностная толерантность – это соответствующая направленность индивида на поведение в семье, коллективе, в деловом и управленческом общении. По мнению А.Г. Асмолова , межличностная толерантность выступает фундаментом любой толерантности в обществе и в наибольшей степени поддается целенаправленному формированию при обучении и социальном воспитании. Так же, помимо уровней толерантности, необходимо обозначить различные виды толерантности, которые могут быть рассмотрены как равнозначные с позиции их влияния на социальную напряженность в обществе и возникающие в нем конфликты. Виды толерантности отражают различное субъективное отношение к тому или иному социальному вопросу.

Расовая толерантность отражает отсутствие каких-либо негативных оценок представителей иной расы. При этом следует отметить, что, по нашему мнению, крайней формой интолерантного поведения в данном случае можно считать расизм как особую форму расовой дискриминации, которая основана на мнении о праве соподчинения одних расовых групп другим. В социальном аспекте выделяют межрасовую толерантность, которая включает в себя отношение между представителями различных имущественных слоев. Следует также указать межнациональную толерантность как отношение к представителям различных наций, а также негативным проявлением которой может быть стереопитизация без учета презумпции национальной невиновности.Религиозная толерантность рассматривает отношение отдельных людей или социальных групп к догматам различных конфессий, феномену религиозности, частным особенностям обрядов. При этом могут рассматриваться вопросы отношений верующих и атеистов, а также межконфессиональное взаимодействие. Географическая толерантность отражает отношения между представителями урбанизированных территорий и сельской местности, а также жителей центральных районов и провинциальных областей. Образовательная толерантность дает возможность оценить отношение между людьми на основе их субъективных оценок уровня образования другого. Возрастная толерантность, как и физиологическая толерантность относятся как к социальной сфере, так и к медицине. Мы не ставим своей целью рассматривать аспекты толерантности, относящиеся не к социальной сфере личности и групп, поэтому скажем лишь, что возрастная и физиологическая толерантность позволяют сделать выводы об уровне взаимоотношений людей различных возрастных категорий, а также лиц с различными физиологическими особенностями.

Под гендерной толерантностью мы понимает отношения между людьми различных гендерных групп (мускулинной, феминной и андрогинной) без привязки к полу как анатомо-физиологической константе. Отдельно в социальном аспекте можно выделить толерантность по отношению к маргиналам как отношение между представителями различных социальных страт и люмпенизированными слоями общества. И, довольно актуальная в настоящее время, политическая толерантность выступает показателем отношения людей к деятельности политической системы и ее представителей, как на национальном, так и на международном уровне.

Внешнее проявление толерантности наиболее заметно при изучении бихевиорального компонента. Именно поведенческий аспект чаще всего становится объектом изучения, а также случит основой при диагностике и коррекции личностных параметров, связанных с толерантностью. Поведенческий компонент толерантности состоит из разнообразных личностных умений и способностей, среди которых стоит выделить следующие:

а) способность к толерантному высказыванию и отстаиванию собственной позиции как точки зрения, отличной от другой («Я-высказывания»);

б) толерантное отношение к высказыванию и мнению другого, что отражается в оценке восприятия мнений и суждений других людей, признание права другого на обладание собственной точки зрения, без учета степени ее расхождения с собственными взглядами. Это дает возможность выстроить взаимодействие людей на основе безоценочного принятия, взаимного согласования позиций, достижения компромисса и консенсуса;

в) толерантное поведение в напряженных и эксквизитных ситуациях (при различиях в точках зрениях, столкновении мнений или оценок).

Итак, подводя итог сказанному, можно утверждать, что толерантность – феномен сложный и многоуровневый. На сегодняшний день существует множество его определений. В самом общем виде «толерантность» как конструкт можно определить как «готовность и способность человека жить и конструктивно действовать в мире непохожих людей и идей». В контексте нашего исследования, мы делаем акцент на межличностной толерантности, сущностью которой является особый принцип построение взаимодействия между людьми, основанный на принципах диалога и сотрудничества. При этом мы воспринимаем толерантность как способность иметь собственное мнение, позицию, и при этом уважать и признавать право «другого» воспринимать и мыслить иначе, а также быть готовым строить взаимодействие на основе понимания и учета других точек зрения.

Список литературы.

1. Акимова М.К., Галстян О.А. Толерантность как компонент коммуникативной компетентности педагогов // Психологические исследования. 2010. №

2. Вербицкий А. А. Энциклопедический словарь по психологии и педагогике [Электронный ресурс] / А. А. Вербицкий. — 2013. — Режим доступа : http:// psychology_pedagogy.academic.ru.

3. Гребенец Е. С. Формирование коммуникативной толерантности у старшеклассников во внеучебной деятельности : диссертация ... кандидата педагогических наук : 13.00.01 / Е. С. Гребенец. — Москва, 2013. — 173 с.

4. Диагностика толерантности [Электронный ресурс]/ Режим доступа: http:www.etnopsy.ru/txt.html [Дата обращения 10.02.2017]

5. Ильин Е.П. Психология общения и межличностных отношений. - СПб.: Питер, 2011. - 576 с.

6. Ильинская С.Г. Толерантность как философская категория // ПолитВектор: сетевой журнал. 2010. URL: http://politvektor.ru/glavnayatema/4259/ (дата обращения: 20.03.2018).

7. Кавун, Л.В. Толерантность в структуре личностных свойств студентов ВУЗов: результаты факторного анализа // Вестник Томского государственного педагогического университета. - 2010. - № 12. - С. 160-166. 8. Кислицин А. И. Психологические аспекты толерантности // Вектор науки ТГУ. 2013. №4 (26).

9. Кисляков П. А. Формирование толерантности и профилактика идеологии экстремизма в молодежной среде // СИСП. 2011. №3.

10. Корнилова Н.С. Особенности развития коммуникативности и толерантности студентов управленческого профиля //

УДК 159.9

Usmonov Sherzod Axmadjonovich
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

MAKTABGACHA YOSHDA OILAVIY QADRIYATLARNING O’RNI VA AHAMIYATI

Annototsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi o‘quvchilarni rivojlanishida oilaviy qadriyatlarning o’rni va ahamiyati o‘tkazilgan tadqiqot sinov ishlari bayon etilgan. Unda hissiy yaqinlik, oilaviy munosabat chegarasi, qarorlar qabul qilish, birgalikdagi vaqt, umumiy do‘stlar, qiziqishlar va bo‘sh vaqt, liderlik, nazorat, oiladagi intizom, oilaviy rollar, oiladagi qoidalar, oilaviy uyushganlik shkalalari tahlili bilan atroflicha yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: hissiy yaqinlik, oilaviy munosabat chegarasi, qarorlar qabul qilish, birgalikdagi vaqt, umumiy do‘stlar, qiziqishlar va bo‘sh vaqt, liderlik, nazorat, oiladagi intizom, oilaviy rollar, oiladagi qoidalar, oilaviy uyushganlik.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В данной статье описывается роль и значение семейных ценностей в развитии дошкольников. Он подробно описывает эмоциональную близость, границы семейных отношений, принятие решений, совместное времяпрепровождение, общих друзей, интересы и досуг, лидерство, контроль, дисциплину в семье, семейные роли, правила в семье, анализ шкалы семейной организации.*

Ключевые слова*: эмоциональная близость, границы семейных отношений, принятие решений, совместное времяпрепровождение, общие друзья, интересы и досуг, лидерство, контроль, дисциплина в семье, семейные роли, правила в семье, семейная организация.*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF FAMILY VALUES IN PRESCHOOL AGE

Abstract. *This article describes the role and importance of family values in the development of preschoolers. It describes in detail emotional closeness, boundaries of family relationships, decision making, spending time together, common friends, interests and leisure, leadership, control, discipline in the family, family roles, rules in the family, analysis of the scale of family organization.*

Key words: *emotional closeness, boundaries of family relationships, decision making, spending time together, common friends, interests and leisure, leadership, control, discipline in the family, family roles, rules in the family, family organization.*

Kirish. Ta’lim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e’tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. So‘nggi-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Barkamol shaxsni tarbiyalashda bolaning maktabgacha tarbiya yoshi psixologik xususiyatlarni bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu tarbiyaviy jarayonda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini o‘rganish, ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama kamol toptirish, uning onggi, dunyoqarashi, e’tiqodini o‘stirish, jamiyat ravnaqi va rivojlanishi yo‘lida fidoyilikning uning xulq-atvorida tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshi psixologiyasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Xususan har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma’naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Shaxs rivojlanishining yosh davrlari to‘g‘risidagi qarashlarda ham deyarli asosiy e’tibor dastlabki yosh bosqichlariga qaratilgan (L.S.Vigotskiy[1], D.B.Elkonin[2.3]). Bola tarbiyasi eng murakkab faoliyatlardan biri hisoblanadi. Agar bolaning hissiy emotsional xolatlari inobatga olinmagan holda tarbiyalash amalga oshirilmasa, ayrim hatti-harakatlari kutilmagan ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin[4].

Muhokama va natijalar. Biz olib brogan tadqiqotimizda maktabgacha yoshda oilaviy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyatini ochib berish uchun Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani 8-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotining 60 nafar 5 va 6 yoshli tarbiyalanuvchilarida tajriba sinov ishlarimizni olib bordik. Tadqiqot vazifasidan kelib chiqib, D.Olson, D.Portner va I.Lavilar tomonidan ishlab chiqilgan, E.Eydemiller, I.Dobryakov, I.Nokolskayalar tomonidan tarjima qilingan “Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish”[5] deb nomlangan metodikadan foydalandik.

1-jadval

Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish bo‘yicha olingan natijalar tahlili(n=60)

	Shkala	n	O‘rtacha	Dispersiya	t
ota-ona	Hissiy yaqinlik	60	14,20	1,12	6,2***
farzand		60	11,93	9,49	
ota-ona	Oilaviy munosabat chegarasi	60	8,88	1,07	6,5***
farzand		60	7,08	5,13	
ota-ona	Qarorlar qabul qilish	60	4,53	0,91	4,45**
farzand		60	3,70	1,83	
ota-ona	Birgalikdagi vaqt	60	4,45	0,66	3,02**
farzand		60	4,00	1,11	
ota-ona	Umumiy do‘stlar	60	3,90	1,31	-3,2**
farzand		60	4,40	0,90	
ota-ona	Qiziqishlar va bo‘sh vaqt	60	7,95	2,48	5,3***
farzand		60	6,60	2,72	
ota-ona	Liderlik	60	3,73	2,33	-10,02***
farzand		60	5,80	0,57	
ota-ona	Nazorat	60	5,55	2,33	3,7**
farzand		60	4,68	1,99	
ota-ona	Oiladagi intizom	60	6,25	4,70	2,8**
farzand		60	5,40	2,72	
ota-ona	Oilaviy rollar	60	8,23	3,77	-8,31***
farzand		60	11,33	7,36	
ota-ona	Oiladagi qoidalar	60	2,98	0,68	1,4
farzand		60	2,75	1,25	
ota-ona	Oilaviy uyushganlik	60	35,95	6,88	6,6***
farzand		60	31,10	36,29	
ota-ona	Munosabatlarning egiluvchanligi (oilaviy adaptatsiya)	60	34,68	21,44	-2,4*
Farzand		60	36,55	24,76	

*p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

Tadqiqotda olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilganimizda 1-jadval ko‘rinishga ega bo‘ldi. Ushbu jadvalga ko‘ra hissiy yaqinlik shkalasi bo‘yicha ona va farzandlardan olingan natijalar o‘rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi($p<0,001$; $t=6,2$). Unga ko‘ra onalarda farzandlarga nisbatan hissiy yaqinlik yuqori darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa albatta bola va ona munosabatlaridagi yaqinlik, ona mehri kabi qadriyat ko‘rinishiga aylanib ketgan stereotiplarning aynan ko‘rinishidir.

Oilaviy munosabat chegarasi shkalasi bo‘yicha ham olingan natijalar o‘rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi($p<0,001$; $t=6,5$). Ushbu natijaga ko‘ra ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasida ayrim mavzularda chegara mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa albatta milliy qadriyatlar bilan bog‘liq.

Qarorlar qabul qilish shkalasi bo‘yicha ham statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi($p<0,01$; $t=4,45$). Ushbu natijalar milliy qadriyatlarda qaror qabul qilishda birinchi o‘rinda ota va keying o‘rinlarda ona mas’ul ekanligi ko‘rsatdi.

“Birgalikdagi vaqt”($p<0,01$; $t=3,02$) va “Qiziqishlar va bo‘sh vaqt” ($p<0,001$; $t=5,3$) shkalalari bo‘yicha ham ota-ona va farzandlardan olingan natijalar o‘rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi. Unga ko‘ra ota va ona vaqtlarini ko‘proq farzandlar bilan o‘tkazishga intilishlarini ham ularning qiziqishlariga e’tibor qaratishlarini ko‘rishimiz mumkin.

Umumiy do‘stlar shkalasi bo‘yicha ota-ona va farzandlardan olingan natijalar o‘rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi($p<0,01$; $t=3,2$). Unga ko‘ra ota-onadan ko‘ra farzandlar oila azolarini umumiy do‘st sifatida bilishini va barcha sirlarini erkin ayta olishini takidladilar.

“Liderlik” ($p<0,001$; $t=10,02$) hamda “Oilaviy rollar” ($p<0,001$; $t=8,31$) shkalalari bo‘yicha ota-ona va farzandlardan olingan natijalar o‘rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi. Unga ko‘ra farzandlar oilada liderlikka intilish yuqoriligini(aka,uka, opa, singil o‘rtasida) oilaviy rollarni bajarishda birinchi bo‘lishga intilishlarini ko‘rishimiz mumkin.

“Nazorat” ($p<0,01$; $t=3,7$), “Oiladagi intizom” ($p<0,01$; $t=2,8$), “Oilaviy uyushganlik” ($p<0,001$; $t=6,6$) shkalalari bo‘yicha ham ota-ona va farzandlardan olingan natijalar o‘rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi. Unga ko‘ra ota-ona oiladagi uyushganlik hamda oiladagi intizomni saqlash uchun ham farzandlarini ehtiyotkorlik bilan nazorat qilishlari o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bilan o‘z isbotini topdi.

Oiladagi qoidalar shkalasi bo‘yicha olingan natijalar o‘rtasida statistik jihatidan farq aniqlanmadi($p>0,05$; $t=1,4$). Demak, oilaning umumiy qoidalariga farzandlar ham onalar ham birdek amal qiladi. Ya’ni har bir oilada yillar osha shakllangan ma’lum bir ijtimoiy normalar mavjud va bu qadriyatga aylanib ulgurgan. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu qadriyatlarga ham ota-onalar, ham farzandlar birdek amal qilishi shart va majburiydir. Natijada bolada oilaviy qadriyatlar timsolida ijobiy xulq-atvor ko‘rinishi turgan gap, albatta.

Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligi aniqlash bo'yicha olingan shkalalar bo'yicha korreliatsion tahlil

2-jadval

	Hissiy yaqinlik	Oilaviy munosabat chegarasi	Qarorlar qabul qilish	Birgalikdagi vaqt	Umumiy do‘stlar	Qiziqishlar va bo‘sh vaqt	Liderlik	Nazorat	Oiladagi intizom	Oilaviy rollar	Oiladagi qoidalar	Oilaviy uyushganlik	Munosabatlarning egiluvchanligi (oilaviy adaptatsiya)
Hissiy yaqinlik	1												
Oilaviy munosabat chegarasi	0,35**	1											
Qarorlar qabul qilish	0,02	-0,27*	1										
Birgalikdagi vaqt	0,34**	0,52**	-0,18	1									
Umumiy do‘stlar	-0,23*	0,46**	-0,04	-0,03	1								
Qiziqishlar va bo‘sh vaqt	0,29**	0,24*	-0,02	0,04	-0,16	1							
Liderlik	-0,28*	-0,02	-0,06	-0,19	0,11	0,05	1						
Nazorat	0,04	0,2*	-0,37**	0,19	-0,04	-0,21*	0,12	1					
Oiladagi intizom	0,13	0,39**	-0,04	0,37**	0,16	-0,24*	0,18	0,46**	1				
Oilaviy rollar	-0,23*	-0,17	0,02	-0,34**	-0,06	0,05	0,59**	0,09	-0,18	1			
Oiladagi qoidalar	0,35**	-0,15	-0,24*	-0,02	-0,27*	0,14	0,01	0,15	-0,32*	0,08	1		
Oilaviy uyushganlik	0,55**	0,8**	0,19	0,57**	0,5**	0,15	-0,15	0	0,38**	-0,29**	-0,13	1	
Munosabatlarning egiluvchanligi (oilaviy adaptatsiya)	0,05	0,22*	-0,2*	0,04	-0,03	0,22*	0,72**	0,58**	0,46**	0,6**	0,16	0,04	1

$p<0,05$*; $p<0,01$**

Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini aniqlash bo‘yicha olingan shkalalar bo‘yicha korreliatsion tahlil natijalari bo‘yicha quyidagicha xulosalar olindi(2-jadval). Ushbu jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki hissiy yaqinlik va oilaviy munosabatlar chegarasi bo‘yicha ijobiy munosabat borligi aniqlandi($p<0.01;r=0,35$). Ya’ni, hissiy yaqinlikni yo‘qolishi oilaviy munosabatlar chegarasini belgilab beradi.

Oiladagi intizom shkalasi tahlilini ko‘radigan bo‘lsak, oiladagi nazorat shkalasi bilan ijobiy munosabat mavjudligini ko‘rsatib turibdi. Bu esa albatta oilada qadriyatga aylanib ketgan intizomiy qoidalar oilada doimiy nazoratni paydo qiladi.

Jadvalimizdagi farqli jihatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, oilaviy rollar shkalasi hissiy yaqinlik shkalasi bilan salbiy munosabat mavjud ekanligini ko‘rsatib turibdi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi rollar taqsimoti hamda ulardan vaqtida chiqa olish, vaqtida jazo beruvchi va o‘z vaqtida rag‘batlantiruvchi rolini muvafaqqiyatli amalga oshmayotganini, natijada esa oilaning eng muhim omillaridan biri bo‘lgan hissiy yaqinlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, oilaviy qadriyatlar farzandlarni individual xususiyatlarini shakllantirishda, o‘z menini shakllantirishda hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega ekanligi o‘z isbotini topdi. Bunda, bolalar bilan qadriyatlar haqida ertaklar o`qish, kitob tomosha qilish, she’r va ertak aytib berish bilan mashg‘ul bo‘linganda, eng avvalo, kitobga mehr qo‘ydilar. Bolalarning so‘z-mantiq tafakkurida rivojlanish kuzatildi va turli xil millatga doir xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi, so‘z boyligi ko‘paydi, og'zaki, dialogik, monologik nutqi rivojlandi, muloqotga kirishish paydo bo‘ldi va bu boladagi so‘z mantiq tafakkuri rivojlanishining asosiy xarakteristikasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Выготский, Л.С. Вопросы детской психологии / Л.С. Выгосткий. – М.: Академия, 2013. – 433 с. – ISBN 5-87852-033-8.

2. Психология детей дошкольного возраста / под ред. А. В. Запорожца, Д. Б. Эльконина. М., 1964.

3. Психология личности и деятельности дошкольника / под ред. А. В. Запорожца, Д. Б. Эльконина. М., 1965.

4. В.С. Мухина. Возрастная психология. – Москва. – 2008.

5. Eidemiller, E. G. (2006). Scale of family adaptation and cohesion (FACES III). In I. V. Dobryakov, I. M. Nikolskaya, & E.G. Eidemiller, Family diagnosis and family psychotherapy, 2nd edition, corrected and expanded (pp. 68-73). St. Petersburg, Russia: Rech. Retrieved from https://www.twirpx.com/file/183486/

Sharipov Soatjon Roziqovich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlaarining psixologik kompetentligining ekspert baholash natijalari va ularning ilmiy tahlili o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar: *sotsial intellekt, sotsial malaka, moslik ko‘zgusi, kasbiy kompetentlik, muloqot,mimikak, ekspert baholash.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. *В данной стате изложени результати экспертной отсенки психологической компетентности сотрудников органов внутренних дел и их научний анализ.*

Клучевие слова: *сотсиалний интеллект, профессионалная компетентност, профессионалние навики, профессионалное положение, познавателная, эмотсионалная, сотсиалная гибкост, коском-2.*

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN THE ACTIVITY OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

Annotation. *This article presents the results of an expert assessment of the psychological competence of employees of internal affairs bodies and their scientific analysis.*

Keywords: *social intelligence, professional competence, professional skills, professional position, cognitive, emotional, social flexibility, koskom-2.*

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda globallashuv jarayonining kechishi o‘ziga xos ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga mos kadrlar tayyorlashni va shaxsga ijtimoiy-psixologik ta’sir etishni ta’minlovchi ichki ishlar organlari xodimlaari sotsial intellektiga bo‘lgan ehtiyojining yanada ortib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Zero, barcha davlatlarda o‘ziga xos tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida tibbiyot xodimi faoliyatiga qo‘yiladigan talablar uning kasbiy, shaxsiy va intellektual faoliyati bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratishni taqazo etadi.

Ma’lumki, ijtimoiy psixologiya fanida aynan ichki ishlar oganlari xodimlarining psixologik xususiyatlari muammosiga bag‘ishlangan va uning barcha omillarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo‘lmasada, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida sotsial intellekt muammosini zarurligini ko‘rsata oluvchi va uning metodologik ildizlarini asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin. Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, avvalo ulardagi shaxslilik xususiyatlarining metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtayi nazardan tadqiq qilishimizga to‘g‘ri keldi. Ichki ishlar oganlari xodimlarining shaxslilik xususiyatlarini yoritishda mavjud psixologik yondashuvlarning umumiy holatini tahlil etar ekanmiz, bugungi kunga qadar mavjud yondashuvlarning quyidagi tartibda qayd etish mumkinligiga yana bir bor amin bo‘ldik)[1].

Ichki ishlar oganlari xodimlarining psixologik xususiyatlarini tarkib topishi va shakllanishi bo‘yicha muayyan yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular bir qator ilmiy manbalarda o‘z aksini topgan. Jumladan, fenomenologik yondashuv (V.Keller; K. Dunker; M. Vertgey-mer; Dj. Kempion va boshqalar) genetik yondashuvda (U.R. Charlzvort; Olport; J. Piaje)[2].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, psixologik xususiyatlari muammosi ijtimoiy psixologiyaning turli obyektlarida, turli xil ilmiy maqsadlar asosida o‘rganilgan bo‘lib, ularda shaxslilik xususiyatlari fenomenining umumiy tabiati, fanda qo‘llanilishi va o‘ziga xos amaliy-tatbiqiy yo‘nalishlari ochib berilgan. Shunday bo‘lsada, ichki ishlar oganlari xodimlarining psixologik xususiyatlarini faoliyat smaradorlikka ta’siri mummosi bo‘yicha yetarli darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligini e’tirof etish mumkin.

Shu boisdan ham zamonaviy faoliyat jarayonida ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini samaradorligida psixologik xususiyatlarini ta'siri masalasini tadqiq etish yangi psixologik tadqiqot mavzusiga sabab bo'ladi.

Metodologiya. Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy tahlilidan kelib chiqib, tadqiqotimizda ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik xususiyatlarini va uni faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalarini o'rganishda mualliflik so'rovnomamizdan foydalandik. Ushbu so'rovnomada ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik xususiyatlari beshta shkala bo'yicha aniqlandi: «boshqalarni tushunish qobiliyati», «sotsial intellekt», «muomala sirlaridan xabardorlik», «muloqotning maqsadli yo'naltirilganligi», «moslik ko'zgusi».

Psixologik bilimdonlikni ekspert baholash so'rovnomasi

Yo'riqnoma: Hurmatli respondent sizga taqdim etilayotgan bandlar bo'yicha o'zingizga va hamkasbingizga xos bo'lgan sifatlarni mosligini 5 balli shkala bo'yicha baholang. Sifatlarning juda mos kelmaganligini1ball va juda mos ekanligini 5 ballda ifodalang.

Juda to'g'ri – 5 ball
To'g'ri – 4 ball
Bilmayman – 3 ball
To'g'ri emas – 2 ball
Umuman to'g'ri emas – 1 ball

Tanlagan javob variantingizning so'rovnomaning javoblar varaqasida qayd eting. Javoblaringiz uchun sizga oldinda tashakkur bildiramiz!

T/p	Savollar	1	2	3	4	5
1.	Boshqalarning hissiy-emotsional holatiga sezgir					
2.	Jamoa, guruh a'zolari bilan hamkorlik qila oladi					
3.	O'zaro foydali munosabatlar (hamkorlik) o'rnatishga qobiliyatli					
4.	O'z muloqotini aniq maqsadga yo'naltira oladi					
5.	Shaxslararo munosabatda o'z hatti harakatlarini (gavda tuzilishi, qo'l-oyoq harakatlari, mimika) to'g'ri boshqara oladi					
6.	Yaxshi tinglovchi					
7.	Atrofdagilar nazarida ishonchli va mas'uliyatli					
8.	Har xil bosqich insonlar orasida o'zini tuta bilish qobiliyati					
9.	Maqsadli muloqotga intiladi					
10.	Shaxslararo munosabatda o'z nutqiga (ovoz toni, gapirish maromi) katta etibor qaratadi					
11.	Insonlarning tuyg'ularini tez ilg'aydi					
12.	Odamlarga munosabatini to'g'ri amalga oshiradi					
13.	Insoniy munosabatlarni o'rnatish malakasiga ega					
14.	Muloqotning o'zaro tushunish tamoyiliga amal qilishdarajasi					
15.	Munosabatda qadriyatlarga rioya qilishi					
16.	Insonlarning harakati, ovoz toni, so'zi orqali emotsiyasini o'qiy oladi					
17.	Hamkorlik harakatlarini ongli amalga oshiradi					
18.	Muomala qoidalarini amalga oshirishga shayligi					
19.	Muloqotni hamsuhbat kimligiga ko'ra o'rnatadi					
20.	Munosabatga ehtiyojmandlik va uni amalga oshirishga tajribaga egaligi					

Javoblaringiz uchun tashakkur bildiramiz!

Shkalalar:

Boshqalarni tushunish qobiliyati	Sotsial malakalar	Muoma sirlaridan xabardorlik	Maqsadli muloqotga yo‘naltirilgan	Moslik «ko‘zgusi»
1,6,11,16	2,7,12,17	3,8,13,18	4,9,14,19	5,10,15,20

Shkalalar bo‘yicha eng yuqori o‘ringa ega bo‘lgani sizning sotsial intellektingizdagi yetakchi omillarni belgilaydi.

Boshqalarni tushunish qobiliyati	Bunday tipdagilarboshqalarning hissiy-emotsional holatiga juda sezgir, yaxshi tinglovchi, insonlarning tuyg‘ularini tez ilg‘aydi va insonlarning harakati, ovoz toni, so‘zi orqali emotsiyasini o‘qiy oladigan insonlar hisoblanadi
Sotsial malakalar	Bu tipdagilar jamoa, guruh a’zolari bilan hamkorlik qila oladi, atrofdagilar nazarida ishonchli va mas’uliyatli, odamlarga munosabatini hamkorlik istagi orqali to‘g‘ri va ongli amalga oshiradi
Muomala sirlaridan xabardorlik	Bunday insonlar o‘zaro foydali munosabatlar (hamkorlik) o‘rnatishga qobiliyatli, ularda har xil bosqich insonlar orasida o‘zini tuta bilish qobiliyati yuqori darajada bo‘lganligi bois insoniy munosabatlarni o‘rnatish malakasiga ega va o‘z munosabatini muomala qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiradi
Maqsadli muloqotga yo‘naltirilgan	Ushbu tipga mansub insonlar o‘z muloqotini aniq maqsadga yo‘naltira oladi, maqsadli muloqotga intiladi, muloqotning o‘zaro tushunish tamoyiliga amal qiladi, hamda o‘z muloqotini hamsuhbat kimligiga ko‘ra o‘rnatadi
Moslik «ko‘zgusi»	Bunday shaxslar shaxslararo munosabatda o‘z hatti harakatlarini (gavda tuzilishi, qo‘l-oyoq harakatlari, mimika) to‘g‘ri boshqara oladi, o‘z nutqiga (ovoz toni, gapirish maromi) katta etibor qaratadi, munosabatda qadriyatlarga rioya qilishi va munosabatga ehtiyojmandlik va uni amalga oshirishga tajribaga egaligi bilan alohida ajralib turadi

Tadqiqotimiz natijalarining empirik jihatdan tahlilini quyidagicha amalga oshiramiz. Ekspert baholash natijalari yuzasidan olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan («1-jadvalga qarang»).

Ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik xususiyatlarini ekspert baholash umumiy ko‘rsatkichlarda ekspertlarning natijalarida o‘ziga xos tafovutlar kuzatildi. Shu o‘rinda bir narsani aytib o‘tish lozim bo‘ladiki, ekspertlarning baholarida psixologik kompetentlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘rtachadan yuqori qiymatlarga ega bo‘lsada, ammo ularning qiymatlarida Styudent t-mezoniga ko‘ra farqlar ishonchliligi kuzatildi. Ekspert baholashda ichki ishlar organlari xodimlarining «boshqalarni tushunish qobiliyati» (o‘zi 6,65 ball va hamkasblar − 7,0 ball bilan baholagan bo‘lib, farqlar ishonchliligi $p<0,05$ qiymatni ko‘rsatdi). Ekspertlarning ushbu shkala bo‘yicha baholari hamkasblarni o‘zga insonlarni emotsiyasiga nisbatan sezgirligi, ularning kechinmalari va kayfiyatlarini tezda sezishga, suhbatdoshni va biror bir masala yuzasidan murojaat qilgan kishiga nisbatan e’tiborli va yaxshi tinglovchi ekanligidan dalolat beradi. Bundan ko‘rinadiki, ichki ishlar oganlari xodimlarining ushbu qobiliyatini bevosita faoliyat jarayonini kuzatishdagi; hamkasblari esa ular bilan bevosita ish jarayoni, kasbiy faoliyat hamda kundalik turmush yumushlari bilan bog‘liq munosabatlaridagi taassurotlari orqali baholaganlar. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyat jarayonidagi munosabatlarida zarur o‘rinlarda subordinatsiya saqlashga harakat qilishi mazkur shkala bo‘yicha qiymatlari hamkasblariga qaraganda pastroq bo‘lishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Ichki ishlar organlari xodimlarining «sotsial malakalari» bo‘yicha ko‘rsatkichlarda ham hamkasblarning bergan bahosi yuqoriroq ko‘rinish olgan (6,86 ball). Ushbu o‘rinda ichki ishlar organlari

xodimlarining umumiy qiymatlarida ularning jamoa, guruh a'zolari bilan hamkorlik qila oladi, atrofdagilar nazarida ishonchli va mas'uliyatli, odamlarga munosabatini to‘g‘ri amalga oshira olishi, hamkorlikni ongli amalga oshirishi kasbiy sifatlarga mansub ekanliklarini ko‘rsatmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlari bu orqali hamkasblari bilan munosabatida sotsial malakalari shakllanganligidan dalolat bersada, ularning kasbiy kamolot bosqichlarida bu malakalar tafovutlanishi mumkinligini anglatadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining «muomala sirlaridan xabardorligi» shkalasi ko‘rsatkichlari ham hamkasblari tomonidan boshqa shkalalarda kuzatilgan manzarani aks ettirmoqda (o‘zi− 5,82 ball va hamkasblar − 7,17 ball, farqlarning ishonchliligi − p<0.001).

1 -jadval

Ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik kompetentligini ekspert baholash natijalari

№	Shkalalar	Ichki ishlar xodimlaari		Hamkasblar		T
		X	Σ	χ	σ	
1.	Boshqalarni tushunish qobiliyati	6,65	1,10	7,0	0,82	-2,23*
2.	Sotsial malakalar	5,70	1,56	6,86	1,06	-6,07***
3.	Muomala sirlaridan xabardorlik	5,82	1,45	7,17	0,93	-7,66***
4.	Muloqotning maqsadli yo‘naltirilganligi	5,56	1,26	7,41	0,95	-10,98***
5.	Moslik «ko‘zgusi»	5,26	1,40	6,88	0,91	-9,42***

Izoh: *p<0.05; ****p<0.001

Shkala qiymatlari asosida ekspertlar ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik kompetentligi ushbu qirrasida ularni o‘zaro foydali munosabatlar o‘rnatishga, har xil bosqich insonlar orasida o‘zini tuta bilishga, insoniy munosabatlarni o‘rnatishga va muomalani qoidali amalga oshirishga qobiliyatli ekanliklarini bildirganlar. Bu esa, ichki ishlar organlari xodimlaarining kasbiy faoliyati jarayonida hamkasblari bilan o‘zaro munosabatda, hamkasblari bilan hamkorlik faoliyatida jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni ijobiy tarkib toptirishda mas'ul ekanliklarini ko‘rsatmoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlarining «muloqotni maqsadli yo‘naltirish»ga qobiliyatlari ekspertlar tomonidan quyidagicha baholandi: 5,56 ball va 7,41 ball; ko‘rsatkichlar orasidagi farqlar ishonchliligi - p<0,001. Bu qiymatlar ichki ishlar organlari xodimlari psixologik kompetentligida insonlar bilan muloqotni aniq maqsadga yo‘naltira olishi, muloqot maqsadiga erishishga shayligi, muloqotda shaxslar bilan o‘zaro tushunish tamoyiliga amal qilishi, muloqotda suhbatdoshga ko‘ra muvofiqlashtira olishi xosligini ko‘rsatmoqda.

Navbatdagi «moslik «ko‘zgusi»« shkalasiga ko‘ra ekspertlar qiymatlari quyidagi ko‘rinish oldi: − 5,26 va − 6,88 ball; ko‘rsatkichlar orasidagi farqlar ishonchliligi −p<0,001. Bu shkala yordamida ichki ishlar organlari xodimlarida shaxslararo munosabatda gavdani, xatti-harakatlarni to‘g‘ri tutadi, shaxslararo munosabatda ovoz tonini tan oladi, munosabatda qadriyatlarga rioya qilishi, munosabatga ehtiyojmandlik va uni amalga oshirishga tajribasi mavjud ekanligini bildiradi. Ammo, ushbu qobiliyat, sotsial ko‘nikma va sifatlar barcha ichki ishlar organlari xodimlariga xos deyish mumkin.

Xulosa. Ichki ishlar organlari xodimlari psixologik xususiyatlarini tadqiq etish va uning faoliyat samaradorligiga ta'sirini tadqiq etish bo‘yicha nazariy tahlillarda keltirib o‘tilgan ma'lumotlar empirik natijalarni sharhlashda metodologik asos sifatida xizmat qilishi xususida yuqorida mulohaza yuritgan edik. O‘z navbatida ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik xususiyatlarini kasbiy faoliyati bilan bog‘lab tadqiq etish bugungi kun psixologiyasining dolzarb muammolaridan biri sifatida tanlab olinishida ham faoliyat samaradorligi kasbiy ko‘nikma va malakalarga muvofiq ijtimoiy tajriba, shaxslararo munosabat ko‘nikmalar, «subyekt−subyekt» munosabat tizimida o‘z−o‘zini nazorat qilishi,

hamkasblar va atrofdagilarini tushunishi, ularning kayfiyatiga mos muomalani amalga oshirishi diqqat markazimizda bo‘ladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, bayon etilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda ichki ishlar organlari xodimlari psixologik xususiyatlarini ekspert baholash bo‘yicha quyidagilar aniqlandi: Jumladan, psixologik kompetentlik – ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy kompetentligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida alohida o‘rganilmagan; ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida yaqqol namoyon bo‘luvchi, ayni paytda shaxsiy va kasbiy kamolot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi sotsial-psixologik kompetentlik omillari, ko‘rsatkichlari va ular orasidagi korrelatsion munosabatlar empirik jihatdan tahlil etilib, tegishli ilmiy xulosalar qilinmagan; ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy samaradorligini bevosita ta’minlovchi psixologik omillari va mazkur omillarni izohlovchi ko‘rsatkichlar ko‘lami o‘rtacha-umumiy va qiyosiy-tipik jihatdan o‘rganilib, bugungi kun talablariga mos ravishda tadqiq etilmagan. Bularning barchasi ijtimoiy psixologiya fanida ichki ishlar organlari xodimlariga psixologik xizmat ko‘rsatishning ilmiy-amaliy asoslarini yanada takomillashtirish mexanizmlariga xizmat qiluvchi nazariy va empirik tadqiqotlar olib borilishini taqozo etadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sobirova D.A. Sotsial intellekt: nazariya va amaliyot. - Toshkent.: “Fan”, 2013. – 160 b.
2. Olport G. Stanovleniye lichnosti. Izbranniye trudi. – M: Smisl, 2002 – 329 s.;
3. Terstoun L.L. Xarakter intellekta.- M.:Pedagogika, 1924.- 230 s.
4. Ayzenk G.Y. Intellekt: noviy vzglyad // Voprosi psixologii. 1995. M.:S. 111–131.
5. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Mayer–Salovey–Caruso Emotional Intelligence Test (MSCEIT) user's manual. Toronto, Canada: MHS Publishers, 2002.
6. Kunitsina V.N., Kazarinova N.V., Pogolsha V.M. Mejlichnostnoye obsheniye/ Uchebnik dlya VUZov. – SPb.: «Piter», 2002 – 322 s.

G‘aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti.
E-mail: ganiyevakhalima@gmail.com

BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHNING PEDAGOGIK -PSIX-OLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamon talablari asosida, dunyo standartiga mos, raqobatbardosh, ma’naviy-milliy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib bora oladigan bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlashning pedagogik hamda psixologik asoslari nazariy va amaliy taxlil etilgan.*
Kalit so‘z va iboralar*: bo‘lajak o‘qituvchi, ta’lim, tarbiya, munosabat, qadriyatlar, maxorat, qobiliyat, o‘z-o‘zini anglash, «Men - kontseptsiya», xulq-atvor.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГ КАДРОВ

Аннотация. *На этом статье анализируется теоретические и практические основы подготовки будущих конкурентоустойчивых кадров, соответствующих к государственным стандартам, умеющие обогощать национальные ценности научными достижениями.*
Ключевые слова и выражение: *будущий учитель, образование, поведение, отношение, ценности, опыт, способность, осознать себя, «Я - концепция».*

PSYCHO-PEDAGOGICAL ASPECTS OF PREPARATION OF CADRES

Annotation. *This article analyzes the theoretical and practical foundations of training future competitively-resilient cadres corresponding to state standards who are able to enrich national values with scientific achievements.*
Key words and expressions: *future teacher, education, attitude, values, experience, skill, self-conscious, «I - conception », behaviour.*

Kirish. Milliy modelimiz ta’lim-tarbiya sohasida yangi imkoniyatlar ochib berdi. Bu imkoniyatlar ayniqsa, o‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ularga o‘qituvchi ijodkorligi, mustaqil fikrlashga imkoniyat tug‘diruvchi muhitni yaratish, milliy qadriyatlarimizdan foydalanish va boshqalar kiradi. Tarixiy, ijtimoiy taraqqiyot tajribasi shu narsani isbotlaydiki, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qurilma o‘zgarganda, bu o‘zgarishlar eng avvalo ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishni, uning mohiyati va mazmunini o‘zgartirishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasida «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» hamda «Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun»da e’tirof etilganidek, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan jamiyat a’zolari, birinchi galda yoshlarda sog‘lom e’tiqodni tarbiyalash, milliy qadriyatlarni e’zozlaydigan, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan malakali kadrlarni yetishtirish ziyolilar, ota-onalar, murabbiylar oldiga jiddiy vazifalarni qo‘yadi.

Yoshlarni milliy g‘oya va mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalash mas’uliyati ustozdan o‘z faoliyatini va talaba-o‘quvchilarga munosabatini taxlil qilish, yangi davrga mos ish uslublarini qo‘llashni talab etadi. Ma’rifatli, insonparvar va yuksak ahloqli muallim-ustozgina yoshlarni har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib tarbiyalashga qodirdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Forobiy ahloqli inson deganda ilm-ma’rifatga intiluvchi, haqiqat va adolatni sevuvchi, uning uchun kurashuvchi, adolatsizlik va yolg‘onning dushmani, o‘z muhokamalari va harakatlarida qat’iy va jasur, qo‘rqishni bilmaydigan kishilarni tasavvur etadi. Forobiyning fikricha, aql faqat insongagina xos bo‘lgan tug‘ma quvvat-ruhiy kuch bilan bog‘liqdir. Inson tushunish, fahmlash, muhokama qilish, o‘ylab topish, fikrlash quvvatiga tug‘ilishidan ega bo‘ladi va ularning qanday vujudga kelganini o‘zi ham bilmaydi, bu xususiyatlar bolaning o‘sib kamolga yeta borishi bilan rivojlanib boradi. Darhaqiqat, fan va texnika taraqqiyoti o‘z-o‘zidan amalga oshavermaydi. Uni aqliy, ahloqiy, ilmiy salohiyati davr talablari darajasida rivojlangan yoshlargina amalga oshira oladi. Yoshlarning ilmiy, amaliy kamoloti yuksak ahloq negizidagina katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Ustoz bo‘lish uchun, avvalo, kishi o‘z ishining mazmun va mohiyatini bilishi, uni shogirdlar bilan o‘rtoqlashish, ish mohiyatini yoshlarga bildirish, ichki va shaxslararo munosabatlarda intizomlilik, oqko‘ngillilik, adolatlilik kabi qator sifatlarga ega bo‘lishi lozim. Ustoz – bilimdon, o‘z uslubiga,

texnikasi, stiliga, taktikasiga ega bo‘lgan shaxs sifatida, ushbu sifatlarni shogirdlariga o‘tkaza olish, «ta’sirlantirish» mahoratiga ega bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchining mukammal pedagog darajasiga ko‘tarilishi ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshadi va o‘qituvchi shaxsining ba’zi bir xususiyatlari: pedagogik kuzatuvchanlik, xotiraning hozir javobligi, mustaqil va ijodiy fikr yuritish uslubi, nutqining aniqligi, to‘g‘riligi va ifodaliligi diqqatning yuksak darajada rivojlangan xususiyatlari, maqsadga intiluvchanlik, o‘z maqsadi samaradorligini oldindan ko‘ra bilish va boshqalar shakllanadi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilar mustaqil fikrli, kelajakka ishonch bilan qaraydigan va o‘z fanining bilimdoni bo‘lishi kerak. Ana shundagina mustaqil O‘zbekistonimiz gurkirab yashnaydi, chunki davlatimiz kelajagi hozirgi yosh avlodning sof dunyoqarashi, har bir fanni chuqur o‘zlashtirishi, yangi-yangi kashfiyotlar qilishi, yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini ochishi bilan bog‘liqdir. Bularning barcha-barchasining bunyodga kelishi zaminida o‘qituvchilarning aktiv mehnati yotadi.

Psixologiyada inson shaxsi bilan bog‘liq tushunchalar ichida «Men - kontseptsiya» tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Bu tushuncha shaxsning o‘zi haqida boshqalar bilan uning munosabatini belgilab beradigan tasavvurlar yig‘indisidan iborat, deb izohlanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida «Men - kontseptsiya» yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki pedagog-o‘qituvchi o‘zi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib yoshlarga baho beradi, ularga o‘zi o‘zlashtirgan tajribani uzatadi, singdiradi.

Odamning o‘z-o‘zini anglashi, bilishi va o‘z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o‘ziga, o‘z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya’ni, ijtimoiy xulq-shaxs tomonidan uni o‘rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e’tibor berishdan tashqari, o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borishni ham taqozo etadi. CHunki inson o‘zini to‘la anglamay turib, o‘z shaxsiy «Men»i bilan kelishmay turib, o‘zga insonni anglashi, o‘zgalarning hissiy kechinmalarini ichdan kechirishi mumkin emas. SHaxs ma’naviyati rivoji avvalo o‘zini-o‘zi anglash, keyinchalik o‘z manfaatini anglash va nihoyat jamiyatni tanish bosqichlarini taqozo etadi. Insonning jamiyatni anglashi - bu uning milliy o‘z-o‘zini anglashidir.

Milliy o‘z-o‘zini anglashning qator ob’ektiv va sub’ektiv omillari mavjud. Bulardan biri milliy tuyg‘u bo‘lib, u insonning shaxslararo munosabat jarayonida hissiy ta’sirlanishida, yuksak ma’naviy ichki tug‘yonlarda, ijodiy g‘oyalar tug‘ilishi kabi kechinmalarda aks etadi. Aynan shunday kechinmalarga ega bo‘lgan inson o‘z Vatanining sodiq farzandi sanaladi.

Agar o‘qituvchi ijobiy «Men - kontseptsiya»ga ega bo‘lsa, unda yetarli shaxsiy emotsional barqarorlik va yetuklik mavjud bo‘lsa, bunday o‘qituvchining yoshlar bilan munosabati faqat ijobiy tasavvurlar asosiga quriladi, o‘qituvchi yoshlardan o‘ziga nisbatan salbiy munosabat kutmaydi, chunki bunday o‘qituvchida o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq muammo tug‘ilmaydi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, o‘qituvchining ijobiy «Men - kontseptsiya»si talaba shaxsi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki inson yoshidan qat’iy nazar o‘z faoliyatini ijobiy baholashga ehtiyoj sezadi, bunday munosabat va ibrat esa talabada ijobiy xarakter xislatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Talaba yoshlarning kelajakda yuqori saviyali, malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi, ixtisoslik bo‘yicha barqaror malakalar va mustahkam bilimlar egallashi kelgusi «Men» bilan uzviy bog‘liq ravishda amalga oshadi. Kelajakda o‘z sohasining mahoratli kishisi, tashabbuskor va tashkilotchi shaxs sifatida voyaga yetishi o‘zlarida ko‘p jihatdan ular tomonidan tanlangan ideal kasb egasi fazilatlarini qunt bilan shakllantirib borishga bog‘liq. Bo‘lg‘usi mutaxassisning tinimsiz izlanishi unda dinamik «Men»ni tarkib toptira boradi, ijobiy va sifat o‘zgarishlarini oqilona nazorat qila olishi, to‘g‘ri baholay bilishi bu jarayonning asosiy mezoni hisoblanadi.

Natija va muhokama. Biz o‘z tadqiqotimizda bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini aniqlovchi psixologik tadqiqot o‘tkazdik va quyidagicha natijalarga ega bo‘ldik.

Shaxs psixologik sifatlarini aniqlash natijalari quyidagicha

1-jadval

respondentlar	Muloqotga moyillik darajasi %	Emotsional yetuklik. %	Hukmronlikka intilish. %	Hissiy o‘zgaruvchanlik. %	majburiyat hisi %	Ijtimoiy mardlik. %	Ishonuvchanlik darajalari. %	Zo‘riqish. %
Yigitlar	43%	77%	87%	39%	57%	83%	49%	57%
Qizlar	83%	49%	73%	49%	73%	65%	35%	35%

Muloqotga moyillik darajasi bo‘yicha respondentlar bergan javoblarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, talaba yigitlardan ko‘ra qizlarning ochiq ko‘ngililigi, o‘zini erkin tutishi, yorqin emotsionalligi, odamlarga diqqat-e’tiborligi bilan ajralib turishi 83 foizni tashkil etdi.

Emotsional yetuklik, kuchli iroda, hayotga realistik qarash, xotirjamlik, kayfiyatning barqarorligi kabilar talaba yigitlarda kuchliroq namoyon bo‘lib, u 77 foizni tashkil etdi. Hissiy holatidagi o‘zgaruvchanlik, egiluvchanlik, hayajonlanish, noxushlik holati bilan bog‘liq ko‘rinishlar 49 foiz qizlarda mavjud ekanligi aniqlandi.

Hukmronlikka intilish bilan bog‘liq davogarlik yigitlarda 87 foiz bo‘lib, ular o‘ziga ishonadi, fikrlashi mustaqil, qattiq qo‘l, ular rahbarlarga odatda bo‘ysunmaydi. Qizlar orasida ham deyarli har doim hukmronlikni yaxshi ko‘radigan, o‘z qonunlarini o‘zgartiradigan hamda mustaqil fikrlaydigan talabalar 73 foizni tashkil etdi.

Har ikkala jins vakillarida ham majburiyatni his qilish, o‘ziga talabchanlik, tirishqoqlik yuqori bo‘lib, ular javobgarlikni o‘z bo‘ynilariga oladi, ko‘p narsalarni rejalashtiradi va vaqtni bekorga o‘tkazmaydi.

Ijtimoiy mardlik ko‘rsatkichlari qizlarga nisbatan yigitlarda ustun bo‘ldi. 83 foiz talaba yigitlar mard, to‘la erkin, ijtimoiy botir, uddaburon ekanliklarini qayd etishdi. Bunday sifatlar 65 foiz qizlarda ham mavjud. Lekin talaba qizlarning 35 foizi uyatchan o‘ziga ishonmaydi, o‘zini doimo chetga oladi, odatda o‘zidan ko‘ngli to‘lmasligini his qiladi. Ular ko‘pchilik bilan aloqada bo‘lishni, atrofida bo‘layotgan hodisalarga aralashishni ma’qul ko‘rmaydi.

Ishonuvchanlik darajalari talaba yigitlar va qizlarda bir-biriga yaqin ko‘rsatkichlarni berdi. Ularning aksariyati rashk va hasad qilishdan ozod, quvnoq, ziddiyatlarga intilmaydi, boshqalar haqida ko‘proq qayg‘uradi, guruhlarda yaxshi ishlaydi.

Talabalar o‘rtasida mustaqil, o‘zidan ko‘ngli to‘q, o‘zining shaxsiy qarorlarini tavsiya qiladigan, o‘z yo‘lini tutishga moyil yigit - qizlar mavjudligi ularning o‘qituvchilik faoliyatini mustaqil, ijodiy izlanishlar asosida yurita olish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Aksariyat talaba yoshlar o‘zini yuqori darajada nazorat qiladi. Ularda umumiy xulq va o‘zining irodaviy hissiyotlarini kuchli nazorat qilish tendentsiyasi mavjud.

Yigitlarda zo‘riqish, me’yordan ortiq faollik, sabrsizlik 57 foizni ko‘rsatdi. Qizlarda esa qoniqish hissi bilan bog‘liq bo‘lgan holda zo‘riqish susaygan. Lekin ba’zi bir vaziyatlarda haddan tashqari o‘zidan qoniqish dangasalikka olib keladi. Hozirgi kun o‘qituvchisi avvalo ijodkor bo‘lishi, mashg‘ulotga ijodiy yondashmog‘i lozim.

Xulosa. Mustaqil O‘zbekistonda hozirgi vaqtda o‘qituvchilar rolini oshirish maqsadida bir muncha arzugilik ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. CHunki, ta’lim sistemasini rivojlantirmay turib, yangi hayot qurish mumkin emas. O‘qituvchi shaxsi xususiyatlarining muhim tomonini uning ma’naviyat va siyosiy e’tiqodi, dunyoqarashi tashkil qiladi. O‘qituvchi yoshlarda Vatanga, xalqiga, ona-yurtiga, o‘lkasiga, muhabbat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, halollik, rostgo‘ylik, ahloqiy poklik, kamtarlik, xato va kamchiliklarga nisbatan murosasizlik, do‘stlik, o‘rtoqlik, qardoshlarga birdamlik kabi yuksak ahloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi. Bu ahloqiy fazilatlar yoshlarni ichki ehtiyoji bo‘lib qolishi uchun kurashadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.

2. M. R. Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O‘quv metodik qo‘llanma. Toshkent. SHarq. 2006. 139 bet.

3. “Forobiy Ruhiy protsesslar va ta’lim-tarbiya to‘g‘risida”. T.:1967.,B-51

4. Рогов. Е.И. Настольная книга практического психолога. М.: 2004 г.451стр.

5. Karimova V.M, Xolyigitova N.X. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-“Iqtisodiyot” – 2014. 41 b.

6. Зимняя.И.А «Педагогическая психология»: Учебник для вузов. –М., “Изд-во” 2002.-384с.

Kalillayeva Ulbosin Ayapbergenovna
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

XULQIDA BUZILISH MAVJUD BO'LGAN O'SMIRLARNING KASB TANLASH MOTIVATSIYASINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolad deviant xulq-atvorli o'smirlarni kasb tanlashga motivatsiyasi tizimini ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganildi va tadqiq qilingan. Bundan tashqari deviant xulq-atvorli o'smirlarda kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *deviant xulq-atvor, jamiyat, ijtimoiy norma, o'smirlik, qobiliyat, determinizm, kasbiy rivojlanish tashabbus, motivatsiya.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОТИВАЦИИ ВЫБОРА ПРОФЕССИИ У ПОДРОСТКОВ С РАССТРОЙСТВАМИ ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье изучена и исследована система мотивации подростков с девиантным поведением к выбору профессии как социально-психологическая проблема. Кроме того, выделены педагогико-психологические особенности формирования мотивации выбора профессии у подростков с девиантным поведением.*

Ключевые слова: *девиантное поведение, общество, социальная норма, подростковый возраст, способности, детерминизм, профессиональное развитие инициатива, мотивация.*

THE EFFECTIVENESS OF THE MOTIVATION FOR CHOOSING A PROFESSION OF ADOLESCENTS WHO HAVE A DISORDER IN BEHAVIOR

Annotation. *This paper explored and researched the system of motivation for deviant behavioral adolescents to choose a profession as a social psychological problem. In addition, the pedagogical and psychological features of the formation of motivation for choosing a profession in adolescents with deviant behavior are highlighted.*

Key words: *deviant behavior, society, social norm, adolescence, ability, determinism, professional development initiative, motivation.*

Kirish. Ijtimoiy jarayonlarga olimlar texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarning tezlashishi bilan bog'liq tendensiyalarni, shuningdek, biznes va davlat boshqaruvi modellarining o'zgarishi, iste'molchilik jamiyati hamda o'rta sinfning o'sishi va boshqalarni bilan belgilashadi. Zamonaviy dunyoda va mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tahlil qilish, yangi dunyo jamiyati sezilarli o'zgarishlarni kutayotgani haqida fikrlash imkonini beradi. Jumladan, kompyuterda operatsiyalarni bajarishni o'z ichiga olgan muntazam jismoniy mehnat yo'qoladi; yangi kasblar tezda paydo bo'ladi va doimiy ravishda o'zgaradi, virtual haqiqatda ish o'rinlari paydo bo'ladi, bu esa deviant xulq-atvorli o'smirlarning kasbiy yo'nalishi jarayonida kasbiy muhim ko'nikma va qobiliyatlarni (qattiq ko'nikmalar) shakllantirishni ahamiyatsiz qiladi; ko'plab mutaxassislar iqtisodiy faoliyatning bir qismini ofisdan o'z uyiga raqamli iqtisodiyot maydoniga o'tkazadilar, ko'p tilli, ko'p madaniyatli o'zaro ta'sir esa yagona mahsulot yaratish uchun ishlaydigan gorizontal jamoalarda ngayadi.

Kasb tanlashga inson hayotidagi eng muhim masaladir. Zero, real turmushda uning biror kasb – hunarni mukammal egallab, yetuk mutaxassis bo'lishi zaruriy holdir. Albatta, insonning kasb – hunar bilan bog'liq bolalikdagi his tuyg'ulari, orzu – xayollari yoshga xos psixologik xususiyat bilan bog'liq. Bolalikdagi kasb – hunar yoki mutaxassislik uchun zarur bilim, shaxs sifatlari va boshqa talablar e'tiborga olinmaydi. Inson orzularining reallikka aylanishi esa unda mas'uliyat va javobgarlik tuyg'usini paydo qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Deviant xulq-atvorli o'smirlarni o'rganishda D.Atkinson, G.Eberleyn, E.Fromm, Z.Freyd, L.D.Gissen, K.Levin, X.Leymets, A.Maslou, G.Myurrey, D.Nevv, R.Kettell, U.V.Kala, J.Nyutten, G.Olport, X.Xekxauzen, V.Rozelnblat, V.Rudiklar kasb tanlash bo'yicha nazariy-

ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Kasbiy motiv va motivatsiya muammosi rus psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, kasbiy motivlar borasida Ye.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, K.M. Gureevich, S.S. Grinshpun, V.K. Vilyunas, L.I. Bojovich, A.V. Brushlinskiy, A.P.Vasilev, A.E.Golomshtok, V.I.Jukovskaya va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

V.A.Kruteskiy shaxsning ish faoliyati bilan bog‘liq motivatsiyalarni 3 guruhga ajratish mumkinligini ta’kidlab o‘tadi; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi - kasb tanlash motivlari va uchinchisi - ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya’ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi [5].

K.M.Gureevich mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo‘lib, ular o‘ziga xos omillar bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to‘siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o‘sish, tashabbusning paydo bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Ba’zan, qiziqish bo‘yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Ish joyini va kasbni tanlash motivlari L.I.Bojovich tomonidan klassifikatsiya qilingan.

- ✓ U kasb motivlarini quyidagilarga ajratadi:
- ✓ Dominant (kasbga qiziqishning ustun turishi).
- ✓ Vaziyat bilan bog‘liq (har doim insonni qiziqtirib kelgan shart-sharoitlarni ruyobga chiqarish).
- ✓ Komformist.
- ✓ Kasbiy motivatsiyalar (o‘ziga yaqin ijtimoiy olamning ya’ni yaqinlarini, do‘st va tanishlarining maslahatlari bilan) [6].
- ✓ Ma’lumki, T.V.Kudryavsev fikricha, shaxsning kasbiy shakllanishi to‘rt asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:
- ✓ a) kasbiy intilishlarning shakllanishi;
- ✓ b) kasbiy ta’lim;
- ✓ v) kasbiy moslashish;
- ✓ g) shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to‘liq o‘zini-o‘zi bag‘ishlashi [6].

A.G.Asmolovning qarashlariga tayanib aytish mumkinki, shaxs mutaxassis sifatida shakllanishi davridayoq yashovchanlik ko‘rsatkichlaridan boxabar bo‘lishlari muhimdir[2]. Uning fikricha, yashovchanlik ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi: shaxsning yashovchanligi va kasbning yashovchanligi. Olim shaxs yashovchanlik sifatlariga quyidagi ko‘rsatkichlarni kiritadi:

1. Shaxs xususiyatlariga munosib kasb tanlash.
2. Bajarayotgan ishga qo‘yilgan talablarga yuqori darajada tayyorlik.
3. Hayoti davomida talim olish va o‘rganishga tayyorlik.
4. Madaniyatliligi, o‘zga kishilar qadr-qimmatini, farqlarini qabul qila bilish.
5. Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilish.
6. Bir necha sohalarda kasbiy mahoratni namoyish qila olishi.
7. Yangi loyihalar taqdim qilish tashabbusiga ega bo‘lish.
8. Ishda hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmasiga egaligi.

I.A.Vasilev o‘z tipologiyasida shaxsning kompleks mo‘ljal olishga yo‘naltirilgan bir qator tiplarini ajratishga erishdi:

1. Realistik orientatsiya;
2. Intellektual orientatsiya;
3.Ijtimoiy orientatsiya;
4. Konvensional orientatsiya;
5. Tadbirkorlik orientatsiyasi.

Shaxsning kasbiy jihatdan o‘sishini ta’minlashda, kasbiy motivatsiyani to‘g‘ri shakllantirish, shaxs ustanovkalarini o‘zgartirish chora-tadbirlari uchun optimal yo‘l-yo‘riqlarni izlash lozim bo‘ladi.

Deviant xulqli o‘smirlarda kasb tanlashga oid motivatsiyani shakllantirish orqali ularda sog‘lom tafakkurni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda turli sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham katta islohotlar olib borilayapti. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan qator tadbirlar ham buning yaqqol misoli bo‘la oladi.

Yuqorida olib borilgan ilmiy manbalarning qiyosiy-psixologik tahlili hamda tadqiqotimizning xulosaviy natijalari asosida ta'kidlash lozimki, o'smirlarda kasb tanlashga oid motivatsiyani rivojlantirish uchun bir qator pedagogik-psixologik prinsiplarga amal qilish talab etilishini ko'rsatib o'tamiz. Bular:

bosqichma-bosqichlik prinsipi (o'smirlarni yangi g'oyalarni yaratish yoki biron bir ishlanmani takomillashtirishga yo'naltirish uchun ularga psixologik ta'sir ko'rsatadi)

individuallik prinsipi (o'smirlarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida qiziqishlari va shaxsiy individual qobiliyatlari qamrovi doirasida uzatilayotgan ma'lumotlarni amaliyotga qo'llash orqali o'zlashtirishlarini inobatga olib, samaradorlikni ta'minlash. Buning uchun ham individual-psixologik xususiyatlarni inobatga olish shart sanaladi);

tizimlilik prinsipi (psixologik texnologiyalar boshqa texnologiyalar bilan hamohanglikda amal qila oladi, ular makon va vaqt qamrovida aralashib optimal natijaga erishishni ta'minlaydi. Shu sababli, innovatsion faoliyatni shakllantirish uchun qo'llaniladigan har bir tarkib (podsistema) bir-birini to'ldirib, yaxlit shakl va mazmun kasb etishi shartki, tizimlilik shunda ifodalanadi);

kasbiy-hayotiylik prinsipi (o'smir tomonidan egallagan ko'nikma va malakalarni kasbiy faoliyatda qo'llash orqali, kasbiy-shaxsiy rivojlanishni ta'minlashga erishish. Shundagina, ta'lim davomida o'zlashtirilgan egallagan bilim, ko'nikma va malakani real kasbiy hayotda muvaffaqiyatli tarzda qo'llash imkoniyati yaratilib, sifat ta'minotiga erishiladiki, shunda kasbiy-hayotiylik ta'minlanadi);

nazariya va amaliyot birligi prinsipi (o'qitiladigan predmetlar doirasida yetkazilayotgan ma'lumotlarni, ishlab chiqarishda (kasbiy amaliyotda) qay darajada qo'llanilishini inobatga olib, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish nuqtai nazari asosida ta'lim berish).

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillar asosida ta'kidlash lozimki deviant xulqli o'smirlarda kasb tanlashga oid motivatsiyani rivojlantirish uchun, avvalo ularda kasb tanlashga oid motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillarni shakllantirish talab etiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, bugungi kunda kasb motivatsiyasi shakllanishi muammosi, o'zining nazariy – metodologik bazasiga ega ekanligini ko'rsatsada, aynan mavzu doirasidagi tadqiqotlarning yetarli emasligi va dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni

2. Азбел А.А. Особенности формирования статуса профессионалной личности старшеклас-сников: диссертатsия. ...канд. психолог. Наук / А.А.Азбел. -Санкт-Петербург, 2004. - 219 С.

3. Вилюнас В.К. Психологические механизmу мотивации человека. – М., 1990.

4. Власова И.Н. Изучение особенностей доминирования мотивов у детей младшего школьного возраста. // «Вопросу психологии», 1977, №6. с.97-196.

5. Елмуратова, А. (2022). Изучение морального самосознания студентов будущих спортивных педагогов. In Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования (pp. 522-524).

6. Arzimbetov, T. (2023). Sport jamoalariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(11), 24-25.

Arzimbetov Tileubergen Tilepbergenov
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi p.f.f.d (PhD),dotsent

TALABALARDA SPORT FAOLIYATI MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarda sport faoliyati motivlarini rivojlantirishning pedagogik psixologik xususiyatlari, hamda sportchilarning emotsional-irodaviy va motivatsion sohasini tadqiq etish, maxsus psixologik tayyorgarlik kompetensiyalarini oshirish hamda unga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlangan. Bundan tashqari ichki motivatsiyani rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *motivatsiya, idrok, emotsional barqarorlik, muvofaqiyat, kompetentlik, psixologik tayyorgarlik, iroda, faoliyat, determinism, ichki regulyatsiya.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МОТИВОВ СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены педагогико-психологические особенности развития мотивации спортивной деятельности у студентов, а также исследования эмоционально-волевой и мотивационной сферы спортсменов, повышения компетентности специальной психологической подготовки и выявлены психологические факторы, влияющие на нее. Кроме того, разработана программа развития внутренней мотивации.*

Ключевые слова: *мотивация, восприятие, эмоциональная стабильность, соответствие, компетентность, психологическая готовность, воля, активность, детерминизм, внутренняя регуляция.*

PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF MOTIVES OF SPORTS ACTIVITY IN STUDENTS

Annotation. *This article identifies pedagogical psychological characteristics of the development of motives of sports activity in students, as well as research of the emotional-volitional and motivational sphere of athletes, increasing the competencies of special psychological training and psychological factors affecting it. In addition, a program for the development of internal motivation has been developed.*

Key words: *motivation, perception, emotional stability, success, competence, psychological training, willpower, activity, determinism,internal regulation.*

Kirish. Mamlakatimizda jismonan va ma'nan sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash yuzasidan yuqori darajadagi izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ko'plab sport turlariga ahamiyat berib qaraydigan bo'lsak motivatsiya sportchining har qanday faoliyatida katta ahamiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, boshqa sportchilar bilan shiddatli raqobat sharoitida juda qisqa vaqt ichida eng yaxshi natijaga erishish talab qilinadigan sport turlarida.

Jahon sportida sportchilarning musobaqa jarayonida psixologik tayyorlash, ularda psixologik barqaror tuzilmani shakllantirish, sport jamoalarida shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish, jamoadagi turli ziddiyatli vaziyatlardan qochish, jamoaviy jipslik, o'zaro hamkorlik va maqsad sari intilish kabi jihatlarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sportchi shaxsini psixologik rivojlantirishga ta'sir etadigan barcha bilish jarayonlar, individual-psixologik xususiyatlar, hissiy-emotsional holatlar va ularning sportchi faoliyatiga namoyon bo'lishini o'rganish ushbu tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro sport turlari, shu jumladan, milliy va olimpiya sport o'yinlari, ayniqsa, jamoaviy sportdagi muvofaqqiyatsizliklarni sabablarni izlab topish va bartaraf etishda psixologik xizmatning o'rnini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar esa o'zining dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot mavzusi doirasida qator xorij tadqiqotchilari va mamlakatimiz psixolog olimlarining muammo borasidagi izlanishlari mazmuni, ularning fikr va mulohazalari hamda kontseptual yondashuvlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Mamlakatimiz psixolog olimlaridan R.A.Abdurasulov, Sh.R.Barotov, D.Sh.Baratova, Z.G.Gapparov, Z.E.Gaziyeva, Z.Fayziyev, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, D.G'.Muxamedova, Z.T.Nishonova, A.M.Nazarov, N.S.Safoyev,

R.S.Samarov, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev va boshqalarning tadqiqotlarida psixologik xizmat va uni rivojlanish tarixi, sport sohasida qo'llanilishi, sportchilarni jamoaviy jipsligi, shaxslararo munosabatlar motivatsiyasi hamda o'zaro hamkorlik darajasini ilmiy-nazariy o'rganish borasida muayyan darajada izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari psixologlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.G.Asmolov, A.F.Bondarenko, V.A.Yadov, V.M.Rusalov, S.L.Rubinshteyn, A.V.Petrovskiy, D.N.Uznadze, A.Y.Xarevskaya va boshqalarning ijtimoiy psixologiya, sport psixologiyasi va psixologik xizmat sohasida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarida jamoalarda psixologik xizmat ko'rsatish va uning ilmiy-nazariy natijalari, jamoaviy munosabatlarni psixologik talqini, sport jamoasi a'zolarining psixologik holatini o'rganish muammolariga alohida e'tibor qaratilgan.

A.I. Leontiyev nuqtai nazaridan motivlar ikki tomonlama funktsiyani bajaradi:

- Birinchidan, ular faoliyatni rag'batlantiradi va yuboradi,
- Ikkinchidan, ular faoliyatning shaxsiy mazmunini biriktiradi.

Bugungi kunda motivatsiya psixik voqelik sifatida turlicha talqin etiladi.

Bir holatda – xulq-atvorni yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi, ya’ni belgilovchi omillar yig‘indisi sifatida talqin etilsa (K. Madsen; J. Godfrua), boshqa holatda esa – motivlar yig‘indisi kabi (K. K. Platonov, 1986), uchinchi bir holatda – organizm faolligini uyg‘otuvchi va harakatga keltiruvchi, ya’ni uning yo‘nalishini belgilab beruvchi hisoblanadi.

Ilk bora “motivatsiya” so‘zidan A.Shopengauer o‘zining “Yetarli sababning to‘rt tamoyili” maqolasida foydalanilgan. So‘ngra ushbu atama inson va hayvonlarni xulq-atvorini sabablarini tushuntirishda psixologik muomalaga mustahkam ravishda kirib bordi.

Motivatsiya bu – insonni hayotda va mehnat faoliyatiga nisbatan faollikni yoquvchi quvvatdir. U motivlar negiziga asoslanib, ular zamirida shaxsni faoliyatga undovchi va harakatga keltiruvchi aniq turtkilar nazarda tutiladi. Talabalar motivatsiyasi haqida so‘z yuritganimizda, bu jarayonlar, usullar va bilish faoliyatiga nisbatan, ta’limni mazmunini faol o‘zlashtirishga turtki bo‘luvchi vosita va usullar sifatida o‘zini namoyon qiladi. Undan tashqari motivatsiya aniq faoliyatning psixik regulyasiyasi jarayoni (M. Sh. Magomed-Eminov, 1998), motivning ta’sir qilish jarayoni va aniq faoliyat shakllarini amalga oshiruvchi usullar, yo‘nalishlarini vujudga kelishini belgilab beruvchi mexanizmdir turtki va faoliyatga javob beruvchi jarayonlar tizimining majmuasidir.

Motivlar o‘rnida bog‘langan juftliklar emosiya va intilishlar, qiziqishlar va ehtiyojlar, idellar va ustanovkalar xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun motivlar murakkab dinamik tizim bo‘lib, unda tanlovni amalga oshirish va qaror qabul qilish, qilingan tanlovni tahlilini amalga oshirish va baholash hisoblanadi.

Yuqorida berilgan ta’riflardan kelib chiqib, motivatsiyani ikki yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchisi, motivatsiyani tizimli nuqtai-nazaridan omillar yoki motivlarni yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqadi. Masalan, V.D.Shadrikovning (1982) tuzilmasiga binoan, motivatsiya shaxsning ehtiyojlari va maqsadlari bilan, talab va ideallari, faoliyat shartlari (ob’yektiv – tashqi va sub’yektiv – ichki: bilimlar, malakalar, qobiliyatlar, tavsifnomalar) va dunyoqarashi, e’tiqodlari va shaxsning yo‘nalganligi va h.k. omillarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilinishi va niyatni shakllanishi hosil bo‘ladi. Ikkinchi yo‘nalish moivatsiyani statik (turg‘un) emas, balki dinamik (harakatchan) jarayon, mexanizm sifatida ko‘rib chiqadi.

Biroq har ikkala holatda ham mualliflarda motivatsiya motivga nisbatan ikkilamchi shakllanma voqelik sifatida ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, motivatsiya mavjud motivlarni amalga oshirishda vosita yoki mexanizmi: mavjud motivni amalga oshirishga imkon beruvchi vaziyat vujudga kelganda, ya’ni motiv yordamida faoliyatni tartibga regulyasiya jarayonidir. Masalan, V.A.Ivanikovning (1985) fikricha, motivasiya jarayoni motivning dolzarblashuvidan boshlanadi.

Tahlillar. Talabalarda motivatsiya ta’lim olish jarayonini yaxshilashning eng samarador usuli hisoblanadi. Motivlar ta’lim olish jarayoni va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini harakatga keltiruvchi kuchi hisoblandi.

Ta’lim olishga nisbatan motivatsiya juda murakkab va munozarali jarayon bo‘lib, unda shaxsning alohida fanga yoki butun o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabatning o‘zgarib borishi kuzatiladi. Motivatsiya inson xulq-atvori va faoliyatida, shuningdek, bo‘lajak mutaxassisni shakllanish jarayonida bosh yetaklovchi kuch hisoblanadi. Shuning uchun, aynan, talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatida stimullar va motivlarga doir masalalar dolzarblashib bormoqda.

Motivlar mobil tizimlardan biri bo‘lganligi sababli, unga ta’sir ko‘rsatish mumkin. Hattoki, agar talaba bo‘lajak kasbni mustaqil emas va anglamagan ravishda tanlangan bo‘lsada, faoliyatni mustahkam

motivlar tizimini masadga yo‘naltirib shakllantirilsa, bo‘lajak mutahassisga kasbiy moslashuv va kasbiy shakllanishda ko‘mak bersa bo‘ladi. Talabalarda tanlov motivini chuqur tadqiq etish, ta’lim olish motivlarini korreksiya va talabalarning mutaxassis sifatida shakllanishiga ta’sir qilish imkonini beradi. O‘quv jarayonining samaradorligi bevosita motivatsiyaning va bo‘lajak kasbni egallashga nisbatan stimulning yuqoriligiga bog‘liq. O‘quv jarayoni murakkab faoliyat turiga mansub bo‘lib, ta’lim olish motivlari ko‘p sonlidir, ular har bir insonda alohida bo‘lishi yoki yahlit bo‘lib birlashganda, murakkab motvasion tizimlarni hosil qiladi.

Inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, kasbiy ta’limni tashkil etish va sifatida borgan sari yangidan-yangi talabalarni olg‘a surmoqda. Oliy o‘quv yurtining zamonaviy bitiruvchisi, nafaqat maxsus bilimlar, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, balki, muvaffaqiyatga erishishga ehtiyojni his qilishi, mehnat bozorida talabga to‘liq javob bera olishini bilishi lozim. Shuning uchun, bizning fikrimizga ko‘ra, talabalarga bilim olishga, mustaqil faoliyatga va uzluksiz o‘z ustida ishlashni singdirish zarur. Ushbu maqsadga erishish uchun, talabalarda ta’lim olish motivatsiyasi bo‘lishi lozim. Ushbu maqolaning predmeti talabalar motivatsiyasi hisoblanadi. Tadqiqot tayanch nuqtasi – Novosibirsk davlat texnik universtite talabalaridir.

1-jadval.

Ichki (intrinsiv) motivatsiyani rivojlantirish dasturi

Bosqichlar	Maqsadi	Tuzilishi	Vaqti
1. Kirish	Guruh a’zolarini bir birlari bilan yaqindan tanishib olishlarida, trener o‘zini ham yaqindan tanishtirish orqali guruhga ishonch hisini orttirish muhitini yaratish, maqsadlarni belgilash.	Suhbatlar, munozaralar, o‘yinlar, muammolarni hal qilish.	1-kun (2 soat)
2. Nazariya	Ichki motivatsiya mavzusining asosiy nazariy qismiga kirish va inson faoliyatidagi o‘rni.	Kichik ma’ruza, suhbatlar, munozaralar.	2-kun (2 soat)
3. Refleksiya (aks ettirish)	Trening ishtirokchilarining ichki motivatsiyani rivojlantirishda qadriyatlarning roliga e’tibor qaratish o‘z qadriyat sohasini o‘rganish.	Ishtirokchilar natijalar asosida o‘z-o‘zini tavsiflovchi insho yozis	3-kun (2 soat)
4.Maqsadni shakllantirish	Dastur ishtirokchilari uchun belgilangan rollarda insholar yaratish	Ish natijalarining umumiy muhokamasi, taklif etilgan insholar bilan kelishuvda dasturning shakliy bosqichini boshlash	4-kun (2 soat)
5. Hakllantiruvchi	Ichki xulq - atvorda tajriba orttirish	Ajratilgan rolni ijro etish taklif etiladi va u tufayli ichki motivatsiyani oshirish samarasiga erishiladi	5-kun (2 soat)
6. Qayta aloqa. Nazorat	Rol o‘ynash va yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilish.	Vaziyatlar muhokamasi,	6-kun (2 soat)
7.Shakllantiruvchi	Motivatsion sohadagi o‘zgarishlar bo‘yicha ishlarning davomi.	Motivatsion sohadagi o‘zgarishlar bo‘yicha ishlarning davomi	7-kun (2 soat)
8. Diagnostika	Trening ishtirokchilarining shaxs qadriyatlari va konstruksiyalari tizimlaridagi hamda real xulqatvordagi o‘zgarishlarni aniqlash.	Trening ishtirokchilari qo‘llanilgan usul yordamida o‘z qiymatlarini va konstruksiyalarini aniqlaydilar va ularni avvalgi tadqiqot natijalari bilan taqqoslaydilar	8-kun (2 soat)

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, yosh sportchilarning sport faoliyatida namoyon bo‘ladigan ekstrinsiv va intrinsiv motivlarni meyorlashrituvchi quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi

1. Sportchilarda ichki nizolarni yengib o‘tish va muvaffaqiyat motivatsiyasini rivojlantirish belgilandi.

2. O‘z faoliyati bo‘yicha yechim qabul qilishning asoslilik ko‘rsatgichini oshirish va intrinsiv motivatsiyalarni shakllantirish.

3. Rad etilishdan va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish motivatsiyasini yengib o‘tishga o‘rgatish.

4. Sportchilarda faoliyatga undovchi vaziyat (motivator)larni va xatti-harakatlar asosini to‘liq anglash darajasini yuksaltirish.

Xulosalar. Yosh sportchilarda motivatsiyani shakllantirish omillarini o‘rganish jarayonida, tadqiqot natijalari bizni bir qator xulosalarga kelishimizga olib keldi. Bu holat, yosh sportchilarda motivatsiya komponentlarini o‘stirish, g‘alabaga intilish motivlarini kuchaytirish, sport mahoratini rivojlantirish, kasbiy kamolot kabi masalalarga oydinlik olib kelishi ehtimoldan holi emas.

1. Yosh sambochilarda sport motivlarini kuchaytirish, shaxsning qiziqishlar ko‘lami, ehtiyojlar turi, bilim va ko‘nikmalar darajasi, g‘alabaga intilish motivlari, mag‘lubiyatdan qochish va da’vogarlik darajasi kabi psixologik komponentlardan iborat. Irodaviy tarbiya, rag‘batlantirish motivatsiyani shakllantiruvchi omil bo‘lib, ular sport turlarining xususiyatiga qarab, namoyon bo‘lib boradi.

2. Yosh sportchilarning texnik tayyorgarligini oshirishdagi motivatsion jihatlarini individual tarzda tahlil etish esa, mashqlantirish tizimi va faoliyatining hamkorlik shakli to‘g‘risidagi nazariy materiallarda o‘z aksini topadi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4-dekabrdagi PF-5887-sonli “O’zbekistonda futbolni rivojlantirishning mutloqo yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to’g’risida” Farmoni. – T.: 2019. -B.1-2.

2. Mirziyoev M.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: “O’zbekiston”, 2017. – 488 b.

3. Амирхан Д., Зимбардо Ф., Бойд Дж. Парадокс времени. Новая психология времени, которая улучшит вашу жизнь. –СПб.: Речь, 2010. –112 с.

4. Кэдьюсон Х., Шеффер Ч. Практикум по игровой психотерапии. –СПб.: Питер. 2001. -416 с.

5. Мирошникова Р.В. Развитие быстроты действий в процессе подготовки Шестаков М.М. Футбол: Структура соревновательной деятельности и критерии её эффективности в футболе. /Учебно-методическое пособие. – Краснодар.: 1993. -28 с.

6. Arzimbetov, T. (2023). Sport jamoalariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(11), 24-25.

7. Jalgasbaevich, J. T. (2023). Emotional stability in athletes as the basis of a special psychological preparation process. epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(7), 143-146.

G'aybullayev A'zam Ahadovich
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

URF-ODAT VA AN'ANALAR –YOSHLARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRADIGAN IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEZON

Annotatsiya. *Mazkur maqolada urf-odat va an'analar yoshlarda milliy qadriyatlarga qadriyatli yondoshuvlarini shakllantirishi hamda yoshlarda milliy ruh, milliy xarakter, milliy ongni takomillashib borishi tahlil qilingan. Bundan tashqari hozirda halqimizning ijtimoiy hayotida ishlatilmayotgan qadimiy urf-odat va an'analarimiz, saqlanib kelayotgan urf-odatlar hamda zamonaviy urf-odat va an'analarning qadriyatga aylanishining ijtimoiy psixologik asoslari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *milliy qadriyat, urf-odat an'ana, hayotiy qadriyatlar, ma'naviy meros, tantana, umuminsoniy qadriyat, gipotetik deduksiya, longityud monitoring va ma'naviy marketing, sub'ektiv, globallashuv.*

ОБЫЧАИ И ТРАДИЦИИ – ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У МОЛОДЕЖИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется, как обычаи и традиции формируют у молодежи ценностные подходы к национальным ценностям и совершенствуют национальный дух, национальный характер и национальное самосознание у молодежи. Кроме того, выделены древние обычаи и традиции, не используемые в настоящее время в общественной жизни нашего народа, сохранившиеся обычаи, социально-психологические основы трансформации современных обычаев и традиций в ценности.*

Ключевые слова: *национальная ценность, традиция, жизненные ценности, духовное наследие, праздник, общечеловеческая ценность, гипотетический вывод, долготный мониторинг и духовный маркетинг, субъективное, глобализация.*

TRADITION AND TRADITIONS – FORMATION OF NATIONAL VALUES AMONG YOUTH SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CRITERIA

Abstract. *This article analyzes how customs and traditions form value approaches to national values among young people and improve the national spirit, national character and national identity among young people. In addition, ancient customs and traditions that are not currently used in the social life of our people, preserved customs, and socio-psychological foundations for the transformation of modern customs and traditions into values are highlighted.*

Key words: *national value, tradition, life values, spiritual heritage,holiday, universal value, hypothetical conclusion, longitudinal monitoring and spiritual marketing, subjective, globalization.*

Kirish. Milliy qadriyatlarni yoshlarda shakllantiradigan asosiy ijtimoiy psixologik mezonlar millatning tarixi, urf-odati, an'anasi, hayotiy qadriyatlari bilan birga ma'naviy merosi, madaniy boyliklari va ko'hna tarixiy yodgorliklaridir. «Urf-odat – an'analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyil»[1]lar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, shu jamiyatning bevosita ishtirokchisi sifatida ijtimoiy munosabatlar negizida shaxsda o'z ifodasini topadi.

Yurtimizdagi urf-odat va an'analar xalqimizning o'zi kabi umrboqiy va serqirraligi bilan ma'naviy meros sifatida saqlanib kelmoqda va eng muhim omillardan biri bo'lib, millat uchun xizmat qilmoqda. Vatanimizning har bir go'shasida o'ziga xos marosimlar, urf-odatlar va ijtimoiy hayot bilan bog'liq an'analar mavjudligi bois o'zbek xalqini butun dunyoga millat sifatida tanilishiga sabab bo'lmoqda. Xalq an'analari va marosimlari shu xalqning ongu shuurida chuqur o'rin olgan asriy qadriyatlar, ma'naviyat ko'zgusida aylangan ijodkorlarning ko'p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida takomillashib kelgan. Qadimiy marosimlar hamda xalq an'analarini chuqur o'rganish milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash, tushunish imkonini beradi.

Tarixdan ma'lumki, urf-odat va an'analar insoniyat hayoti, turmushi, mehnati va ibratli hayot saboqlari bo'lib, ajdodlardan-avlodlarga meros bo'lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo'ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an'analar va urf-odatlarning amaliy ko'rinishidir. An'analar va urf-odatlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy siyosiy va diniy bo'lib, milliy qadriyatlarning ajralmas

qismidir. Chunki har qanday urf-odat, udum, rasm-rusum, marosim va an'analar milliy qadriyatlar negizida shakllanadi va milliy vijdon, milliy ruh, milliy xulq, milliy odob axloq mevasi sifatida uni yaratgan zukko xalq tarbiyasining asosini tashkil etadi. Jamiyatni boshqarishning ma'naviy omili sifatida yoshlar qalbida mehr muhabbatli bo‘lish, oila va Vatanni sevish, ajdodlar merosidan bahra olish va hayotni qadrlash kabi tuyg‘ularni shakllantiradi.

Shaxs ijtimoiy mavjudot bo‘lib uning xulq atvori va odatlari shakllanishi bevosita tashqi muhitga bog‘lik. Shaxsning yuksak belgilaridan biri uning o‘zini anglashidir. SHaxs o‘z tevarak atrofdagi olamni bilguvchi va shu olamga ta'sir etuvchi sub'ektdir. Odam o‘zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o‘zining o‘tmishi va kelajagini anglashi, o‘zining huquq va burchini, o‘zining fazilat va kamchiliklarini anglashi o‘zini anglashga kiradi. Millatga dahldorlik har bir insonga go‘dakligidan qaysi millat vakili bo‘lgan oilada tarbiya topishiga bevosita bog‘liq. Ushbu fikrni yoshlarga proeksiya qiladigan bo‘lsak, yoshlarimizda xulq-atvor shakllanishi bevosita milliy urf-odat, an'analarimiz ta'siri ostida vujudga keladi. Hozirgi ochiq axborot tizimi davrida esa yoshlarimiz ongida milliy urf-odat va an'analarimizni qadriyat darajasida saqlab qolish eng muhim dolzarb muammo sifatida qaralishi ushbu mavzuni yoritishga asos bo‘ldi.

Maqsad: yoshlarda urf-odat va an'analar asosida milliy qadriyat shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar berish.

Metodlar tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Muhokama va natijalar: yoshlar ongida milliy urf-odat va an'analarni shakllanganlik darajasini aniqlovchi diagnostik so'rovnoma natijasida hojatbarorlik, hamdardlik, ahillik, g'amxurlik, «halollik», «o'zaro ishonch», «burchlilik», milliy qadriyatni saqlanib kelajak avlodlarga yetkazilishi, shaxsning ulug'vorligi, uning qadr-qimmati va mehnatsevarligi, erksevarligi, do'stlikka sadoqat, Vatanga muhabbat, dushmanga nafratni, jamoa bo'lib ishlash, jipslik, yaxshilik, mehmondo'stlik, ijobiy taqlidchanlikni ortib borishi, kattalarga hurmat va boshqa ijobiy xislatlarni o'zida namoyon etishi, milliy urf-odat va an'analar ijtimoiy hayotning o'zgarishi tufayli yangilanib, takomillashib yangicha bosqichga o'tib borishi, yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvi, boshqalarni qabul qila olishi, o'z-o'zini anglash, hissiy emotsional qulaylik, urf-odat va ana'analarning kategoriyalarga bo'lib o'rganilishi; ya'ni unitilgan urf-odat va an'analar, umrboqiy an'analar hamda zamonaviy ana'analarning yoshlar hayotidagi o'rni, sog'lom sotsializatsiya mezonlarini kiritish asosida rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Mulohaza: Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlari, tili va ruhi negizida qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg‘unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg‘usini odamlar qalbi va ongiga etkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr bardoshlilikni, adolat tuyg‘usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo‘lida xizmat qilmog‘i lozim. U davlat fuqarolarining buyuk maqsad yo‘lida ma'naviy yaqinlashuviga ko‘maklashmog‘i kerak deya, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” asarida ta'kidlab o‘tgan edi [2]. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni tiklash, unutilgan an'analarni keng ommalashtirish va ularni chuqur o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Zero, xalqimizning qadimgi urf-odat, an'ana va marosimlarga alohida e'tibor berishi ma'naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega edi. Chunki kishilarni yangicha ruhda tarbiyalash, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini keng targ‘ib qilishda, an'ana va marosimlar mohiyatini anglash, ularni, ayniqsa, yoshlarga chuqurroq tushuntirish muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. SHu bois ham an'analar mohiyatini chuqur anglash uchun “marosim”, “urf-odat”, “rasm rusum”, “udum”, “tantana” tushunchalari va ularning “an'ana” tushunchasi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasi, o‘rnini yoritish kerak bo‘ladi. An'analar barqarorligini ta'minlash mexanizmining o‘ziga xos xususiyatini aniqlashda urf-odatlar va marosimlarning ahamiyati kattadir. “An'ana” tushunchasining mohiyatini yanada chuqur anglash uchun esa “marosim”, “udum”, “tantana”, “urf-odat” tushunchalarining mazmun va mohiyatini bilish maqsadga muvofiqdir.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning oltin merosi hisoblanadi. O‘zbekiston davlat sifatida o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin Qurbon va Ro‘za hayitlari, "Navro‘z" (bahorgi teng kunlik - yil boshi 21-22 mart), "Angom Hayit" (yozning eng uzun kuni to‘rt unsurning yana biri Suv sayili), "Mehrjon" (kuzgi teng kunlik 22 sentyabr), "Sada" (qishning eng uzun tuni, to‘rt unsurning biri – olov bayrami) kabi xalqona qadriyatlar tiklandi. Shuningdek, zamonaviy an'analar va marosimlarimiz Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, Xotira va qadrlash kuni, O‘zbek tili bayrami kabilar istiqlol

davrining an'anaviy qadriyatlariga aylandi. Mahalla tizimining boshqaruv sifatida yo'lga qo'yilishi, hasharlarning tiklanishi, odatlarga e'tibor kabilar qadimiy an'analarning bugungi kundagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Umar Hayyom o'zining «Navro'znoma» asarida urf-odatlarga alohida to'xtalgan. Olim Quyosh taqvimi bo'yicha Navro'z kuni qanday belgilangani va bayramni qay tarzda o'tkazilganligini tarixiy dalillar bilan bayon qiladi. Allomaning fikricha, «Kimki Navro'z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro'zgacha xurram bo'ladi va farog'atda yashaydi»[3]. Umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan Navro'z bayramida muhtojlarga yordam ko'rsatish, bemor va etim-esirlardan mehr-muruvvatni ayamaslik, keksalarni ziyorat qilib, o'tganlarni xotirlash o'zbekona urfodatlarning muhim qismidir. Navro'z ayyomida urushganlar yarashishgan, gunohlar kechirilgan. Gaplashmay, yuragida kin saqlab yurish gunoh sanalgan. «Ayni shu betakror va dilbar faslda barchamiz o'zimizni yasharib ketgandek, vujudimizga yangi kuch-g'ayrat, azmu shijoat kirgandek his etamiz. Necha yuz yillik an'ana va qadriyatlarimizni yangitdan kashf etamiz, qanday buyuk tarix, qanday buyuk madaniyat vorislari ekanimizni yana bir bor anglaymiz. Va bundan qalblarimiz g'urur va iftixorga to'ladi»[4].

Ayniqsa, Navro'z taomi bo'lgan Sumalak (bug'doy ko'katidan pishiriladigan taom)ni pishirish va tarqatish tartibiga doir urf-odatlar kishilarni hamjihatlikka, bir jamoa ekanligini his qilishga, bir-birini tushunishga undagan.

Faylasuf olim Karim Mahmudov aytganidek, sumalak tayyorlash bu bir marosim, qozon boshiga yoshu qari, erkagu ayol barcha to'planadi, odamlar tuni bilan uxlamay, sumalak pishirish jarayonida odamlarsiz, mehr-muhabbatsiz hayot qanchalik rangsiz ekanligini anglaydilar. Zero, «Biz milliy qadriyatimiz bo'lgan bunday tuyg'ularni doimo asrab-avaylashimiz, aziz farzandlarimizni ham shunday ezgu fazilatlar sohibi etib tarbiyalashimiz kerak»[5].

Barchamizga ma'lumki, BMT qaroriga ko'ra, Navro'z har yili xalqaro miqyosda keng ishonlanadi. Bu bayram o'z mohiyati, qadr-qimmati, ijtimoiy-madaniy ahamiyati, odamlarda ezgu tuyg'ularni uyg'ota olishi bilan muqaddas bayramdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Hammamiz yaxshi bilamiz, Navro'z tinchlikni, sihat-salomatlikni qadrlab, asrab-avaylab yashashga da'vat etadi. Tinchlik va sog'liqni asrasak, qolgan narsalarga albatta erishamiz»[6].

O'zbek an'analari va urf-odatlari buyuk ipak yo'lida yashagan xalqlar, So'g'd va Baqtriyaliklar, bir tomondan ko'chmanchi qabilalar, zoroastrizm qoidalari, keyinroq islom an'analari va qonunlari bilan uyg'unlashib ketgan. Qarindosh urug'chilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondorchilik, qo'shnichilik, oilaviy munosabatlar, nonga, olovga, suvga e'tibor va e'tiqod o'zbek xalqiga xos urf-odatlardir. O'zbeklar hayotida oilada farzand tug'ilishi, uning tarbiyasi, to'y-tomosha qilish katta rol o'ynaydi. "Beshik to'yi" (besh kecha ham deyiladi) - urf-odat bo'yicha chaqaloq tug'ilishining beshinchi kuni kelinning ota-onasi yasatilgan beshik va chaqaloqqa kerakli narsalar va o'yinchoqlar olib kelishadi. An'ana bo'yicha mehmonlar stol atrofida tantana qilishayotganda bolalar xonasida yoshi katta ayollar chaqaloqni urf-odatlar bo'yicha beshikka belashadi va beshik ustiga shirinliklar sochishadi.

Nikoh to'ylarida yuzga yaqin urf-odatni bajarish azaliy qadriyat hisoblanadi. Nikoh to'yi «unashtirish», «non sindirish», «kuyovga to'y sarposi», «nikoh o'qish», ertalabki osh», «kelinni uyidan olib kelish», «kelin-kuyovni olovdan uch marta aylantirish», «chimildiqda shamlar yoqish», «ostonani ulug'lash», «kelin salom», «kelinni yangi oilaga qabul qilish», «sovg'alar bilan kelinni ko'rish» kabi ko'plab marosimlarni o'z ichiga oladi.

Sham yoqish barcha xalqlar urf-odatlarida mavjud bo'lib, ayniqsa dunyo dinlari bo'lgan xristian va buddizmda keng qo'llaniladi. Bu o'z navbatida xalqlar va ular o'rtasida tarqalgan dinlarning mohiyati yaqin ekanligini bildiradi.

Bu marhumni kuzatish marosimlarida ham o'z ifodasini topgan. Islom dinida motam marosimi aslida 3 kun bo'lib, baqirib yig'lash ma'n etilgan bo'lsa-da, o'zbek xalqi bugungi kungacha unga rioya qilmaydi. Bundan o'zbek xalqi hayotida, uning urf-odatlarida islomgacha ham diniy qadriyatlarning ta'siri katta bo'lganligini ko'rish mumkin. O'lim bilan bog'liq marosimlar qanchalik qayg'uli bo'lmasin, kishilarni bardoshli bo'lishga, sabr-qanoatga chaqiradi. Odamlarni birlashib marhumni kuzatishlari yaqinlarga madad bo'ladi, ularga ruhiy quvvat beradi. Insonlar bir birining ruhiy madaddiga muhtoj ekanligini anglaydi, mehr oqibatni oshiradi. To'y marakalarining bosqichma bosqich tartib qoida bilan o'tishi yoshlarni intizomli, madaniyatli hamda xush kayfiyat bilan o'tishini ta'minlab beradi.

O'zbek mintaletitiga xos xususiyatlardan biri nasl nasabini bilish ham qadriyat hisoblanadi. Shunga ko'ra ota-ona farzandlari ulardan faxrlanishlari, ulardan saboq olishlari uchun halol yashab, boriga qanoat qilib mehnat qilganlar. Milliy tariximiz o'z ichiga olgan ana shunday qadriyatlar avlodlar o'rtasida zanjir vazifasini o'tab, milliy urf-odatlarimiz hozirgi kunga qadar saqlanib, sayqallashib umuminsoniy

qadriyatlarga ijobiy ta'sir etib kelmoqda. Zero demokratiya milliy qadriyat sifatida turkiy xalqlar ongida ming yillar davomida shakllanib, milliy qiyofasi, urf-odatlari, qarashlari bilan dunyodagi qadimgi va boy sivilizatsiyada o'z o'rniga ega. Unda milliy o'ziga xoslik hisobga olingan. SHarm-hayo, or-nomus har narsadan ustun bo'lgan.

O'zbek xalqining necha asrlardan buyon shakllanib kelayotgan urf-odatlarga sodiqligi shundaki, ularni ahamiyatli, qadrli darajasiga qarab inson yashashi uchun muhim bo'lgan qadriyatlar: suv, havo, iqlim, kerakli muhit, oziq-ovqat, uy-joy, kiyim-kechak, ishlab chiqarish vositalari, oila, yurt kabilarga alohida e'tibor bergan, ularni qadrlay olgan. Keyingi o'rinda bo'lgan, nomuhim bo'lgan, insonning yashashiga ta'sir etsada, uning hayotini belgilamaydigan hashamatli uylar, bezaklar, taqinchoqlar kabilarga esa o'ta mehr qo'yishmagan. Diniy qarashlar ustuvorligi tufayli o'tkinchi dunyoda bunday jonsiz predmetlarga mehr qo'yish o'sha narsalar bilan insonning tenglashishini bildirgan. Bugungi kunga kelib ana shunday insonni ulug'lovchi qadriyatlar unutilib borilayotgani, moddiy ne'mat bo'lgan hashamatli uylar, avtomashinalar, bezaklar, taqinchoqlar egallayotganligi sir emas. Globallashuv jarayonida qadriyatlarning ko'p hollarda o'z o'rnini topmayotgani nafaqat bir millatning, balki butun dunyo xalqlarining ma'naviy inqirozidan dalolat berayotganligi, shu sababli hatto rivojlangan davlatlar ham o'z kelajagidan qattiq xavotirlanganligi uchun milliy urf-odat va an'analarini saqlab qolish yo'llarini izlamoqda.

Turon zaminida yashab kelgan o'zbek xalqining qadimdan shakllanib rivoj topgan hayotning turli jabhalarida namoyon bo'ladigan urf-odat va an'analarimiz juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Bulardan qadimdan bizgacha etib kelgan ammo hozirgi hayotimizda uchramaydigan chaqaloq dunyoga kelganda 40 tup daraxt ekish odatlarimiz mavjud bo'lganligi, ushbu urf-odat zamirida olam, olam ma'no borligini ko'ramiz. Farzand dunyoga kelishi bilan ko'chat ekish an'anasini psixologik tahlil qiladigan bo'lsak, bizning ota-bobolarimizning ekologik bilim darajalari yuksak taraqqiy qilganligi, hayotning davomiyligi, ezgulik timsoli sifatida qaralganligi, tabiatga ehtiyotkorona munosabatlarni yoshlarda shakllanishiga, tabiatga qadriyatli yondoshuviga bevosita namuna bo'la olganlar [8].

Ne'matlar ichida non ulug'langan. Nonning bahosiga emas balqi uning qadr qimmatiga juda katta e'tibor berganlar. Shu sababli ota bobolarimiz o'z farzandlarini nonday ulug' va aziz bo'l deb duo qilishgan, nonni ushog'ini ham aziz bilib peshonasiga surgan. Bunday qadrlanish yaqin yaqingacha bizning ota bobolarimizda qat'iy tartibda urf-odat tusida namoyon bo'lib ularning qon qoniga singib ketgan. Mamlakatda urush boshlanib jangohga ketayotgan bo'lsa yoki uzoq safarga otlanayotgan bo'lsa unga non tishlatib, nonni qolgan qismini devorga ilib qo'yilgan. Farzandini yurt tinchligi va ozodligi uchun yuborayotgan ota-ona uning rizqi butun bo'lishini, umri uzoq bo'lib, sog' salomat o'z uyiga qaytishini mana shu non tishlatish odati misolida ko'rishimiz, ularning shu qadar e'tiqodi butun, ma'naviyati yuksak ekanligini nonga qadriyatli yondoshganligidan bilib olishimiz mumkin. Bunday odatlarda majoziy ma'no yashiriganligini aqli raso ma'naviyatli shaxs bir qarashda bilib oladi albatta. Xuddi shunday urf-odatlarimizdan yana biri tuproq va suvga nisbatan qadriyatli yondoshuvlarimizni ko'rib o'tish mumkin. Bizning qadimiy dinimiz Zardushtiylik dinida tuproq va suv juda qattiq e'zozlanganligini, suvni tiriklik belgisi sifatida qarab, suvga tupurmaslik, axlat tashlab iflos qilmaslik qadriyatlari shakllantirib, tarbiyalab borilgan.

Ilgari har bir mo'min musulmon eng kamida etti otasining ismini yod bilgan bo'lsa, hozirgi yoshlar ko'p bo'lsa 3-4 avlodini biladi xolos. Shajarasini bilmagan insonda qanday qilib tug'ilgan zaminga, o'z avlodlariga mehr muhabbat bo'lsin?[7]. Insonni o'z millati, oilasi shajarasidan mahrum etib manqurtlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan hatti-harakatlar yaqin o'tmishimizda keng quloch yoyganligi barchamizga ayon.

Yuqorida keltirib o'tilgan urf-odatlarimiz hozirda unut bo'lganligi, tabiatni bir bo'lagi ekanligimizni unutib qo'yishimiz oqibatida, tabiatga ziyon etkazayotganligimiz, suvni iflos qilayotganligimiz, ona erga oqilona munosabat shakllanmaganligi oqibatida ekologik xavf ostida yashab kelmoqdamiz. Nonning ahamiyati yaqin o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak chorizm mustamlakasi davrida toptalganligini, shu davr yoshlari uchun shunchaki bozor qiymatiga ega bo'lgan maxsulot sifatida qaralishi oqibatida isrofgarchilikka yo'l qo'yilganligi barchamizga ayon.

Jahon tamaddunida 21-asrda juda katta o'zgarishlar kuzatildi. Bulardan eng muhimlari fan texnika taraqqiyotidir. Fan texnika taraqqiyoti o'z navbatida zamonaviy qadriyatlarni shakllanishiga zamin hozirladi. Yoshlar ongida yangicha qarash, yangicha yondoshuvni olib keldi. Diniy va irqiy tafovutlar yo'qolib turli millat va elat vakillari o'zaro nikoh munosabatlariga kirishib kelmoqda. Yoshlarimizni dunyo davlatlari haqidagi bilimlari ortib, rivojlangan davlatlarda nafaqat borib ishlash, o'qish, balki shu yurtlarda yashab qolish istagi paydo bo'lmoqda. Bundan tashqari yoshlarimizni dunyoga chiqish istagi

ortib borayotganligi sababli boshqa tillarni o‘rganishga zo‘r ishtiyoq bilan kirishganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu hol yaxshi albatta. Ammo rivojlangan davlatlarni tilini o‘rganish bahonasida ularning madaniyatini, urf-odatlarini, hattoki milliy xarakterlarini ko‘r ko‘rona o‘zlashtirib olmoqda. Ushbu holatlar yoshlarimizda vatanparvarlilik, o‘z millatiga sodiqlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini pasayishiga olib kelganligini, yuqoridagi holatlarning kuchayishi oqibatida milliy qadriyatlar ma’lum darajada zavol topib bormoqda[9]

Yuqoridagi masala nechog‘lik xavotirli va dolzarbligi to‘g‘risidagi mulohazalarni asoslashda bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlab, ularni xalqimizning turli qatlamlariga ayniqsa yoshlar ongiga ta’sirini o‘rganish hamda zarur maqsadli va manzilli psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan milliy qadriyat sanalgan urf-odat va an’analarimizning ijtimoiy psixologik xususiyatlari, kategoriyalari bo‘yicha joylarda yoshlar bilan suhbat, ekspert-intervyu, ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma, kuzatish, kontent tahlil, modellashtirish, matematik statistika(spss dasturi), gipotetik deduksiya, longityud monitoring va ma’naviy marketing kabi metodlar orqali o‘rganishlar olib borildi. Va quyidagicha emperik natijalar olindi.

Respondentlar orasida milliy qadriyatga aylangan umrboqiy urf-odat va an’analarga nimalar kiradi degan savolga quyidagicha emperik ko‘rsatkichlarni qo‘lga kiritdik. n=90

(1-jadval)

№	Javoblar	n=90	%
1	Kundalik turmushda uchraydigan barcha holatlar-kiyinish, salomlashish, oqatlanish, barcha umumxalq bayramlari, sayillar	43	48%
2	Navro‘z, Ro‘za va Qurbon hayiti	31	34%
3	To‘y va motam marosimlari	11	12%
4	yurtimizda o‘tkazilayotgan Ipak va ziravorlar festivali, Milliy liboslar festivali, Sharq taronalari festivallari va h.k	5	6%
Jami:		90	100%

Demak milliy qadriyatning bir bo‘lagi sifatida urf-odat va an’analar kirishi hamda ularning ahamiyati haqida yoshlarimizga ma’lum darajada tushuncha mavjud ammo ularni hayotga qo‘llay olishida ma’lum darajada hayotiy tajriba etishmasligi namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarimiz tomonidan ijtimoiy hayotda ko‘p bora duch keladigan hayotiy mezonga aylangan urf-odatlarnigina bilishi yuqoridagi so‘rovnomada namoyon bo‘ldi.Fikrimizning dalili sifatida keyingi tadqiqotimizda aynan shu masalini o‘rganishga qaror qildik

Respondentlar orasida ota bobolarimiz uchun qadriyatga aylangan ammo hozirgi kunda ishlatilmayotgan urf-odatlar va an’analar haqida nimalarni bilasiz degan savolga quyidagicha javob oldik. n=90

(2-jadval)

№	Javoblar	n=90	%
1	Qiz uzatish va uylantirish vaqtida qarshi tomon bir birini 7 naslini surishtirib, keyinchalik nikohga rozilik bildirganligi, non tishlatish udumi	14	16%
2	Oilada farzand dunyoga kelganda yaxshi niyat qilib uning nomiga daraxt ko‘chatlarini ekishi.	9	10%
3	Barcha urf-odat va an’analar hozirgi kunga qadar etib kelgan	31	34%
4	Javob berishga qiynalaman, bunday ma’lumotga ega emasman	36	40%
Jami:		90	100%

So‘rovnoma natijasidan ko‘rinib turibdiki yoshlarimiz tomonidan o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilishning etarli darajada shakllanmaganligi oqibatida, o‘z tarixi, o‘tmishdoshlarining yashash tarzi, urf-odat va an’analari haqida etarlicha bilim mavjud emasligi, bunga esa asosiy sabab ijtimoiy hayotning yaxshilanishi, tarixiy jarayonlarning o‘zgarishi, siyosiy tizimlar almashinuvi natijasida ota bobolarimiz uchun qadrli bo‘lgan urf-odat va an’analarimiz xalq orasida yo‘qolib ketganligini tadqiqotimizda kuzatishimiz mumkin.Biz keyingi so‘rovnomamizda hozirgi fan texnika taraqqiyoti davrida, axborot oqimining jadal sur’at bilan inson ongiga ta’siri natijasida zamonaviy yangi urf-odatlar va an’analarni qadriyat darajasida namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqganimizda quyidagicha natijalar namoyon bo‘ldi.

Yoshlar orasida zamonaviylik kasb etayotgan qanday urf-odat va an’analarni bilasiz degan savolga quyidagicha javob oldik. n=90

(3-jadval)

№	Javoblar	n=90	%
1	Yoshlar orasida milliy kiyimlarga nisbatan evropa hamda arab davlatlari libosida bo‘lish qadriyati	25	28%
2	Irqiy tafovutlarni yo‘qolishi, qaerda qadr topsa shu erni makon qilish istagi	7	8%
3	Zamonaiy fan texnika yutuqlari	19	21%
4	Javob berishga qiynalaman, bunday ma’lumotga ega emasman	39	43%
Jami:		90	100%

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan ma’lum bo‘ldiki, yoshlarning zamonaviylik kasb etayotgan hamda yoshlar uchun qadriyatga aylanayotgan urf-odat va an’analarni mazmun mohiyatini chuqur anglamaganligi namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni respondentlarning 43% ushbu savolga javob bera olmaganligi yuqoridagi fiklarimizni to‘liq ifodalab bera oladi.

Demak, milliy qadriyatimiz hisoblangan urf-odat va an’analar haqida yoshlarimizda etarlicha ma’lumot mavjud emasligi, ota-onalar va keng jamoatchilik tomonidan kompleks psixoprofilaktik chora tadbirlar etarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi oqibatida yoshlarimiz tomonidan milliy qadriyatimizga yot bo‘lgan urf-odatlarni, an’analarni qadriyat sifatida qabul qilayotganligi, bu masalaga e’tiborsizlik bilan qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko‘ngilsizliklar barchamizni ogohlikka da’vat etmog‘i lozim.

Xulosa va tavsiyalar: Xulosa qilib aytish mumkinki, unitilgan, yashab taraqqiy topib kelayotgan, zamonaviy qadriyatga aylangan urf-odat va an’analarning uchta kategoriyasini, urf-odatlar tarixan shakllanganligini, shuningdek, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy va qimmatli hamda o‘ta muhim xulq-atvor me’yorlarining kombinatsiyasi sifatida o‘zini namoyon etayotganligini ko‘rish mumkin. Urf-odat va an’analarning ta’sirida yoshlarda o‘zaro hurmat, mehr oqibat, vatanga va oilaga muhabbatni shakllantiradi. Kelajakda jamiyatga qo‘shilib, hayotda o‘z o‘rnini topishga tayyorlaydi. An’analarda har doim milliy xarakter va xalqning demokratik elementlari bo‘ladi. Xalq an’analari asrlar osha o‘zida nafaqat buyuk donishmandlikni, balki ajdodlarning hayotiy tajribasini saqlab keladi. An’ana va urf-odatlar qadriyat sifatida to‘g‘ri yashashga, xalq va Vatanga fidoyi farzand bo‘lishga da’vat etishi bilan katta ahamiyatga ega. Yoshlar asrlar osha yashab kelgan xalqona qadriyatlardan qanchalik saboq olsa, barkamol inson sifatida takomillashib boraveradi. Chunki an’anaviy xalk madaniyatiga asoslangan qadriyatlar insonning iymon e’tiqodli, ma’naviyatli va ma’rifatli bo‘lishiga qaratilgan. Milliy qadriyatlar negizida esa umuminsoniy qadriyatlar shakllanib boraveradi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib urf-odat va an’analarni o‘zida saqlaydigan ijtimoiy institutlar ya’ni oila, maktab, mahalla hamkorligini kuchaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish, jamiyatni ziyoli, ma’naviyatli qatlamini intellektual mulkidan unumli foydalanish chora tadbirlarini ishlab chiqish hamda hayotga tadbiq etish, diniy ulamolarning oila va oilaviy qadriyatga dahldor urf-odat va an’analarning ijobiy tomonlarini yoritishdagi rolini oshirish, ommaviy axborot vositalari, televideniya, radio, kino hamda teatrlarda urf-odat va an’alarimizni yoshlar ongiga etkazib beruvchi ta’sirchan ko‘rsatuvlar, eshittirishlar, kino hamda spektakllarni muntazam namoyish qilib borish, nodavlat va notijorat

tashkilotlari tomonidan targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada samaraliroq tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Falsafa qomusiy lug‘at. T., «SHarq», 2004 yil. 416-bet.
2. I.A.Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari –T.: O‘zbekiston, 1998. –311 bet.
3. Umar Xayyom. Navruznoma. T., «Mehnat», 1990 yil. 12-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SHavkat Mirziyoevning Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi. 21 mart 2019, https://www.gazeta.uz/ uz/2019/03/21/navroz-tabrik/
5. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. 14-tom, T, «O‘zbekiston», 2006 yil, 127-bet.
6. Mirziyoev SH.M. Navro‘z bayrami tabrigi. http://kunuz.com/crp/Navruz bayram tabriklari vase_rlar_crp/
7.To‘lanov J. Qadriyatlar falsafasi “O‘zbekiston nashriyoti” 1998 yil, 46-bet.
8. A’zam Ahadovich, G. (2022). Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ijtimoiy psixologik muammolarini sharq mutafakkirlari tomonidan o’rganilishi. *Science and Education*, *3*(4), 1219-1226.
9.G'aybullayev A.A. Tarbiyasi qiyin o'smirlarni tarbiyalashda milliy qadriyatni psixologik jabhalari**.** Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 yil № 1) 230-234

Axmedova Zarrina Jamilovna
Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya
kafedrasi o`qituvchisi

BOSHLANG`ICH SINF O'QUVCHILARINI MOSLASHTIRISH UCHUN PSIXOLOGIK SHAROITLARNING IJTIMOIY XUSUSIYATLARI

Anotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining maktabdagi moslashuv jarayoni undagi qiyinchiliklar haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, maktabning birinchi kunidanoq boshlangan ta`lim-tarbiya jarayonlari, o'quv faoliyati ko'nikmalarini o'zlashtirish, sinfdoshlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatish va o'qituvchi bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish, yetarli xulq-atvorni shakllantirish to`g`risida ma`lumotlar ochib berilgan.Bundan tashqari, boshlang'ich shakllarda o'quv faoliyati maktabgacha tarbiyachi tomonidan ham amalga oshirilishi ham nazarda tutilgan holda ma`lumotlar keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *morfofunksional tizim, kognitiv motivlar, hissiy-ixtiyoriy soha, semantik munosabatlar, kognitiv faoliyat, o'quv motivatsiyasi, somatik zaif.*

СОЦИАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ АДАПТАЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В данной статье представлена обратная связь учащихся начальных классов о процессе адаптации в школе, о трудностях в ней. Также раскрывается информация об учебно-воспитательных процессах, которые начинаются с первого дня обучения в школе, овладении навыками учебной деятельности, установлении дружеских отношений с одноклассниками и доверительных отношений с учителем, формировании адекватного поведения.Кроме того, в элементарных формах представлена информация, предусматривающая, что образовательная деятельность может осуществляться и дошкольником.*

Ключевые слова: *морфофункциональная система, познавательные мотивы, эмоционально-волевая сфера, смысловые отношения, познавательная деятельность, учебная мотивация, соматическая слабость.*

SOCIAL CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR ADAPTATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Anotation. *this article provides feedback on the difficulties of elementary school students in the process of school adaptation. It also reveals information about educational processes that began on the first day of school, mastering the skills of educational activities, establishing friendly relations with classmates and establishing reliable relationships with the teacher, forming adequate behavior.In addition, the initial forms provide information provided that the educational activities are also carried out by the preschooler.*

Keywords: *morphofunctional system, cognitive motives, emotional-volitional sphere, semantic relations, cognitive activity, educational motivation, somatic weak.*

Kirish. Maktabga kirish bola hayotidagi burilish nuqtasidir. Aqliy faoliyatni qo'llash sohasi o'zgaradi-o'yin ta'limot bilan almashtiriladi. Maktabning birinchi kunidan boshlab talabaga o'quv faoliyatiga mos keladigan yangi talablar qo'yiladi.

Maktabga kirgandan so'ng, bola darhol maktab o'quvchisiga aylanadi. Ushbu shakllanish, maktab hayotiga kirish boshlang'ich maktab davomida sodir bo'ladi va maktabgacha bolalik xususiyatlarining o'quvchining xususiyatlari bilan kombinatsiyasi boshlang'ich maktab yoshining butun davrini tavsiflaydi. Maktabda o'qishni boshlagan barcha bolalar muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bola hayotning bir necha sohalariga moslashadi: o'quv faoliyati ko'nikmalarini o'zlashtirish, sinfdoshlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatish va o'qituvchi bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish, yetarli xulq-atvorni shakllantirishdan iboratdir. Maktabga moslashish-tizimli tashkil etilgan maktabga o'tishda bolaning kognitiv, motivatsion va hissiy-ixtiyoriy sohalarini qayta qurish hisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv-bu bolaning xatti-harakati va faoliyatini yangi sharoitlarda qayta qurish jarayoni . Ushbu jarayon ko'p tomonlama, faol bo'lib, o'quv faoliyatini o'zlashtirishga va yangi

ijtimoiy muhit bilan samarali o'zaro munosabatlarga qaratilgan xatti-harakatlar vositalari va usullarini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabga kirishda bolaning yashash sharoitlari va faoliyati tubdan o'zgaradi, o'quv faoliyati yetakchi o'rinni egallaydi. Boshlang'ich shakllarda o'quv faoliyati maktabgacha tarbiyachi tomonidan ham amalga oshirilgan, ammo u uchun u ikkinchi darajali xarakterga ega edi, chunki o'yin yetakchi hisoblanadi; maktabgacha tarbiyachining o'quv faoliyati motivlari ham asosan o'yin edi. Maktab rejimi maktabgacha yoshdagi bolalikka qaraganda ancha yuqori xatti-harakatlarning o'zboshimchalik darajasini talab qiladi. Birgalikdagi faoliyat jarayonida o'qituvchilar va tengdoshlar bilan munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash zarurati rivojlangan aloqa ko'nikmalarini talab qiladi. Shu munosabat bilan, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanishi kerak bo'lgan maktabga tayyorlik alohida ahamiyatga ega. Yetarli aloqa tajribasiga ega, rivojlangan nutq, kognitiv motivlar va xatti-harakatlarni o'zboshimchalik bilan tartibga solish qobiliyati bilan shakllangan bolalar maktab sharoitlariga osongina moslashadilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Y.L.Kolominskiy, V.S.Muxina va boshqalar moslashishni "yetakchi faoliyat va ijtimoiy muhitning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan atrof-muhit sharoitlariga odatlanish" deb bilishadi. Shu bilan birga, moslashuvning o'zaro bog'liqligi ham ta'kidlanadi.

Z.L.Shintar birinchi sinf o'quvchilarini maktabga moslashtirish jarayonini tahlil qilib, bilimlari umumta'lim maktabi o'qituvchisi ishida uzluksizlik g'oyalarini amalga oshirishga imkon beradigan shakllarni aniqlagan bo`lib ular quyidagilardan iborat:

1. Tananing yangi yashash va faoliyat sharoitlariga, jismoniy va intellektual yuklarga moslashishidir. Bunday holda, moslashish darajasi maktabga borgan bolaning yoshiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari u organizmning morfofunksional tizimlarining shakllanish darajasiga hamda bolaning xulq-atvori va tashkilotchiligini o'zboshimchalik bilan tartibga solishning rivojlanish darajasi bilan oiladagi vaziyat qanday o'zgarganiga ham ahamiyatlidir.

2. Yangi ijtimoiy munosabatlar va aloqalarga moslashish ko'proq vaqt-makon munosabatlariga taalluqlidir (kun tartibi, o'quv qurollarini saqlash uchun maxsus joy, maktab formasi, darslarni tayyorlash, bolani katta aka-uka va opa-singillar bilan tenglashtirish, uning "voyaga yetganligini" tan olish, mustaqillik berish va boshqalar), shaxsiy va semantik munosabatlar (sinfda bolaga bo'lgan munosabat, tengdoshlar va kattalar bilan muloqot, maktabga bo'lgan munosabat, talaba sifatida o'ziga bo'lgan munosabat), bolaning faoliyati va muloqotining xususiyatlariga (oiladagi bolaga bo'lgan munosabat, ota-onalar va o'qituvchilarning xulq-atvor uslubi, oilaviy mikroiqlimning o'ziga xos xususiyatlari, bolaning ijtimoiy kompetentsiyasi va boshqalar) hisoblanadi.

3. Kognitiv faoliyatning yangi sharoitlariga moslashish maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uyda olingan bolaning ta'lim darajasining (bilim, ko'nikma, ko'nikma) dolzarbligiga hamda intellektual rivojlanishiga ta`sir ko`rsatadi. Shuningdek, ta'lim faoliyati ko'nikmalari va ko'nikmalarini egallash qobiliyati sifatida o'rganishga va bilim faoliyati asosi sifatida qiziqishga, ijodiy tasavvurni shakllantirish bilan kommunikativ qobiliyatlar (bilim, ko'nikma, ko'nikmalar bilan muloqot qilish qobiliyati) bilan izohlanadi.

L.S.Vigotskiyning so'zlariga ko'ra, bolalar allaqachon o'zlarining tajribalarini juda yaxshi bilishadi, ammo bu kattalarning baholashi natijasida kelib chiqadigan tajribalar, ularning xatti-harakatlari va o'zini o'zi qadrlashining o'zgarishiga olib keladi.

T.V.Dorojevets bolani maktab sharoitlariga moslashtirishning uch komponentli modelini taklif etadi. Uning fikriga ko'ra, maktabga moslashish quyidagicha amalga oshiriladi:

1) bolaning xatti-harakatlarining maktab hayoti me'yorlariga muvofiqligi darajasini tavsiflovchi akademik (o'qituvchining talablarini va o'quv faoliyati ritmini qabul qilish, sinfda o'zini tutish qoidalarini o'zlashtirish, darsda kognitiv faoliyat kabilar hisoblanadi.

2) bolaning sinfdoshlari tomonidan qabul qilinishi, yetarli miqdordagi kommunikativ aloqalar, shaxslararo muammolarni hal qilish qobiliyati va boshqalar shaklida yangi ijtimoiy guruhga kirish muvaffaqiyatini aks ettiruvchi ijtimoiy munosabatlardir.

3) bolaning o'zini yangi ijtimoiy hamjamiyat vakili sifatida qabul qilish darajasini tavsiflovchi shaxsiy hamda tegishli o'zini o'zi qadrlash va da'volar darajasi, o'zini o'zgartirishga intilish shaklida ifodalanadi O'quv yili qanday sharoitda boshlanishidan qat'iy nazar, talabalar uchun moslashish jarayoni doimo sodir bo'ladi. Shuning uchun maktabdagi moslashish davrining ma'nosi uning tabiiy oqimi va muvaffaqiyatli natijalarini ta'minlashdir. Bolaning namoyon bo'lish xususiyatlarini hisobga olgan holda maktabga moslashishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish uning rivojlanishidagi uzluksizlikni ta'minlashning eng muhim omilidir. Bo'lajak boshlang`ich sinf o`quvchilarining psixofizik holati ko'p jihatdan moslashish jarayoni qanday kechishiga bog'liq. Birinchi sinf o'quvchilarining moslashish vaqti boshqacha

bo'lishi mumkin. Odatda, maktabga barqaror moslashuvchanlik o'quv yilining birinchi yarmida qayd etiladi. Biroq, olti yoshli bolalarning 20-30 foizida bu jarayon birinchi yil davomida tugamasligi aniqlandi.

Optimal moslashish davri bir oydan bir yarim oygacha bo`lishi mumkin. Turli omillarga qarab, bolalarning yangi sharoitlarga moslashish darajasi har xil bo'lishi mumkin: yuqori, normal va past darajalarda. Psixologlar barcha bolalar uchun eng stressli mashg'ulotlarning dastlabki to'rt haftasi ekanligini isbotladilar. Bu" o'tkir " moslashish davri. Faol o'rganish davri "o'tkir" moslashish davridan keyin boshlanishi kerak.

Ta'limning birinchi yilining birinchi yarmida bolaning moslashish jarayoni uning tanasining barcha funktsional tizimlarining kuchlanishida namoyon bo'ladi. Ushbu davrda o'qituvchi va ota-onalar uchun osongina sezilishi mumkin bo'lgan murakkab moslashuvning eng yorqin belgilari bu vosita qo'zg'alishi, bosh og'rig'i, yomon uyqu, ishtahaning pasayishi kabi holatlar orqali kuzatilishi mumkin.

L.I.Bojovich, N.G.Morozovlar tomonidan 1-3 sinf o'quvchilari orasida maktabgacha ta'lim bilan shug'ullanishda davom etadiganlar borligi haqida yozadilar. Ular uchun mashg'ulotning o'zi emas, balki maktab muhiti va o'yinda ishlatilishi mumkin bo'lgan tashqi atributlar birinchi o'ringa chiqdi. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining noto'g'ri ishlashining ushbu shakli paydo bo'lishining sababi ota-onalarning bolalarga beparvo munosabati hisoblanadi. Tashqi tomondan, o'quv motivatsiyasining yetuk emasligi maktab o'quvchilarining bilim qobiliyatlari rivojlanishining yetarlicha yuqori darajasiga qaramay, darslarga mas'uliyatsiz munosabatida, intizomsizlikda namoyon bo'ladi. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining maktabdagi noto'g'ri ishlashining uchinchi shakli ularning xatti-harakatlarini, o'quv ishlariga e'tiborni o'zboshimchalik bilan boshqara olmasligidan iborat. Maktab talablariga moslasha olmaslik va qabul qilingan me'yorlarga muvofiq o'z xatti-harakatlarini boshqarish oiladagi noto'g'ri tarbiyaning natijasi bo'lishi mumkin, bu ba'zi hollarda bolalarning qo'zg'aluvchanligi, diqqatni jamlash qiyinligi, hissiy qobiliyatsizlik va boshqalar kabi psixologik xususiyatlarining kuchayishiga yordam beradi. Bunday bolalar bilan oiladagi munosabatlar uslubini tavsiflovchi asosiy narsa-bu bola tomonidan ichkilashtirilishi va o'z-o'zini boshqarish vositasiga aylanishi kerak bo'lgan tashqi cheklovlar va me'yorlarning to'liq yo'qligi yoki nazorat vositalarini faqat tashqi tomondan "olib chiqish" hisoblanadi. O'rta maktab o'quvchilarining maktabga moslashmasligining keyingi shakli ularning maktab hayotining sur'atlariga moslasha olmasligi bilan bog'liqdir. Qoida tariqasida, bu somatik zaiflashgan bolalarda, jismoniy rivojlanishining kechikishi, analizatorlarning ishlashidagi buzilishlar va boshqalarda uchraydi. Bunday bolalarni oilada noto'g'ri tarbiyalashda yoki kattalar tomonidan ularning individual xususiyatlarini "e'tiborsiz qoldirishda" noto'g'ri ishlashining sabablari natijasida kelib chiqadi.

Tahlil va natijalar. Eksperimentning aniqlash bosqichiga muvofiq ikkita 1-sinf (1 "B", 1 "C") o`quvchilarining diagnostik tekshiruvi o'tkazildi.

Aksariyat boshlang`ich sinf o'quvchilari normal darajadagi ta'lim motivatsiyasiga ega. Ularda pozitsion motivlar ustunlik qiladi, shuningdek, ijtimoiy va baholovchi motivlar ham mavjud. 1-"B" sinfida o'yin motivi ustunlik qilgan, ammo bu normal holat, chunki bolalar hali ham maktabga moslashmoqda. Keyingi o'quv va baholash motivi bo'lib, uni ko'pchilik o'quvchilar tanlagan, ijtimoiy motivni esa atigi 3 kishi tanlagan, shuningdek, sinfdan hech kim tashqi motivni tanlamagan.

1-sinfda o'quv motivi ustunlik qiladi, deyarli hamma uni tanladi, keyin o'yin, baholash va pozitsion motivlar keladi. 6 kishi tashqi motivni tanladilar, bu esa ushbu bolaning maktab vazifalarini bajarishda past rag'batlantiruvchi kuchga ega ekanligini ko'rsatadi. Baholash motivi ikkala sinfda ham ko'pchilik tomonidan tanlangan, ammo ushbu maktabda birinchi sinfda xatosiz o'qitish mavjud, shuning uchun xulosa qilishimiz mumkinki, hozirgi kunga qadar ko'pchilik ota-onalar uchun bola maktabda qanday belgilar olishi muhimdir.Biz quyidagi jadval asosida 1-sinflarning maktabga moslashuvini ko`rsatkichlar asosida ko`rishimiz mumkin:

Ko'rsatkich	Mann-Uitni Koeffitsienti	Muhimlik darajasi (p)	O'rta daraja	
			1 "B"	1 "C"
O`quv motivatsiyasi	435,5	0,826	30,02	30,98
O'z-o'zini hurmat qilish	375	0,230	33	28
Yo`nalganlik	355	0,156	33,67	27,33
Maktabga moslashuvi	415,5	0,606	29,35	31,65

1 "B" sinfida hech kim juda yuqori darajadagi o'quv motivatsiyasiga ega emas, chunki hech kim 12 balldan yuqori ball to'plamagan – 0%. Ta'lim motivatsiyasining yuqori darajasi 7ball boshlang`ich sinf o'quvchisi, bu 23% ni tashkil qiladi.

Ta'lim motivatsiyasining normal darajasi 16 boshlang`ich sinfo'quvchisi, bu 54% ni tashkil qiladi. O'quv motivatsiyasining pasaytirilgan darajasi 7ball boshlang`ich sinf o'quvchisi, bu 23% ni tashkil qiladi. Ta'lim motivatsiyasining past darajasi-0 boshlang`ich sinf o'quvchilari, bu 0%.

Shunday qilib, 4 usul bo'yicha birinchi bo'lim natijalari bilan, dastlabki diagnostika bosqichida ikkala birinchi sinf o'quvchilarining ko'pchiligining moslashuvi normal ekanligini ko'rish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, birinchi sinf o'quvchilarini maktabga moslashtirish bizning davrimizda dolzarb muammo hisoblanadi. Bu o'qituvchilar, mutaxassislar va ota-onalar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lishi kerak, ular o'z tarbiyalanuvchilari va bolalari, bo'lajak o'spirinlar uchun barcha javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar. Faqatgina yoshligida muvaffaqiyatli moslashish kelajakda bolaning shaxs sifatida yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Shuningdek, bola maktabga kelib, maktab muhitiga kirib, o'zining muayyan vazifalarini hal qiladi, aqliy va shaxsiy rivojlanish, sotsializatsiya, ta'lim va hokazolarning individual maqsadlarini amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Pickren W. E., Rutherford A. A history of modern psychology in context. Hoboken, New Jersey. 2010. 380 p.

2. Александровская, Э.М. Психологическое сопровождение школьников [Текст]: Учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений / Э.М. Александровская, Н.И. Кокуркина, Н.В. Куренкова. — М. : Академия, 2002. - 208с.

3. A.Z.Djamilovna Study of the formation of crime motivation in adolescents as a problem of psychological research, I.H.Bakhtiyorovna - ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2022

4. Ахмедова З.Ж. “Педагогико-психологические особенности адаптации младших школьников к учебной деятельности” Вестник интегративной психологии 2023 Выпуск 29

Quliyev Yorqin Krimovich
BuxDU, Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasi dotsenti

TASHKILOTLARDA XODIMLARNING DAXLDORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. *maqolada tashkilotlarga xodimlarning daxldorligini oshirishga yordam beradigan tashkiliy madaniyat, jamoa ichida psixologik iqlimni yaxshilash, tashkilot ichidagi rahbar va xodim orasida ishonchli munosabatlar o'rnatish, ishga bo'lgan mas'uliyat kabi asosiy omillar tahlil qilingan. Xodimlarning daxldorligi - bu xodim va tashkilot o'rtasidagi birlik hissi, maqsadlarning birligini anglash va o'z manfaatlarini tashkilot manfaatlari bilan birlashtirish hisoblanadi. Ishga jalb qilingan xodim tashkilotdagi daxldorligi tufayli tashkilot ishini o'zining hayotiy maqsadi sifatida ideal tarzda qabul qilib, tashkilot uchun natijalarga erishishda imkon qadar ko'proq kuch sarflashga tayyor turadi. Shunga ko'ra, ish samaradorligi sezilarli darajada oshadi va xodimlar almashinuvi sezilarli darajada kamayadi.*

Kalit so'zlar: *xodimlarning ishtiroki, daxldorlik omillari, haqiqiy ishtirok, kognitiv ishtirok, hissiy ishtirok, tashkiliy madaniyat, psixologik iqlim, ishonchli munosabatlar, ishga bo'lgan mas'uliyat.*

FACTORS FOR THE FORMATION OF EMPLOYEE IMMUNITY IN ORGANIZATIONS

Annotation. *The article analyzes key factors such as organizational culture that helps organizations increase employee immunity, improving psychological climate within the team, building reliable relationships among the leader and employee within the organization, responsibility for work. Employee inviolability is the sense of unity between an employee and an organization, the awareness of the unity of goals and the integration of one's own interests with the interests of the organization. The employee involved in the work is prepared to spend as much effort as possible in achieving results for the organization, ideally accepting the work of the organization as his life goal, due to his inviolability in the organization. Accordingly, the efficiency of work increases significantly, and the turnover of employees decreases significantly.*

Key words: *employee participation, risk factors, actual participation, cognitive participation, emotional participation, organizational culture, psychological climate, reliable relationships, responsibility for work.*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОВЛЕЧЕННОСТИ СОТРУДНИКОВ В ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. *В статье проанализированы такие ключевые факторы, как организационная культура, которая помогает организациям повысить вовлеченность сотрудников, улучшение психологического климата в коллективе, установление доверительных отношений между руководителем и сотрудником внутри организации, ответственность за работу. Вовлеченность сотрудников - это чувство единства между сотрудником и организацией, осознание единства целей и объединение собственных интересов с интересами организации. Благодаря своей принадлежности к организации вовлеченный сотрудник готов приложить как можно больше усилий для достижения результатов для организации, в идеале принимая работу организации в качестве своей жизненной цели. Соответственно, значительно повышается производительность труда и значительно снижается текучесть кадров.*

Ключевые слова: *вовлеченность сотрудников, факторы вовлеченности, реальная вовлеченность, когнитивная вовлеченность, эмоциональная вовлеченность, организационная культура, психологический климат, доверительные отношения, ответственность за работу.*

Kirish. G'oyaviy, informatsion va mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda yurtdoshlarimizning hayotga ongli va ob'ektiv munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorligini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda tashkilotlarda xodimlarning isloxotlarga nisbatan daxldorlik fazilatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilish, bu orqali daxldorlik fazilatini shakllanish jarayonini ilmiy-amaliy tahlil qilish hamda baholash, tayanch mezonlarini aniqlash orqali yoshlarimizning ongini zaharlab, ma'naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish bo'yicha maqsadli va manzilli tavsiyalarni ishlab chiqish zarurati oshib bormoqda. Bugungi kun islohotlarimiz Yangi O'zbekistonda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali "kuchli fuqarolik jamiyati", "ma'rifatli jamiyat" va "tashabbuskor jamiyat" ni barpo etmoqda va jarayonning o'zi ham bugungi islohotlarning natijasidir.

Fuqarolik jamiyatini qaror toptirish xalqimizning ma'naviy fazilatlari yuksalishiga bog'liq. Biroq globallashuv sharoitida terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes kabi tashqi va el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi ichki tahdidlarning paydo bo'layotgani ko'rishimiz mumkin.

Mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan shaxsning ma'naviy muxofazasi yanada mustahkamlanib boradi. Sababi unga ma'naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar zarar yetkaza olmaydi. Shu bilan birga u ana shu xurujlarga qarshi kurashishni yaxshi o'rganib oladi. Loqayd, befarq, e'tiborsiz bo'lmaydi. Shu sababli fuqarolik jamiyatini barpo qilishda daxldorlik masalasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Xodimlarning daxldorligi - bu xodim va tashkilot o'rtasidagi birlik hissi, maqsadlarning birligini anglash va o'z manfaatlarini tashkilot manfaatlari bilan birlashtirish hisoblanadi. Ishga jalb qilingan xodim tashkilotdagi daxldorligi tufayli tashkilot ishini o'zining hayotiy maqsadi sifatida ideal tarzda qabul qilib, tashkilot uchun natijalarga erishishda imkon qadar ko'proq kuch sarflashga tayyor turadi.

Demak, daxldorlik – insonga xos yuksak ma'naviy fazilat. U shaxsning o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat hissini anglatuvchi tuyg'u, umumiy ish, nohaklikka, adolatsizlikka murosasizlik, yaxshi, bunyodkor ish va fikr, g'oyalarga xayrixohligini faol namoyon qilish va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda globallashuv sharoitida tashkilotlarda daxldorlik fazilatining ijtimoiy-psixologik omillari bo'yicha nazariy o'rganishlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, daxldorlik fazilati odamning ijtimoiy mavjudot sifatidagi manfaatlaridan kelib chiqib, o'z funksiyasini bajarishi yoki bajarmasligini hal qiluvchi ilk signal, tanlash nuqtasi bo'lib, aynan mazkur funksiya uning psixologik tabiatidir. Odamlar orasidagi loqaydlik tufayli tiklab bo'lmas ofat, korrupsion holatlarga qarshi jim turish, jinoyat, halokatlar sodir bo'layotgan ekan, daxldorlik fazilatini ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilish orqali mazkur fazilatni har bir o'zbekistonlik yosh yigit-qizning kompetensiyaviy fazilatiga aylantirish o'ta muhim ijtimoiy-psixologik zaruratga aylandi. Bu esa daxldorlik fazilati bilan bevosita va bilvosita bog'lanuvchi tayanch sifatlari, xususiyatlari, mezonlarini va psixologik omillarini alohida o'rganishni talab etadi.

Xodimlarning daxldorligini shakllantirish ularni tashkilotlarga jalb etilishi kuchayishiga yordam beradi, tashkilotning tashkiliy madaniyati, psixologik takomillashtirish jamoa ichidagi iqlim, ishonchli munosabatlar, tashkilotchilik, o'z ishiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga olib keladi. Daxldorlik xodimlarning doimiy ravishda moslashadigan doimiy jarayondir, ichki va o'zgarishlarga qarab sozlangan va to'ldirilgan tashqi muhit hisoblanadi. Ko'pgina olimlar daxldorlik bilan shug'ullanishlari bejiz emas. Jumladan psixologiya, sotsiologiya, menejment sohasida u bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa tez sur'atlar bilan ish faoliyatida ijobiy tomonga o'zgarib borayotganligini, murakkab ishlab chiqarish jarayonlarida ish mazmuni, sifatning oshishiga olib kelishini ko`rishimiz mumkin. Tashkilot xodimlari orasida oddiy xodimlarning yuqori malakali mutaxassislar bo`lib yetishishiga, xodimlar o'rtasidagi munosabatlarning "individualizatsiyasi" ahamiyatini oshirishga olib keladi.

Daxldorlikga ta'sir qiluvchi asosiy omillar haqida fikrlar ilmiy va biznes muhiti orasida juda farq qiladi. Xorijiy tadqiqotchi J. Hellevig umumiy va individual omillarni ("drayverlar") aniqlaydi. U umumiy "drayverlar" sifatida rahbarlar va menejerlardan: ishonch, adolat, hurmat qilish; aloqa; izchillik; samarali jarayonlar; vakolatlar; tashkiliy tuzilma; o'z-o'zini tarbiyalash; sifat va mijozlar ehtiyojini qondirish xatti-harakatlarini talab qilinadi. Individual drayverlar tarkibiga: sifatli va mazmunli hayot kechirish; ishning mazmuni; to'lov va ish haqi; korporativ madaniyatning "yumshoq" jihatlarini ko`rsatib o`tadi[10].

I.A. Kulikova va N.A. Nikolaevlarning taklifiga ko'ra, xodimlarning daxldorlik omillar tahlilini kamida ikkita darajada amalga oshirilishi kerak:

- tashkilot (bo'linma) darajasida - tashkiliy daraja;
- har bir xodim darajasida - individual darajada.

Birinchi holda, umumiy tahlil natijalari, tashkilotchilik darajalarini, ikkinchisida - individual darajalarni olish mumkin [8]. Keling, xodimlar daxldorligining tashkiliy shartlarini ko'rib chiqaylik. Hozirgi vaqtda eng mashhur nazariyalardan biri zamonaviy mehnat munosabatlarini tushuntiruvchi almashinuv nazariyasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv doirasida xodimning o'zini investitsiya qilishga tayyorligi sifatida talqin qilinadi, faoliyatda kognitiv, mahorat va hissiy capital bilan ishtirok etish, uni kompaniya ravnaqi uchun resurslar va imtiyozlarga almashtirish tushuniladi.

Ushbu nazariya ichida daxldolikni ko'rib chiqadigan juda ko'p ta`riflar mavjud. A.Sacs daxldorlikning ikki turga ajratadi: ishga ishtiyoq bilan kasbiy mehnat faoliyatini amalga oshirish va tashkilotda shu tashkilot uchun jon kuydiradigan xodim sifatida ishtirok etish[4]. Tashkilotda ishtirok etishdan manfaatdorlik amalda xodimlarning o'zini o'zi rivojlantirishida, ijodiy qobiliyati va kasbiy qobiliyatini ochib berishda, ma'lum bir tashkilotdagi salohiyat, xodimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va tashkilot ichidagi etakchilikda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga tashkiliy ishtirok ko'pincha o'sha tashkilotda ishlashdan zavqlanish bilan bog'liq bo'lgan ishga bo'lgan ishtiyoqni o'z ichiga oladi. Daxldorlikning tarkibiy qismlariga quyidagilarni ko`rsatib o`tish mumkin:

1) kognitiv - xodimlar tashkilotning strategik maqsadlari va qadriyatlarini oqilona tushunadilar;

2) jismoniy - g'ayratli va o'z kuchlarini sarflashga tayyor;

3) hissiy - tashkilotga ular bilan ishlaydigan xodimlarga hissiy jihatdan bog'langanligi;

Ushbu komponentlarni ko'rib chiqadigan bo`lsak, kognitiv komponent ishtirok etish bilan sodir bo'lishini, xodim qadriyatlarining tashkilot qadriyatlariga mos kelishi tahlil qiladi. Xodimning tashkilot bilan "aloqa nuqtalari" qanchalik ko'p bo'lsa, xodimlarning tashkilotga bo'lgan majburiyati shuncha yuqori bo'ladi. Daxldorlikning asosiy omili xodimlarni tashkilot siyosatiga jalb qilishga ta'sir qilish hisoblanadi. Daxldorlik kadrlar siyosati yordamida o'rnatiladi va tashkilotdagi ichki tartib qoidalar orqali xodimlar faoliyati olib boriladi. Kadrlarni tanlash bosqichida ishga qabul qilinadigan yangi xodim moslashish va integratsiya jarayonidan o'tadimi yo`qmi uning daxldorligi oldindan aniq bo`ladi.

Tashkilotlarda xodimlarning daxldorligini oshirishda korporativ madaniyat muhim rol o'ynashini alohida ta`kidlash lozim. Agar xodimlar o'z tashkilotining strategik rivojlanishini tushunishsa, shundagina tashkilotning qadriyatlarini o'z xodimlari bilan uyg'unlashtirish jarayoni sodir bo'ladi. Korporativ madaniyatda rahbarning shaxsiy namunasi va shaxsiyati katta ta'sir ko'rsatadi, daxldorlik esa xodimlarni jalb qilishda asosiy rol o`ynaydi. Ta`kidlash joizki, rahbarning javobgarligi xodimlarni jalb qilishning eng muhim omillaridan biridir. Mas'uliyat, birinchi navbatda daxldorlik tashkilotning ish beruvchi sifatidagi imidjida namoyon bo'ladi.

Tashkilot xodimlarida daxldorlik hissini shakllantirish uchun rahbarlar xodimlarni mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga undashlari va xodimlarning maqsadlariga erishishlari uchun sharoit yaratishlari kerak. Rahbarlarning o'zi xodimlarning faolligini oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Rossiyalik izlanuvchi olim S.Tsarenkoning ta'kidlashicha, raxbarlar xodimlarni chinakam jalb qilishi mumkin bo'lgan asosiy mezon sifatida rasmiy va norasmiy liderlarning bir shaxsda birlashishida hisoblanadi. Ishonchli rahbar xodimlarga maqsadga erishishda qaysi hatti-harakatlar modeli optimal ekanligini ko‘rsatish uchun o'zini misol qilib ko'rsatadi va shu bilan ularga kuch beradi va ilhomlantiradi.

Boshqaruv tuzilmasi qiyin bo'lgan yirik kompaniyalar uchun xodimlarning daxldorligini oshirish qiyinchilik tugdiradi. Rahbarning daxldorligini oshirishning ikkinchi usuli - kaizen tizimlaridan foydalanish hisoblanadi. Rahbar, bir tomondan, o'z qo'l ostidagilarning ehtiyojlariga e'tiborli va ehtiyotkor bo'ladi, ularning ishini hurmat qiladi, ikkinchi tomondan, u faoliyat qoidalarini belgilaydi va nazorat qiladi. Tashkilotda belgilangan standartlar yordamida xodimlarni nazorat qilish mumkin. Standart xodimlarning ishchanligi va malakasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlaydi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilardan iborat: raxbar tashkilotni rivojlantirish uchun strategiyalar, siyosat va maqsadlarni ishlab chiqadi; mas'uliyat va vakolatlarni belgilaydi; bilim, ko‘nikma va xulq-atvor kabi kadrlarga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi; zarur resurslarni taqdim etadi.

Xodimlarning daxldorligini oshirish barcha ierarxik darajadagi boshqaruv jarayonlariga xodimlarni jalb qilish orqali yordam beradi. Bu xodimlarning o'z-o'zini anglash, tan olish, qo'shimcha vakolatlarga ega bo'lgan odamlar doirasiga mansublik va boshqalar kabi ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Ishlab chiqarish tizimining quyi bo'g'inlaridagi xodimlarni qo'shimcha boshqaruv mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga va boshqaruv tashabbuslarini amalga oshirishga undashda bevosita moddiy mukofotlar berish katta rol o‘ynaydi [9].

Tashkilotni boshqarishga daxldorlikni samarali oshirish raxbarlar va xodimlar o'rtasidagi motivatsiyani oshirib, kengaytirilgan o'zaro manfaatli hamkorlik sohasiga o'tadi. Yaponiya

kompaniyalari daxldorlik motivatsiyasidan foydalangan birinchi tashkilotlardan biri bo‘lib sanaladi. Ular daxldorlikning bunday usullaridan keng foydalanganlar. Rahbar - sifat doiralari, "hoshin kanri" va boshqalar, ular tashkilotni boshqarish jarayonlarida xodimlar ishtirokining ommaviy shaklini o'z ichiga oladi. Yapon tashkilotlarida daxldorlikning ommaviy shaklini yaratish mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirdi, sifatni oshirdi, ishchilarning tashabbusi va mustaqilligini rivojlantirdi.

Daxldorlik yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, so'nggi paytlarda G'arbda inson resurslarini boshqarish amaliyotida H2H modeli (Insondan Insonga - H2H - odamdan odamga) qo'llanilmoqda. N. Perevozning fikricha, odamlar hayot faqat oddiy mehnatdan iborat emasligi, bundan tashqari, doimo rivojlanish va takomillashtirish zarurligini anglab etdilar. Eng muhimi, bularning barchasi xodimlar va raxbarlar o'rtasida oddiy, insoniy munosabatlarga, ochiqlik va halollikka ehtiyojni tug'dirdi [6]. Rahbar xodimlarga yaqinroq va qulayroq bo'lishi kerak, shuning uchun u do'stona, hamdardlik ko'rsatishi va hissiy aqlni rivojlantirishi lozimligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga eng muhim nuqtalardan biri rahbariyat tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining shaffofligidir. Bu xodimlarga korxona rahbarlari tashkilotni o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida chinakam yetakchilik qilayotganiga ishonch hosil qiladi.

Xodimlarning daxldorligi tashkilot hayoti, asosiy voqealar, muhim bosqichlar va tashkilotning rejalari haqida xabardor bo‘lib borishida ko‘rinadi. Xodim qanchalik xabardor bo'lsa, uning tashkilotda sodir bo'layotgan voqealarga daxldorlik hissi shunchalik kuchli bo'ladi, tashkilotning strategiyasi, oldiga qo‘ygan maqsadlari, siyosati, qanday yashashi va faoliyat yuritishi haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘lsagina xodim o'z o'rnini va javobgarligini xis qiladi. [5]. Shu bilan birga xodimlarning daxldorligi mehnat jarayoniga jalb qilish, mehnat faoliyatiga shaxsiy qiziqish va tashkilotning muvaffaqiyatli rivojlanishi bilan bog'liq. Xodimlarning ishtiyoqi tashkilot rahbariyati ishni samarali tashkil etganda, maqsadlar umumiyligini ta'minlaganda va ular uchun qalbiga uchqun paydo bo'lganda namoyon bo'ladi.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, ko'pgina tadqiqotchilar tashkilot xodimlarining daxldorlik xissining namoyon bo‘lishida motivatsiyaning etakchi rollardan biri ekanligini alohida ta’kidlab o‘tishgan. Ta’kidlash joizki, motivatsiya o‘z tarkibiga xodimlarning tashkilotdagi faolligi va ularning ishiga qiziqishi uchun turtki yaratadi. Xodimlarni rag'batlantirish inson resurslarini rivojlantirish vositalarining mavjudligi, iste'dodlarni boshqarish, kasbiy va mehnat munosabatlari sohasida xodimlarni qo'llab-quvvatlash, adolatli va shaffof mehnatga haq to'lash tizimi, vakolatlarni topshirish, ijodiy muhit yaratish, aloqani rivojlantirish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Tashkilotlarda daxldorlik hissining namoyon bo‘lishida jismoniy komponent (xodimlarni jalb qilishda faol yondashuv) xodimlar va raxbarlarning doimiy ravishda yangi bilimlarni takomillashtirish, o'z-o'zini o'rganish, tashkilotning tashqi va ichki muhitining o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish istagi bilan bog'liq. Chunki har qanday ta’lim muassasasida olingan bilimlarning 10-15 foizi fan-texnika taraqqiyotining yuqori sur’atlari tufayli tez eskirishga uchraydi. Aytish joizki, ishga qabul qilish va xodimlarni tanlash jarayonida yangi xodimlarni o'rganish, ularning ishlash istagi va qobiliyati, shuningdek ularga xos bo'lgan asosiy fazilatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ishga jalb qilingan xodimlarning kerakli xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim: ishga singib ketish, tashkilot bilan kuchli hissiy aloqa o‘rnata olish, ishga ishtiyoqning yuqoriligi, mas'uliyat chegaralarining kengligi, majburiyatlilik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, vijdonlilik, jonkuyarlilik, turli o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish istagi, ishlab chiqarish topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish va bajarishga e'tibor berish, rejalarni belgilash.

Daxldorlik xissining namoyon bo‘lishining navbatdagi omillari tarkibiga faoliyat xarakteri, mehnat sharoitlari, faoliyat xavfsizligi, ish haqi, rag‘batlantirishlar va boshqalarni o'z ichiga olgan mehnat muhitini shakllantirishdir. Ratsional mehnat sharoitlari mehnatni ilmiy tashkil etishda hisobga olinadigan mehnat va dam olish rejimlarining muvozanatiga, ish sur'atlariga bevosita bog'liqdir. Ushbu xususiyatlar ishdan qoniqish bilan chambarchas bog'liq va tashkilotning ish beruvchi sifatidagi imidjiga ta'sir qiladi, bu esa uzoq muddatda xodimlarning sodiqligiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Tashkilotga jalb qilingan taqdirda, ma'lum bir tashkilotga bog'lanish masalasi ish joyining ma'lum sharoitlari, ish haqi va ijtimoiy paketga ustunlik berish bilan bog'liq. Xodimlar uchun farovonlik hissi rahbariyatning ish joyini loyihalashga bo'lgan munosabati asosida yaratiladi: qulaylik hissi, ish joyini vizual idrok etish, ovoz izolyatsiyasining mavjudligi, qulay havo haroratini saqlash, dam olish joylarini yaratish, ovqatlanish xonasining mavjudligi va boshqalar qimmatli mutaxasis xodimlarni saqlab qolishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xodimlarning daxldorligi "yetuk jamoa" deb ataladigan jamoada namoyon bo'ladi. Tashkilot rahbari va xodimlari orasida ishonch bildirilganida bir birlariga vakolatlari o‘tadi. Yetuk jamoalarda

ijobiy xulq-atvor modellarini birlashtirish ularda salbiy hodisalarning paydo bo'lishini sezilarli darajada pasaytiradi. Jamoaning yetukligi, ahilligi jamoa a'zolari o'rtasidagi aloqalarning mustahkamligi, o'z jamoasida g'ururning mavjudligi, barqaror an'analarning shakllanishi, xodimlarning ijodiy qobiliyatlarini ochib bera olish qobiliyati, yuzaga keladigan kelishmovchilik va nizolarning tabiati bilan bog'liq. Tashkilot ichidagi xodimlar va jamoalar o'rtasidagi keskinlik, raqobat hissi va nosog'lom raqobat elementlari xodimlarni ma'lum bir vaqtga qadar harakat qilishga undashi mumkin. Yetuk jamoalarga ega bo'lgan tashkilotlarda har bir xodim o'z iste'dodlarini ochib berish va to'liq namoyon etish imkoniyatiga ega bo'lib, tashkilotda o‘zlariga qulay sharoitda faoliyat yuritadilar.

Yetuk jamoaga ega bo'lmagan tashkilotlarda, o‘z fikrini doim o‘zgartirib turadigan, ziddiyatli yoki o'zgarishlarga chidamli bo'lgan xodimlar kamchilikni tashkil etadi. Agar rasmiy yoki norasmiy liderlar ziddiyatli shaxslar bo'lmasa, jamoada o'zaro hamkorlik kuchayadi, nizolar asosan hal qilinadi.

Jamoaning yetuklik darajasi jamoa bilan hissiy aloqalarning barqarorligini, rahbariyat, mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarni tavsiflaydi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Rossiyaning Rabota.ru xizmati xabariga ko‘ra, 2023 yilda rossiyaliklarning deyarli 30 foizi hamkasblari bilan yomon munosabatda bo'lganligi sababli ishdan bo'shatilgan va xodimlarning 2 foizi jamoa bilan kelishmovchiliklar tufayli ishdan bo'shatilgan, tadqiqot ishtirokchilarining 41 foizi o'z rahbarlariga nisbatan tanqidlarga duch kelganliklaridan shikoyat qilganlar [5].

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir tashkilot xodimi daxldor bo‘lish yoki daxldor bo‘lmasligini o'zi hal qiladi. Xodimning ma'lum bir tashkilotga o'z mehnat hissasini qo'shishga tayyorligi ko'p jihatdan uning maqsadli yo'nalishi bilan belgilanadigan ma'naviy va moddiy qoniqish darajasiga bog'liq. Xodim, agar u tashkilot unga qiziqish bildirayotganini va uning yanada rivojlanishi uchun harakat qilayotganini, xodimning korxona faoliyatidan xabardorligini va hokazolarni ko'rsa, o'z resurslarini tashkilotga sarflashga tayyor bo‘ladi. Tashkilot imidjiga xodimlarning ish faoliyatini baholashda halollik ham ta'sir qiladi. Menejerlar nafaqat muayyan standartlarga muvofiq ishni halol baholashlari, balki ish natijalarini imkon qadar tezroq olish muddatlarini belgilashlari kerak. Ta'kidlash joizki, tashkilotda daxldorlikni mustaqil ravishda qabul qilish yoki qabul qilmaslikka qaramay, xodimlarning hatti-harakati tashkilotning maqsadlariga, uning strategiyasiga, sifat siyosatiga, tashkilotning standartlari va tartiblariga mos kelishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kravsova M. V. Psixologicheskie osobennosti vovlechennosti v reshenie kognitivnых zadach. – 2011. – 150 s.

2. Yusupova S.M. «Faktori vovlechennosti personala v organizasii» Saratovskiy gosudarstvenniy universitet im. N.G. Chernыshevskogo, Saratov, Rossiya.

3. Quronov M. Ezgu g‘oyalar ro‘yobi. – T.: Ma’naviyat, 2011. – B.138.

4. Saks, A. Antecedents and consequences of employee engagement. Journal of Managerial Psychology, 21(7), P. 600-619.

5. Bulgak V. Povishenie kompetentnosti i osvedomlennosti personala // https://hr-portal.ru/article/povyshenie-kompetentnosti-i-osvedomlennosti-personala

6.Vovlechennost personala. - https://studme.org/307895/menedzhment/vovlechennost_personala

7. Gvozdeva S. M. Neparametricheskiy statisticheskiy analiz vovlechennosti personala v organizatsii // Izv. Sarat. un-ta Nov. ser. Ser. Ekonomika. Upravlenie. Pravo. 2014. №4. 8. GOST R ISO 10018-2014. Natsionalniy standart RF. Menedjmenta kachestva.

8. Kigan R., Leyxi L. Nepriyatie peremen. Kak preodolet soprotivlenie izmeneniya mira skrit potensial organizatsii. — M., 2017.

9. Konkurentosposobnost otechestvennых predpriyatiy: razvitie I standartizatsiya upravleniya: kol. monografiya. Saratov: Saratovskiy sotsialno ekonomicheskiy institut (filial) REU im. G.V. Plexanova, 2017.

10. Konovalova V. Upravlenie vovlechennostyu personala: faktori uspexov i neudach // Kadrovik. - 2014. - № 9. - S. 74-84.

11. Kulkova I.A., Nikolaev N.A. Metodicheskie polojeniya po otsenke i razvitiyu faktorov formirovaniya vovlechennosti personala v deyatelnost predpriyatiya // Izvestiya UGGU. 2016. №4 (44).

12. Panasenko S.V., Andreeva M.M. Imidj rabotodateley v marketing personala // Mejdunarodnaya torgovlya i torgovaya politika. 2014. №12 (91). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/imidzh-rabotodateleyvmarketingepersonala

Hasanov Jamshid Shokir o`g`li
Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya (faoliyat turlari bo`yicha) magistranti

O'SMIRLARDA XAVOTIRLANISHNING GENDER XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smirlik davri haqida qisqacha ma'lumot, ulardagi fiziologik o'zgarishlar va ularning orasidagi gender xususiyatlari atroflicha bayon qilingan. O'smirlik davrida sodir bo`ladigan psixologik o`zgarishlarga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek o'smirlarda xavotirlanishning gender xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar*: o'smirlik, streotip, xavotirlanish, gameostaz, stress, individuallik, faoliyat, determinism, gender xususiyatlar.*

ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТРЕВОЖНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В этой статье представлен краткий обзор подросткового возраста, физиологических изменений в них и гендерных характеристик между ними. Особое значение придается психологическим изменениям, происходящим в подростковом возрасте. Также были научно проанализированы гендерные особенности тревожности у подростков.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, стреотип, тревожность, гамеостаз, стресс, индивидуальность, активность, детерминизм, гендерные характеристики.*

GENDER CHARACTERISTICS OF ANXIETY IN ADOLESCENTS

Annotation. *This article describes a brief overview of adolescence, the physiological changes in them and the gender characteristics between them in detail. Particular importance is given to the psychological changes that occur during adolescence. Also the gender characteristics of anxiety in adolescents have been scientifically analyzed.*

Key words: *adolescence, streotype, anxiety, gameostasis, stress, individuality, activity, determinism, gender characteristics.*

Kirish. Biz o'smirlik davridagi gender xususiyatlari haqida ma'lumot berishdan oldin, avallo, o'smirlik qanday davr ekanligiga qisqacha to'xtalib o'tishiz kerak.

1. O'smirlik – bu ko'nikmalar tez rivojlanadigan davr, tajriba to'plash esa ancha sekinroq. Bu hayotga tayyor bo'lgan, ammo tayyorlanmagan davr. Yoshlar o'n ikki yoshdan keyin aqliy qobiliyatlari, fikrlash qobiliyatlari yoki hayotga tayyor bo'lgan amaliy muammolarni hal qilish qobiliyatlari bo'yicha kattalarnikidan ustun turadilar. Ularning faoliyatini baholash tajribasi endigina shakllana boshlagani bois, hozircha tayyorgarlik tugallanmagan. Binobarin, balog'at yoshiga tayyorlash jarayonida yoshlarga ibrat va yo'l-yo'riq bo'lish muhim. Aynan ushbu davrda ruhiy tushkunlik, xavotir va stress hislari tez-tez kuzatiladi. (G'oziyev E. "Ontogenez psixologiyasi" nazariy eksperimental tahlil. Toshkent- 2010 y[3])

Xavotir - individual psixologik xususiyat hisoblanib, insonning ma'lum sabablarga yoki hech qanday sababsiz ham tashvishlanishining oshishidir. Shuningdek, xavotir insonning yangi sharoitlarga moslashishiga imkon beruvchi, shaxsning ma'naviy kamolotini yuqori darajalarga ko'tarishda turtki bo'luvchi, shaxsning omon qolishi va uning naslining davom etishi uchun zarur bo'lgan normal reaksiyadir. Psixolog F.B.Beryozin xavotirlanish jarayoniga izoh berar ekan, "ma'lum bir ob'yekt bilan aloqaning mavjud emasligi his qilingan xavf – xatarni oydinlashtirishning iloji yo'qligi o'sha vaziyatni imkonsiz qilib qo'yadi va xavotirlanish holatini yuzaga keltiradi" deya o'z fikrini bildirgan. Umuman olganda, surunkali xarakterga ega bo'lgan, odamning samaradorligini pasaytiradigan, shaxslararo munosabatlarda uzilishlarni va jismoniy alomatlarni keltirib chiqaradigan tashvish "patologik xavotir" deb hisoblanadi. Xavotir buzilishi o'smirlarda eng ko'p uchraydigan holatardan biridirdir. O'smirlarda ularning chastotasi 5-22% orasida o'zgarib turadi[1]. (Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека. Л.: Наука, 1988. 270 с[7])[1]

Xavotir buzilishining asosiy belgilari "haddan tashqari qo'rquv" va "tashvish" dir. Ushbu asosiy alomatlar barcha tashvish buzilishlarida mavjud. Xavotir buzilishi bir-biridan boshdan kechirilgan

[1] Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека. Л.: Наука, 1988. 270 с

alomatlar, uni keltirib chiqaradigan omillar bilan farqlanadi. Xavotir buzilishida ba'zi umumiy simptomlar mavjud, bular:

Achchiqlanish, tartibsizlik, hayajon, tezda charchash, nazoratni yo'qotish hissi, murosasizlik, konsentratsiyaning yomonlashishi kabi simptomlarda aks etadi.

Xavotir buzilishida jismoniy alomatlar ham paydo bo'lishi mumkin:

Uyqusizlik, bosh aylanishi, mushaklarning kuchlanishi, yurak urishining sekinlashishi, qon bosimining o'zgarishi, qizarish, nafas olishda qiyinchilik, ko'krak qafasi, tez nafas olish ko'ngil aynishi, qusish, diareya, qorin og'rig'i va boshqalar .

Xavotir o'smirning ongostida ta'sir etib turadi, uning vaqt bilan bog'liq bo'lgan bir qancha ko'rinishlari mavjud, bu o'tmish, bugun va kelajak bilan bog'liq bo'lgan xavotirlardir. O'tmish bilan bog'liq xavotir aynan bolalik davrida yuz bergan voqea-hodisalar, ota-ona va yaqinlar bilan sodir bo'lgan munosabatlar bilan bog'liq xavotirdir. Masalan, bolalikda sevilmaganlik, tashlab ketilganlik, e'tiborsizlik, yetarlicha qadrlanmaganlik tufayli o'smirda xavotilanishni keltirib chiqarishi mumkin, bu ongosti qismidagi xavotir uning onglilik qismiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Ongli tarzda o'smir farovon yashayotgandek tuyulishi mumkin, biroq u farovon hayotga olib boruvchi yo'llarni xavotir ta'sirida buzib tashlaydi. O'tmishdagi travmalar ta'sirida o'smir ko'proq odamlar e'tiborining markazida bo'lish, tan olinish istagi tufayli xavotirlarga duch keladi. (Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya: darslik /- Toshkent:-2018 "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. – 600[4])

Xavotir buzilishining rivojlanishining eng kuchli prognozlaridan biri bu ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning funksionalligi. Xavotir buzilishi bo'lgan ota-onalarning bolalarida xavotirlanish diagnostikasi mezonlariga javob bermaydigan ota-onalarning bolalariga qaraganda xavotirlanish buzilishining rivojlanish xavfi yuqori ekanligi aniqlandi va erta bolalik davridagi bog'lanish uslublari o'smirlik davrida tashvish buzilishining rivojlanishini bot qiladi.

Xavotir buzilishi mavjud bo'lgan ota-onalarning xatti-harakatlarida farzandlarini haddan tashqari himoya qilish, rad etish, befarq yoki alohida munosabatlar kuzatiladi.Shuningdek, oxirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kuniga uch soatdan ko'proq ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazadigan o'smirlar depressiya va xavotir alomatlarini ikki baravar ko'proq boshdan kechirishadi. 2021-yilgi so'rov natijalariga ko'ra, amerikalik o'smirlar kuniga o'rtacha 3,5 soatni ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishadi[1]. (The U.S. Surgeon General's 2023 Social Media and Youth Mental Health advisory[8])[2] Ushbu holat ham o'snirlarda xavotirlanish hissini yuzaga chiqaradi.

O'smirlik bir necha sohalarda sezilarli o'zgarishlar davrini ifodalaydi, buning natijasida shaxsning ota-onadan mustaqilligi, o'zini o'zi anglash va boshqalar bilan munosabatlari shakllanadi. Ushbu o'zgarishlar o'smir uchun yuqori darajadagi stressga olib kelishi mumkin va psixopatologiya uchun asos yaratishi mumkin.

Stress so'zi noqulaylik hissi bilan bog'liq bo'lib, tobora ko'proq odamlar o'zlarini stressda deb ta'riflaydilar. Stress deyarli har doim insonning global faoliyatining buzilishiga olib keladigan salbiy his sifatida qaraladi. Shuning uchun stress omili ichki yoki tashqi kelib chiqadigan keskinlik, xavotir, qo'rquv yoki tahdid tuyg'ularini keltirib chiqaradigan vaziyat yoki tajriba bo'lishi mumkin. Bu stress omili bilan aloqada boshlangan psixofiziologik jarayon va fiziologik reaktsiya. Gomeostaz va muvozanatni tiklashga intilayotgan organizmdan har bir shaxsning stressli vaziyatlarga qanday javob berish va moslasha olishiga (bardosh berishga) qarab, salbiy stress yoki distress ko'plab kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa insonning hayot sifatiga katta zarar yetkazadi. Stressning asosiy prognozlaridan biri xavotir, tashvish, odam o'zining yaxlitligiga tahdid deb tushunadigan narsadan qo'rqish bo'lishi mumkin.

Xavotir – bu kelajakdagi vaziyatlarda yashash imkoniyatiga qarshi bo'lgan hissiy tajriba[2]. (Spielberger C.D. Anxiety: Current trends in theory and research. N.Y., 1972. Vol. 1. P. 24-55[6])[3].

Xavotir stress jarayonining affektiv tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u shaxsning javob qobiliyati oshib ketganda yuzaga keladi.Har bir inson, binobarin, o'smir ma'lum vaqtlarda stress va xavotirni his qilishi mumkin. Bu stress va xavotir ko'pincha turli jismoniy alomatlar bilan yuzaga keladi. Xavotir stressga o'xshash vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, hatto stress bo'lmasa ham, odam doimiy va o'ta xavotirli bo'lishi mumkin. Deyarli bir xil alomatlarga sabab bo'lgan bu ikki holat ko'pincha chalkashib ketishi mumkin. Stressli vaziyatlarda o'smir o'zini bezovta his qilishi mumkin. Shu bilan birga, muayyan vaziyatlarga e'tibor qaratish juda qiyin bo'ladi. Unutuvchanlik va chalg'itish kabi holatlar

[1] The U.S. Surgeon General's 2023 *Social Media and Youth Mental Health* advisory
[2] Spielberger C.D. Anxiety: Current trends in theory and research. N.Y., 1972. Vol. 1. P. 24-55.

o'zini namoyon qiladi. O'smir g'azablanadi va nazoratsiz his-tuyg'ular paydo bo'ladi. Ular, shuningdek, g'amgin, g'azablangan va bosim ostida his qilishlari mumkin.

Stressni nazorat ostiga olish kerak, chunki u vaqt o'tishi bilan turli kasalliklarga olib keladi. O'smirlarda stressni keltirib chiqaradigan omillar uch toifaga bo'linadi. Bu oddiy hodisalar, g'ayritabiiy hodisalar va kundalik muammolar.

Stressni keltirib chiqaradigan normal hodisalar – bu barcha o'smirlar tomonidan boshdan kechiriladigan balog'at yoshidagi rivojlanish bilan bog'liq ichki va tashqi o'zgarishlar[1]. (Прихожан А.М. Психология тревожности: дошкольный и школьный возраст. СПб.: Питер, 2007. 192 с[9])[4]

Tengdoshlarning zo'ravonligi ham surunkali stressga olib kelishi. mumkin, bu esa shaxsni psixopatologiyaning rivojlanishiga zaif qoldirishi mumkin.

O'smirlarning bu munosabatlarda qanday ishlashi ularning kelajakdagi munosabatlarining rivojlanishiga ta'sir qilishi va xavotir belgilarining rivojlanishida samarali bo'lishi mumkin. Shu sababli, tengdoshlarning ijobiy munosabatlari o'smirlarni xavotirlanishning rivojlanishidan himoya qilishi mumkin; muammoli munosabatlar xavotir xavfini oshirishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'smirlik davrida xavotirlanish va stress odatiy hol hisoblanadi. Aksariyat o'smirlar uchun xavotir hissi vaqtinchalik va zararsiz yoki rivojlanishning ma'lum bir davri bilan bog'liq. Xavotir o'smirlarda yetishmovchilik hissi belgilaridan biridir. Bu davrda o'smirlar o'zini past baholaydi, o'ziga ishonmaydi, o'zini ko'proq so'raydi va o'zining salbiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi, o'zini tanqid qiladi. Ba'zilar kelajakka umidsiz qarashadi va kattalar vazifalarini hal qilish qobiliyatiga shubha qilishadi. Bu holat xavotirga sabab bo'lishi mumkin, ammo oddiy tashvishni patologik tashvishdan va tashvish belgilarini o'smirlardagi bezovtalik kasalliklaridan ajratish muhimdir.

Doimiy xavotir, stress, salbiy his-tuyg'ular va kelajakka bo'lgan umidlarga ta'sir qiladi. Motivatsiyani yo'qotish va umidsizlik keltirib chiqaradi. Yoshlarning ruhiy tushkunliklari, tashvishlari, stresslari va kelajakdagi xavotirlarini kamaytirish uchun himoya choralarini ko'rish muhim deb hisoblanadi. O'smirlik davrida stress va xavotir bilan kurashishni o'rgangan va tajribaga ega bo'lgan o'smirlar hayot bilan kurashishdagi qiyinchiliklarni oson yengib o'ta olishadi, ya'ni ular stress, xavotirni keltirib chiqaradigan hodisalarni nazorat qilish va hal qilishga moyil bo'ladi. O'smirning ijobiy yoki salbiy tabiati, uning oilasining munosabati va voqealarga bo'lgan nuqtayi nazari uning stress, doimiy xavotirni nazorat qila oladimi yoki yo'qligida juda muhimdir. O'smirning dunyoqarashini o'zgartirishni o'rganish va uni boshqara olish uni kelajakka tayyorlaydigan juda ijobiy xulq-atvordir. Stress ostida o'zini ayblash va jazolash o'smirga qaytarib bo'lmaydigan zarar yetkazishi mumkin. Ma'lumki, o'smirlar stress ostida bo'lganlarida ko'proq emotsional bo'lib, muammoning yechimiga emas, balki muammoga e'tibor qaratishadi. Diqqatni his-tuyg'ulardan his-tuyg'ularga va muammodan yechimga qaratish muhim stressni nazorat qilishni ta'minlaydi.Sport va mashqlar, guruh faoliyati, musiqa asbobini chalish yoki musiqaga qiziqish, sevimli mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish, kelajak uchun aniq maqsadlar qo'yish, perfeksionizmga intilmaslik strategiyalarini o'rganish o'smirlar uchun muhim va samarali stress va xavotirni kamaytirish va nazorat qilish usullaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Астапов В. М. Функциональный подход к изучению состояния тревоги // Прикладная психология. 1999.

№ 1. С. 41-47.

2. Yelizaveta Aleksandrovna Karkischenko "Gender stereotiplari: o'smirlarning muloqot xulq-atvorida nutqni shakllantirish va ifodalash vositalari"-Nomzodlik dissertatsiyasi. M-2013

3. G'oziyev E. "Ontogenez psixologiyasi" nazariy eksperimental tahlil. Toshkent- 2010 y

4. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya: darslik /- Toshkent:-2018 "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. - 600 b.

5. Davletshin M.G. va boshqalar. "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya". - T.: TDPU. 2009.

6. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. (2023). Oiladagi ijtimoiy psixologik muhitning barqarorligi ta'minlashda qaynona va kelin munosabatlarining o'rni. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании.

7. Spielberger C.D. Anxiety: Current trends in theory and research. N.Y., 1972. Vol. 1. P. 24-55.

[1] Прихожан А.М. Психология тревожности: дошкольный и школьный возраст. СПб.: Питер, 2007. 192 с

Omonova Nargiza Raximovna
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

TALABALARDAGI KREATIVLIK QOBILIYATLARNI NAMOYON BO‘LISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. *Ushbu m*aqolada bo‘lajak muhandislarda kreativlik qobiliyatini namoyon bo‘lishiga bir qancha obyektiv va subyekti omillar ta’sir etishi, shunday subyektiv omillardan biri shaxsning tafakkur tiplari ekanligini yoritilgan. Chunki shaxsning tafakkur tipi, fikrlashi uning hayot tarziga va umuman individual psixologik xususiyatlariga ta’sir etmay qolmaydi. Bo‘lajak muhandislarda kreativlikni rivojlanishi uchun o‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan topshiriqlarning ilmiy yoki maishiy xarakterga ega ekanligi muhim o‘ringa ega. Ilmiy xarakterdagi topshiriqlar mavzu doirasidagi muammolarning mohiyatini ochishga qartilgan bo‘lib, aniq qonuniyatlarni, zarur shart-sharoit va standart talablarga amal qilishni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak muhandis, kreativlik, predmetli tafakkur tipi, simvolli tafakkur tipi, belgili tafakkur tipi, obrazli tafakkur tipi, kreativlik qobiliyatlari, pragmatik tafakkur, shaxsga yo’nalganlik, realistik, g’oyalar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЯВЛЕНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье объясняется, что на проявление творческих способностей у будущих инженеров влияет ряд объективных и субъективных факторов, и одним из таких субъективных факторов является тип мышления человека. Потому что тип мышления и мышления человека не влияет на его образ жизни и индивидуально-психологические особенности в целом. Для развития творческих способностей будущих инженеров важно, чтобы задания, используемые в учебном процессе, носили научный или бытовой характер. Задания научного характера направлены на раскрытие сути проблем внутри предмета и требуют соблюдения определенных закономерностей, необходимых условий и стандартных требований.

***Ключевые слова*:** будущий инженер, креативность, предметный тип мышления, символический тип мышления, символический тип мышления, образный тип мышления, творческие способности, прагматическое мышление, личностная ориентация, реалистические идеи.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS AFFECTING THE MANIFESTATION OF CREATIVE ABILITIES IN STUDENTS

Annotation. In this article, it is explained that a number of objective and subjective factors affect the manifestation of creativity in future engineers, and one of such subjective factors is a person's thinking types. Because the type of thinking and thinking of a person does not affect his lifestyle and individual psychological characteristics in general. For the development of creativity in future engineers, it is important that the tasks used in the educational process are of a scientific or domestic nature. Assignments of a scientific nature are aimed at uncovering the essence of the problems within the subject and require compliance with specific laws, necessary conditions and standard requirements.

Key words: future engineer, creativity, object thinking type, symbolic thinking type, symbolic thinking type, figurative thinking type, creativity skills, pragmatic thinking, person orientation, realistic, ideas.

Bo‘lajak muhandislarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda shuningdek, muhandislik muammolarini hal qilishda ijodkorlik asosiy rol o‘ynaydi. Ijodkorliksiz bo‘lajak muhandislar jamiyat oldida turgan texnologik muammolarni hal qilish jarayonida muammomalarni eski yechimlarini takrorlash bilan cheklanadilar. Hozirgi globallashgan zamonda duch keladigan ko‘plab muammolar yangi - yangi xavfsiz yechimlarni talab qiladi, ularni esa eski yechimlarini takrorlash bilan hal qilib bo‘lmaydi. Bu muammolarning yechimini bo‘lajak muhandislarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali bartaraf etiladi. Masalan, talabalarga “Oliy matematika”ga doir topshiriqlar taqdim etilishi tularning tafakkur xususiyatlarini tadqiq qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bunda, ayrim holatlarda talabalar tafakkurining rivojlanishi bilan bog’liq muhitda ularga nostandart topshiriqlar ustida ishlashlariga to’g’ri

keladi. Bunday sharoitda talabalarning mustaqil mulohaza yuritishlari uchun zarur topshiriqlar o'ta muhimdir. Buning uchun biz muammoli topshiriqlardan foydalanib, talabalarning maishiy yoki mantiqiy xarakterdagi masalalarni yechishga doir topshiriqlar ustida mulohaza yuritishlariga imkon yaratib berdik. Ta'lim jarayonida kundalik turmushda foydalaniladigan ayrim jihozlarning noodatiy holatlarda qo'llash mumkin bo'lgan xususiyatlari to'g'risida topshiriq berish orqali talabalar tafakkurini shakllantirish vazifasi qo'yilishi berilgan topshiriqlarning standart-nostandart xarakterga egaligi talabalarda muayyan o'quv motivasiyalarini uyg'otishga turtki berishi asos bo'ladi.

Ta'lim jarayonida talabalar tafakkurini rivojlantirish uchun o'quv materiallarini tayyorlash jarayonida pedagoglar mazkur holat yuzasidan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari foydalidir. O'z navbatida, ushbu uslublarning har biri talabada uchraydi, ammo bittasigina ustuvor bo'lishi mumkin xolos. Shuning uchun ta'lim jarayonida talabalar bilan ishlashda uslublarni barchasi ularda mavjudligi o'qituvchi faoliyatiga yengillik tug'dirishi mumkin. O'z navbatida tafakkur tiplari ham uslublar singari ko'rinish olsa-da, ammo ta'lim yo'nalishlariga ko'ra, tafovutlanishi mumkin. Talablarda ta'lim jarayonida o'quv materiallarini o'zlashtirish, masala va topshiriqlar ustida ishlash jarayonida:

-axborotlarni o'zlashtirishda predmetli harakatlarga tayanadigan, aqliy operasiyalarni izchil amalga oshiradigan (predmetli tafakkur tipi);

-fikr, mulohazalarni formula, struktura ko'rinishda ifodalashga tayanadigan (simvolli tafakkur tipi);

-o'quv materiallari va axborotlarni qaror qabul qilish asosida egallaydigan (belgili tafakkur tipi);

-fikrlarini obrazli ifodalashga, fikrning yakunida yangi obrazlar hosil qilish qobiliyatiga suyanadigan (obrazli tafakkur tipi) mavjudligi aniqlandi.

Qayd etilgan holatlar talabalar tafakkurini shakllantirishning muhim komponentlaridan biri sifatida qarash imkoniyatini kengaytirdi. Ma'lumki, talabalar kreativ qobiliyatini rivojlantirish mexanizmining yana bir tarkibiy elementi tafakkur xususiyatlari bo'lib, ayrim o'rinlarda tafakkurning sifati tarzida ham qo'llaniladi. G.Yu.Ayzenk o'zining intellektuallik modelida fikrlash kuchi va tezligini uning sifatini belgilovchi mezon tarzida kiritgan edi. Biz ushbu holatga uyg'un tarzda hamda empirik o'rganish ko'rsatkichlariga asoslanib, tafakkurning aniqligi (g'oyani aniq ifodalash), fikrlarning samarasizlaridan samaralisini ajrata olish uquvi (egiluvchanlik); muammolar ustida noodatiy fikrlash va ularning noodatiy yechimlarini topa oluvchi (originallik); qo'yilgan savolga va muammoga tez hamda to'liq javob olish xususiyati (tezligi) tarzda ifodalashni lozim topdik. Ilmiy izlanishlarimizning mazkur bosqichida faqatgina bo'lajak muhandislarda tajriba-sinov ishlarini olib borishni maqsadga muvofiq deb bildik. Chunki, bizning vazifalarimizdan bir bo'lajak muhandislardagi kreativ qobiliyatlarni tafakkur uslubi bilan bog'liqligini aniqlashdir. Shu maqsadda talabalarda professor E.G'oziyev tomonidan moslashtirilgan A.A.Alekseyev, L.A.Gromovalarning «Tafakkur uslublari» so'rovnomasini o'tkazib oldik.

1-jadval

Bo'lajak muhandislarda F.Vilyamsning «Kreativlik testi» va A.A.Alekseyev, L.A.Gromovalarning «Tafakkur uslublari» metodikalari orasidagi bog'lanishlarning o'ziga xos jihatlari (n=231)

Omillar	Sintetik	Idealistik	Pragmatiklik	Analitik	Realistik
Ravonlik	0,04	0,14	**0,34***	0,03	**0,42***
Moslashuvchanlik	0,13	**0,47***	0,04	0,03	**0,30***
O'ziga xoslik	**0,46***	0,01	0,09	**0,38***	0,05
Yaratuvchanlik	**0,34***	0,12	0,09	**0,42***	0,11

Izoh: * p ≤0,05; **p≤0,01.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, bo'lajak muhandislarning kreativligini ko'rsatuvchi mezonlardan ravonlik pragmatik (r=0,34; p≤0,05), realistik (r=0,42; p≤0,05), moslashuvchanlik idealistik (r=0,47; p≤0,05) va realistik (r=0,30; p≤0,05), o'ziga xoslik esa sintetik, (r=0,46; p≤0,05) va analitik (r=0,38; p≤0,05), yaratuvchanlik esa sintetik (r=0,34; p≤0,05) va analitik (r=0,42; p≤0,05) tafakkur tiplari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishi aniqlangan.

Bo'lajak muhandislardagi fikrlarning teranligi, ravonligi, aniq dalillarga ega ekanligi ularning to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy tajribaga, osonlik bilan mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga, imkon qadar tez va aniq natijalarni qo'lga kiritishga yo'nalganligi bilan bog'liqdir. Pragmatik tafkkur egalari hamma narsani yaxshi foyda berishiga intiladilar. Pragmatistlarning xatti-harakati yuzaki va tartibsiz bo'lib tuyulishi mumkin, ammo ular quyidagi munosabatda bo'lishadi: bu dunyodagi voqealar muvofiqlashtirilmagan holda sodir bo'ladi va hamma narsa tasodifiy holatlarga bog'liq, shuning uchun oldindan aytib bo'lmaydigan dunyoda siz shunchaki sinab ko'rishingiz kerak: "Bugun biz buni qilamiz. , va keyin ko'ramiz..." shiori ostida o'z faoliyatlarini takil etadilar. Odatda bunday fikrlash tipi insondan ravon tafakkurni, g'oyalarning rang-barangligini talab etadi. Chuniki pragmatik tafakkur egalari bir variant samara bermasa, tezda ikkinchi variantlarni ham ko'rib chiqa oladilar. Bu holat esa ulardan fikrlashdagi ravonlikni talab etadi. Natijalarimizning o'ziga xos tomoni shundaki fikrlashning ravonligi realistik tafakkur bilan ham ijobiy bog'lanishga ega bo'lgan. Realistlar pragmatiklardan farqli ravishda aniq va real faktlar asosida fikr yuritadilar va qaror qabul qiladilar. Axborotlarda aniqlik yetishmagan holatda realistik tafakkur egalari katta qiyinchilikkka uchraydilar. Natijaning qiziq tomoni shundaki, rnalistik tafakkur egalari ham pragmatiklar singari dalillarga asoslanib, ravon va rang-barang fikr egalaridir. Ularning g'oyalari asosan aniq dalil va ma'lumotlarga tayanadi va ilmiy prognostik harakterga ega bo'ladi. Shu boisdan ham ravonlik va realistik tafakkur o'rtasida ijobiy bog'lanishlar kuzatilgan.

Dissertasion tadqiqotimizning navbatdagi mezoni moslashuvchanlik bo'lib, kreativlikning mazkur mezoni idelistik va realistik tafakkur tipi bilan ijobiy bog'lanishlarga ega bo'lgan. Idealistik tafakkur egalari muammoni global tarzda intuitiv baholashni yuqoriligi bilan ajralib turadilar. Idealistlarda maqsad, ehtiyojlar, insoniy qadriyatlar, axloqiy muammolarga qiziqish yuqori bo'ladi. Ular o'z qarorlarida sub'ektiv va ijtimoiy omillarni hisobga oladilar, qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga va turli pozitsiyalarda o'xshashliklarni kuchaytirishga intiladilar, osongina, ichki qarshiliksiz, turli g'oyalar va takliflarni idrok etadilar, his-tuyg'ular, kechinmalar va boshqa sub'ektiv jihatlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladilar. Kreativlik mezoni bo'lgan moslashuvchanlik mezoni ham idealistik tipda fikrlovchilarda aynan ijtimoiy munosabatlardagi keyslarni hal qilishda vaziyatga nostandart yondashishlari va integrasiyalashishida ko'rinadi. Kreativlik qobiliyatida muhim o'ringa ega bo'lgan moslashuvchanlik realistik tafkkur tipi bilan ham ijobiy bog'lanishga egadir. Mazkur holat bo'lajak muhandislarning real ma'lumotlar, mantiqni talab etuvchi aniq dalillarga asoslanib ish qilishlarida vaziyatni bir oz qiyinchilik bilan o'o'zlashtirishlari bilan bir qatorda divergent tafakkurning ustunligi hisobiga ijtimoiy vaziyatlarga moslashish kuzatishini anglatadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, moslashuvchanlik va idealistik va realikstik tipdagi fikrlash orasida ijobiy bog'lanishlani kuzatilishi tabiiy holatdir.

Dissertasion tadqiqotimizning navbatdagi mezoni o'ziga xoslik esa sintetik va analitik tiplari bilan o'zaro bog'lanishlarga ega bo'lgan. Aslida kreativlik qobiliyatidagi o'ziga xoslik bo'lajak muhandislarning individualligini ko'rsatadi. Odatda sintetik tafakkur egalari bo'lgan bo'lajak muhandislarning fikrlashidagi o'ziga xoslik yangi, o'ziga xos narsalarni yaratishda, bir-biriga o'xshamaydigan, ko'pincha qarama-qarshi fikrlarni, qarashlarni uyg'unlashtirishda va tafakkur tajribalarini o'tkazishida namoyon bo'ladi. Sintetik tafakkur egasi bo'lgan talabalarda turli yondashuvlarni birlashtirish, qarama-qarshiliklarni "olib tashlash" va qarama-qarshi pozitsiyalarni yarashtirish imkonini beruvchi eng keng, umumlashtirilgan kontseptsiyani yaratishga intiladilar. Bu nazariy fikrlash uslubidagi kreativlikning o'ziga xosligi nazariyalarni shakllantirish va o'z xulosalarini nazariyalar yaratishga intilishda, fikrlashdagi debatga bo'lgan qiziqishning yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bo'lajak muhandislardagi sintetik tafakkurning ustunligini o'ziyoq fikrlashdagi o'ziga xoslikni anglatadi. Shu boisdan o'ziga xoslik va sintetik tafakkur orasida ijobiy bog'lanishlar mavjud. Navbatdagi holat kreativlikdagi o'ziga xoslikning analitik tafakkur bilan bog'liqligi muammo yoki muammoni ob'ektiv mezonlar bilan belgilanadigan jihatlarda tizimli va har tomonlama ko'rib chiqishga intilishda, muammolarni hal qilishning mantiqiy, uslubiy, puxta (tafsilotga e'tibor qaratgan holda)ligida namoyon bo'ladi. Biror masala yuzasidan qaror qabul qilishdan oldin analitik tafakkur egalari batafsil reja tuzadilar va iloji boricha ko'proq ma'lumot, ob'ektiv faktlar va chuqur nazariyalarni to'plashga harakat qiladilar. Ular dunyoni mantiqiy, oqilona, tartibli va prognostik tahlil asosida idrok etadilar va shuning uchun ma'lum bir muammoning echimini ta'minlay oladigan, oqilona asoslanishi mumkin bo'lgan formula, usul yoki tizimni izlashga moyildirlar. Bu esa faoliyatga kreativ yondashuvni o'ziga xos individual holatidir. Yuqoridagilar asoslanib aytish mumkinki, analitik tafakkur egalarining kreativ o'ziga xosligi, ularning har bir masalaga analitik-tahliliy pozisiyada yondashishlaridir.

Dissertasion tadqiqotimizning navbatdagi mezoni yaratuvchanlik esa sintetik va analitik tiplari bilan o'zaro bog'lanishlarga ega bo'lgan. Yuqorida sintetik tip vakillari yaxlit obraz orqali bir-biriga o'xshamaydigan g'oyalarni yaratishga, analitiklarni esa aksincha ma'lumotlarni kichik qismlarga ajratgan holda ulardan yangi g'oyalarni paydo qilishga intilishning yuqoriligi bilan ajralib turishini aytgan edik. Har ikki tafakkur tipi bo'lajak muhandislarning kreativlik darajasini ko'rsatuvchi yaratuvchanlikka asoso bo'ladi. Chunki, bo'lajak muhandis qabul qilayotan ma'lumotlarni analiz, sintez qilsa, sinkovlik bilan tahlillarni amalga oshirsa, u albatta yangi narsalarni ixtiro qilishi, yangi konsepsiyalarni yaratishi mumkin. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan.

Demak, bo'lajak muhandislarning tafakkur uslublari va uning psixologik xususiyatlari kreativlikni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi subyektiv omillarning kognitiv jihati sifatida muhim o'ringa egadir. Bo'lajak muhandislarning kreativlik qobiliyatini namoyon bo'lishida fikrlashdagi ravonlik pragmatik, realistik, g'oyalarning moslashuvchanligini idealistik, qarashlarning o'ziga xosligi va yaratuvchanligini analitik hamda sintetik tipga uyg'un rivojlanishi tufayli tafakkur uslubi muhim kognitiv xususiyat ekanligi aniqlangan.

Biz dissertasion tadqiqotimizda bo'lajak muhandislarning kreativlik qobiliyatini rivojlanishida ularning shaxs yo'nalganligi holati ham muhim o'ringa ega deb hisobladik. Chunki, insonning faoliyat mahsuldorligi uning kreativ fikrlashi bilan bog'liq bo'lishi tabiiy. Biroq, e'tibor qaratish muhim bo'lgan yana bir muhim jihat bor-ki, bu shaxs yo'nalganligidir. Shaxs yo'nalganligi inson e'tiqoodlari, qarashlarining barqaror harakteristikasi hisoblanadi. Shaxs yo'nalganligi, uning motivasion sohasidagi qiziqishlar, ehtiyojlar va maqsadlarni o'zida mujassamlashtiradi. Odatdada shaxs yo'nalganligining o'ziga xosigi u talabalarning dunyoqaraini ham ko'rsatib beradi. Shu boisdan, ayrim insonlar faoliyatga tez moslashadi, biror ma'lumotni tez o'zlashtiradi, kimdir muloqotga oson kirishadi, kimlardadir esa mutlaqo buning aksidir. Aynan shaxs yo'nalganligi uning kasbiy shakllanishida ham muhim o'ringa ega. Chunki, talaba kasbiy bilimlarni o'zlashtirish chog'ida o'zining shaxsiy yo'nalganligi prizmasidagina bilimlarni o'zlashtiradi va amalda qo'llaydi. Shu boisdan biz, ilmiy izlanishlarimizda bo'lajak muhandislarning kreativlik qobiliyati va shaxs yo'nalganligi orasidagi bog'lanishlar qay darajada ekanligini aniqlashni maqsadga muvofiq deb bildik. Shu maqsadda, V.Smekal va M.Kucheralarning «Shaxs yo'nalganligini aniqlash» so'rovnomasidan olingan natijalarni kreativlik testi bilan bog'lab tahlil qildik.

2-jadval

Talabalarning V.Smekal va M.Kucheralarning «Shaxs yo'nalganligini aniqlash» so'rovnomasi hamda «Vilyams ijodkorligi» testi bo'yicha natijalarining o'zaro bog'liqligi (n=231)

Shkalalar	O'ziga yo'nalganlik	Odamlarga yo'nalganlik	Faoliyatga yo'nalganlik
Ravonlik	**0,37***	0,11	**0,42***
Moslashuvchanlik	0,17	**0,33***	**0,47***
O'ziga xoslik	**0,36***	-0,02	0,14
Yaratuvchanlik	0,01	-0,05	**0,40***

Izoh: * p ≤0,05; **p≤0,01.

Olingan natijalarga ko'ra «O'ziga yo'nalganlik» «Ravonlik» (r=0,37; p≤0,05) hamda «O'ziga xoslik» (r=0,36; p≤0,05) bilan, «Odamlarga yo'nalganlik» «Moslashuvchanlik» (r=0,33; p≤0,05) bilan, «Faoliyatga yo'nalganlik» «Ravonlik» (r=0,42; p≤0,05), «Moslashuvchanlik» (r=0,47; p≤0,05) hamda «Yaratuvchanlik» (r=0,40; p≤0,05) bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi qayd etildi.

Bo'lajak muhandislarning o'ziga yo'nalganligi o'z ehtiyojlariga xizmat qilish, introversiya, egoizm, shaxsiy o'sish va rivojlanishga intilish, o'zligini namoyon qilishning kuchliligi kabi dual harakterga ega holatdir. Shaxdagi o'ziga yo'nalganlikning fikrlashdagi ravonlik bilan ijobiy bog'liqlikka egaligi nuqtai nazaridan natijalarni bo'lajak muhandislarning o'z ustida ishlashga, o'zini rivojlantirishga, o'zligini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'lab tahlil qilamiz. Kreativ tafakkurdagi ravonlik talabalarni faoliyatning mahsuldorligi va aniqligini ta'minlashga undaydi. Shunday ekan, o'ziga yo'nalgan talabalarda fikrlashning ravonligi, aniqligi, reja va dalillarga asoslanganligi, ularning "o'zlikni

faollashtirish" ehtiyojining ustuvor ta'siri natijasida yuzaga kelgan. Bunday holatda bo'lajak muhandis qanchalik o'ziga yo'nalgan bo'lsa, u shunchalik aniq, teran, ravon fikrlash uchun o'z ustida ishlaydi. Bu yerda e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan yana bir jihat bor. O'ziga yo'nalganlik egoistik qarashlarni ham yuzaga keltiradi. Bunday holatlarda inson o'z aqlini "g'arazli va hudbinona maqsadlarini" amalga oshirishga yo'naltirishiga sabab bo'ladi. Har ikki holatda ham shaxsning o'ziga yo'nalganligi fikrlashdagi ravonlik bilan uyg'un kechadi. Biroq, talabalarning aqliy salohiyatlarini konstruktiv maqsadlarga yo'naltirish, uning faol, ijodiy tashabbusini qo'llab-quvvatlash orqali kreativlik qobiliyatini shakllantirish muhimdir. Bo'lajak muhandislarning o'ziga yo'nalganligini fikrlashdagi o'ziga xoslik bilan uyg'un kechishi ham tabiiy holat. Chunki, o'z olami va dunyosiga yo'nalgan, o'z ustida ishlaydiga talabda indivdual dunyoqarash, fikrlashdagi orginallik va o'ziga xoslik, boshqalardan farqlanib turishga intilish kuchli namoyon bo'ladi. Bu holatda ham egoistik ustanovkalarni shakllanib qolmasligiga ta'lim-tarbiya jarayonida e'tibor qaratish zarur. Shu maqsadda, talabalar jamoasida ishlayotganda hamkorlikdagi ta'limning didaktik tamoyillariga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak muhandislarda odamlarga, muloqotga yo'nalganlik insoniy munosabatlarga e'tiborli bo'lish, do'stlar bilan dildan suhbatlashishga intilishning yuqoriligi bilan belgilanar ekan ularda tafakkur moslashuvchanligi ijtimoiy rakursda namoyon bo'ladi. Bo'lajak muhandislar turli g'oyalarni ilgari suradilar, ijtimoiy munosabatlardan insayt holatini yarata oladilar. Bu toifadagi talabalarning kreativ g'oyalari va fikrlarini aynan muloqotdan, ya'ni "ustoz-shogird" munosabatlaridagi axborot almashinuv jarayonidan oladilar. Muloqotga yo'nalgan bo'lajak muhandislar ilmiy debatlarni, tengdoshlar, ustozlar bilan yangi g'oyalar va fikrlarni o'rtoqlashishni yaxshi ko'rishlari bilan bir qatorda, muloqot jarayonidagi tafakkur moslashuvchanligi tufayli kreativ, situativ pozisiyalarini ustunligi bilan ajralib turadilar. Boshqacha aytganda, har qanday nostandart vaziyatdan oqilona, aql ishlatib chiqib ketishni, kreativ qaror qabul qilishni biladilar. Shu boisdan mazkur ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan.

Bo'lajak muhandislarning faoliyatga yo'nalganligi jamoadagi hamkorlikka, ish bilan band bo'lishga intilish, o'qishga qiziqishning yuqoriligi, faoliyat natijadorligini oshirishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanar ekan fikrlarning ravonligi muhim o'ringa ega. Chunki, faoliyatga yo'nalgan talabani doim uning natijasi va aynan faollik jarayoni qiziqtiradi. Bu jarayonda esa fikrlarning ravonligi, taqdim qilingan g'oyalarning aniqligi, tushunarliligi ish samarasini ta'minlab beradi. Odatda bo'lajak muhandislar bir ishga kirishsa, unga "mukkasidan ketishi" uchun fikriy ketma-ketlikni aniq va tizimli ravishda shakllantirib oladilar. Shu tariqa o'z g'oyalarini amalga tadbiq etadilar. Shaxsning faoliyatga yo'nalganligidagi yana bir muhim jihat bu holatda affilyasiya ehtiyojlari ustuvor harakterga ega bo'ladi. Bu esa, jamoada, guruhda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni yo'lga qo'yishga olib keladi. Natijada bo'lajak muhandislarda vaziyatga bog'liq spontan fikrlash ham shakllana boshlaydi. Bunday guruhiy faoliyat esa bo'lajak muhandislarda fikrlarni turli vaziyatlarga moslashishini talab etadi. O'quv-topshiriqlarini hamkorlikda bajarish bo'lajak muhandislarda tafakkur moslashuvchanligini ham kuchaytirib boradi. Faoliyatga yo'nalgan shaxslarning yutug'ini ta'minlovchi omil "faoliyat natijasi" hisoblanadi. Bo'lajak muhandislarda natija aniq bir predmetli harakterga ega bo'lib, uni baholanishi keyingi ish samarasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu boisdan, bo'lajak muhandislarimizda yaratuvchanlik, yangi g'oyalarga intilish faoliyatga yo'nalganlik bilan ijobiy bog'lanishlarga ega bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, bo'lajak muhandislarning kreativlik qobiliyatini rivojlanishi bevosita shaxs yo'nalganligiga bog'liq deb aytish mumkin. Chunki, talabalarning shaxsiy yo'nalganligi ularning dunyoqarashi, e'tiqodi va qiziqishlarini o'zida mujassamlashtirib, dunyoni faoliyat, hissiyotlar va ijtimoiy qadriyatlar orqali idrok etish imkonini beradi. Shunga asoslanib, aytish mumkinki, ta'lim jarayonida bo'lajak muhandislarning kreativ qobiliyatlarini rivojlanishi talabalardagi o'ziga yo'nalganlik fikrlashdagi ravonlik va o'ziga xoslikka, odamlarga yo'nalganlik qarashlarning moslashuvchanligiga, faoliyatga yo'nalganlik tafakkur ravonligi, moslashuvchanligi va yaratuvchanlikka integrativ holda ustuvor namoyon bo'lishi tufayli shaxs yo'nalganligigiga bog'liq ekanligi aniqlangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bo'lajak muhandislarning kreativ qobiliyatlari bevosita ularning tafakkur usullari hamda shaxs yo'nalganligi darajasiga bog'liq holda rivojlanib, faoliyatda namoyon bo'lar ekan. Bo'lajak muhandislarning tafakkur uslublari va uning psixologik xususiyatlari kreativlikni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi subyektiv omillarning kognitiv jihati sifatida muhim o'ringa egaligi aniqlandi. Bo'lajak muhandislarning kreativlik qobiliyatini namoyon bo'lishida fikrlashdagi ravonlik pragmatik, realistik, g'oyalarning moslashuvchanligini idealistik, qarashlarning o'ziga xosligi va yaratuvchanligini analitik hamda sintetik tipga uyg'un rivojlanishi tufayli tafakkur uslubi muhim kognitiv xususiyat ekanligi asoslandi. Ta'lim jarayonida bo'lajak muhandislarning kreativ qobiliyatlarini rivojlanishi fikrlashning ravonligi, moslashuvchanligi, o'ziga xoslik va yaaratuvchanlikni talbalarning o'ziga,

odamlarga, faoliyatga yo'nalganligiga uyg'unlashuviga asoslanib, shaxs yo'nalganligigiga bog'liq tarzda kechishi aniqlandi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari va unda olingan xulosalarga asoslanib, bo'lajak muhandislarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning ta'limiy, didaktik jihatlarini tadqiq etish va pedagogik-psixologik dastur yaratishni muhim ahamiyatga ega deb hisobladik.

Adabiyotlar.

1. Абдуллаева С. А. Теоретические подходы к изучению дивергентного мышления будущих психологов/-Известия ДГПУ, №4, 2015. С. 21-24
2. Мороз В.В. Развитие креативности студентов: монография. - Оренбургский гос. ун-т.- Оренбург : ОГУ, 2011. - 183 с.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). –Alexandria –Virginia, USA: ASCD, 2014. –p. 4-54-188.
4. Никитин О.Д. Развитие креативности как основа профессиональной подготовки студентов педагогических вузов: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 2009. - 22 с.
5. Axnazarova D.E. Talabalarda ijodiy qobliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari: Dic. ... psixol. f.b.f.d (PhD).– Toshkent, 2023. – 160 b.
6. Тхагапсоев Х.Г., М.М. Яхутлов. Проблемы инженерного образования в современной России: методология анализа и пути решения. Высшее образование в России № 8-9, 2014, pages-27-36.
7. Chunfang Zhou. Teaching engineering students creativity: a review of applied strategies. Journal on Efficiency and Responsibility in Education and Science, Volume 5, Issue 2, 2012, p. 99-114.
8. Kazerounian K., Foley.S. Barriers to creativity in engineering education: a study of instructors and students perceptions. Journal of Mechanical Design, 2007, vol.129, p.761-768.
9. Belski I., Hamilton M. Developing creativity and problem-solving skills of engineering students: a comparison of web-and pen-and-paper-based approaches. European Journal of Engineering Education, 2017, pages-1309-1329.
10.Badran I. Enhancing creativity and innovation in engineering education. European Journal of Engineering Education Volume 32, Issue 5, Pages 573-585, 2007

Tuychiyeva Shaxlo Shavkatovna
Nizomiy nomidagi TDPU psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: shahashovkatova@gmail.com

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA STRESSGA BARQAROR-LIKNI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining stressga chidamliligini oshirishning psixologik imkoniyatlarini o‘rganadi. O‘z-o‘zini samaradorlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi barqarorlikka hissa qo‘shadigan psixologik omillarni tushunish orqali ushbu omillarni kuchaytirish va maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari o‘rtasida stressga chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim tashkilotlari, tarbiyachilar, stress, bosim, kasb, psixologik strategiyalar, zamonaviy yondashuvlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ У ПЕДАГОГИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические возможности повышения стрессоустойчивости педагогов дошкольного образования. Понимая психологические факторы, способствующие устойчивости, такие как самоэффективность и социальная поддержка, можно разработать меры для усиления этих факторов и развития устойчивости среди педагогов дошкольных учреждений.*

Ключевые слова: *дошкольные образовательные организации, воспитатели, стресс, давление, профессия, психологические стратегии, современные подходы.*

PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF INCREASING STABILITY TO STRESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL TEACHERS

Abstract. *This article examines the psychological possibilities of increasing the stress resistance of preschool teachers. By understanding the psychological factors that contribute to resilience, such as self-efficacy and social support, interventions can be developed to strengthen these factors and develop stress resilience among preschool teachers.*

Key words: *preschool educational organizations, educators, stress, pressure, profession, psychological strategies, modern approaches.*

Kirish. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari yosh bolalarning erta rivojlanishi va tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Biroq, kasb talablari, jumladan, guruhlarni boshqarish, ta’lim standartlariga javob berish va bolalarning turli ehtiyojlarini qondirish, stress va charchashning yuqori darajasiga olib kelishi mumkin.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarining farovonligini qo‘llab-quvvatlash va ularning stressga chidamliligini oshirish uchun stressni yengish qobiliyatlari va hissiy kuchlarini rivojlantirishga yordam beradigan psixologik strategiyalar va tadbirlarni o‘rganish juda muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish psixologning har bir bolaning ruhiy salomatligi va rivojlanishining to‘laqonli bo‘lishini ta’minlaydigan faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bola ruhining individual, rasmiy-dinamik xususiyatlarini hisobga olish alohida o‘rin tutadi.Maktabgacha yosh davri individuallashtirilgan shaxsiy neoplazmalarning avvalgi psixologik yoshi oxirida paydo bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarini (kuch, tezlik, hajm, ritm) takomillashtirish, rivojlanish, mazmun jihatidan va rasmiy-dinamik xususiyatlar davri hisoblanadi. Mana shu davrda bola bilan ishlaydigan va asosiy vaqtini o‘tkazadigan albatta maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi bo‘ladi. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi har bir bola bilan ishlar ekan, uning o’zidagi psixologik holati albatta ish jarayoniga ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. Ish joyidagi stress maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining ruhiy va jismoniy salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Surunkali stress haddan tashqari charchoq va hissiy charchoqni keltirib chiqarishi mumkin, natijada ishdan qoniqish va

ishlashga ta’sir qiladi. Stress belgilarini va uning tarbiyachilar farovonligiga ta’sirini tan olish uning oqibatlarini bartaraf etish va ulardagi stress holatini yumshatishning birinchi bosqichidir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining stressga chidamliligini oshirishning asosiy psixologik yondashuvlaridan biri bu hissiy ong va tartibga solish ko‘nikmalarini shakllantirishga e‘tibor berishdir. Tarbiyachilar o‘zlarining his-tuyg‘ularini, ayniqsa yuqori bosimli vaziyatlarda samarali aniqlash va boshqarishni o‘rganishdan foyda olishlari mumkin.

Hissiy intellekt va o‘z-o‘zini tartibga solish usullarini ishlab chiqish orqali tarbiyachilar stress omillarini yaxshiroq boshqarishlari va muvozanat va xotirjamlik hissini saqlab qolishlari mumkin. Qo‘llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratish a maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining chidamliligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yadigan, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ta’minlaydigan va xodimlar o‘rtasida hamkorlik va qo‘llab-quvvatlash madaniyatini rivojlantiruvchi dasturlarni amalga oshirishi mumkin. Ochiq muloqot, hamdardlik va o‘zaro hurmatni rag‘batlantirish tarbiyachilarga o‘z rollarida qadrli va qo‘llab-quvvatlanayotganini his qilishlariga yordam beradi. O‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik - bu a maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uchun chidamlilikni rivojlantirishning hal qiluvchi jihatidir.

Tarbiyachilarni jismoniy mashqlar, aql-idrok, dam olish usullari va sog‘lom turmush tarzini tanlash kabi o‘z-o‘zini parvarish qilish amaliyotlari orqali jismoniy va ruhiy farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yishga undash stress darajasini pasaytirishga va charchashning oldini olishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, shuningdek, tarbiyachilarga ishda ham, shaxsiy hayotlarida ham o‘z-o‘zini parvarish qilish faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun resurslar va yordam taklif qilishlari mumkin.

Stressni boshqarish va yengish strategiyalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish a maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining chidamliligini oshirishning yana bir samarali psixologik yondashuvidir. Tarbiyachilar stressni boshqarish, chegaralarni belgilash va sog‘lom ish va hayot muvozanatini saqlashning amaliy usullarini o‘rganishdan foyda olishlari mumkin.

Tarbiyachilarni stressni samarali engish uchun vositalar va ko‘nikmalar bilan jihozlash orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlari ularga stressga chidamlilik va ishonch bilan qiyinchiliklarni yengish imkoniyatini berishi mumkin.

Muhokama va natijalar.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini qo‘llab-quvvatlash va stressga chidamliligini oshirishda maktablar hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari stressni boshqarish, o‘z-o‘zini parvarish qilish va chidamlilikni oshirish strategiyalariga qaratilgan professional rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.

Treninglar va seminarlar tarbiyachilarni stressni samarali boshqarish va ularning farovonligini saqlab qolish uchun bilim va ko‘nikmalar bilan jihozlashi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari o‘zlarini qadrli, hurmatli va qo‘llab-quvvatlanadigan his qiladigan qo‘llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratishi mumkin. Ochiq muloqot, hamkorlik va jamoaviy ishlarni rag‘batlantirish xodimlar o‘rtasida hamjamiyat va tegishlilik hissini yaratishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari orasida jismoniy, aqliy va hissiy farovonlikni targ‘ib qiluvchi salomatlik dasturlarini amalga oshirishi mumkin. Ushbu dasturlar tarbiyachilarga dam olish va to‘ldirishga yordam berish uchun yoga darslari, ongni rivojlantirish mashg‘ulotlari va sog‘lomlashtirish seminarlari kabi tadbirlarni o‘z ichiga olishi mumkin.[6]

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilariga o‘z-o‘zini stressdam halos etish amaliyotlari bilan shug‘ullanishlari uchun resurslar va yordam berishi mumkin. Bunga ruhiy salomatlik resurslaridan foydalanish, maslahat xizmatlari va tarbiyachilar kundalik ishlariga kiritishi mumkin bo‘lgan stressni boshqarish usullari haqidagi ma‘lumotlar kiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari moslashuvchan ish jadvallarini targ‘ib qilish, ish yukini real kutishlarni belgilash va tarbiyachilarni shaxsiy farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yishga undash orqali ish va hayot muvozanatini rag‘batlantirishi mumkin. Ish va hayot muvozanatini qadrlaydigan madaniyatni yaratish charchashning oldini olishga va umumiy ishdan qoniqishni oshirishga yordam beradi.[1]

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari hamkasblari bilan bog‘lanishi, tajriba almashishi va bir-biriga hissiy yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tengdoshlarni qo‘llab-quvvatlash guruhlari va murabbiylik dasturlarini tashkil etishi mumkin. Tengdoshlarning qo‘llab-quvvatlashi tarbiyachilarga o‘zlarini kamroq ajratilgan va maktab jamoasida ko‘proq bog‘langan his qilishlariga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining mehnati va fidoyiligini tan olishi va qadrlashi mumkin. Ularning sa‘yi-harakatlarini e‘tirof etish, yutuqlarini nishonlash va hissalari uchun minnatdorchilik bildirish ma‘naviy va motivatsiyani oshirishi mumkin, bu esa ishdan qoniqish va chidamlilikni oshirishga olib keladi. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlovchi va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish orqali amaktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilariga stressga chidamliligini oshirishga, ularning farovonligini oshirishga va pirovardida yosh bolalarga ko‘rsatilayotgan ta‘lim va g‘amxo‘rlik sifatini yaxshilashga yordam berishi mumkin.[2]

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun stressni boshqarish usullari ularga yoshlikdan qiyinchiliklarni yengish va chidamlilikni rivojlantirishga yordam berish uchun juda muhimdir. Chuqur nafas olish, boshqariladigan tasvirlar yoki mushaklarning progressiv bo‘shashishi kabi oddiy mashqlarni bajarish, ularda stress yoki xavotir bo‘lganida ong va tanalarini tinchlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari raqs, yoga yoki ochiq havoda sayr qilishlari yoki jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishlari, to‘plangan energiyani chiqarishga va stress darajasini kamaytirishga yordam beradi.

Jismoniy mashqlar umumiy farovonlik va hissiy tartibga solish uchun ham foydalidir. Rasm chizish yoki hunarmandchilik kabi badiiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini berish hissiyotlarni ifodalash va stressni kamaytirish uchun terapevtik vosita bo‘lishi mumkin. Ijodiy ifoda tarbiyachiga o‘z his-tuyg‘ularini og‘zaki bo‘lmagan tarzda etkazish imkonini beradi.

Hankasblar va g‘amxo‘rlik qiluvchilar bilan mustahkam munosabatlar o‘rnatish hissiy qo‘llab-quvvatlash va xavfsizlik hissini ta’minlaydi. Izchil jadvallar va o‘tishlar bilan tuzilgan kundalik tartibni yaratish tarbiyachilarda o‘zlarini xavfsiz his qilishlariga va tashvishlarni kamaytirishga yordam beradi.

Nimani kutish kerakligini bilish va bashorat qilish hissi stressni yengillashtirishi va nazorat tuyg‘usini rivojlantirishi mumkin.Ushbu stressni boshqarish usullarini kundalik hayotga kiritish va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni ta’minlash orqali stressni yengish, his-tuyg‘ularini tartibga solish va kelajakdagi qiyinchiliklarga chidamlilikni oshirish uchun qimmatli ko‘nikmalarni o‘rganishlari mumkin.[3]

Maktabgacha tarbiyachilarning stressga chidamliligini oshirish ularning farovonligi va guruh samaradorligi uchun juda muhimdir. Chidamlilikni turli xil psixologik strategiyalar va aralashuvlar orqali oshirish mumkin, ular yengish ko‘nikmalarini rivojlantirishga, ijobiy fikrlash modellarini rag‘batlantirishga va hissiy tartibga solishni rivojlantirishga qaratilgan.

Kognitiv xulq-atvor terapiyasi (CBT) keng qo‘llaniladigan terapevtik yondashuv bo‘lib, odamlarga salbiy fikrlash shakllari va xatti-harakatlarini aniqlash va o‘zgartirishga yordam beradi. Maktabgacha tarbiya tarbiyachilari nomaqbul e’tiqodlarga qarshi kurashish, stress omillarini boshqarish va ko‘proq moslashuvchan kurash strategiyalarini ishlab chiqish uchun CBT usullaridan foydalanishlari mumkin.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari stressni kamaytirish, o‘z-o‘zini anglashni kuchaytirish va hissiy tartibga solishni yaxshilash uchun ongni saqlash usullarini o‘rganishi mumkin. Muntazam meditatsiya, shuningdek, tarbiyachilarga qiyinchiliklarga qarshi xotirjamlik va chidamlilik tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini stressni boshqarish bo‘yicha seminarlar bilan ta ‘minlash ularni stress bilan kurashish uchun amaliy vositalar va usullar bilan jihozlashi mumkin.

Ushbu seminarlar tarbiyachilarga ish yukini yaxshiroq boshqarish va sog‘lom ish va hayot muvozanatini saqlashga yordam berish uchun vaqtni boshqarish, dam olish mashqlari va chegaralarni belgilash kabi mavzularni qamrab olishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari hamkasblari, do‘stlari va qo‘llab-quvvatlash guruhlari bilan tajriba almashish, maslahat so‘rash va hissiy yordam olish uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kuchli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlarini yaratish tarbiyachilarga o‘zlarini kamroq izolyatsiya qilingan va qiyinchiliklarga nisbatan chidamliroq his qilishlariga yordam beradi. Ijobiy psixologiya tadbirlari kuchli tomonlarni, ijobiy his-tuyg‘ularni va maqsad tuyg‘usini rivojlantirishga qaratilgan. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari ish joyidagi farovonlik va chidamlilikni oshirish uchun minnatdorchilik jurnali, mehribonlik harakatlari va maqsadlarni belgilash kabi amaliyotlardan foydalanishlari mumkin.

Ushbu psixologik imkoniyatlarni amalga oshirish orqali maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari stress omillarini samarali boshqarish, ularning farovonligini saqlab qolish va o‘z rollarida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va fikrlashni rivojlantirishlari mumkin.

Maktabgacha tarbiyachilarning stressga chidamliligini oshirish nafaqat tarbiyachilarning o‘ziga foyda keltiradi, balki ularning qaramog‘idagi bolalar uchun ijobiy va tarbiyali muhit yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari yosh bolalarning erta rivojlanishi va tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ularning ish faoliyati stressga tushish ko‘p bo‘lgan holatlar bilan bo‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa charchashga va farovonlikning pasayishiga olib keladi. Stressga chidamlilikni shakllantirish a maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari duch keladigan qiyinchiliklarni samarali yengish va ruhiy va hissiy salomatligini saqlab qolish uchun muhimdir.

Stressga barqarorlik - bu qiyinchiliklarga, muvaffaqiyatsizliklarga va stresslarga moslashish va qaytish qobiliyatidir. Bu qiyin vaziyatlarda harakat qilish uchun kurashish strategiyalarini, ijobiy fikrlash modellarini va hissiy tartibga solish ko‘nikmalarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Tarbiyachilar kontekstida chidamlilikni oshirish ularga o‘z ishidagi bosimlarni boshqarishga, maqsad va bajarish hissini saqlab qolishga va charchashning oldini olishga yordam beradi. Chidamlilikni tarbiyalash orqali a maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari nafaqat o‘zlarining farovonligini yaxshilashlari, balki ularning qaramog‘idagi bolalar uchun ijobiy va tarbiyalovchi muhit yaratishlari mumkin. [4]

Demak maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarining stressga chidamliligini oshirish, ular uchun sog‘lom va qo‘llab-quvvatlovchi ta‘lim muhitini ta‘minlash, nafaqat tarbiyachilarning balki kelajagimiz davomchilari bo‘lgan bolajonlarning ham salomatligi va ta‘lim-tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqdir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha tarbiyachilarning stressga chidamliligini oshirish pedagoglarning psixologik farovonligiga qaratilgan yaxlit va faol yondashuvni talab qiladi. Hissiy ongga e‘tibor qaratish, qo‘llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratish, o‘z-o‘zini parvarish qilish amaliyotini targ‘ib qilish va stressni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish orqali, tarbiyachilarga ish faoliyatlarida muvaffaqiyat qozonishlari va albatta yuqorida ta‘kidlaganimizdek yosh bolalarning rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlashlari mumkin. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarning ruhiy salomatligi va chidamliligiga ustuvor ahamiyat berish nafaqat tarbiyachilarning o‘zlari, balki ta‘lim hamjamiyatining umumiy farovonligi va muvaffaqiyati uchun ham foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan..fals dok. (PhD) - T., 2019. - B. 22-23.[1]

2. Abdurahimova D.A. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) ... avtoreferati. - Toshkent, 2020. - 74 b. (B.31)[2]

3. A’zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarida do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: Pedagogika falsafa doktori (phd) avtoreferati. -Toshkent, 2020. -45 b. (B.18)[3]

4. Ганжиев Ф.Ф. Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиларида ижтимоий-психологик компетентлик омилларининг намоён этилиши ва ривожланиши: Психол согия ... фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Бухоро, 2021. -169 б. (Б. 116-117)[4]

5. Гулямов Д.Р., Каланходжаева К.Б. К вопросу учета особенностей межполушарной функциональной асимметрии мозга обучаемых в учебном процессе / Ж. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. № 11, 2018. -С.38-43.[5]

6. Джанпеисова Г.Э. Предматематическое развитие детей на основе компьютерных технологий в контексте непрерывного образования // Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании» / https://cyberleninka.ru/article/n/predmatematicheskoe-razvitie-detey-na-osnove-kompyuternyh-tehnologiy-v-kontekste-nepreryvnogo-obrazovaniya[6]

Azimov Asqadjon Axtamovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

TASVIRIY SAN'AT YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNI MULOQOTDAGI QIYINCHILIKLARINI O'RGANISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smirlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklarni tashxis qilish va bartaraf etishning psixologik imkoniyatlarini takomillashtirish, hamda tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilarni muloqotdagi qiyinchiliklarini o'rganish borasida tavsiya va mulohazalar olib borilgan. Shuningdek o'smirlik yoshi uning psixologik xususiyatlari va yuzaga keladigan individual xususiyatlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *individuallik, emotsiya, qobiliyat, muloqotchanlik, perseosiya, osmirlik yoshi, raqobatbardoshlik, intellekti, tafakkur, temperament.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ТРУДНОСТЕЙ ОБЩЕНИЯ УЧАЩИХСЯ, ОБУЧАЮЩИХСЯ ПО НАПРАВЛЕНИЮ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. *В данной статье даны рекомендации и соображения по совершенствованию психологических возможностей диагностики и преодоления коммуникативных трудностей в подростковом возрасте, а также по изучению коммуникативных трудностей учащихся, обучающихся по направлению изобразительного искусства. Также В подростковом возрасте изучаются его психологические особенности и возникающие индивидуальные особенности.*

Ключевые слова: *индивидуальность, эмоции, способности, коммуникабельность, персеция, осмеянный возраст, конкурентоспособность, интеллект, мышление, темперамент.*

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FEATURES OF STUDYING THE DIFFICULTIES OF COMMUNICATION OF STUDENTS STUDYING IN THE DIRECTION OF FINE ARTS

Annotation. *This article provides advice and feedback on improving the psychological capabilities of diagnosing and overcoming communication difficulties in adolescence, as well as studying the difficulties of communication for students studying in the direction of Fine Arts. Also in adolescence its psychological characteristics and the individual characteristics that occur have been studied.*

Key words: *individuality, emotion, ability, communicativeness, perseosia, osmyrical age, competitiveness, intellect, thinking, temperament.*

Kirish. Jahonda pedagogik ta'lim tizimining raqobatbardoshlik darajasidagi o'zgarishlar ta'lim oluvchining intellekti, tafakkuri, his-tuyg'ulari, didi, axloqiy va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga bog'liqligi tobora oydinlashmoqda. Jamiyat va inson taqdiriga bog'liq dolzarb vazifalarning yechimini topish uchun san'atning gumanistik g'oyalaridan to'g'ri foydalanish hozirgi globallashuv sharoitida juda muhim sanaladi.

Dunyodagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda klaster modelini ta'lim tizimiga tatbiq etishning samarali usul va yo'llari, amalga oshirish mexnizmlari, qo'llanish tamoyillarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Turli soha mutaxassislari tomonidan chuqur tadqiq qilinib, rivojlangan mamlakatlarda amaliyotga joriy etilgan bunday ilg'or tajribalar jahon ta'lim tizimi, pirovardida, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi. Ta'lim sohasiga klaster modelini keng tatbiq etish orqali barcha bo'g'inlarining samarali hamkorlik shaklini qaror toptirish umumiy maqsadning to'g'ri belgilanishi va xususiy manfaatdorlikning oshishini ta'minlaydi. Shu jihatdan olib qaralganda pedagogik oliy ta'lim muassasalarining tasviriy san'at yo'nalishida klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda.

Bugungi yuksak texnologiyalar asrida yoshlarning innovatsion tafakkuri, bozor iqtisodi talabalariga mos ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning axloqiy tarbiyasi, ma'naviy immunitetini kuchaytirish, dunyoqarashi, inson ongining oliy ko'rinishi bo'lgan intellektual-ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish muammosi kun sayin dolzarblashib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Xorij mutaxassislaridan A.Adler, G.Allport, A.Bandura, E.Bern, W.Frankl, Z.Freud, K.Jung, A.Maslow, K.Rogers, B.F.Skinner va boshqalarning shaxslararo o‘zaro munosabatlar va ulardagi buzilishlar, nizoli holatlar, shaxs ijtimoiy ehtiyojlarini qondirilmasligi, xavotirlanish holatlari, destruktiv xulq-atvor, ego-holati, ijtimoiy o‘rganish, shaxsiy fikr, o‘zini o‘zi anglash, asosiy ehtiyojlarni qondirilishiga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, D.B.Elkonin tadqiqotlariga ko’ra, bolaning dastlabki ijtim oiy ehtiyojlaridan biri bu — muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporojes va M.L.Lisina izlanishlarida ta’kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlarda rivojlanib boradi:

1) e’tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo’ladi;

2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug’iladi;

3) avvalgi barcha ehtiyojlarning kattalar tomonidan hurmat qilinishiga ehtiyoj tug’iladi;

Muloqot jarayonida sheriklar orasida, masalan, o‘zaro munosabatga kirishuvchi tomonlardan birining shaxsiy mavqeiga nisbatan hurmatsiz munosabat tufayli turli qarama – qarshiliklar va hatto jiddiy ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Yoki u yoki bu axborotni uzatish jarayonida so‘zdan ehtiyotsizlik, no‘noqlik bilan foydalanish oqibatida axborotlarda muhim darajadagi yo‘qotishlarga yo‘l qo‘yilishi xizmat vazifalarini bajarishda jiddiy xatoliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi holatlar paydo bo‘lmasligi uchun maxsus muloqot texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganish talab etiladi.

Muloqot psixologiyasida qo‘llaniladigan kategoriyalardan yana biri mehnat guruhi psixologiyasidir.

D.N.Uznadze ustanovkalar nafaqat tashqi olam ta’sirida balki, kishilar o‘rtasidagi muloqotning verbal vositalari asosida paydo bo‘lishini ta’kidlaydi [134].

Shaxs psixologiyasi va shaxslararo muloqot tushunchalari haqida S.L.Rubinshteynning ilmiy izlanishlari katta ahamiyat kasb etadi. U inson psixikasi shakllanishida faoliyat va muloqotning rolini chuqur tahlil etadi. Uning ishlarida jamiyat kishisining tafakkuri uning borliqni ruhiy o‘zlashtirishi bo‘yicha aqliy faoliyati jarayoni tashqi predmetli faoliyatni ichki ideal reja (interiorizatsiya) ga aylanishi sifatida qaraladi. Bularning hammasi insonning tashqi dunyo va unga bo‘lgan munosabatni ijodiy anglashi vositasida namoyon bo‘ladi.

S.L.Rubinshteynning ishlari tashqi tabiiy va ijtimoiy muhitning ong rivojlanishiga ta’siri, bunda aks ettirish va ijodkorlikning hamda kishilar amaliy faoliyatida ularning rolini ilmiy jihatdan tushunishga imkon beradi [1].

Bu sohadagi keyingi ilmiy tadqiqotlari L.S. Vigotskiyga tegishlidir. U psixika rivojining madaniy-tarixiy nazariyasini ishlab chiqdi. L.S.Vigotskiy inson psixikasining shakllanishi hamda rivojlanishida uning faoliyati va xatti-harakatining ikki asosiy rejasi aks etishini ta’kidlaydi: tabiiy, biologik ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq reja va madaniy-ijtimoiy faoliyat va xatti-harakatlarning turli shakllari bilan bog‘liq reja.[5]

Tahlil. G.M.Andreevaning fikriga ko‘ra, muomalaning eng muhim birligi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanchalik ahamiyat kasb etsa, u ham muomalada xuddi shunday muhim rol uynaydi. Muomala hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keluvchi, shaxslararo muloqot rivojining ko‘p qirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi fanida e’tirof etilganidek, muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo‘ladi.

1. Kommunikativ (asosan bir tomonlama) axborot uzatish.

2. Interaktiv (ikki tomonlama o‘zaro ta’sir).

3. Perseptiv (o‘zaro bir-birini idrok qilish).

1. Muomala o‘z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilaridan o‘zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo‘lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bo’lmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar.

V.A.Labunskayaning fikrlariga ko‘ra, muloqotdagi qiyinchilik psixologiyasida bir necha jihatlar ko‘rib chiqiladi. Xususan:

- faqat ijtimoiy muloqot, o‘zaro ta’sir vaziyatida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-psixologik hodisa;

- maqsad va natija, tanlangan muloqot modeli va haqiqiy jarayon o‘rtasidagi nomuvofiqlikda ifodalangan ob’yektiv hodisa;

- qondirilmagan ehtiyojlar, motivasion, kognitiv, hissiy dissonanslar, shaxsiy ichki nizolar va boshqalarga asoslangan turli xil insoniy tajribalarda aks ettirilgan sub’yektiv hodisa.

Olimlarning shaxs va muloqot haqidagi g‘oyalari muloqotdagi qiyinchilik uning predmeti modeli haqida bir qancha xulosalar chiqarish imkonini berdi.

1) muloqotdagi qiyinchilik mavzusi universal emas, balki individual tipologik xususiyatga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan hodisa;

2) muloqotdagi qiyinchilik mavzusi "shaxs olamining" va "muloqot makonining" koordinatalaridan tashqarida paydo bo‘lmaydi (V.A.Labunskaya);

3) muloqotdagi qiyinchilik sub’yektlarining barcha variantlarini birlashtirgan muloqotdagi qiyinchilik sub’yektining asosiy xususiyati - bu motivlar, munosabatlar, o‘rnatilgan tasvirlar va umidlarning nomuvofiqligida namoyon bo‘ladigan ichki dunyoning nomutanosibligi;

4) muloqotdagi qiyinchilik sub’yektining jamoaviy portreti, qarama-qarshi sub’yektni ifodalaydi, o‘zini tashqi dunyodan va hatto o‘zidan ham himoya qiladi, xavotirga tushadi, doimiy ichki nizolarni boshdan kechiradi, mos kelmaydigan yoki aksincha bo‘ladi, o‘zini o‘zi ta’minlaydi, shaxsiy ustunlikka intiladi, hatto tajovuzkor bo‘lishi ham kuzatiladi;

5) shaxs muloqotdagi qiyinchilik sub’yekti bo‘lib, uning xususiyatlarining kombinasiyasi ob’yektiv ravishda muloqot qilishda qiyinchiliklarga olib keladi, uning mavjudligi, hatto uning harakatlarining oqibatlari qadriyatli-semantik baho olgan taqdirda ham, u bilmasligi mumkin.

6) muloqotdagi qiyinchilik sub’yektining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u kamdan-kam hollarda ongli ravishda uni yo‘q qiladigan muloqot usullarini tanlaydi; har doim ham o‘z harakatlari va uning oqibatlarini anglay olmaydi, ya’ni o‘zini muloqot sub’yekti sifatida, shu jumladan qiyin muloqotni yetarli darajada anglamaydi.

Tasviriy san’at yo’nalishi o’quvchilari da muloqotdagi qiyinchilik muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda muloqot mavzusini tavsiflash mezonlari qayd etilgan bo‘lib, ular ham qiyin, ham murakkab bo‘lmagan muloqot mavzusining psixologik portretini yaratishga imkon beradi. Muhim farqlash mezonlari:

a) munosabatlarning yo‘nalishi;

b) munosabatlar tizimi;

v) sheriklarning ehtiyojlarini qondirish usullari;

d) muloqot natijalarini shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra shartlash darajasi.

Xulosa. Tasviriy san’at yo’nalishi o’quvchilarining muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishning o‘ziga xos tomonlari, holati, maqsadi, vazifalari va unga qo‘yiladigan asosiy talablar o‘rganib chiqilib, o’quvchilar egallashi lozim bo‘lgan davlat talablari va uni egallashdagi qiyinchiliklar tahlil qilindi hamda uni bartaraf etish zarurligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-2026-yillarga mo’ljallangan“YangiO’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”2021-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fansohalarini296rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni .

3. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi"2018-yil.

4. Lisina M.I. Muloqotda bolaning shaxsiyatini shakllantirish. 2009-yil.

5. J.Piaje Bolaning nutqi va tafakkuri. 1923 yil.

6. Ananiev B.G. Inson bilim sub'ekti sifatida. L., 1968.

Qodirov Obid Safarovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'SMIRLARDA JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA HUQUQIY TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada o'smirlarda huquqiy tushunchalarni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik predmeti o'rganilgan. Ilmiy manbalar tahliliga ko'ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko'ra tadqiq etishga zarurat tug'ildi. Huquqiy bilimlarni shaxs tomonidan o'zlashtirishning muhim shartlaridan biri – fanga oid tushunchalarning shakllanganligi va ularning kundalik amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga egaligi bilan tavsiflanishidir.*

Kalit so'zlar: *falsafa, mantiq, pedagogika, dialekt, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, yoshlar tarbiyasi, o'qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar, muammolar.*

РАЗРАБОТКА ПРАВОВЫХ КОНЦЕПЦИЙ В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В статье исследуется социально-психологическая тема развития правовых понятий у подростков. Согласно анализу научных источников, возникла необходимость исследования вопроса о правовой грамотности на этапе онтогенетического развития человека в соответствии с этапами развития личности. Одним из важных условий усвоения человеком юридических знаний является формирование понятий, связанных с наукой, и их описание путем обладания навыками применения их в повседневной практике.*

Ключевые слова: *философия, логика, педагогика, диалект, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, образование молодежи, педагоги-воспитатели, общество, зрелая молодежь, приоритеты, проблемы.*

DEVELOPMENT OF LEGAL CONCEPTS IN THE PREVENTION OF CRIMES IN YOUNG PEOPLE

Abstract. *The socio-psychological subject of the development of legal concepts in adolescents is studied in the article. According to the analysis of scientific sources, it became necessary to research the issue of legal literacy at the stage of ontogenetic development of a person according to the stages of development of a person. One of the important conditions for the assimilation of legal knowledge by a person is the formation of concepts related to science and their description by having the skills to apply them in everyday practice.*

Key words: *philosophy, logic, pedagogy, dialect, legal consciousness, legal culture, legal literacy, youth education, teachers-educators, society, mature youth, priorities, problems.*

Huquqiy tushunchalar shakllanishining pedagogik masalalari boshqa fanlardagi ilmiy tushunchalarini tarkib topish qonuniyatlari, uslub va uslubiy jihatlariga qiyosiy o'xshab ketishi shubhasizdir. Tushunchalar shakllanishining bosh bo'g'ini olamni bilish jarayonida tushunchalar tarixiy, falsafiy asosga ega ekanligi va fan doirasidagi hodisa va qonunlar mazmunini aks ettiruvchisi sanaladi. Biz muammoning pedagogik jabhalarini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarning holati bilan tanishganimizda tushunchalar shakllanishining fanlar tizimidagi holati, turli ta'lim bosqichlari va o'qitish metodikasining xususiyati bilan bog'liq izlanishlarga duch kelindi.

S.A.Shediyning tadqiqotlari talabalarda gumanitar tushunchalarni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlariga bag'ishlangan bo'lib, izlanish natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi. Unda bo'lg'usi yuristlarning kasbiy tayyorgarligi tushunchalar bazasini shakllantirish uchun ta'lim mazmunini, talabalar aqliy taraqqiyot darajasini aniqlash, o'quv jarayoni tuzilish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ishda talabalar ongida fanlararo gumanitar tushunchalarni shakllantirishning psixologik-didaktik asoslari

hamda huquq tushunchalarini samarali tarkib toptirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida so‘z boradi. Tadqiqotda muammo doirasidagi izlanishlar asosida psixologiya, pedagogika, bilish nazariyasidagi tushunchalarning “mazmuniy tuzilishi”, “mazmunning mantiqiy tuzilmasi”, “mazmunni tashkil etish” atamalariga alohida e’tibor qaratilgan. Oqibatda esa falsafa, mantiq, pedagogika fanlarini o‘qitishda o‘zaro birlik mavjud emasligi aniqlangan.

Mavjud ilmiy konsepsiyalar quyidagicha tasniflangan: 1. Hukm bilishning elementi sifatida qaralgan (N.I.Kondakov, G.Klaus, I.Ya.Lerner); 2. Tushuncha tafakkurning asosiy elementi hisoblagan (A.S.Arsenyev, V.S.Bibler, B.M.Kedrov); 3. Tushuncha bilan hukm o‘rtasida aniq chegaralanishga erishilmagan (A.N.Iliadi).

Shuningdek, V.V.Borisov, A.A.Zinovyev, A.M.Soxorning ishlarida bilishning asosiy tarkibiy elementi sifatida tushuncha ajratib ko‘rsatilgan. Ammo ushbu ishlarning mazmunidan o‘quv materiallarning mantiqiy tuzilishida hukm asosiy element sifatida keltirib o‘tilgan. S.A.Shediyning tadqiqotlariga muvofiq keladigan izlanishlar didaktik jihatdan mos kelishi kuzatildi.

O‘smirlarda huquqiy tushunchalarning shakllanishi va tushuncha muammosiga yondashuvimiz bilishning muhim sharti sifatida: bilishning didaktik yondashuv har qanday inson bilishini voqyelikda tasdiqlashda, uning har xil shakllarini tasdiqlashda, inson bilishining ijtimoiy-tarixiy amaliyotda vujudga kelishi va rivojlanishining hal etuvchi rolini e’tirof etishi; barcha fanlarda ilmiy bilishning asosiy natijalarini umumlashtirishdan iborat.

O‘smirlar tushunchalarni o‘zlashtirishining nazariy va amaliy tahlilining bir jihati S.A.Zaxarova tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Olim tomonidan olib borilgan izlanishlarda tushunchalarni o‘zlashtirish uquvi bir necha turlarga ajratib ko‘rsatilgan. S.A.Zaxarova tushunchalarni o‘zlashtirish modelini to‘rtta elementga ajratdi:

1. Mohiyat – real voqyelikni mavjud munosabatlarni aks ettiruvchi tushunchalarning shakllanishi;

2. Mazmun – voqyelikka real munosabatini egallaganligini so‘zlarda ajratib va mustahkamlangan jihati;

3. Shart-sharoiti: a) ijtimoiy amaliyot uchun ahamiyatli bo‘lgan obyektiv munosabatlarni ajratib ko‘rsatish; b) ushbu munosabatlarda umumiylik va ahamiyatlilikning egaligi; v) so‘zlarda bunday munosabatlar mustahkamlanganligi;

4. Asos – ularning so‘zlar va tushunchalar o‘rtasidagi axborot munosabatini hosil qiluvchi jihati. Olim tomonidan taqdim etilgan model predmetlar amaliyotida tushunchalarning mantiqiy funksiyasi muhim o‘ringa ega .

Ushbu tasnif yutuqlari bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklardan holi emas. Unda tushunchalarning bilish jarayonidagi hissiy va amaliy, obrazli va jalb etuvchanligi; konkretligi va mavhumligi; aqliy bosqichlarning analitik va sintetik birligi; tushunchalarning shakllanishida talabalar faoliyatining amaliy va nazariy ahamiyati qayd etilmaganligidir.

S.A.Shediyda, tushunchalarni o‘zlashtirish “bosqichlari” – jonli idrok (hissiy bilish), boyitilgan kuzatish – bir qator tushunchalar shakllanishining dastlabki nuqtasi; 2. Tahlil va qiyoslash yo‘li orqali hodisalarning mazmuniga olib kiruvchi aqliy jarayondagi predmet va hodislarning muhim va umumiy belgilariga ajratish; 3. Tushunchani aniqlash va muhim belgilarini sintetik jihatdan ko‘rib chiqish; 4. Mashqlar va amaliy tekshirish orqali tushunchalarni kengaytirish va chuqurlashtirish. Ularni ma’lum tushunchalar tizimiga kiritish.

Tushuncha shakllanishining muhim sharti sifatida o‘quvchilar bilimida deduktiv bilan induktiv xulosa chiqarishning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash ularning o‘quv faoliyati va bilimlarni o‘zlashtirishga ijodiy xususiyatga egaligiga bog‘liqdir. Tushunchalarni o‘zlashtirishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini egallash olimlarning diqqat markazida bo‘lgan.

S.V.Korjakovaning tadqiqoti pedagogik OTO‘ ta’limi talabalarida ilmiy tushunchalarni shakllantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu izlanish yakuniga ko‘ra, ularni shakllantirish murakkab jarayon ekanligi, ilmiy tushunchalarning muvaffaqiyatli shakllanishi didaktik shart-sharoitlari tushunchalarni tarkib toptirishning nazariy asosi va usullariga; ularni o‘zlashtirishda o‘qituvchi tomonidan o‘rgatuvchilik, rag‘batlantiruvchilik, tashkilotchilik, nazoratchilik va korreksiyalovchi faoliyati bilan bog‘langan [11].

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslanib shuni aytishimiz joizki, talabalarda huquqiy tushunchalarni shakllanishga tizimli yondashuv lozim va bu o‘zida ta’lim jarayonining murakkab tizimli bog‘lanishini taqozo etadi. Chunki buning uchun o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabati, ustozning o‘quv mashg‘ulotini tashkil etishi, metodik jihatdan qurollanganligi, shogirdlarda o‘quv motivlarining

o‘zlashganligi, kasbiy yo‘nalish bilan huquqiy tushunchalarni shakllantirish bog‘lab olinganligi bilan bog‘liqdir.

T.I.Magomedova tomonidan amalga oshirilgan izlanishda esa muammoning o‘ziga xos jihati huquqiy soha talabalarida ko‘p tillik sharoitida rus tiliga oid kasbiy kommunikativlik ko‘nikmalarini shakllantirishga bag‘ishlangan. Mazkur dissertasion tadqiqotda huquqiy soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmaning batafsil tahlili mutaxassislarni tayyorlash asosida ingliz tili bo‘yicha “O‘quv adabiyotlarining jamlanma tahlili jadvali” shakllantirilgan. Ta’limni optimallashtirish sohasidagi nazariy va uslubiy tadqiqotlarining yakuni quyidagi omillarni hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi:

- talabalarning motivasiyasi;
- o‘quv materiallarining yangiligi va autentiklikka egaligi;
- grafik ko‘rgazmalilik;
- o‘zi mustaqil o‘rganishi .

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarning motivasiyaga ega ekanligini aniq ko‘rsatkichlarda aks etganligi, o‘qituvchining topshiriqlari – faqat chet tilini o‘qitishda emas, balki boshqa mutaxassislik fanlarini o‘rganish jarayonida ham foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Grafik ko‘rgazmalilik – bu talaba-yuristlarda kasbiy –yo‘naltirilgan o‘qitishni optimallashtirishning asosiy vositalaridan biri ekanligi isbotlangan.

O‘zi mustaqil o‘rganishi kasbiy shakllanish jarayonida talabaning to‘laqonli kasbiy, shaxsiy va individual kamol topishiga imkon beradi. Shunday qilib, talabalarda leksik tafakkurning egiluvchanligi, tilni idrok etishning rivojlanganligi; mutaxassisligi bo‘yicha matnlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

N.G.Dayri tomondan olib borilgan izlanishda tushunchalarning shakllanishida eng muhim holat sifatida o‘qituvchini xotiraning barcha turiga ta’sir ko‘rsatilishi bilan belgilangan. Tadqiqotda qayd etilishicha, katta yoshdagilarga nisbatan o‘smirlarning xotirasi ancha kuchli ekanligi va eshitish, harakat, obrazli, motor, emosional xotira tushunchalarini o‘zlashtirish vaqtida o‘qituvchi inobatga olishi muhim deb ko‘rsatgan. Yakuniy xulosada o‘quvchilarda tushunchalar shakllanishida so‘z-mantiq xotirasiga alohida urg‘u berilgan. Shu sababli tushunchalar mazmuni ustida mulohaza yuritayotgan vaqtida mantiqiy esga olib qolish o‘quvi “mantiqiy zanjir” hosil qilishga xizmat qiladi.

Tushunchaning shakllanishi yuzasidan izlanishlar psixologik-pedagogik tadqiqotlarda anchagina salmoqli o‘rganilgan bo‘lib, ular muammolarning predmeti, yo‘nalishi, maqsad va vazifalari bo‘yicha tafovutlanishining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Agar tushunchalarning shakllanishi bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtiradigan bo‘lsak, anchagina tafovutli holatlarning guvohiga aylanish mumkin. Agar ushbu tadqiqotlarni guruhlashimizga to‘g‘ri kelsa, quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

Birinchi guruh tadqiqotlarni umumta’lim fanlari bo‘yicha ilmiy atamalarning shakllanishiga, ya’ni matematik, fizik, kimyo, biologiya, geografiya, til, tarix va boshqa fanlarga doir tushunchalarning o‘quvchilarda tarkib topishiga bag‘ishlangan deyishimiz mumkin.

Ikkinchi guruhda esa tadqiqot obyektiga ko‘ra, amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu tadqiqotlarda o‘quvchilar, talabalar va boshqa kasb egalarida ilmiy tushunchalarning tarkib topishiga bag‘ishlangan izlanishlar amalga oshirilgan.

Masalan, I.V.Kobilinaning izlanishlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishga tayyorlash masalasiga bag‘ishlangan. Olima tomonidan olib borilgan izlanishga ko‘ra, o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarning shakllanishida o‘qituvchining o‘rni yuqori ekanligi, bunga erishish uchun bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik vaqtida e’tibor qaratish, dastlabki pedagogik amaliyoti vaqtidayoq ularga ilmiy tushunchalarni o‘rgatishlari, ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishda fanlaro bog‘liqlikni inobatga olishligini xulosalagan [98].

I.G.Pustilnik amalga oshirgan tadqiqotlarda o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Bunda ularning tarixiy ildizlari, tushunchani tarkib toptirishda pedagogik yondashuvlarning g‘oyaviy asoslari tahlil qilingan [12].

Shuningdek, ko‘pgina tadqiqotlarda matematika va geometriyaga oid tushunchalarning shakllanishini turli xil faoliyat jabhalaridan kelib chiqib o‘rganishga harakat qilingan. Bu borada G.D.Tonkix tomonidan olib borilgan izlanishda planimetrik tushunchalar egallashda o‘quvchilarni darajaviy tabaqalashtirish sharoitida refleksiv faoliyatni tashkillashtirish muhim ekanligi qayd etilgan.

M.M.Molonova tadqiqotida esa o‘quvchilarda matematik tushunchalarni shakllantirishda mustaqil ishlarni tashkil etishning o‘ziga xos usullaridan biri ekanligiga asoslangan. Bir tomondan o‘quvchilarning

mustaqil ishlarini tashkil etish eng muhim pedagogik yondashuvning bir parametri sifatida qaralmoqda [11].

Shuningdek, A.Abduxalikov, Ye.S.Bulicheva, T.P.Varlamova, O.A.Vasilenko, R.V.Zerkova, A.V.Makarin, N.V.Prodanova, I A.V.Shepel, D.V.Sharmin, va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda matematika mashg‘ulotlarida o‘quvchilarda tushunchalar shakllanishining ilmiy asoslari tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda matematik tushunchalarning shakllanishi bir qator jabhalarda o‘rganishga e’tibor qaratilgan. Ye.S.Bulicheva loyihalash ta’lim orqali kollej o‘quvchilarida matematik tushunchalarning tarkib topishi xususiyatlarini yoritishga e’tibor qaratdi. Buning uchun dast avval, o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirishning modelini ishlab chiqish muhimligi ta’kidlanadi.

I.G.Prosvirova va A.V.Shepelning tadqiqotlarida matematik tushunchalarni tarkib toptirishning motivasion aspektlari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalar axborotlarini kategoriyalashtirish yondashuvi orqali shakllantirishga e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotlarning yana bir yo‘nalishida ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo‘yicha o‘quvchilarda tushunchalar shakllanishining pedagogik masalalari tadqiq etilgan.

A.Abduxalikovning izlanishlarida ta’lim jarayoni o‘quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning eng muhim omili sifatida qaralib, unda 8-9-sinf o‘quvchilarida matematika fanini o‘qitish orqali amalga oshirishning ahamiyati ilmiy asoslangan.

O.B.Yermakovaning izlanishlari gumanitar fanlardagi o‘quv materiallari asosida ilmiy tushunchalarni shakllantirishning ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan va u yuzasidan ilmiy xulosalarga kelingan.

Bir qator pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganki, ularda o‘quvchilarda fanni o‘rganishga doir bilimlarni o‘zlashtirish usullari, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish yo‘llari, yondashuvlari, ta’lim texnologiyalari, kasbiy tushunchalarni tarkib toptirish xususiyatlari, ularni o‘zlashtirishda individual yondashuvning ahamiyati, umumta’lim fanlarini o‘qitish orqali dunyoqarashni egallash xususiyatlari, dialogik texnologiya tushunchalarni anglashning vositasi ekanligi, rivojlantiruvchi ta’lim fizik tushunchalarni tushunish omili ekanligi, nutqni o‘rganish jarayonida tushunchalarni rivojlantirish xususiyatlari, mantiqiy operasiyalarni takomillashtirishning didaktik asoslari, talabalarda tushunchalarni refleksivlashtirishning xususiyatlari va boshqa jihatlar tadqiq etilganligini kuzatish mumkin.

Agar davlat ta’lim standartida belgilangan huquqiy bilimlar, tushunchalarni o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi huquqiy bilimlarni egallashning belgilovchi bosh mezon sifatida qaralsa, u holda ta’lim mazmunini tashkil etishda ushbu mezonga yetarlicha ahamiyat berish lozimdir.

Demak, biz kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida huquqiy tushunchalari shakllanishining didaktik masalasini belgilovchi omillarni quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin:

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimi davlat ta’lim standartlarida belgilangan o‘quvchilar faoliyatiga qo‘yiladigan bilim, ko‘nikma va malakaviy talablar bosh maqsad ekanligini inobatga olish;
- ta’lim muhitini tashkil etishga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillar ahamiyatini belgilash;
- kasb-hunar kolleji o‘quvchilaridagi huquqshunoslik faniga bo‘lgan o‘quv motivasiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash;
- ta’lim jarayonida innovasion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ahamiyatini tavsiflash;
- o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlik faoliyatining tashkil etilganligiga e’tibor qaratish.

Psixologik tadqiqotlarda o‘quvchilarda tushunchalarning shakllanishi tarixiy taraqqiyotning bir bosqichi sifatida talqin etilishi bilan bir qatorda muammoning o‘quv faoliyatining boshqa jabhalariga, ya’ni bilish qobiliyatlarini, o‘quv motivasiyalarini, kasbiy va tadqiqotchilik sifatlarini tarkib toptiritirishga yo‘naltirilgan. Ammo huquqiy tushunchalarni subyektlar tomonidan o‘zlashtirishning psixologik jabhalarini tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish zaruratini tug‘diradi.

O‘smirlarda huquqiy tushunchalar shakllanish xususiyatlari muammosini ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish pedagogik psixologiya premeti doirasida amalga oshiriladigan muammolarning yangi bir yo‘nalishi sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008 yil.
3. Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. A. A. Ivina. — M.: Gardariki, 2004. -640 s.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 20 sentyabr BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi/ Halq so‘zi”, 2017 y, 23 sentyabr №192 (6886).
5. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
6. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
7. Safarovich Q. O. et al. O‘quvchilar xulq-atvori profilaktikasida maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ta’sir modeli //PEDAGOG.-2023.-T. 6. – №. 2. – S. 382-386.
8. Safarovich Q. O. et al. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilarning xulq-atvori bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish masalalari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.
9. Safarovich Q. O. et al. TEENAGER CHILD PSYCHOLOGY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – S. 454-462.
10. Safarovich Q. O. et al. Maktab yoshidagi o‘quvchilarni ma’naviy shakllanishida psixologlarning o‘rni //O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 15. – S. 156-161.

Avezov Olmos Ravshanovich
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd)

O'QUVCHILARNING EKSTREMAL VAZIYATLARDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINI NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. *Maqolada o'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya metodologiyasini talqin etilgan va ilmiy nazariy jihatdan o'rganilgan. Bundan tashqari o'smirlarning ektremal vaziyatlarda o'zini o'zi hissiy baholash doirasidagi psixologik himoya mezonlari namoyon etilishining o'rtacha umumiy ko'rsatkichlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxs, shaxsiy potensial, iroda, ekstremal vaziyat, himoya mexanizmi, psixologik himoya, individuallik, faoliyat, stress, fobiya, determinizm.*

ПРОЯВЛЕНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ УЧАЩИХСЯ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация. *В статье проанализированы особенности проявления механизмов психологической защиты в экстремальных ситуациях у подростков. Также была интерпретирована и научно теоретически изучена методика психологической защиты в экстремальных ситуациях. Кроме того, выделены средние общие показатели проявления критериев психологической защиты в рамках эмоциональной самооценки подростков в экстремальных ситуациях.*

Ключевые слова: *личность, личный потенциал, воля, экстремальная ситуация, защитный механизм, психологическая защита, индивидуальность, активность, стресс, фобия, детерминизм.*

MANIFESTATION OF PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISMS OF STUDENTS IN EXTREME SITUATIONS

Annotation. *The article analyzes the peculiarities of the manifestation of psychological defense mechanisms in adolescents in extreme situations. Also interpreted the methodology of psychological protection in extreme situations and studied in scientific theory. In addition, the average general indicators of the manifestation of psychological protective criteria within the framework of self-emotional assessment of adolescents in ectremal situations are highlighted.*

Key words: *personality, personal potential, will, extreme situation, defense mechanism, psychological protection, individuality, activity, stress, phobia, determinism*.

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizda o'ziga xos izchillik bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub markazida shaxs va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar yotadiki, bu jarayonda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir shaxs tezkor vaziyat muhit bilan bog'liq o'ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos natija ko'rsatish juda mushkuldir. Tabiiyki, bu holat psixologlar,favqulotda vaziyat,yong'in xavfsizligi xodimlari zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklatiladi. Azal-azaldan mehribon mehmon do'st va inson parvar hisoblangan o'zbek xalqi uchun inson hayoti hamma narsadan ustundir.shuning uchun ham ekstremal vaziyatlarda shaxslarga psixologik yordam ko'rsatish va favqulotda vaziyatlarda psixologik himoya qilish qlish hozirgi kunda dolzarb muommo hisoblanadi. Ekstermal vaziyatlarda psixologik himoyani talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. I.V.Dobryakov, I.V.Nikolskay,R.V.Kadirov, L.A.Mixaylova, M.Ye.Muxtorov, E.Z.Simirnov, Sh.R.Barotov, N.A.Yaxyarovlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ekstremal vaziyatning kategoriya sifatidagi talqiniga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari V.G.Kamenskayaning "Psixologik himoya va nizolar tizimidagi motivastiyalar " asari psixologik himoya mexanizmlari ma'lum darajadagi nizoli vaziyatlar talqiniga bag'ishlangan.

Psixologik himoya qilish muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o'zini o'zi

rivojlantira borishi ko‘p jihatdan ushbu jarayonga bog‘liqdir.

Alohida ta’kidlash joizki, shaxslar o‘zlarining ma’lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan bartaraf etishga, o‘z imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalana olishga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zlari haqida yanada teran, ijobiy va o‘ziga xos ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan tasavvurlarning shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Zero, bu jarayonda eng avvalo ta’lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta’lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ekstremal vaziyatlarda shaxs psixologik himoyasi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda o‘ziga xos izchillik bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub markazida shaxs va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar yotadiki, bu jarayonda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir shaxs tezkor vaziyat muhit bilan bog‘liq o‘ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos natija ko‘rsatish juda mushkuldir.

Tadqiqotning vazifasi mavzuga oid chet el olimlarining tadqiqotlarini o‘rganish va tahlil qilish, shunga muvofiq ilmiy tadqiqot metodlarini tanlash va tadqiqot olib borishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: Ch.D.Spilberg tomonidan yaratilgan “Reaktiv va shaxsiy xavotirlik shkalalarini o‘rganuvchi metodika”si, Rikss-Usmanning “O‘z-o‘zini hissiy baholash” metodikalaridan foydalanildi.

Ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya metodologiyasini talqin etishda insonning hissiy holatini tushunish va uning o‘z mehnati ma’sullaridan ijtimoiy ma’suliyat jarayonini tahlil qilish va rivojlantirishga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarning o‘rni va istiqboliga ham alohida e’tiborni qaratish lozim, deb o‘ylaymiz. Masalan, F.Xerstberg va uning izdoshlari tomonidan mehnat faoliyatini tashkil etishdagi emotsiogen farqlanish mexanizmlari tadqiq qilishdi. Mazkur izlanish ma’suliga ko‘ra, mehnat faoliyatini tashkil etishda ijodiylik, mustaqillik, o‘zini o‘zi bilish, rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarga e’tibor berilsa, shaxs faoliyati unumdorligiga ijobiy ta’sir etuvchi hissiy kechinmalarni va aksincha, faqat texnik jarayondangina iborat bo‘lgan mehnat sharoiti yaratilsa, shaxs faolligiga salbiy ta’sir etuvchi hissiy kechinmalarning namoyon etilishi kuzatiladi. Darhaqiqat, faoliyatning bajarilishiga nisbatan ijobiy-hissiy kechinmalar shakllantirilmas ekan, faoliyat ma’suli ham insonning o‘z faoliyatidan ijtimoiy ma’nodagi qoniqishi ham nihoyatda past saviyada bo‘ladi. Ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya jarayoni esa xuddi ana shu erda o‘z ta’sirini, ya’ni faoliyatdan ijtimoiy qoniqish jarayonini ma’lum darajada yuqori saviyaga ko‘tara olish san’atini ko‘rsatishi lozim.

Taniqli psixolog Ivan Ognev tomonidan quyidagi tizim asosida shaxsning psixologik himoya mexanizmlari tavsiya qilinadi.

Himoya mexanizmlari	**Mazmuni**
Tajovuzkorlik	Individning unga past baho bergan, o‘zi haqidagi tasavvuriga ikkilanishga sababchi shaxsga bo‘lgan reaksiya
O‘ylash	Nohush hissiyot, his-tuyg‘ularning bir ob’ektdan talabga muvofiq bo‘lmagan boshqa ob’ektga ko‘chirilishi
Tasavvur	O‘zining hissiyoti, istak-xohishlari va xususiyatlarini o‘zi bilmagan holda boshqa kishida ko‘rishi
Ideallashtirish	O‘zini “ideallashtirish” o‘z xatolarini, kamchiliklarini tan olmaslik
Unutish	Shaxsning yoqtirmagan, nohushliklarini unutishi: odamlarning timsoli, ismi, muloqot vaqtida noxush yoqimsiz xotiralarning esga tushurilishi kabi holatlar va hokazo
Inkor etish	Individning voqea va hodisalarni inkor etishi va u haqdagi bilimlarini “men bu haqda hech nimani bilmasdim”, “bu meniki emas”, “menga shunday aytdilar”, “men bunday aytmagan edim” kabilar bilan chegaralanishi.
Diskreditatsiya	Xabar manbalarining past baholash “men-timsol”, “hamma gapirsa ham, sen gapirma”, “kim hakam?” kabi gaplar bilan shaxsni kamsitish va unga past baho berish

Identifikatsiya	O‘zini boshqa odam bilan va namunali xulq-atvorga ega guruh bilan solishtirish o‘z xulq-atvori va munosabatini atrofdagilar bilan taqqoslab, hayot tarzini yengillashtirish
Konversiya (o‘zgarmoq)	“Men”ligi yuqoriligini saqlab qolib o‘ziga nohush holatlarni, vaziyatlarni hazilga yoyadi va muomalada bo‘ladi hamda berilgan tanbehlarni hazil deb qilin qiladi.

Ushbu psixologik himoya mexanizmlarining berilishi orqali muallif shaxs xulq-atvori formalarida tashqi (atrof) muhitdan va tajovuzkorlikdan o‘zini o‘zi himoya qilish holatlarini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi.

O'spirinlik davrida huquqiy bilim va tushunchalarni shakllantirish, biron bir ijtimoiy guruhda o'z o'rnini topish uning uchun qanchalik muhum ahamiyat kasb etmasin shunga qaramasdan bu ontogenez bosqichida eng rivojlangan shaxs bo'lib hisoblanadi . Ilmiy tadqiqotlar natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha yoshlarda o'zligini anglash bir xil emas ekan, chunki bu turdagi ko'rinish ijtimoiy – ma'daniy huquqiy bilim va tushunchalarni shakllanganligi aqliy – ijodiy shart – sharoitlar bilan uzviy bog'liqdir. O'spirinni o'qitish jarayonida yoshiga ham e'tibor berish ijtimoiy turmushda foydadan xoli emas, chunki huquqiy bilim va tushunchalarni o'zida mujassamlashtirsa u kishining ruhiy holatiga kuchli ta'sir etadi .

"Huquqiy munosabatlar" tushunchasi yuzasidan amaliy mashg'ulot mavzusini amalga oshirish metodikasi quyida keltirib o'tiladi. Mavzu bo'yicha huquqiy munosabat tushunchalari shajarasi o'quvchilarning amaliy mashg'ulot vaqtida ishlab chiqqan sxemalaridan faoliyat natijalarini biridir. Ushbu holatga o'quvchilarning huquqiy munosabatlarga doir yuridik tushunchalarini tavsiflashning o'ziga xos ko'rinishi sifatida qarash mumkin. Bundan tashqari, biz o'quvchilarda huquqiy tushunchalarni shakllantirishga doir tadqiqotlarni yana bir holatini alohida tahlil qilib o'tamiz. Ushbu yo'nalishdagi izlanish quyidagi tahlillarda o'z aksini topgan. Tajriba-sinovni tashkil etishda quyidagi tartibda ish yuritildi.

Birinchi guruh tajriba-sinov va ikkinchisi esa nazorat guruhi. Tajriba-sinov guruhi o‘quvchilari loyihalashtirilgan amaliy mashg‘ulot rejasi bo‘yicha nazorat guruhi esa an’anaviy tarzda mashg‘ulot olib borishga tayanadi.

Loyihalashtirilgan o‘quv mashg‘ulotini amalga oshirishning birinchi va ikkinchi bosqichida fan o‘qituvchisi yetakchilikni o‘z zimmasiga olgan holda o‘quvchilarga huquqiy munosabatlar tushunchasini ta’riflash, huquqiy munosabatlarning vujudga kelishini belgilovchi omillar, yuridik faktlar, yuridik harakatlar, huquqiy munosabat subyektlari, huquqiy munosabat turlari haqida nazariy tushunchalar berildi.

Mashg‘ulotning uchinchi va to‘rtinchi bosqichida esa o‘quvchilarning guruhlarda ishlashlari va guruhiy ish natijalari taqdim etildi.

O‘quv mashg‘uloti yakunida esa o‘quvchilarda huquqiy tushunchalarining shakllanganligi mezoniga muvofiq baholandi. O‘z navbatida nazorat guruhida an’anaviy mashg‘ulot bo‘yicha tashkil etilib, unda ham o‘quvchilarning mashg‘ulotdagi faoliyati baholash mezonlari bo‘yicha baholandi.

O‘quvchilarida huquqiy tushunchalarini shakllantirish bo‘yicha tashkil etilgan mashg‘ulotlarning natijalarini baholash bo‘yicha tashkil etilgan tajriba-sinovda o‘quv bilim yuurtlari subyektlarining bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risida nizomiga asoslangan holda baholash amalga oshirildi. Bu esa har bir tashkil etilgan mashg‘ulot bo‘yicha o‘quvchilarda mashg‘ulot bo‘yicha yuridik tushunchalarini shakllanganlik darajasini baholash imkoniyatini beradi.

Tajriba-sinov qatnashchilarda huquqiy tushunchalarini shakllanganlik holatini aniqlashda tajriba va nazorat guruhlari faoliyatini o‘rganishga asoslanib amalga oshirildi.

Yakuniy bosqichda o‘spirinlarda “Huquqiy munosabatlar” to‘g‘risidagi tushunchalarning shakllanganligi yuzasidan taqdimot materiallari ko‘zdan kechirilganida bir-biridan farq qiluvchi holatlar kuzatiladi. Taqdimotlar orasida o‘quvchilarda huquqiy tushunchalari shakllanganligini xarakterlovchi eng yaxshi taqdimot materiali sifati huquqiy tushunchalarni klasterlashga erishgan guruh a’zolari faoliyati ijobiy ko‘rsatkichga ega degan xulosaga olib keladi. Huquqiy munosabat tushunchalarini shakllantirilgan holatini nazorat qilishda alohida matematik modelga tayanish yoki tajriba-sinov va nazorat guruhlari natijalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash orqali ham erishiladi.

Bu holatni “Jamiyat, davlat va huquq” mavzulari misolidagi tajriba-sinov natijalari ustida bo‘yicha tahlil qilindi.

O‘quvchilarining “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusi bo‘yicha huquqiy tushunchalarini shakllanganlik darajasi ko‘rsatkichlari

№	Tushunchalar	Guruhlar	O‘zlashtirish ko‘rsatkichi (baho)		t
			X	σ	
1	Jamiyat va davlat	Tajriba-sinov	4,12	0,78	3,61**
		Nazorat	3,36	0,86	
2	Davlat funksiyalari	Tajriba-sinov	4,04	0,78	2,78*
		Nazorat	3,28	0,89	
3	Davlat boshqaruv shakli	Tajriba-sinov	4,04	0,78	3,26**
		Nazorat	3,24	0,87	
4	Davlatning tuzilish shakli	Tajriba-sinov	4,12	0,78	3,57**
		Nazorat	3,32	0,80	
5	Siyosiy tartibi	Tajriba-sinov	4,00	0,81	3,57**
		Nazorat	3,04	0,73	
6	Davlat boshqaruvida foydalaniladigan huquqiy-meyoriy hujjatlar	Tajriba-sinov	3,68	0,55	3,97***
		Nazorat	2,96	0,84	
7	Natijalarning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichi	Tajriba-sinov	3,72	0,37	5,23***
		Nazorat	3,20	0,39	

**p≤0,01, ***p≤0,001

O‘quvchilarni loyihalashtirilgan mashg‘ulotlar davomida huquqiy tushunchalarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida tajriba-sinov va nazorat guruhi qatnashchilarida statistik miqdorlar bo‘yicha tafovut kuzatildi. Jamiyat va davlat tushunchalarni ta’riflash, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqlarni ifodalashda-4,12 ball va nazorat guruhi-3,36 ball; “davlat funksiyalari” bo‘yicha-4,04 va 3,28 ball; “davlat boshqaruv shakli” bo‘yicha-4,04 va 3,24 ball; “davlat tuzilish shakli” bo‘yicha-4,14 va 3,32 ball; “siyosiy tartibi”ga doir tushunchalar bo‘yicha-4 va 3,04 bal; “davlat boshqaruvida foydalaniladigan huquqiy-meyoriy hujjatlar” bo‘yicha-3,68 va 2,96 ball; umumiy o‘rtacha baho ko‘rsatkichi esa 3,72 va 3,20 balldan iborat. Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha natijalar o‘rtasida ishonchlilik farqlari kuzatildi (jadval). Agar ularning natijalarini mavzular bo‘yicha koeffitsiyentini aniqlaganda quyidagicha ko‘rinish oldi:

$$R\text{мт} = \frac{\Phi_{\text{м1}}+\Phi_{\text{м2}}+\Phi_{\text{м3}}+\Phi_{\text{м4}}+\Phi_{\text{м5}}+\Phi_{\text{м6}}}{6} = \frac{4,12+4,04+4,04+4,12+4+3,68}{6}=3,72\approx 4;$$

Nazorat guruhi o‘quvchilari esa:

$$R\text{мн} = \frac{\Phi_{\text{м1}}+\Phi_{\text{м2}}+\Phi_{\text{м3}}+\Phi_{\text{м4}}+\Phi_{\text{м5}}+\Phi_{\text{м6}}}{6} = \frac{3,36+3,28+3,24+3,32+3,04+2,96}{6}=3,20$$

Bu esa huquqiy tushunchalarini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlarga ko‘ra, tajriba-sinov guruhi (74,4%) va nazorat guruhi (64%) o‘quvchilarining tushunchalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari samaradorligi 10,4 % ni tashkil etadi.

Huquqiy ta’lim o‘quvchilarining kelajakda fuqarolik yoki kasbiy faoliyatining uzviy bir bo‘g‘ini uchun zaruriy bo‘lgan bilimlarni boshlang‘ich darajasini o‘zida aks ettirganligi sababli ham huquqiy muammolarni hal etishning muhim sharti hisoblanadi. Xuddi shu sababli ham uning dolzarbligi bir jihatdan uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichida e’tiborga olinganligi bilan bog‘liqdir. Uzluksiz ta’lim boshlang‘ich bo‘g‘inlaridayoq, “Konstitutsiya alifbosi”, “Davlat va huquq asoslari”, “Huquqshunoslik”, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish”. “Huquqshunoslik” singari fanlarni o‘qitilishi uzluksiz tashkil etilgan.

Huquqiy bilim va tasavvurlar ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga kirib borib fuqorolarning ongidan o‘rin olib odamlar xulq – atvoriga psixologik ta’sir etadi. Jamiyat qabul qilgan qonun – qoidalar doirasiga faoliyat ko‘rsatishga undaydi .Shunday ekan huquqiy savodxonlikka erishishni ta’minlash borasidagi barcha harakatlar ta’lim tizimining barcha bug‘inlarida o‘z ifodasini topmoqda deyish mumkin.

Adabiyotlar.

1. Шоумаров Ғ.Б. Вояга етмаган жиноятчилар билан ишлашнинг психологик масалалари . Таълим тизими - психологик хизмат. Муаммолар ечимлар. Термиз.2002 . – Б.9-13.

2. Jo‘rayev B. “O‘spirinlar huquqlarini buzilishiga sabab bo‘luvchi holatlarni empirik o‘rganish”-O`ZMU xabarlari 2023-yil 1\4-son 88-bet

3. Jo‘rayev B. “O`spirinlarda huquqiy ong va huquqiy bilimlar rivojlanishining psixok omillari”-Maktab va hayot ilmiy-metodik jurnal, 2023-yil 7-son 25-bet

UDK: 159.923.5-34

Inamov Alisher Kosim o‘g‘li
Qarshi davlat universitetit tadqiqotchisi
E-mail: fox_ali.91@mail.ru

KASBIY ADAPTATSIYANI MUAMMOSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy adaptatsiyasini muammosining nazariy va metodologik asoslarini yoritib berish, shuningdek, muvaffaqiyatli faoliyat jarayoniga ta’sir qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlar va omillar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *ichki isglar xodimi, adaptatsiya, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, kasbiy adaptatsiya.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ

Аннотация. *В данной статье будут рассмотрены теоретические b методологические основы проблемы профессиональной адаптации сотрудников органов внутренних дел, а также особенности и факторы, влияющие на успешный процесс деятельности.*

Ключевые слова: *сотрудник внутренних дел, адаптация, социально-психологическая адаптация, профессиональная адаптация.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE PROBLEM OF PROFESSIONAL ADAPTATION

Annotation. *This article will consider the theoretical methodological foundations of the problem of professional adaptation of employees of internal affairs bodies, as well as the features and factors affecting the successful process of activity.*

Keywords: *internal affairs officer, adaptation, social-psychological adaptation, professional adaptation.*

Kirish. Maqolaning dolzarbligi kasbiy adaptatsiya muammosining nazariy metodologik asoslarini o‘rganishdir. Muhtaram Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligiga tashrifi chog‘ida ichki ishlar organlarini aholiga yanada yaqinlashtirish uchun tashkiliy-shtat tuzilmasini optimallashtirish loyihasi bilan tanishdi. “Profilaktik ish tahlilga asoslangan bo’lishi kerak. Har bir huquqni muhofaza qilish organi jinoiy vaziyat to‘g‘risida keng ma’lumotga ega bo‘lishi kerak, buning uchun barcha davlat idoralari va jamoat tashkilotlari doimiy ravishda o‘zaro aloqada bo‘lishlari kerak. Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, davlat xavfsizlik xizmati, milliy gvardiya, prokuratura - barchasi xalqqa xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, jamiyatda ma’rifiy ishlarni kuchaytirish kerak”

“Aholi bilan yaqindan ishlaydigan xodimlar psixologiyani chuqur bilishlari, odamlarga yordam berishlari va ularga g‘amxo‘rlik qilishlari kerak. Jinoyat sodir etgan yoshlar, ayollar muammolarini o‘rganish, ularga mas‘uliyatli tashkilotlar, ma’naviy qo‘llab-quvvatlash orqali yordam berish kerak. Faqat shu tarzda ularning dunyoqarashi o‘zgaradi va natija bo‘ladi", dedi Prezident.[1]

Ichki ishlar xodimi - ichki ishlar organlarida davlat xizmatini oddiy yoki rahbar tarkibida o‘tkazish majburiyatini olgan va belgilangan tartibda maxsus unvon berilgan fuqaro deb hisoblanadi.

Adaptatsiya - atrof-muhitning ob‘ektiv omillari ta’siri ostida shaxs psixikasini qayta qurish, shuningdek, insonning ichki noqulaylik his qilmasdan va atrof-muhit bilan ziddiyatsiz atrof-muhitning turli talablariga moslashish qobiliyatini anglatadi.[2]

Adaptatsiya tushunchasi XIX-asrda paydo bo‘lib va dastlab asosan biologiyada ishlatilgan. Adaptatsiya muammosi birinchi marta biologlar J. B. Lamark, J. Sent-Iler, Ch.Darvin tomonidan asos solingan.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevni iiolariga tashrifi : https://uznews.uz/uz/posts/21930
[2] Постовалова Г.И. О факторах, определяющих адаптационную способность человека // Психологические и социально-психологические особенности адаптации студентов. Ереван, 1973.С.18-19

Biologiya vakillari moslashishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tirik organizmlarning atrof-muhitga moslashishi deb hisoblashgan.

Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya - bu tegishli bir ijtimoiy rol funktsiyalarini amalga oshirish manfaati uchun shaxsning ichki dunyosini atrof-muhitning ijtimoiy talablariga yaqinlashtirish jarayoni. Bu shaxs va guruh o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni uyg‘unlashtirish, insonning tabiiy va ijtimoiy muhitni ularning namoyon bo‘lishining barcha xilma-xilligida faol rivojlanishi

Ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaning asosiy ko‘rinishlari:

- atrofdagi voqelikni etarli darajada idrok etish;
- boshqalar bilan munosabatlar va muloqotning maqbul tizimini yaratish;
- boshqalarning rol umidlariga muvofiq ishlash, o‘rganish, xatti-harakatlarini o‘zgartirish qobiliyati.

Ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaga erishish vositalari:

- umumiy ta’lim va tarbiya;
- mehnat va kasbiy tayyorgarlik.

Ijtimoiy adaptatsiya tashkilot va guruhdagi xulq-atvor me‘yorlarini qabul qilish va o‘zlashtirish jarayonlarida bir necha shakllarda namoyon bo‘ladi:

- shaxsning muayyan tashkilot va kasbiy muhit me‘yorlariga rioya qilish, rahbarlarning ko‘rsatmalariga rioya qilish va hamkasblarining tavsiyalariga amal qilish, shaxslararo munosabatlarda intilish va kelishuvga erishish istagi bilan tavsiflangan konformal shaklda;
- mustaqillikka intilishda, kasbning rivojlanish va takomillashtirishda namoyon bo‘ladigan ijodiy ko‘rsatgichlar bizning atrof-mihitimizga bog‘liq.

Psixologik va ijtimoiy adaptatsiya yangi xodim tomonidan ishlab chiqarish va shaxslararo muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish va barqaror ishlashga o‘tish bilan tavsiflanadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, u tashkilot haqida umumiy g‘oyalarni baham ko‘rishni, uning urf-odatlari, me’yorlari, unda qabul qilingan xulq-atvor standartlariga rioya qilishni, rasmiy va norasmiy ravishda boshqa xodimlar bilan samarali muloqot qilishni boshlaydi.

Kasbiy adaptatsiya bu - insonning ma’lum bir kasb doirasidagi qiymat yo‘nalishlarini o‘zlashtirishi, undagi motivlar va maqsadlarni anglashi, inson va kasbiy guruhning yo‘nalishlarini birlashtirishi, kasbiy guruhning rol tarkibiga kirishini o‘z ichiga oladi. Kasbiy adaptatsiya, kasbiy faoliyatning barcha tarkibiy qismlarini: uning vazifalari, predmeti, usullari, vositalari, natijalari, ushbu kasb doirasidagi shartlarni qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Vaqt o‘tishi bilan kasbiy adaptatsiya faol xarakterga ega bo‘ladi, chunki odam nafaqat kasbga moslashadi, balki kasbni o‘ziga moslashtiradi. Shuning uchun inson va kasbning ko‘p darajali o‘zaro moslashuvini o‘rganish tavsiya etiladi. Insonning kasbiy rivojlanishi adaptatsiya bilan cheklanmaydi, moslashuvdan so‘ng kasbni boyitish bosqichlari, uning tajribasini ijodiy o‘zgartirish mumkin.

Kasbiy adaptatsiya odatda insonning kasbiy va mehnat faoliyatining dastlabki bosqichi bilan bog‘liq. Biroq, aslida, bu kasbiy tayyorgarlik paytida (o‘rta va oliy ta’lim yurtlari), nafaqat bilim o‘rganilganda, ko‘nikma va malakalar, qoidalar, xulq-atvor normalari shakllanganda, balki ushbu kasb xodimlariga xos bo‘lgan turmush tarzi shakllanganda boshlanadi. Kasbiy adaptatsiya davrining umumiy davomiyligi ham ma’lum bir kasb (mutaxassislik) xususiyatlariga, ham shaxsning individual qobiliyatlariga, uning moyilligi va qiziqishlariga bog‘liq.

Kasbiy adaptatsiya ko‘p darajali sifatida belgilanadi, uzini soxasida yuqori ko‘rsatgichlarga ega bo‘lgan professional xodim bilan tanishishning funktsional deterministik jarayoni fiziologik, shaxsiy-psixologik ishlarni, xulq-atvor va ijtimoiy komponentlarni o‘z ichiga olgan[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kasbiy adaptatsiyaning nazariy va uslubiy asoslari quyidagi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

- E. Dyurkgeym R. Merton T. Parsonsning strukturaviy va funktsional yondashuv.
- Uning yordami bilan korxonalarning ijtimoiy-kasbiy tuzilishidagi mutaxassislarning holati tahlil qilinadi[2].
- M. Weber, C. Devis, C. Marks, W. Murning tabaqalanish nazariyasi. Mutaxassislarning maqom tengsizligini quyidagi toifalarga qarab ko‘rib chiqishga imkon beradi: ta‘lim, kasb, obro‘si.

[1] Аширов Д.А. Управление персоналом: учеб. Пособие: Изд-во Проспект. 2007.
[2] Структурный функционализм американских социологов: Т.Парсонса и Р.Мертона https://zaochnik.com/spravochnik/sotsiologija/istorija-sotsiologii/strukturnyj-funktsionalizm/.

- E. F. Zeer, J. Koleman, J. Tengning kompetentsiyaga asoslangan yondashuvi. Kasbiy va mehnat muhiti talablariga muvofiq mutaxassislarning malakasini shakllantiradigan tegishli ta‘lim funktsiyalari va vakolatlari tuzilishi orqali o‘qitish usullarini tanlash va qurish asoslarini tushuntiradi.

Kasbiy adaptatsiya muammolari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- O‘qish jarayonida kursantlar va tinglovchilar e‘tiborini nazorat qilish muammolari;
- Hujjatlar va hisobotlarni tayyorlashda bilim etishmasligi yoki tushunmovchilik;
- Qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ishlarni bajarish;
- Amaliyotda nazariy bilimlarning etishmasligi;
- Mutaxassislarning tashkiliy muammolari va bilim sohasidagi ko‘nikmalarning etishmasligi;
- Ish jarayonida individual yondashuvni qo‘llashdagi qiyinchiliklar;

Metodika sifatida K. Rojers va R. Diamondning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani diagnostika qilish metodologiyasidan foydalanilgan. Rojers-Diamond so‘rovnomasi – bu insonning turmush tarzi, psixologik holati, xulq-atvori va hayoti haqidagi mulohazalar ro‘yxati. Mazkur so‘rovnomada ichki ishlar organlari xodimlarining 180-nafar xodimlari ishtirok etdi, ushbu test topshiruvchilari tomonidan so‘rovnomaning odatlari va turmush tarziga qay darajada mos kelishini aniqlashi va 0 dan 6 gacha bo‘lgan ballni tanlashi kerak bo‘lgan variantlarni ko‘rinish quyidagilardan iborat:

“0” - bu menga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi;
“1” - buni menga mos kelishiga shubxam bor;
“2”- buni menga mos kelishiga shubham bor;
“3”- o‘zimga tegishli ekanligini hal eta olmayman ;
“4”- bu menga o‘xshash, ammo ishonch yo‘q;
“5”- bu menga o‘xshash;
“6”- bu aynan mening o‘zim.

Javob ballari javob shaklining tegishli katakchasiga kiritiladi.

So‘rovnomada – 101-ta bayonot mavjud. Ulardan 37–tasi shaxsiy adaptatsiya mezonlariga javob beradi, 37 – tasi dezataptatsiyaga mos keladi, 26–tasi neytraldir. Oxirgi toifadagi bayonotlar orasida “yolg‘on shkalasi” deb ataladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan 180-nafar ichki ishlar organlari xodimlari ishtirok etdi, Rojers Diamondning ijtimoiy-psixologik adaptatsiya so‘rovnoma ro‘yxatiga quyidagi iboralar kiritilgan 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Metodikaning afzalliklari shundaki sinovdagi ichki ishlar organlari xodimlaridan olinadigan keng yig‘ilgan ma’lumotlar quyidagi shkalalarda aks etilgan: adaptatsiya, boshqalarni qabul qilish, internal (subyektiv nazorat darajasi), o‘z-o‘zini his qilish, hissiy qulaylik, dominant roliga intilish[1].

Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlarga asosan diagnostika natijalari shuni ko‘rsatadiki, 10 yildan ortiq tajribaga ega bo‘lgan ichki ishlar organlarining aksariyat xodimlari normaga muvofiq darajada.

Jadval.1

Shakalaning nomlanishi	ijtimoiy-psixologik moslashuv xususiyatlarining ko‘rsatgichlari		
	Yuqori	O‘rta	Past
Adaptatsiya	20	52	28
Boshqalarni qabul qilish	25	57	28
Internal (subyektiv nazorat darajasi)	20	51	34
O‘z-o‘zini his qilish	31	39	30
Hissiy qulaylik	20	58	22
Dominantlikka intilish	18	48	34

[1] K.Rojers va R.Diamondning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani diagnostika qilish metodologiyasi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida qator muammolarni yoritib berib shuni ta‘kidlash joizki, xodim dastlabki kasbiy adaptatsiya bosqichiga qadam bosgach bir necha muammolar bilan duch kelishi va ushbu muammolarni yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan nazariy va uslubiy asoslardan foydalanib yechimlardan biri deb va ular orqali ushbu to‘sqinlarni hal etish ehtimoli yuqori deb o‘ylayman. Kasbiy adaptatsiya rivojlanishi va birinchi qadamdan boshlagach xodimni avvalam bor ko‘nikmalar va tajriba bilan bo‘lishih va faoliyatga kirish uchun uning hamkasblari, idoraviy va boshqalar tomonidan har tomonlama yordam berib yondashish eng samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevni iiolariga tashrifi : https://uznews.uz/uz/posts/21930.
2. Постовалова Г.И. О факторах, определяющих адаптационную способность человека // Психологические и социально-психологические особенности адаптации студентов. Ереван, 1973.С.18-19.
3. Аширов Д.А. Управление персоналом: учеб. Пособие: Изд-во Проспект. 2007.
4. Структурный функционализм американских социологов: Т.Парсонса и Р.Мертона https://zaochnik.com/spravochnik/sotsiologija/istorija-sotsiologii/strukturnyj-funktsionalizm/.
5. K.Rojers va R.Diamondning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani diagnostika qilish metodologiyasi.

UDK 15.010: 371-044.3:002.6(045)

Kulatova Svetlana Yuldashevna
Qarshi davlat universiteti psixlogiya kafedrasi dotsenti

O‘SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARNI QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘smirlar distruktiv xulqning paydo bo‘lishida axborotlarning psixologik ta’siri, axborot tushunchasining mazmun mohiyati, voyaga yetmagan yoshlar va axborotlar maydoni, globallashuv va ommaviy madaniyat, psixologik xavfsizligini ta’minlashga oid chora tadbirlar hamda ilmiy izlanishlari mazmuni kabilar ham keng miqyosda yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *Axborot, psixologik xavfsizlik, tahdidlar, globallashuv, ijtimoiy tarmoqlar, internet, ommaviy madaniyat, telekommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, mafkuraviy tahdid, psixologik himoya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОЛУЧЕНИЯ ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ ПОДРОСТКАМИ

Аннотация. *В данной статье рассмотрено психологическое влияние информации на возникновение деструктивного поведения у подростков, значение понятия информация, несовершеннолетние и информационное поле, глобализация и массовая культура, меры обеспечения психологической безопасности, а также освещено содержание научных исследований.*

Ключевые слова: *Информация, психологическая безопасность, угрозы, глобализация, социальные сети, Интернет, массовая культура, телекоммуникации, социальные сети, идеологическая угроза, психологическая защита.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF RECEIVING DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS

Annotation. *This article covers the psychological impact of information on the emergence of destructive behavior in adolescents, the meaning of the concept of information, minors and the information field, globalization and mass culture, measures to ensure psychological safety, and the content of scientific research. illuminated.*

Key words: *Information, psychological security, threats, globalization, social networks, internet, mass culture, telecommunications, social networks, ideological threat, psychological protection.*

Dunyo axborot maydonida mutlaq hukmronlik qilayotgan Si-en-en, Bi-bi-si, Yevronyus, Assoshieyted Press, Yunayted Press Interneshnl, Reyter, Frans-Press, ITAR-TASS, Sinxua, Anadolu kabi agentliklar tomonidan “ommaviyaxborot” – axborot iste’molchilariga ochiq axborot tizimlari orqali yetkazib berilmoqda. Bugungi kunda dunyo aholisining 56,4 foizi ochiq axborot tizimlaridan turli maqsadlarda foydalanishadi. Jumladan, 2021 yilning yanvar holatiga ko‘ra, dunyodagi jami aholining (7,83 mlrd.) 66,6 foizi mobil aloqadan, 59,5 foizi internetdan va shuningdek 53,6 foizi 7 ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib [181], butun jahon pandemiya sharoitida ularning aksariyati, ayniqsa yoshlar o‘zlarining asosiy vaqtlarini ochiq axborot tizimlariga sarflashmoqda. Internetdan foydalanish bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori natijani qayd etgan mamlakatlar reytingida dastlabki o‘rinni Filippin (10 s. 56 daq.) oxirini AQSH (7 s. 11 daq.) tashkil etgan. Quyi natijani esa avvaliga Vyetnam (6 s. 47 daq.) va oxirini Yaponiya (4 s. 25 daq.) mamlakatlari qayd etishgan. Bu holat axborot iste’molchilari, xususan voyaga yetmaganlar shaxs xususiyatlari qaror toptirish, vayronkor axborotlar ta’siridan himoyalashning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish hamda BMTning voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish uchun boshqaruv tamoyillari (Ar-Riyod boshqaruv tamoyillari)ni qo‘llash zaruratini tug‘dirmoqda.

Y.G. Noskovning so‘ziga ko‘ra, axborotlar orqali inson ongini zabt etish o‘z-o‘zidan ularni o‘z aqidalaridan, e’tiqodidan ayirish ham sanaladi [130; 45-b.]. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, axborot-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, avvalo, inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning xavfsizligi, millat va milliy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta’sir etuvchi buzg‘unchi va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi. Qolaversa, axborot-

psixologik xavfsizligiga rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, destruktiv g'oyalar voyaga yetmagan yoshlar ongiga va xulq-atvoriga o'ziga xos salbiy ta'sir etishi ehtimoldan xoli emas.

V.N. Pankratovning xulosalariga ko'ra, tezkor axborotlashgan jamiyatda axborotlar orqali bugungi zamonga mos ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotgani shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda ta'sir o'tkazadi [133; 32-b.]. Bunda omma fikrini qay darajada shakllanganligi, siyosiy ongi va huquqiy bilim saviyasi va ma'naviy-ma'rifiy darajasi katta rol o'ynaydi. Taraqqiyot sari yo'l esa, tig'iz axborotlar bozoridan umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni ginatanlab olishda namoyon bo'ladi.

I.V. Yavchunovskaya ta'kidicha, axborotlashgan jamiyat bu-kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanyotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatsion-texnologiyalardan oqilona foydalanishga asoslangan sifatiy tizimni tavsiflovchi tushunchadir [173; 88-92-b.]. Tadqiqotchi YE.A. Xodakovskiy global axborot tizimini, ijtimoiy rivojlanishdagi "bosqichlar almashuvi" nuqtai-nazaridan talqin etib, uning shakllanishini ta'lim, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo'lgan to'rtinchi – "axborot sektori"ning yuzaga kelishi bilan bog'laydi. YA'ni industrial jamiyatning asosi bo'lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o'z o'rnini axborot va bilimga bo'shatib berdi [167; 178-185-b.]. Ayni paytda axborotlashgan jamiyat quyidagilarga sabab bo'lmoqda:

1. O'zimizga qulay joyda ishlashning kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va buning oqibatida tabiatga tushadigan "yuk"ning keskin qisqarishiga olib kelmoqda;

2. Bir tomondan ish kunining qisqarishi, odamlarning oilaviy muhitining barqaror bo'lishiga zamin yaratadi;

3. Shaharda yashash va ishlash uchun eng qulay makon deb atash, so'nggi yuz yilliklarda ancha oshdi. Axborotlashuv jarayoni esa, shahar tashqarisidan turib ham olam bilan muloqot qilish, eng obro'li tashkilotlarda ishlash, shahar aholisi bahramand bo'layotgan madaniyat yutuqlariga ega bo'lish imkoniyatini namoyon qildi;

4. Masofaviy ta'lim olishning eng qulay shakliga aylanishi asosida keng qatlamlar uchun eng elita roliy o'quv yurtlari eshiklariningochilishiga zamin yaratdi. Umuman olganda, ma'lumotli bo'lish insonning xohish-irodasiga bog'liq bo'lib qoldi. Shu o'rinda, axborotlarning jamiyat va davlat uchun ijobiy tomonlarini ham ko'rish mumkin.

Mashhur siyosatshunos, faylasuf olim P. Byukenen o'zining "G'arbning halokati" publitsistika sarida shunday yozadi: "...axborot-media madaniyatlararo to'qnashuvda o'ziga xos musobaqa quroli, yoshlar ongi va qalbini zabt etishning eng zo'r va ishonchli vositasiga aylandi" [70; 78-b.].

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning fikricha: "Hozirgi zamondagi engkatta xavf insonlarning qalbini va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkuramaydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'pnarsani halqiladi"[12; 113-b.].

Hozirda kompyuter texnologiyalari voyaga yetmagan yoshlar madaniyatiga sezilarli ta'sir o'tkazib, ular hayotining ajralmas qismi bo'lib qolmokda. Jamiyatning kompyuter texnikalariga va ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyojini misli ko'rilmagan sur'atlarda o'sishi, ushbu muammoning yosh, jins, pedagogik va psixologik jihatdan kengro qo'rgan ishni talab qilmoqda. Maktab o'quvchisi va uning faoliyatida kompyuterning o'rni muammosi katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Yoshlarning bo'sh vaqtini tashkillashtirish vositalaridan biri kompyuter hisoblanadi. Shu munosabat bilan yoshlarning kompyuter o'yinlariga va internetga murojaat qilish sabablari va internetni yoshlarga ta'siri muammosi katta qiziqish hamda munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Internet tarmog'idagi axborotlarga qaramlikning yoshlar muhitidagi o'rni va internetning yoshlar submadaniyatida keng tarqalayotgani, bu yosh davrida ularning alohida ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi. Taxminimizcha, internetga qaramlik ba'zi yoshlarning ijtimoiylashuvida va bu yosh davriga xos bo'lgan krizislarni yengib o'tishida yordam beradi. Yana shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, keyingi yillarda yoshlarning internet va kompyuter o'yinlariga murojaat qilishlari muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'paydi. Lekin voyaga yetmagan bolalarda axborotlar xavfsizligi va ba'zi yoshlarning internetga "qaram" bo'lib qolish muammosi haligacha to'liq o'rganilmagan.

Virtual tizimlarga qaramlik atamasi o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida paydo bo'ldi. A.S. Jichkinaning fikrlariga ko'ra, bolalardagi qaramlik sifati zararli texnikaviy vositalarning takomillashuvi hisobiga paydo bo'lib, u emotsional "narkomaniya" turlaridan biri hisoblanadi [88; 274-b.]. G'arb mamlakatlarida "kompyuterdan patologik ravishda foydalanish" atamasi bejis paydo bo'lmay,

uning namoyon bo‘lish holati ortishda davom etmoqda. Demak, maktab ta’limi sharoitlarida qaramlik xususiyati bilan bog‘liq chora-tadbirlar muntazam o‘tkazilib borilmog‘i lozim.

Internetga qaramlik muammosi o‘ta dolzarb bo‘lib borayotganligi bois, bunday destruktiv xulqqa uchragan yoshlar sonining kundan-kunga ko‘payib borayotganligidan ham ko‘rish mumkin.

O.P. Makushina qaramlik fenomenini quyidagicha izohlaydi: “psixo faol moddalarga qaramlik kabi bir qator psixopatalogik o‘zgarishlarni kuzatish mumkin, masalan patologik qaramlik ,tolerantlikning o‘sishi, abstinentsindromi, shaxslilik xususiyatlarining o‘zgarishi bilan ham xarakterlanadi” [111; 42-b.] .Internetga qaramlik va psixo faol moddalarga qaramlikning patogenetikmexanizmlari bor ekanligini isbotlovchi tadqiqotlar ham mavjud.Qaramlik

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslariga va yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, xulosa qilishimiz mumkinki, destruktiv axborotlarni o‘smirlarga psixologik tasirini bugungi kundagi tafakkuriga ta’siri va bu salbiy ta’sirlarni hal qilinishi muammolari nafaqat bizning jamiyatda, balki butun dunyo oldida turgan dolzarb masaladir.

Yuqoridagi tasniflardan shunday xulosa qilish mukinki, hozirda o‘smirlarda destruktiv axborotlarga tobelikkni ko‘p kuzatishimiz tabiiy xoldir. Ayniqsa, bugungi axborot asri bo‘lganligi uchun, axborotni saralab qabul qilishni o‘rgatish, psixologik immunitet shakillantirish maqsadga muvafiqdir. Xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli madaniyat, qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg‘unlashuvi sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi va bular borasidagi imkoniyatlarning ortishi – tabiiyki, bularning barchasi globallashuvning natijasidir. o‘smirlarga yetmagan yoshlarning hayoti ham bundan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2016.–76b. [Электрон ресурс]. Кириш тартиби:URL:https://lex.uz/docs/20596

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги “Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора тадбирлари тўғрисидаги ”ги 472-сонли қарори [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: URL:https://lex.uz/pdfs/3107036

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида ”ги 23-сон қарори [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: URL:https://lex.uz/pdfs/3107036

4. Носков Ю.Г. Опасностьи безопасность с позиции деятельностного подхода // Информационный сборник «Безопасность». 1998.-№1-2. – С.45.

5. Явчуновская И.В. Нравственность как опора безопасности // Информационный сборник «Безопасность». 1997.-№7-9.-С.88-92.

6. Бьюкенен П. Смерть Запада. -Москва.: 1999.С.78

7. Жичкина А.С. Социально-психологические аспекты общения в Интернете. -М.: Дашкол, 2004. – 274 с.

8. Макушина О.П. Психология зависимости: учебное пособие для вузов / О.П.Макушина. -Воронеж: ИПЦВГУ, 2007. – 297 с.

UDK: 301.085:15(048)

Raxmatova Nodira Imamovna
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish masalasining zamonaviy talqini keltirilgan. Shuningdek, maqolada kreativ fikrlashni rivojlantirishda mantiqiy fikrlashni shakllantirish masalalari tahlili keltiririlgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, o'quvchilar kreativligi, psixologik ta'sir, kreativ fikrlash, mantiqiy fikrlash.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье представлена современная трактовка вопроса формирования креативного мышления у будущих учителей начальных классов. Также в статье представлен анализ вопросов формирования логического мышления в развитии креативного мышления.*

Ключевые слова: *начальный класс, креативность учащихся, психологическое воздействие, креативное мышление, логическое мышление.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKIING IN FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS

Annotation. *This article presents a modern interpretation of the issue of the formation of creative thinking in future primary school teachers. The article also cites an analysis of the issues of formation of logical thinking in the development of creative thinking.*

Keywords: *elementary grade, student creativity, psychological impact, creative thinking, logical thinking.*

Kirish. Globallashuv va axborotlar ko'lamining intensivlashuvi sharoitida boshlang'ich ta'limga oid fanlardan bilimlarni tanqidiy va ijodiy yondashuvga ko'ra egallash, psixologiya qonunlari va subyekt dunyoqarashida kreativ fikrlashning birlamchi funksiyalarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar fanning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ta'sirini oshirish, ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bu o'z navbatida, oliy ta'lim oldiga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash dasturlariga, mazkur deklaratsiya qoidalarini kengroq joriy qilish hamda bunga erishishning muhim omillaridan biri sifatida, ularning kreativ fikrlash xususiyatlarini yanada rivojlantirish kabi talablarni qo'ymoqda.

Oliy ta'limda tahsil oluvchi boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashini rivojlantirish va bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy salohiyatlarini oshirishga doir tadqiqotlar pedagog-psixolog olimlar O.Gazman, E.Zeer, L.Tarita, Y.Kazakova, J.P.Allen, X.G.Viddovson, L.M.Richards, Y.Aleksandrova, M.Pevzner, J.Piaje, M.L.Vaysburd va boshqalar tomonidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual-kreativ rivojlanish masalalarining turli jihatlari tadqiq etilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda mantiq elementlaridan foydalanish, ularning fanlararo mazmun integratsiyasini ta'minlash va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash masalasi dolzarb sanaladi. Chunki, mantiq elementlarini o'qitish jarayonida talabalarning fikrlash va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari kuchliroq rivojlanib boshqa fanlarni o'zlashtirishiga ham imkon yaratadi. Bugungi kunda pedagogik oliy ta'lim tizimi oldiga yangicha qarashlarga ega, yangicha fikrlay oladigan o'qituvchilarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. Buning uchun esa birinchi navbatda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida mantiq elementlarini o'qitishni takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda kreativ fikrlash tushunchasining aniq ta'rifining to'laligicha ishlab chiqilmaganligi muammoga dialektik nuqtai nazardan yondashuvni talab qiladi. Shu maqsadda fikrlash, mantiqiy fikrlash, mantiqiy fikrlashni shakllantirish tushunchalariga mualliflik ta'riflari keltirildi:

fikrlash – shaxs bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi.

Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, majmuaviy fanlarni o‘zida mujassamlashtiradi;

- mantiqiy fikrlash – fikrlashning yuqori pog‘onalaridan biri bo‘lib, izchillik, ketma-ketlik asosida fikrlarning bog‘lanishini bildiradi va shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o‘zida aks ettiradi;

-mantiqiy fikrlashni shakllantirish – yaxlit tizim sifatida ta’limning maqsadi, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati, ta’lim natijasi, ta’lim mazmuni, shakl, metod va vositalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu keltirilgan ta’riflar shaxsda mazkur sifatlarni tarkib toptirish demokratik va insonparvar jamiyatning faol a’zosini shakllantirishga imkon beradi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida mantiq elementlarini o‘qitish muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, mantiq elementlarini o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirish, uning o‘qitish mazmunini takomillashtirish fanlarni mantiq elementlarini qo‘llab o‘qitish metodikasini takomillashtirishni taqozo qiladi. Mazkur masalaning hal qilinishi bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirish doirasida pedagogika oliy ta’lim muassasalarning mantiq elementlari o‘quv mazmuni, o‘quv dasturlari, adabiyotlar va sohaga oid ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi va tahlil qilindi, tajribali o‘qituvchilar bilan suhbatlar olib borildi, o‘qituvchi va talabalarning fikr-mulohazalari o‘rganildi.

Mantiqiy bilim va ko‘nikmalarning tegishli majmui mantiqiy savodxonligining mazmuni sifatida qaraladi. Talabalarning mantiqiy savodxonligi rivojlanishi o‘z-o‘zidan, ya’ni maxsus uyushtirilmagan, maxsus reja va tizimsiz turli fanlarni o‘rganish jarayonida, boshqariladigan, maxsus uyushtirilgan, maqsadga muvofiq - mantiqni o‘rganishni nazarda tutgan tegishli kurslar doirasida sodir bo‘lishi mumkin.

Ta’lim sohasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, barcha fanlar extiyojlari, mantiq elementlarini o‘qitish soxasidagi mutaxassislarning fikrlari asosida: mantiq elementlari pedagogika oliy ta’lim muassasalarida maxsus o‘rganish predmeti bo‘lishi; mantiq elementlari pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kengroq holda berilishi; mantiq elementlari qisman emas, balki ta’lim tizimining barcha bosqichlarida uzviy ravishda o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

L.M.Perminova shunday ta’riflaydi: “Zamonaviy jamiyatda talabalar qisqa vaqt ichida, dunyo va atrof muhit o’zgarishlari haqida umumlashtirilgan bilimlarni puxta o’zlashtirishlari lozim. Binobarin, o’quvchilarda mantiqiy tafakkurini rivojlantirish avvalambor, ularda samarali fikrlash operatsiyalarini shakllantirish va muammoli vaziyatlarda masalalarning oqilona yo’llarini topish kabi kompetensiyalarni tarkib toptirish, bugungi kun bo’lajak pedagoglari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir”[1].

Tadqiqotchi E.A.Alyabeva o’zining “5-8 yoshli bolalarda o’yin orqali mantiqiy fikrlash va nuqtni rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy maqolasida yozishicha, mantiqiy fikrlash usullarini shakllantirish o’quvchilar kognitiv faoliyatining bir turi hisoblanadi. Shuningdek, mantiqiy fikrlashning rivojlanishi juda spontan (to’satdan) tarzda sodir bo’ladi. Aksariyat o’quvchilar tafakkurning asosiy xususiyatlarini nafaqat o’rta maktabda, balki oliy o’quv yurtlarida ham o’rganmaydilar[2]. Muallifning bunday qarashlari o’z -o’zidan, o’quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalalarini o’z vaqtida tezkor hal etish hamda uni didaktik jihatdan takomillashtirish ishlari zaruratini yanada oshiradi.


Boshqalar qatorida pedagog Y.V.Veselovskayaning so’zlariga ko’ra, o’quvchilarning fikrlashidagi xatolikni payqash, ushbu xatolarning sababini aniqlay olish, fikrlashdagi ketma-ketlikni to’g’ri shakllantirish, fikrlash tizimidagi maxsus operatsiyalar kabi masalalar, hozirgi kunda yangi pedagogik bilimlarga muhtoj sanaladi [3]. Darhaqiqat ushbu ta’rifga ko’ra, o’qitish amaliyoti alohida didaktik muammo hisoblanadi. Ammo hozirda jahon pedagogik amaliyotida, mazkur muammoni hal qilishning ayrim tendensiyalari paydo bo’ldi. Ulardan biri bu – o’qitish jarayonida rasmiy jihatga ko’proq e’tibor berishdir. Ta’lim tizimi shu yo’nalishda ilg’or rivojlanayotgan mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Angliya) o’z taraqqiyotida sezilarli yutuqlarga erishib, so’nggi o’n yil ichida, ta’lim sifatida yuqori bo’lgan, eng yetakchi mamlakatlar qatoridan joy oldi. Pedagog olimlardan, xususan, N.N.Pospelov, Y.A.Petrov, A.N.Leontev, I.A.Gibshlar o’z tadqiqotlarida “Mantiqiy fikrlash” tushunchasiga aniq ta’rif berishgan. Ularning fikr-mulohazalarini tahlil qiladigan bo’lsak, “mantiqiy fikrlash” mantiq qonunlaridan foydalangan holda tushuncha, fikr, xulosalardan foydalanishga asoslangan fikrlash turidir[4]. Ye.V.Orlovaning so’zlariga ko’ra, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ishlari, quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi[5]:

– Barcha mantiqiy fikrlash operatsiyalari ya’ni: tahlil, yig’ish, taqqoslash, umumlashtirish, farqlash, maxsus sistematik farqlashni shakllantirishni;

– Fikrlash faolligini individuallikni rivojlantirishni;

– Ob'yektlarni o'zgartirish qobiliyatini takomillashtirishni yuqoridagi qayd etilgan tasnifga muvofiq, mantiqiy fikrlashni rivojlanitirish, tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish ham sanalib, ayrim holatlarda ko'plab tadqiqotchilar mantiqiy tafakkurni takomillashtirish ishlariga ham alohida urg'u beradilar.

Quyidagi jadvalda sinaluvchilardan mantiqiy fikrlash darajasi so'rovnomasidan olingan natijalar haqida so'z boradi (1-rasm).



1-rasm

Mantiqiy fikrlash darajasini aniqlash so'rovnomalari natijalari:

Mazkur so'rovnoma bo'yicha olingan natijalar oliy ta'limda tahsil oluvchi talabalar ya'ni Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Termiz davlat universitetida tahsil oluvchi talabalarning mantiqiy fikrlash darajasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashga mo'jallangan so'rovnomalarni psixolgik jihatdan baholashga harakat qildik. Shu jihatdan olib qaralganda, oliy ta'limdagi talabalarda mantiqiy dunyoqarash va fikrlash so'rovnomasi shkalalari quyidagicha natijalarni namoyon qilgan. Sinaluvchilarning kuzatuvchanlik malakasi Buxoro davlat universiteti talabalarida 7, Qarshi davlat universiteti talabalarida 6 va Termiz davlat universiteti talabalarida 4ni tashkil etgan. Tajriba va ko'nikma mahorati shkalasiga ko'ra Buxoro davlat universiteti talabalarida 8, Qarshi davlat universiteti talabalarida 6 va Termiz davlat universiteti talabalarida 5ni namoyon qilgan. Keyingi ogohlik bilan harakat qilish qobiliyati shkalasi bo'yicha Buxoro davlat universiteti talabalarida 6, Qarshi davlat universiteti talabalarida 7 va Termiz davlat universiteti talabalarida 6ni tashkil qilgan. O'z ichki tajribalariga befarq munosabat Buxoro davlat universiteti talabalarida 8, Qarshi davlat universiteti talabalarida 6 va Termiz davlat universiteti talabalarida 5ni namoyon qilgan.

Kreativ fikrlash muammosi fanlararo tadqiqotlarning o'rganish predmeti sanalib, hozirga qadar u haqda yaratilgan pedagogik, psixologik, falsafiy ilmiy yondoshuvlar, ilmiy konsepsiyalardagi xilma-xillikni ko'rish mumkin. Biroq, pedagogika fanida ham, boshqa fanlar qatorida o'ziga xos nazariy ishlanmalar, kreativ fikrlashni shakllantiruvchi pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash shakllanishi dinamikasini tushuntiruvchi ilmiy modellar yaratilgan bo'lib, unda o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishning mumtoz usullari majmui o'z aksini topgan.

Shuningdek kreativ fikrlashning asosi ko'proq, hodisalarni umumlashtirish, induksiya va deduksiya qonunidan foydalanish, boshqalarning xatoliklarini tezda payqash, taqqoslash yo'li bilan xulosa chiqara olish, dalillar keltira olish kabi psixologik xususiyatlarga ega bo'lish bilan xarakterlanar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Перминова Л. М. Логико-дидактический подход к обучению // Педагогика. 2004. № 1. – С.18-25.

2.Алябьева Е. А. Игры для детей 5-8 лет: развитие логического мышления и речи / Е. А. Алябьева. – М.: Сфера, 2010. – С.63.

3.Веселовская Е.В. Педагогическая диагностика логического мышления учащихся: Автореф. дис. . канд. пед. наук. Вологод. гос. пед. ун-т, 2002. – С.13.

4.Узорова О. В. Развитие логического мышления / О. В. Узорова, Е. А. Нефёдова. М.: Малыш, 2014. – С.11.

5. Орлова Е.В., Гладин Н.В., Воровщиков С.Г. Как эффективно развивать логическое мышление младших школьников.М.: «5 за знания», 2008. – С.58.

6.Тимашова Л.С. Развитие логического мышления школьников на уроках математики: Опыт учителя сред. шк. № 5 г. Борисоглебска Воронеж, обл. // Начальная школа. 2000. - № 10. - С. 69-73.

7.Савенков А. И. Развитие логического мышления. 6-7 лет / А. И. Савенков. – Самара.: Федоров, 2016. – С.16.

8.Воронина Л. В. Формирование и развитие у дошкольников логических приемов мышления / Л. В. Воронина // Организация работы с родителями дошкольников в образовательном учреждении: сб. статей: 2 ч. Урал. Гос. Пед. Ун-т. – Екатеринбург, 2008. – С.59.

UDK 15.010:371-044.3(045)

Sadatova Nodira Musurmonovna
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail:nonasadatova@gmail.com

VOYAGA YETMAGAN O‘SMIRLAR HULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK O‘ZGARISHLARGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarbiyasi qiyin voyaga yetmagan o’smirlar bilan munosabatlar o‘rnatish, ularning psixik holatlarini tahlil qilish va kerak bo‘lsa ta’sir etish bo‘yicha kerakli hamda samarali tavsiyalar berilgan.*

Kalit so’zlar: *tarbiyasi qiyin o’smirlar, jinoyatchilik, axloqiy meyor ijtimoiy-ruhiy holatlar, mustaqil hayot, qadriyatlar, psixologik ta’sir, psixologik xususiyat, pubertat davri, o‘tish davri, krizis davr, qiyin davr.*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ПОВЕДЕНИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В этой статье даны необходимые и эффективные рекомендации по установлению отношений с подростками, воспитание которых затруднено, анализу их психического состояния и, при необходимости, воздействию.*

Ключевые слова: *подростки с трудным воспитанием, преступность, этический критерий социально-психические состояния, самостоятельная жизнь, ценности, психологическое воздействие, психологическая характеристика, пубертатный период, переходный период, кризисный период, трудный период.*

FACTORS AFFECTING PSYCHOLOGICAL CHANGES IN THE BEHAVIOR OF UNDERAGE ADOLESCENTS

Annotation. *This article provides the necessary and effective recommendations for establishing relationships with underage adolescents with difficult upbringing, analyzing their psychic States, and influencing them if necessary.*

Keywords: *difficult adolescents with difficult upbringing, crime, moral behavior socio-mental states, independent life, values, psychological impact, psychological feature, puberty, transitional period, crisis period, difficult period.*

Sharq mamlakatlarida boshqa mamlakatlarga qaraganda oilaga juda katta e’tibor qaratilib kelingan. Oilada avvalo “shaxs” deb atalmish ijtimoiy mavjudot bo‘lgan farzandning dunyoga kelishi, farzand tarbiyasi, farzandning kelajakda komil inson bo‘lib voyaga yetishida oilaning ahamiyati katta ekanligini yaxshi bilamiz. Jamiyat shu tariqa barpo bo‘ladi, rivoj topadi, ijtimoiy taraqqiyot vujudga keladi. Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning taqdiri, uning ijtimoiy himoyasi davlatimiz siyosatining asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. “O‘zbekiston Markaziy Osiyoda aholisi tarkibining 40% ini bolalar tashkil qiladigan eng yirik davlatlardan biri hisoblanadi”. [1]. Shu boisdan, mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, ertangi kuni, ularning jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida davlat miqyosida ulkan darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar ma’naviyatini asrash, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oyalar ta’siridan saqlash hamda mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifadir. Albatta, yoshlarni buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga olishni istaydigan kuchlar juda ko‘p.

Ilmiy tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, bolalar va o‘smirlar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ularning sabablarini o‘rganmasdan turib, uni

faqatgina statistik jihatdan tahlil qilish bilangina bunday hodisalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, tarbiyadagi nuqsonlar va voyaga yetmaganlarda jinoyat xulqining paydo bo‘lishining ijtimoiy-psixologik omillari hamda sabablarini har tomonlama o‘rganish zaruriyati kelib chiqadi.

Kuzatuvlar natijasiga ko‘ra ma’lum bo‘lishicha, ko‘pincha o‘smirlardagi tarbiya buzilishi oiladagi va ta’lim tizimidagi pedagogik qarovsizlik natijasida yuzaga keladi. Pedagogik qarovsizlik quyidagi darajalarda tavsiflanadi:

1. Past daraja. Xatti-harakat, xulq-atvordagi beqarorlik, o‘z “men”iga ortiqcha baho berish, asosan yoshiga xos bo‘lgan xarakter belgilarning ustunlik qilishi.

2. O‘rta daraja. Kattalar va tengqurlari bilan aloqaning buzilishi, o‘qish va mehnatga qiziqmaslik, nizolarning egoistik yo‘nalishga asoslanishi, pedagogik ta’sir choralari to‘g‘ri qabul qilinsada, unga amal qilinmasligi.

3. Yuqori daraja. Salbiy xarakter xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi, huquqbuzarlik oshkora qilinadi. Kattalar bilan o‘zaro munosabatda tajovuzkor bo‘ladi, o‘zlari to‘g‘ri deb qabul qilgan “axloq”larini oqlashga urinadilar. Ular huquqbuzarlik chegaralarini tushunib yetmaydilar.

4. Kriminal daraja. Huquqbuzarlar voyaga yetmagan bo‘lganliklari sabab, ularning xulq-atvorini boshqarib bo‘lmaydi. Bunday o‘smirlar har qanday tarbiya vositalariga qarshilik ko‘rsatadilar. Hatti-harakatlarida tajovuzkorlik ko‘proq uchraydi. Ular o‘zlarining huquqbuzarlik motivlarini o‘zlari belgilagan “axloqiy meyor”lar bilan o‘lchaydilar, natijada jinoyatga qo‘l uradilar.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onalarning tez-tez janjallashib turishi, o‘zaro oilaviy nizolar va ota-onalar xulqidagi salbiy illatlar ham o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, oiladagi nizolar bolalar va o‘smirlarni oiladan bezdiradi. Ota-ona va oilaning boshqa azolariga nisbatan ishonch hissining yo‘qolishiga olib keladi. O‘zaro ishonchning yo‘qolishi esa ota-onaning tarbiyaviy ta’sirchanlik darajasini tushirib yuboradi. Ota-onaning tarbiyaviy ta’sir darajasi pasayishi o‘z navbatida o‘smirda o‘zi xohlagan xatti-harakatlarni amalga oshirishga yo‘l ochib beradi. Natijada tarbiyaviy ta’sirsiz, nazoratsiz qolgan o‘smirda asta-sekinlik bilan xulq-atvor o‘zgarishi kelib chiqadi. Oilaviy munosabatlardagi nosog‘lomlik bolalar va o‘smirlarning shaxs sifatida shakllanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, xulq-atvorda salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Demak aytish mumkinki, tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning kelib chiqishida oiladagi nosog‘lom muhit asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Oilada tez-tez bo‘lib turadigan janjallar, ota-onalarning kelishmovchiliklari, o‘smirlarning jismoniy jazolanishi tabiiy ravishda ular xulqida o‘zgarishlarni keskin oshib ketishiga sabab bo‘lib qolishi mumkin.

Ilm-fanda “tarbiyasi qiyin o’smirlar”, “xatar guruhiga kiruvchi bola” degan atamalar mavjud. Bu atama bugungi kunda nafaqat pedagog, psixolog, sotsiologlar, balki ijtimoiy ish xodimlarini ham o‘ziga jalb etadi. Sababi bu atamalar zamirida muayyan shaxsning taqdiriga bog‘liq holat mujassam. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunida “ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan - voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta’minlash, tarbiyalash va unga ta’lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan”, - deb ta’rif beriladi.[2]

Psixologik nuqtai nazardan jinoyatchilik yoki huquqbuzarlikka moyilligi bo‘lgan voyaga yetmagan o‘smirlarda bo‘sh vaqt, hissiy-irodaviy nazoratning past darajasi, o‘zini tuta bilmaslik va o‘ziga ishonmaslik, o‘zidan qoniqmaslik, o‘z-o‘zini baholashning va bilishga oid faollikning pastligi, o‘qishni istamaslik, kuchli taassurotlar olishga intilish bilan xarakterlanadilar, shuningdek, ular xavotirli, intizomsiz, nosog‘lom turmush tarzini olib boradilar.

Baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o‘z o‘rnini topa olmagan o‘smirlik davri «o‘tish davri», «krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan ham xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash xollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. O‘smirlik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamshiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xos. Ammo shunga qaramay bu davrdan muvaffaqiyatli o‘tish irsiy omillarga, ijtimoiy muhitga va eng muhimi oilaviy qadriyatlarning amal qilinishiga bevosita bog‘liq. Shu sababdan xulqi og‘ishlikni ya’ni tarbiyasi qiyinlikni oldini olish chora-tadbirlarini kichik bola yoshidan olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda e'tibor berish kerak bo'lgan eng muhim jihatlar shundan iboratki, bolaga tarbiyasi og'ir ekanligini aytmaslik va unga yomon tamg'asini bosmaslik va gumanistik yondoshuv asosida bola bilan ishlash lozim. Doimo yodda tutish joizki yomon bolalar bo'lmaydi yomon tarbiyachilar, yomon ota-onalar, yomon ijtimoiy muhit yoki o'zini shunchaki yomon his etayotgan bolalar bo'ladi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan profilaktik ish olib borish masalalari har qaysi davrda ham dolzarb bo'lib kelgan. Bu borada xorijiy va hamdo'stlik davlatlarining tadqiqotchilari kabi mahalliy olimlarimiz ham turli tadqiqotlar olib borganlar va hanuzgacha ushbu mavzuni yoritish yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish ishlari davom etib kelyapti. Chunki bolalarning qonun bilan nizolashuvi, turli yo'llarga kirib ketishlari sababi nihoyatda xilma-xil bo'lib, buning oldini olishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi ko'plab soha mutaxassislarini qiziqtirib keladi. Falasafa fanlari nomzodi N.Israilova "xatar guruhidagi bolalarni qayta tarbiyalash va reabilitatsiya qilishda, ota-ona va pedagoglarning bolani faoliyatning ijtimoiy foydali turiga jalb qilish yo'li bilan maqbul rivojlanish, o'z-o'zini eng yuqori darajada namoyon qilishi uchun sharoit yaratish va noxush omillarni bartaraf etishga yo'naltirilgan ziyrak e'tibori kerak", deb ta'kidlaydi [3].

Bunday muhitda tarbiyalangan bolalar va o'smirlar xulqida qo'zg'aluvchanlik, asabiylik, o'zini tuta olmaslik, badjahllik, boridan qanoatlanmaslik, dushmanlik, qo'rquv, ishonchning yo'qolishi, yolg'izlikni xush ko'ruvchanlik, beg'amlik kabi xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Bu sifatlarning har biri bola psixik va shaxs xususiyatlarining hamda irodaviy sifatlarining shakllanishiga va aqliy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Voyaga yetmaganlardagi yosh davri xususiyatiga ko'ra fikr doirasining torligi, dunyoqarash sayozligi, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan sust rivojlanganlik holati ham voyaga yetmaganlarning xulq-atvorida nuqsonlarning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki ma'naviy olami tor, dunyoqarashi va aqliy taraqqiyoti o'ziga yarasha o'smir bunday paytda o'z ehtiyojlarini qondirishning g'ayriqonuniy tomonlarini izlaydi va o'g'rilik, yo'lto'sarlik, bosqinchilik jinoyatlariga qo'l o'radi. Ko'pincha bunday holatlarda bolalar va o'smirlar qonuniy yo'l bilan pul topish, mehnat qilib boylikka erishishni o'ylab ham ko'rmaydilar. Natijada bunday o'smirlarda g'ayriqonuniy xulq-atvorning kelib chiqishiga zamin yaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, bolalarda tarbiyaning buzilishi va xulq og'ishining ijtimoiy psixologik sabablarini o'rganish voyaga yetmaganlar o'rtasida qonunbuzarliklarning oldini olishda muhim hisoblanadi. Bunday muhim ijtimoiy masalani hal etish insoniyat va keng jamoatchilik uchun bir qator ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirishning muhim sharti sifatida jamiyat va ijtimoiy turmushda yuzaga kelayotgan muammolar, shu jumladan, bolalar va o'smirlarning g'ayriqonuniy hatti-harakatlarini ilmiy jihatdan o'rganish talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, har bir ota-ona farzand tarbiyasida xatolarga yo'l qo'ymaslikka xarakat qilishi zarur. Farzandingizga doimo namuna bo'ling. Sababi, dono xalqimiz aytganidek "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Shu bois, shifokorlarimiz "kasallikni davolagandan ko'ra uning oldini olgan yaxshi", deyishadi. Siz ham shunga amal qiling. Oyda bir marta oilaviy yig'ilishni o'tkazishga xarakat qiling (farzandingiz bilan yaxshi munosabatda bo'ling, u Sizning haqiqatdan ham yordam berishga intilayotganingizga ishonch hosil qilsin). Farzandingizning kuchli tomonini e'tirof qilib turing. Har bir insonning zaif qirralari bo'lgani kabi, albatta, kuchli tomonlari ham bo'ladi. Farzandingizning bo'sh vaqtini to'g'ri va samarali taqsimlang. Farzandingizni diqqat bilan eshiting. Uning fikrlari bilan qiziqing. Ba'zan u bilan ham hisoblashing. Chunki unda mening ham fikrlarimni inobatga olishyapti, degan ishonch hosil bo'lishi nihoyatda muhim. Farzandingizning tarbiyasi yuzasidan ustozlarining fikr-mulohazalarini ham tinglang. Ular bilan maslahatlashing va birgalikda yordam bering. Sizning maqsadingiz muammoning yechimini topish – buni esdan chiqarmang. Farzandingizning kamchiliklari to'g'risida emas, balki uning fe'l-atvori, ayni vaqtdagi xatti-harakatlari haqida ham suhbatlashing, har bir yo'nalish bo'yicha ustozlari, murabbiylariga uning tarbiyasi bo'yicha barcha masalalar yuzasidan sizga murojaat qilishlarini iltimos qiling. O'zingizga nisbatan bag'rikeng bo'ling. Chunki siz juda murakkab ishni ya'ni nafaqat o'z farzandingizni balki, yurt farzandini ham tarbiyalamoqdasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Достижения и перспективи в области охрани здоровя детей в Республике Узбекистан/ “Болалар учун ижтимоий ҳамкорлик: миллий ва ҳалқаро илғор тажрибалар” мавзусидаги ҳалқаро форум материаллари. – Т.: 2014.

2. www.lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2010 yil 29 sentabr, O‘RQ-263-son.

3. Isroilova N.A., Xurvaliyeva T.L. O‘quvchilarda hulqi og‘ishlikni bartaraf etishda jismoniy tarbiya va sportning o‘rni. / Uslubiy qo‘llanma. – T.: 2016.

4. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. o'quv-uslubiy qo'llanma.T., 2014. 185 bet

Eshboyev Shoxruz Xon Farxodovich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tayanch-doktoranti (PhD)

NIZOLAR DINAMIKASI VA RIVOJLANISH FAZALARI

Annotatsiya. *Bugungi kunda turli ish muhitida nizolar rahbar va xodimlarning orasida sezilarli darajada o'sganida guvoh bo'lamiz. Fikrlar janggidan tortib katta mojarolargacha bo'lgan ziddiyatli vaziyatlar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Bunda asosiy vazifa nizolarni qanday boshqarish va unga barham berishdir. Nizolarni samarali hal etish barkamol ish muhitini saqlash va jamoa a'zolar o'rtasida samarali munosabatlarni muvozanatlashtirish va uni yanada ruvojlantirish juda muhimdir. Mojarolarda oqilona qadam tashlash, uni oldini olish uchun albatta uni tuzilishini sinchikovlik bilan o'rganmoq lozim. Ushbu maqola nizolarning dinamikasi va uni rivojlanish fazalari haqidadir.*

Kalit so'zlar: *nizolar dinamikasi, munosabatlar, ziddiyatli vaziyatning paydo bo'lish (mojarodan oldingi yashirin) davri, muammoli vaziyat, ochiq davrning boshlanishi, eskalatsiya jarayoni, muvozanatli jarayon, mojaroni tugashi, tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni qisman normallashtirish, o'zaro munasabatlarni to'liq normallashtirish.*

CONFLICT DYNAMICS AND PHASES OF DEVELOPMENT

Abstract. *Today, in various work environments, we witness a significant increase in conflicts between managers and employees. From a battle of ideas to a major conflict, conflict situations can arise for a variety of reasons. The main task is how to manage and resolve conflicts. Effective conflict resolution is critical to maintaining a healthy work environment and balancing and developing effective relationships among team members. In order to take reasonable steps in conflicts, to prevent them, it is necessary to carefully study its structure. This article is about the dynamics of conflicts and the phases of its development.*

Key words: *conflict dynamics, period of emergence of a conflict situation (hidden before the conflict), problem situation, beginning of an open period, escalation process, balanced process, end of conflict, partial normalization of relations between the parties, mutual relations until normalization.*

ДИНАМИКА КОНФЛИКТА И ФАЗЫ РАЗВИТИЯ

.

Аннотация. *Сегодня в различных рабочих средах мы наблюдаем значительный рост конфликтов между руководителями и сотрудниками. Конфликтные ситуации могут возникать по самым разным причинам: от битвы идей до крупного конфликта. Основная задача – как управлять и разрешать конфликты. Эффективное разрешение конфликтов имеет решающее значение для поддержания здоровой рабочей среды, а также баланса и развития эффективных отношений между членами команды. Чтобы предпринимать разумные шаги в конфликтах, предотвращать их, необходимо тщательно изучить его структуру. В данной статье речь идет о динамике конфликта и этапах его развития.*

Ключевые слова: *динамика конфликта, период возникновения конфликтной ситуации (скрытой до конфликта), проблемная ситуация, начало открытого периода, процесс эскалации, сбалансированный процесс, завершение конфликта, частичная нормализация отношений между сторонами, взаимоотношения до нормализация.*

Nizolar har qanday ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida o'zining tuzilish va bosqichlari mavjud. Adabiyotlar tahlili shuni aytadiki, hozirgi vaqtda ziddiyat dinamikasining bosqichlari va shakllari bo'yicha turli xil qarashlar mavjud. Ma'lumki, amalda mojaroning boshlanishi va ochiq qarama-qarshilikka o'tish chegarasini aniqlash har doim ham o'z natijasini bermaydi. Bosqichlar chegarasini aniqlash qiyin vazifalar safidan o'rin olgan [1] Nizolarni bartaraf etishdan uni o'rganib chiqish lozim. O'rganishni bosqichlarga ajratish nizolarni ongli ravishda bartaraf etishda asosiy rol o'ynaydi.

A.I.Kitov takidlaganidek, mojaroning "davomiyligi"da ya'ni "mojaroning psixologik holati uning asosiy jihati bo'lib qoladigan davr", bir-biridan farq qiladigan bir qator bosqichlarni (fon holati, nizoli

vaziyatni nizodan oldingi holat sifatida anglash, nizoli holat, o‘tish holati, ongdagi nizo natijasini mustahkamlash holati) ajratib ko‘rsatdi. U mojaroning bosqichlarga ajratib ko‘rsatish uchun asos qilib shaxsning aqliy zo‘riqish darajalarini keltirdi.

L.A.Petrovskaya mojaro dinamikasini quyidagilarga ajratdi: birinchi – ziddiyatli vaziyatning paydo bo‘lishi, ikkinchi – vaziyatni anglash, uchinchi – ziddiyatli xatti-harakatga o‘tish hamda to‘rtinchi – mojaroni hal qilish. [2]

A.D.Sergeyev esa mojaroni uch bosqichga, ya’ni, ilk bosqich – mojarodan oldingi bosqich, qarama-qarshiliklarning yashirin rivojlanish davri, aniqlanish va kuchayishini o‘z ichiga oladi, ikkinchi bosqich – mojarolarning to‘qnashuv va susayish davri hamda so‘ngi, uchinchi bosqichda mojaro oqibatlarini anglash davri deb ajratdi. [1]

Qarama-qarshi tomonlarning biri o‘zining tajavvuzkorlik pozitsiyasida qolsa-yu, ikkinchisi passiv bo‘lsa, hech qanday ziddiyat yuzaga kelmaydi. Tomonlarning biri tajovvuzkor harakatlarini haqiqatda emas, balki tasavvurda qilsa, hech qanday ziddiyat bo‘lmaydi.

Kuzatilgan vaziyatlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda (yuklatilgan vazifalar qilingan yoki qilinmaganiga qaramay) rahbar qo‘l ostidagilar bilan sovuq muomalada bo‘ladi. Xodimlar o‘z qadr-qimmatini himoya qilib, unga qarshi xatti-harakatlar qilishga majbur bo‘ladi. Hozirdi davrda, xodim va ishchilarning manfaatlarini rahbarning o‘zboshimchaliklaridan himoya qilish dolzarb muammo va uni samarali usullari ishlab chiqish jarayonida. Demak, bunday vaziyatlarda bo‘ysunuvchilar ko‘z yumadi yoki aksincha ziddiyatga kirishadi. Bunday holatlarni oldini olish uchun har bir tashkilotda rahbar va xodimlar bilan ishlaydigan psixolog shtati bo‘lishi lozim. Ular bilan muntazam ravishda ishlab borishi kerak va eng asosiysi tashkilot rahbariga hisobdorlik mas’uliyati psixologda bo‘lmasligi darkor. Psixolog tashkilotdagi ijtimoiy-psixologik muhitni va nizolar dinamikasini doimiy nazorat qilishi lozim.

Nizolar dinamikasi – bosqichama-bosqich mojaroning rivojlanish jarayonidir. Adabiyotlar tahlilidan olingan natijalarni jamlab, jarayonni uch bosqichga bo‘lish mumkin. Bular, paydo bo‘lish (mojarodan oldingi yashirin) davri, ochiq davr va tugash (mojarodan keying yashirin) davri sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Ziddiyatli vaziyatning paydo bo‘lish (mojarodan oldingi yashirin) davri. Mojaro ikki yoki undan ortiq tomonlar orasidagi kelishmovchiliklar yuzaga keladigan muammoli vaziyat ortidan kelib chiqadi. Bu kelishmovchiliklar hali e’tirof etilmaganini va qarama-qarshi harakatlar amalga oshirilmaganini inobatga olsak, vaziyatni **“muammoli vaziyat”** deb tavsiflashimiz mumkin. Muammoli vaziyatlarda qo‘zg‘atuvchi rolida asosan obyektiv sabablar turadi.

Tashkilotda rahbar va xodimlarning intilishlari, motivlari va maqsadlari bir xil bo‘lmasligi mumkin. Bunday nomuvofiqliklar uzoq vaqt davomida to‘planadi, dastlab xavf tug‘dirmaydi, lekin shunga qaramay, tomonlar uchun potensial xavf yuzaga keltiradi.

Ushbu davrning mazmuni - uning subyektlari tomonidan vaziyatni konflikt sifatida qabul qilish, konfliktlarni bartaraf etish uchun muayyan harakatlarni boshlash zarurligini tushunishidir. Agar tomonlarning manfaatlarini qondirilishda to‘siqlar mavjud bo‘lsa, u holda muammoli vaziyat ular tomonidan subyektiv va buzilgan tarzda qabul qilinadi. Bu subyektlar psixikasining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning ijtimoiy farqlari bilan bog‘liq. Muammoli vaziyatli ziddiyatga alyantirishda tomonlarning shaxsiy qarashlari, ehtiyojlari, salohiyati va eng asosiysi bu kabi vaziyatlarda tajribasi rol o‘ynaydi. Eng murakkab vaziyatlarni subyektlar tomonidan tez murosaga keltirish mumkin, yoki aksincha oddiy muammoli holatlarni ham keng qamrovli ziddiyatga olib kelish mumkin.

Ziddiyatli vaziyatning ochiq davri. Ushbu davrni sodda qilib aytganda, konfliktning o‘zi. U quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Ochiq davrning boshlanishi
- Eskalatsiya jarayoni
- Muvozanatli jarayon
- Mojaroni tugashi

Ochiq davrning boshlanishi, ziddiyatning ilk qadami ya’ni tomonlarning faol to‘qnashuvi bilan ifodalanadi. Bunda vaziyatni o‘z foydasiga hal qilish uchun shaxsiy vakolatlardan foydalanishga urinishlar yuzaga keladi. Agar tomonlardan birining resurslari uning foydasiga ustunlikni ta’minlash uchun yetarli bo‘lsa, nizo tugashi mumkin. Mojaro paytida subyektlar o‘zlariga mos keladigan kurash usullarini qo‘llashni boshlaydilar: bosim o‘tkazish, xalaqit berish, ayblash va hokazo. Agar tomonlarning biri ikkinchisidan ustun kelsa, tabiiyki mojaro tugaydi.

Eskalatsiya jarayonida, tomonlar o‘rtasidagi muzokaralar bosqichidan faol qarama-qarshiligining avj olish bosqichiga o‘tadi. Bunda kurash yangi, shiddatli his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi, bu esa ketma-

ket xato qadamlar tashlanishiga va idrokning buzilishiga olib keladi. Oxir oqibat vaziyat shiddatli kurash tusiga kiradi. Misol uchun, suhbat chog‘ida hamkasblar o‘rtasida qizg‘in tortishuvga aylanib ketadi, so‘ng tortishuv tomonlarning shaxsiylashuviga olib keladi. Bu holatda, hissiyotlar keskinlashib, tomonlarda bir-biriga nisbatan sovuq fikr uyg‘onadi va haqoratomus muomalaga o‘tiladi va bir-birini kamsita boshlaydi, ayblaydi. Shu tempda eskalatsiya jarayoni yuzaga keladi.

Muvozanatli jarayonda mojaro ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning davom etishidir. Vaqt o‘tgani sari mojaroning intensivligi asta-sekin pasayib boradi. Tomonlar agressiya bilan muammoga yechim topish samara bermasligini tushinib yetadilar, biroq murosali yechim yoki kelishuvga erishish uchun ochiqchasiga taklif berishga tomonlar tayyor emas.

Agarda hayotda mojarodan qochish uchun orqaga qadam tashlash imkoni mavjud bo‘lsa, bu yechimdir. (Rasim Musabayov) [3]

Mojaroni tugatish bosqichida subyektlar nizoni adekvat yo‘l hal qilish usullarini izlaydilar. Ta-jovuzkorlik pasayadi va tomonlarning biri orqaga qadam tashlaydi. Bunday holatda har ikkala tomonda ham g‘alaba bo‘ladi. Sababiki, birinchi tomon ongli ravishda ortda qadam tashlaydi, bu emas nizoda mag‘lub bo‘lishdan ko‘ra yaxshiroqdir. Ammo bu har doim sodir bo‘lmasligi mumkin, agar mojaroning oxiri uning yangi mojaroga aylanishi bo‘lsa, oqibatda undanda kattaroq ziddiyatli vaziyatni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Tugash, ya’ni mojarodan keying davr, xuddi mojarodan oldingi davr singari, yashirin bo‘lib, u ikki bosqichdan iborat:

Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni qisman normallashtirish. Bu mojaroda yuzaga kelgan salbiy his-tuyg‘ular butunlay yo‘qolmagan hollarda yuzaga keladi. Ushbu bosqich odamlarning tajribalari va o‘z pozitsiyalarini tushinishi bilan bilan ifodalanadi. Ko‘p hollarda o‘z-o‘zini hurmat qilish va qarshi tomonga bo‘lgan munosabatlarni normallashtirish ushbu bosqichning asoslaridan biri. Ammo tomonlar o‘rtasidagi salbiy munosabatlar ularga munosabatlarni normallashtirish jarayonini darhol boshlash im-koniyatini bermaydi.

O‘zaro munasabatlarni to‘liq normallashtirish, mojaroning barcha tomonlari konstruktiv ya’ni hamkorlik yo‘lini toppish muhimligini anglab yetadigan so‘nggi bosqichdir. Bu bosqichning avvalgisidan farqi shundaki, muloqot davomida odamlar hamkasblari o‘zlarining salbiy munosabatlarini yengib, o‘zaro ishonchga erishadilar va har qanday faoliyatga birga kirisha oladilar.

Xulosa qilib aytganda, nizolarning kelib chiqish sabablari va rivojlanish bosqichlarini bilish, ularni oldini olish va zararsizlantirish ko‘nikmalarini egallash zaruriy shartdir. Yong‘nni oldini olishning eng yaxshi usuli bu unda uchqun paydo bo‘lganida suv sepishdir. Allaqachon lang yonayotgan otashni o‘chir-gandan ko‘ra unga yonishidan avval barham bergan afzalroq. Har qanday mojarodan viqor bilan chiqish qobiliyati, asosan, murosaga kelish va yon berish qobiliyatidan kelish chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. N.I.Leonov – Konfliktologiya. Moskva – Voronej 2006
2. ХРЕСТОМАТИЯ ПО КОНФЛИКТОЛОГИИ.
3. Психология конфликта. (СПб, 2000) Гришина Н.В

Internet saytlar:

1. 4brain.ru
2. koob.ru
3. studyfile.net
4. psychologies.ru

Adilova Shoxida To‘ychiyevna
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHAXS XULQ-ATVORIDA SUITSIDGA MOYILLIKNI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada shaxs xulq-atvorida suitsidga moyillikni aniqlashning psixologik xususiyati o‘rganilgan. Unda muallif tomonidan muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada jahon psixolog olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish hamma davrlarda bo‘lgani kabi bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, shaxs, o‘smir, yosh oila, xulq-atvor, xulq og‘ishi, suitsid, kayfiyat, stress, depressiya, motiv, profilaktika.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ СУИТСИДНОЙ ТЕНДЕНСИИ В ЛИЧНОМ ПОВЕДЕНИИ

Annotatsiya. *В статье рассматривается психологическая природа детерминации суицидальных тенденций в поведении человека. В нем автор рассказал о теоретических и практических аспектах проблемы, а также о научных исследованиях, проводимых мировыми психологами в этом направлении. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы сегодня, как и во все времена, очень актуально.*

Ключевые слова: *общество, личность, подросток, молодая семья, поведение, девиантность, суицид, настроение, стресс, депрессия, мотивация, профилактика.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DETERMINING SUICIDAL TENDENCY AND PERSONAL BEHAVIOR

Annotation. *The article examines the psychological nature of the determination of suicidal tendencies in human behavior. In it, the author spoke about the theoretical and practical aspects of the problem, as well as about scientific research conducted by world psychologists in this direction. Research conducted by the author shows that the study of this problem today, as at all times, is very relevant.*

Key words: *society, personality, teenager, young family, behavior, deviance, suicide, mood, stress, depression, motivation, prevention.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyoti, islohatlarni amalga oshirish muvaffaqiyati, demokratik erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidagi urunishlar, mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash kabi muhim masalalar aynan yoshlarga, ularni erkin va mustaqil fikrlash ruhida, islohatlarning faol davomchisi sifatida tarbiyalashga bog‘liq. Shuning uchun mamlakatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, uning ma’naviyatini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali barkamol shaxsni voyaga yetkazishga katta e’tibor berilmoqda. Afsuski, keyingi paytlarda internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar va umuman, ommaviy axborot vositalarida yoshlar ishtirokida huquqbuzarlik, jinoyat sodir etilayotgani, yosh oilalar o‘rtasida ajralish holatlarining qayd etilayotgani, eng achinarlisi ayrim toifa insonlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish holatlari ko‘payib borayotganligi haqidagi noxush xabarlar tez-tez quloqqa chalinmoqda. Ayniqsa, maktab va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari orasida bunday ko‘ngilsiz holatlarni uchrashi barchamizni jiddiy tashvishga solmoqda.

Bizga ma’lumki, suitsid ijtimoiy hodisa xisoblanib, hamma davrlarda ham ma’lum miqdorda suitsidal xarakatlar va suitsid amalga oshirilgan. Albatta har bir suitsidni amalga oshirgan shaxs ma’lum bir individual omillarga asoslanib bu qaroriga keladi. Odatda o‘z joniga qasd qilish holati irodasi sust, atrofida bo‘layotgan arzimagan narsa va hodisalarni ham bo‘rttirilgan holda ko‘radigan, ularga alohida urg‘u beradigan, kuchli emotsional ta’sirchanlika ega melonxolik va gipoxondrik tipiga xos bo‘lgan insonlar tomonidan ko‘proq amalga oshiriladi. Asosan yoshlarimizda, jinsiy o‘zgarishlar davrida hayotiy hayajonli daqiqa va holatlarni og‘riqli qabul qilishi, his-tuyg‘ularning beqarorligi va o‘zgaruvchanligi bilan xavfli davr xisoblanadi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, hayotiy krizislar sog‘lom va irodasi baqquvat insolarni ham “sindirishi” mumkin. Bunday holatdan hech kim himoyalangan emas, faqat vaqtida bunga e’tibor berish va to‘xtash yoki to‘xtatish bizni salbiy oqibatlardan saqlab qolishi mumkin.

Zero, hayot insonga beriladigan ne'matlar ichida eng qadrlisi hisoblanadi. Shuningdek, u yaratganning bizga bergan ilohiy mo'jizasidir. Umrning har lahzasini qadrlash, uni go'zal o'tkazish uzoq umr ko'rishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, suitsidal xulq-atvor fenomeni fanlararo tadqiqotlarning o'rganish predmeti sanalib, hozirga qadar ko'plab mutaxassislar mazkur muammo borasida, e'tiborga molik tadqiqotlar olib bormoqda. Ayniqsa, mazkur masalada tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik hamda pedagogika fanlarida amalga oshirilayotgan zamonaviy tadqiqotlar, buning yaqqol ifodasidir. Suitsidal xulq-atvor deviant xulq-atvor shakllaridan biri bo'lganligi bois, uni yagona fan tadqiqotlari mazmunida o'rganish haqiqatdan yiroq sanaladi. Shu bois, ko'pchilik tadqiqotchilar suitsid muammosini tadqiq etish masalasini, fanlararo integratsiya holatida ko'rib chiqishni ta'kidlab o'tadilar.

Tadqiqotchi V.A.Rozanovaning aytishicha, suitsid xulq-atvor "psixosotsial" mazmundagi hodisa sanalib, hozirda ushbu masalaga doir ko'plab ilmiy yondoshuvlar, ilmiy maktablar, ilg'or tamoyillar, yangi tendensiyalar, sotsiologik g'oyalar, psixoanalitik, geshtalt, ekzestensial qarashlar hamda atropologik yondoshuvlar mavjud [4;40]. Shuningdek, V.S.Yefremovning "Suitsidologiya asoslari" asarida keltirilishicha, suitsid fenomeni lotincha "sui caedere" so'zidan olingan bo'lib, u o'z joniga qasd qilish, o'z hayotini tugatishga qaratilgan mustaqil, ixtiyoriy va qasddan qilingan harakat degan ma'noni anglatadi[3;45]. Psixologiya fanidan farqli o'laroq, tibbiyot va psixiatriya fanida suitsidal xulq - ruhiy kasallik alomatlaridan biri bo'lib, u shaxsning o'z joniga qasd qilish haqidagi g'oyalari, fikrlari va rejalari bilan bog'liq haratkatlari sifatida ta'riflanadi.

Sotsiologiya fanining asoschisi E.Dyurkgeymning fikricha, esa, suitsid xulq-atvor - ijtimoiy faktlarga aoslangan sotsiologik muammo sanalib, uning kelib chiqishi jamiyat tomonidlan insonlarga ortiqcha qo'yilgan talablar, vaziflar hamda yuklar ta'siri bilan bog'liq sanaladi. YA'ni har bir jamiyatda insonlarni o'z joniga qasd qilishga undovchi salbiy illatlar mavjud bo'lib, ular oxir-oqibat insonlarning tafakkuriga, hissiy kechinmalariga, aqliy g'oyalariga haddan ortiq ma'naviy va moddiy zo'riqishlar paydo etadi[2;46-54]. Shuning uchun, ko'pchilik o'z joniga qasd qilishga va hayotiga nuqta qo'yishga harakat qiladi. Ushbu tariflardan farqli o'laroq, falsafa fanida ham suitsidal xulq-atvor tushunchasini ta'riflashga doir o'ziga xos qarashlar mavjud. Faylasuf A.Shopengauerning aytishicha, o'z joniga qasd qilish bu-o'z istaklaridan voz kechish, irodasizlik oqibatida kelib chiquvchi harakatdir. Bunday insonlar insoniyatni ustidan haqorat qiluvchilar hamda tabiat qonunlarini buzuvchi shaxslar hisoblanadi [6; 96]. Demak, falsafiy talqinga ko'ra, suitsidal xulq-atvor bu, insoniyatga to'g'ri kelmaydigan va insonni hayvondan ham pastroq darajaga olib keluvchi, o'z mavjudligini yo'q qiluvchi salbiy xislatdir.

Zamonaviy psixologiya fani konsepsiyalari, suitsid masalasida alohida ahamiyatga ega sanalib, uni o'rganish suitsidal xulq tushunchasini ilmiy dalillashga oid ko'plab fenomenologik jihatlarni ajratishga imkon beradi. Suitsidal xulq xronologiyasiga ko'ra, qadimgi Shumer va Akkad davlatlaridagi ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq sanalib, bunday qarashlar yuqorida qayd etilgan shahar podshohlari qabrlarini o'rganish ishlarida aniqlangan. S.S.Avanesov bu borada shunday deydi:"Qadimgi Shumer va akkad shohlari hayotdan ko'z yumganlarida, ularning askarlari shoh bilan birga ko'milgan. Askarlar o'z ixtiyorlari bilan zahar ichib, podshoh bilan birga dafn etishlarini ma'qul ko'rishgan[1;77]. Bunday harakatlar ba'zan, etnologiya fanida, etnik retuallar ham deb tilga olinadi. S.E.Ushakovaning tadqiqotlarida qayd etilishicha, har yili dunyo bo'yicha, 130 ming kishi o'z joniga qasd qiladi[5;54].

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari. Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz yuqoridagilardan biroz farqli ravishda shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotimizda shaxsda suitsid oldi xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash uchun talabalarda shaxsdagi xarakter aksentuatsiyasi turlarini aniqladik. Buning uchun G.Y.Ayzenkning "Temperamentni aniqlash" testi va G.Shmishekning "Shaxsdagi xarakter aksentuasiyasini aniqlash" metodikasidan foydalandik. Olingan empirik natijalar 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Shaxsdagi xarakter aksentutsiyasini turlarini tashxislash va temperament tiplarini aniqlash metodikalari ko'rsatkichlar tahlili (Mann-Uitni mezoni bo'yicha)


Ko'rcatkichlar	Jinsi	N	O'rtacha rang	Ranglar cummaci	U	Ishonch darajaci
Gipertim	yigit qiz	140 140	46,05 57,23	2026,00 3434,00	-1,918	,055

Xavotirlanuvchi	yigit qiz	140 140	47,91 55,87	2108,00 3352,00	-1,365	,172
Distim	yigit qiz	140 140	49,82 54,47	2192,00 3268,00	-,794	,427
Pedant	yigit qiz	140 140	44,27 58,53	1948,00 3512,00	-2,436	,015*
Qo‘zg‘aluvchan	yigit qiz	140 140	48,59 55,37	2138,00 3322,00	-1,179	,238
Emotiv	yigit qiz	140 140	35,68 64,83	1570,00 3890,00	-4,951	,000***
Rigid	yigit qiz	140 140	45,91 57,33	2020,00 3440,00	-1,957	,050*
Namoyishkor	yigit qiz	140 140	40,05 61,63	1762,00 3698,00	-3,672	,000***
Sikloid	yigit qiz	140 140	43,09 59,40	1896,00 3564,00	-2,830	,005**
Ekzaltr	yigit qiz	140 140	49,95 54,37	2198,00 3262,00	-,787	,431
Yolg‘on-ochiqlik	yigit qiz	140 140	47,05 56,50	3390,00 2010,00	-1,632	,103

Tadqiqotdagi sinaluvchilarimizni jins ko‘rsatgichi bo‘yicha yigit bilan qizlarni o‘zaro noparametrik Mann-Uitni mezonidan foydalanib ishimiz natijasida (1-jadval) o‘tkazilgan metodika shkalalari bo‘yicha solishtiralayotgan jins ko‘rsatgichi bo‘yicha ishonchli farqlari kuzatilganini aniqladik. Mann Uitni me’zonida tadqiqot natijalariga ko‘ra pedant shkalasi yigit va qizlarning natijalarida ishonchli tafovutlar kuzatildi (U=-2,436; p<0,05) qiz bolalarda pedant tipning acociy xususiyatlari - bu qat’iyatsizlik, tashvishlanish shubhalanish hamda pedant tipdagi o‘smirlarda qo‘rquv uning hayotini butunlay qamrab olishi mumkin va hattoki patalogik holatlarga olib kelishi kuzatiladi. Qizlarda onasiga nisbatan xavotir yorqin ifodalanadi. Onacining biroz ishdan kech qolishi ham uni kuchli xavotirga solib qo‘yadi. Doimiy xavotirdan uni o‘zi ixtiro qilgan o‘zi uchun o‘ylab topilgan psixologik himoya mexanizmlari (imo-ishoralar, afsunlar, har xil xatti-harakatlar majmui) va himoyaning yana bir mexanizmi bu rasmiylik bo‘lib ko‘rinadi. Ularning xatti-harakatlarida qat’iyatsizlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga qat’iylik ko‘pincha kutilmagan o‘ziga ishonchni, mulohazaga murojat qilmaslik, shoshilinch harakatlar, ehtiyotkorlik talab qilinadigan holatlarda ortiqcha kompensatsiyaga olib keladi. Shundan so‘ng sodir bo‘ladigan muvaffaqiyatsizliklar, qat’iyatsizlik eca shubhani yanada kuchaytiradi. Pedantik tipdagi o‘smirlarda qoidalarni, qonunlarni buzish, chekish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish tendensiyasiga moyillik kuzatiladi. Pedant tip o‘smirlar xulq-atvorida suitsidga moyillik kuzatiladi.

1-rasm


Shaxcdagi xarakter aksentutsiyacini turlarini tashxiclash metodikasining pedant tip shkalasi bo‘yicha jins tafovuti natijasi



Emotiv tip qizlar va yigit bolalarda tafovutlar kuzatildi. (U=-4,951;p<0,001). Bu tipdagi qizlarda kayfiyatning haddan tashqari o‘zgaruvchanligini kuzatishimiz mumkin. Kelajakka nicbatan munocabat ham o‘zgaruvchan, u optimictik yoki akcincha, zerikarli va mayus bo‘lib oladi. Kayfiyatning o‘zgarishi, tengdoshlar va kattalar bilan qicqa muddatli mojarolar fonida qisqa muddatli ta’sirchan portlashlar bo‘lishi mumkin, ammo keyin tezda tavba qilish va yarashish yo‘lini izlash boshlaydi. Ularning faoliyatlari davomida maqtov, dalda ularga quvonch keltiradi, shu bilan birga muammolar, yo‘qotishlar eca o‘tkir affektiv reaksiyalarni keltirib chiqarishi va suitsidal xulq-atvorga moyil bo‘lgan harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ular o‘zlarini mukammal tushunadigan do‘ctlar va yaqinlarning tor doiracini afzal ko‘radilar. Ular yomon xulqli yoki asabiy odamlarning hujumlarini qo‘zg‘atishi mumkin. Yaqinlari do‘stlari bilan ro‘y beradigan nizoli vaziyatlar, qarindoshlarning o‘limi yoki kasalligi fojiali tarzda qabul qilinadi hamda ularda suitsidni o‘zlarida ishlash ro‘y beradi hamda harakatlar ketma ketligi o‘ylab ko‘riladi. Bu tipdagi shaxslar o‘zlarini muvaffaqiyatsizliklari sababi sifatida o‘zlarini emas, balki boshqalarni ayblashadi. Bularda nevrotik depressiya, yurak xuruji, gipertoniyaga moyillik ham kuzatiladi.

2-rasm

Shaxcdagi xarakter aksentutsiyasini turlarini tashxislash metodikasining emotiv tip shkalasi bo‘yicha jins tafovuti natijasi




Rigid tip qizlar va yigit bolardagi tafovut tahlil natijalarida aks etdi (U=-1,957; p<0,05). Bu turdagi o‘smirlar moslashuvchan bo‘lmagan, ko‘pincha o‘zini yuqori baholaydigan odamlar kiradi. Ular doimo o‘zlarini kam baholanayotganliklarini his qilishadi, ular juda sezgir, har doim haq bo‘lishni yaxshi ko‘radilar va kamdan-kam hollarda o‘z e’tiqodlaridan voz kechishadi. Rigid tipi konfliktdagi xatti-harakatlar nuqtai nazaridan eng qiyinlaridan biridir. Ushbu turdagi aksentutsiyaning asosiy xususiyati hissiy hayajon, ehtirosning haddan tashqari qat’iyligi, haddan tashqari baholangan g‘oyalarni shakllantirish tendensiyasi bilan birlashtirilgan. O‘smirlik davrida ularga bolalikdan xos bo‘lgan shubhalilik, xafagarchilik, salbiy tajribalarga qarshilik kuchayadi. Ular balog‘atga yetganlarida, boshqa odamlarning fikrlarini rad etish va natijada nizoli vaziyatlarni yaratadilar.

Qat’iyatcizlik, ziddiyatcizlik va vijdonlilik: ipoxondriya (o‘z cog‘lig‘i uchun acocciz yoki bo‘rttirilgan qo‘rquvni namoyon bo‘lishi, har qanday kacallikning obektiv belgilari bo‘lmaca ham kacallikning mavjudligiga nicbatan qidiruv yoki ishonch) kuzatiladi, ko‘pincha o‘z “men”i ideallarga moc kelmacligidan kuchli qo‘rquv bo‘ladi. O‘rtacha rigidlikning namoyon bo‘lishi foydalidir, ammo uning ko‘pligi noto‘g‘ri moclashishga olib keladi. Rigidlik psixologik moclashuvchanlikning teckaricidir: rigidlik yuqori bo‘lganlar yangi narcalarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu kundalik odatlarga ham (masalan, yangi texnologiyalardan foydalanishni istamaslik, hatto ular hayotlarini sezilarli darajada soddalashtirsa ham), maqsadlariga, dunyoqarashiga va odatiy xatti-harakatlarga ham moslashishga qiynaladilar. Bunday tip o‘smirlarni kutilmagan vaziyatlar qo‘rqitadi va ular oxirigacha ulardan qochishga harakat qiladilar. Rigidlikning uchta asosiy turini ajratib ko‘rsatishimiz maqsadga muvofiqdir: kognitiv - yangi ma’lumot olca-da atrof-muhit haqidagi g‘oyalarini o‘zgartira olmaslik. Ta’circhan: inson uzoq vaqt davomida ma’lum obektlar va vaziyatlarda hissiy jihatdan

"yopishib qoladi", hicciy munosabat har doim ham haqiqiy voqeaga mos kelmaydi. Motivatsion: odamni vaziyat talab qilganda uni faoliyatga undaydigan ichki sabablar tizimini qayta tiklash qiyin.

3-rasm


Shaxsdagi xarakter aksentutsiyasini turlarini tashxislash metodikasining rigid tip shkalasi bo'yicha jins tafovuti natijasi



Namoyishkorona tip o'smir qizlardagi ko'rsatkich natijalari o'g'il bolalarnikidan cezilarli tafovut kuzatildi (U=-3,672; p<0,001). Bu birinchi navbatda, diqqat markazida bo'lish istagi bilan tavsiflanadi, ular har qanday holatda ham ajralib turishga intiladilar. Eng maqbul variant - bu namoyishkoronalik va muvaffaqiyat tufayli ustunlikka intilishidir. Biroq, namoyishkoralik orqali o'smir muvaffaqiyatga va boshqalarning hayratiga erisha olmaca, u calbiy hatti harakatlari bilan e'tiborni jalb qila boshlaydi. Shuningdek, kattalar bunday o'smirga boshqa odamlarning fazilatlarini, yutuqlarini ko'rishga yordam berishlari va boshqalarning muvaffaqiyatlaridan xursand bo'lishni o'rganishlariga yordam berishlari ham muhimdir. Namoyishkoralik bu yoshdagi qizlarda ustunlik qiladi. Tengdoshlari orasida guruh lideri bo'lish, tan olinishga bo'lgan extiyoj bu yoshda to'liq namoyon bo'ladi. O'smir qizlarda aynan shu yoshda o'zlarining his tuyg'ulari, sevgi hislariga nicbatan juda ham og'riqli ehtirosli yondoshadilar. O'zlaridagi kechayotgan bu tuyg'ulari, kechinmalari, iztiroblari uchun hamma narcaga tayyor turadilar hattoki o'zlariga og'riqli jiddiy jarohat yetkazishga, suitsid qilishgacha ham boradilar.

4-rasm

Shaxsdagi xarakter aksentutsiyasini turlarini tashxislash metodikasining nomoyishkor tip shkalasi bo'yicha jins tafovuti natijasi




Sikloid tip o'smir qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan tafovutlar aniqlandi. (U=-2,830; p<0,05). Bunday xulq-atvor ko'pincha o'cmirlik davrining oxiri va erta balog'at yoshida kuzatiladi. Uning o'ziga xos xususiyati – "bir necha haftadan bir necha oygacha" fazadan boshlab kayfiyat va hayotiylikning davriy o'zgarishidir. Ko'tarilish davrida bu tipdagi o'smirlar gipertim tipning xususiyatlari bilan ajralib

turadi, keyin kayfiyatning pasayishi davri boshlanadi, aloqa keskin pasayadi, o‘smir pessimistik bo‘lib, samaradorlikning pasayishi tufayli tez-tez uchraydigan kichik muammolar va muvaffaqiyatsizliklarni boshdan kechirish qiyin bo‘ladi. O‘smir gapga qo‘pollik yoki g‘azab bilan javob berishi mumkin, shundan so‘ng ular yanada tushkunlikka tushishadi. Jiddiy muvaffaqiyatsizliklar va boshqalarning shikoyatlari subdepressiv holatni chuqurlashtirishi va o‘z joniga qasd qilishga urinishlar bilan o‘tkir affektiv reaksiyaga olib kelishi mumkin. Qarindoshlar va o‘qituvchilarning subdepressiv bocqichda bo‘lgan o‘smirga nisbatan maqbul pozitsiyasi - bu ko‘zga tashlanmaydigan g‘amxo‘rlik va e’tibordir.

5-rasm

Shaxsdagi xarakter aksentutsiyasini turlarini tashxislash metodikasining sikloid tip shkalasi bo‘yicha jins tafovuti natijasi



Xulosa. Mazkur tadqiqot yuzasidan amalga oshirilgan nazariy tahlillar, bizni muammo yuzasidan o‘ziga xos ilmiy xulosalarga kelishimizga sababchi bo‘ldi:

1. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlariga shaxsning koping-indikator sifatlari, xarakter aksentuatsiyasi, o‘limga hamda inqirozli vaziyatlarga munosabat va o‘z joniga qasd qilish xavfi kabi omillar asosiy shart-sharoit gavdalanishi va ularning o‘quv va oilaviy faoliyatiga mazkur omillar jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin .

2. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik jihatlarini belgilovchi sifatlar: o‘limga munosabatning destruktivligi, o‘limni qabul qilmaslik, rigidlik, emotiv xususiyatlarning ustunligi va namoyishkorlik kabi psixologik xususiyatlar, ta’sir kuchiga ko‘ra, suitsid oldi xulq-atvor rivojlanishini yanada kuchaytirishi mumkin.

3. Suitsid oldi xulq-atvor shakllanishida qo‘zg‘aluvchanlik, affektivlik, inqirozli vaziyatlar, pessimizm, madaniy to‘siqlar, hayotni qabul qila olmaslik va hayotga nisbatan o‘sishning pastligi kabi sabablar bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

4. Suitsid oldi xulq-atvor yosh oilalar hamda talabalarda tadqiq etilib, ularda bunday xulq-atvorni shakllantirishga imkon beruvchi qo‘zg‘aluvchanlik, distimlik, sikloidlik, emotivlik, rigidlik, mas’uliyatsizlik, muammodan qochish, inqirozli vaziyatlar, xavotirlanuvchanlik, namoyishkorlik va affektivlik kabi xarakter aksentuatsiyasi sifatlari, kuchli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Аванесов С.С. Философия суицида. Тамбов, 2004. – 148 с.
2. Дюркгейм Э. Ценностные и реальные суждения. / Пер с фр. // Социологические исследования. - 2011. - №2. – С.46-54.
3. Ефремов В.С. Основы суицидологии. - СПб., 2004. – 479 с.
4. Розанов В.А. Самоубийства среди детей и подростков – что происходит и в чем причина? // Суицидология. – 2014. –Том 5, №4. – С.16-31.
5. Ушакова Е.С. Суицидальный риск: социологический анализ. Дисс... канд. соц. наук. СПб, 2010. – 128 с.
6. Шопенгауэр А. Мир как воля и представление. М.: Московский клуб, вт. Изд.2007. – 396 с.

Кадыров Камолиддин Батырович
доктор психологических наук (DSc), профессор, заведующий кафедрой «Педагогика и психология» Ташкентсткого университета социальной инновации

Каланходжаева Камила Ботирходжаевна
студент докторантуры Национального университета Узбекистана

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У СТУДЕНТОВ С СООТНОШЕНИЕМ СИГНАЛЬНЫХ СИСТЕМ

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования взаимосвязи эмоционального интеллекта у студентов с соотношением сигнальных систем. Приведены результаты эмпирического исследования на выборке, которую составили 340 респондентов (241 девушек и 99 юношей), с разных направлений образования. В соответствии с целью исследования были использованы следующие методики: Опросник Эмоционального интеллекта (ЭмИн) Люсина Д.В., Опросник диагностики соотношений двух сигнальных систем Кадырова Б.Р. В результате корреляционного анализа по критерию Спирмена между шкалами сигнальных систем и компонентами эмоционального интеллекта была обнаружена взаимосвязь, однако было выявлено, что вторая сигнальная система в большей степени связана с компонентами эмоционального интеллекта. При этом если саморегуляция, аналитическое мышление, воля и самооценка положительно связаны с проявлениями эмоционального интеллекта, то выраженность таких качеств как эмоциональность, воображение и тревожность являются негативными последствиями низкого уровня эмоционального интеллекта.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, первая сигнальная система, вторая сигнальная система, нервная система, психическая деятельность.*

TALABALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING SIGNAL TIZIMLARNING ALOQASI BILAN ALOQASINI O‘RGANISh

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarda emotsional intellekt va signal tizimlari namoyon bo‘lishi orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganish natijalari taqdim etilgan. Turli ta’lim yo‘nalishlaridan 340 nafar talaba (241 nafar qizlar va 99 nafar yigitlar) ishtirokidagi empirik tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi metodikalardan foydalanilgan: D.V.Lyusinning emotsional intellekt (EmIn) so‘rovnomasi, B.R.Qodirovning ikki signal tizimi namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash metodikasi. Spirmen korrelyatsiyasi mezoni yordamida amalga oshirilgan tahlil natijasida signal tizimlariga oid shkalalar va emotsional intellektning tarkibiy komponentlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan, biroq ikkinchi signal tizimi emotsional intellektning tarkibiy komponentlari bilan ko‘proq bog‘liq ekanligi ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, agar o‘zini nazorat qilish, tahliliy fikrlash, iroda va o‘zini baholash bilan emotsional intellekt orasida musbat bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan bo‘lsa, emotsionallik, xayol va xavotirlanish kabi sifatlarning yuqori darajada namoyon bo‘lishi past darajadagi emotsional intellektning salbiy oqibatlari ekanligi dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, birinchi signal tizimi, ikkinchi signal tizimi, asab tizimi, psixik faoliyat.*

STUDY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN EMOTIONAL INTELLIGENCE IN STUDENTS AND THE RELATIONSHIP OF SIGNAL SYSTEMS

Abstract. *The article presents the results of the research of relationship between emotional intelligence of students and the ratio of signal systems. The results of an empirical study on a sample of 340 respondents (241 females and 99 males) from different branches of education are presented. In accordance with the purpose of the study, the following methods were used: Emotional Intelligence Questionnaire (EmIn) by D.Lusin, Questionnaire for Diagnostics of the ratio of Two Signal Systems by B. Kadirov. As a result of the correlation analysis according to the Spearman criterion, a relationship was found between the scales of signal systems and components of emotional intelligence, but it was found that the*

second signal system is more associated with the components of emotional intelligence. At the same time, if self-regulation, analytical thinking, will and self-esteem are positively associated with components of emotional intelligence, then the expression of such qualities as emotionality, imagination and anxiety are negative consequences of a low level of emotional intelligence.

Keywords: *emotional intelligence, first signal system, second signal system, nervous system, mental activity.*

Введение. Проблема эмоционального интеллекта является чрезвычайно актуальной на сегодняшний день. Изучение данного феномена имеет большую теоретическую и практическую значимость, т.к. в повседневной жизни эмоции порой играют решающую роль в характере межличностных отношений, принятии важных решений. Поэтому умение понимать, воспринимать и регулировать эмоции, как свои, так и окружающих людей, является ключевым фактором успешности межличностных взаимоотношений. Термин «эмоциональный интеллект» берет свое начало с 1990 г., когда два американских профессора Дж. Мейер и П. Сэловей определили его как способность воспринимать и выражать эмоции, ассимилировать эмоции и мысли, понимать и объяснять эмоции, а также регулировать эмоции (свои собственные и других людей) [2]. По мнению авторов, эмоциональный интеллект – это не триумф разума над чувствами, а уникальная взаимосвязь когнитивной и аффективной сфер, позволяющая эффективно разрешать жизненные задачи [4].

Учитывая, что эмоциональные характеристики обусловлены рядом биологических предпосылок, для нас представляет интерес взаимосвязь эмоционального интеллекта с компонентами двух сигнальных систем, что является **целью** нашего исследования. Так как первая и вторая сигнальные системы характеризуются работой нервной системы и связанной с ним психической деятельностью, что, в свою очередь, может прямо или косвенно может влиять также и на проявление эмоционального интеллекта у личности [1, 3].

Методы. В рамках рассматриваемой темы было проведено эмпирическое исследование, в котором приняли участие студенты 1-4 курсов в количестве 340 человек (241 девушек и 99 юношей), обучающихся по разным направлениям профессионального обучения. Из них с Национального университета Узбекистана им. Мирзо-Улугбека – 54 человека; с Ташкентского педиатрического медицинского института – 79 человек; с Государственного института искусства и культуры Узбекистана – 39 человек; с Национального Института искусства и дизайна им. К. Бехзода – 56 человек; с филиала МГУ имени М. В. Ломоносова в г. Ташкенте – 60 человек; с Ташкентского Государственного университета востоковедения – 52 человека.

Поставленная задача решалась путем использования следующих методик: Опросник Эмоционального интеллекта (ЭмИн) Люсина Д.В., включающий в себя пять субшкал, которые, в свою очередь, объединяются в четыре шкалы более общего порядка: Шкала МЭИ (межличностный ЭИ), шкала ВЭИ (внутриличностный ЭИ), шкала ПЭ (понимание эмоций), шкала УЭ (управление эмоциями), субшкала МП (понимание чужих эмоций) , субшкала МУ (управление чужими эмоциями), субшкала ВП (понимание своих эмоций), субшкала ВУ (управление своими эмоциями), субшкала ВЭ (контроль экспрессии). Также опросник диагностики соотношений двух сигнальных систем Кадырова Б.Р., который выявляется по следующим показателям: 1) динамических особенностей (активности и саморегуляции); 2) эмоциональности и воли; 3) процессов — памяти, воображения, мышления. Рассчитывался также суммарный показатель выраженности первой, второй сигнальной системы и их соотношение в виде «коэффициента сигнальности». Для статистической обработки данных использовали критерии r Спирмена.

Результаты исследования и их обсуждение. По результатам корреляционного анализа по критерию Спирмена между шкалами первой сигнальной системы и компонентами эмоционального интеллекта была обнаружена отрицательная корреляционная связь между шкалами «Общительность» и такими компонентами эмоционального интеллекта, как «Понимание чужих эмоций» ($r=-0,296$, $p<0.01$), «Управление чужими эмоциями» ($r=-0,348$, $p<0.01$), «Управление своими эмоциями»
($r=-0,236$, $p<0.01$), «Межличностный эмоциональный интеллект» ($r=-0,363$, $p<0.01$), «Понимание эмоций» ($r=-0,198$, $p<0.01$), «Управление эмоциями» ($r=-0,255$, $p<0.01$), «Общий уровень эмоционального интеллекта» ($r=-0,252$, $p<0.01$).

Прежде, чем приступить к интерпретации результатов корреляционного анализа, необходимо отметить, что для всех шкал методики соотношения двух сигнальных систем Кадырова Б.Р. применяется своего рода обратное шкалирование, т.е. более низкие баллы по шкалам означают

Третья фаза (фаза вербализации интуитивного решения) – вдохновение (в сферу сознания поступает идея решения, первоначально в гипотетическом виде, в виде принципа, замысла). Интуитивное решение проблемы на предыдущей стадии творческого процесса осуществляется неосознанно. Осознан только результат (факт) решения. На стадии вербализации интуитивного решения осуществляется объяснение способа решения и его вербальное оформление. Основой осознания результата и способа решения проблемы является включение человека в процесс взаимодействия (коммуникации) с любым другим человеком. Этот этап чаще всего квалифицируется как кульминационный пункт решения, как его центральное звено, как своеобразный скачок, т.е. решающий переход от того, что видно, к тому, что отсутствует. Я.А. Пономарев отмечает, что этот этап трактуется как путь нисхождения от фактов к гипотезе, от непосредственного созерцания к абстрактному, от известного к неизвестному, от восприятия к собственно мыслительному аспекту решения; как путь, ведущий к открытию принципа, связывающего разносторонне представленные в проблеме факты в единое целое, подготавливающего вскрытие понятия, охватывающего все многообразие фактов проблемы.

Четвертая фаза (фаза формализации вербализованного решения) – развитие идеи, ее окончательная оформление и проверка решения задачи средствами практики. На этой стадии формулируется задача логического оформления способа решения новой задачи. Процесс формализации решения происходит на сознательном уровне.

К основным чертам творческого акта большинство исследователей относят бессознательность, спонтанность, не подконтрольность разуму и воле. Известный ученый психолог и педагог А.И. Савенков отмечает, что в творческом акте, в какой бы сфере он не протекал – художественной, практической или даже научной, бессознательному отводится особая, доминирующая роль. В процессе деятельности творчество разворачивается как непроизвольная активность психики, и человек оказывается совершенно неспособным управлять потоком образов, идей, ассоциаций. На долю разума или сознания в творчестве остается только обработка, придание

законченной социально приемлемой формы продуктам творчества, отбрасывание лишнего и детализация. Сознание (сознательный субъект) в эти моменты пассивно и лишь воспринимает творческий продукт как результат творчества [8].

Креативность понимается как общая способность к творчеству (от лат. Creation – созидание). Креативность – это способность человека порождать идеи, находить оригинальные решения. Один из основоположников гуманистической психологии (США) К. Роджерс понимает под креативностью способность обнаруживать новые способы решения проблем. По его мнению, креативность – это интегральная творческая способность человека [1].

Креативность понимается как общая способность к творчеству (от лат. Creation – созидание).

Существуют различные определения креативности, в которых акцент делается на:

▪ продукты, создаваемые благодаря ей: креативность как способность порождать нечто новое, необычное, оригинальное;

▪ процессы: креативность как особая разновидность творческого мышления, высокоразвитое воображение, эстетическое мировосприятие и т.д.

▪ личностные качества: креативность как открытость к новому жизненному опыту, независимость гибкость, динамичность, оригинальность, самобытность личности;

▪ внешние условия: креативность как способность продуктивно действовать в ситуациях с высокой степенью неопределенности, где отсутствуют заранее известные алгоритмы, гарантированно ведущие к успеху.

Одной из теорий мотивации творческой активности человека может выступать теория мотивация достижений. Сущностью данного вида мотивации является потребность человека добиваться совершенства в определенном виде деятельности. В соответствии с этой теорией индивиды с выраженной потребностью к достижениям избирают для себя такой стиль поведения, который позволяет им добиваться значительных успехов. Наблюдение за поведением лиц с выраженной мотивацией на достижения показывает, что они склонны к инновациям и выбору нестандартных вариантов при принятии решений. Такие люди представляют собой ценное достояние организации. К сожалению, как показывают данные исследований, слой таких людей не превышает 10 % от количества работников, занятых в производстве. Управление такими людьми имеет ту особенность, что побудительным стимулом для них выступает не материальное вознаграждение, а сам процесс достижения цели.

Исследователи выделяют следующие психологические особенности креативной личности:

1. Наблюдательность (особенности восприятия);
2. Интуитивность (способности к интуитивным решениям);
3. Способность к преобразованиям (является одной из основных динамических характеристик креативности);
4. Способность к прогнозированию;
5. Ассоциативность (легкость ассоциирования, сближения понятий);
6. Чувство комического (юмора);
7. Способность к импровизации;
8. Широкий фокус внимания.

Е.П. Ильин [7], опираясь на исследования Ч. Ломброзо, П. Торренса, Л.Б. Ермолаевой-Томиной и других ученых, отметил следующие особенности творчески одаренных людей:

1. Впечатлительность и вдохновение;
2. Высокое самомнение и тщеславие;
3. Влюбчивость;
4. Стремление к доминированию;
5. Оптимизм;
6. Способность сопротивляться эффекту «атмосферы»;
7. Гибкость мышления;
8. Независимость, самостоятельность, отсутствие конформности;
9. Устремленность к определенному виду деятельности, способность к саморегуляции;
10. Эстетическая чувствительность (способность к восприятию красоты;
11. Эстетическая эмпатия;
12. Чувство формы и стиля (чувство гармонии, красоты;
13. Потребность в совершенстве продуктов своей деятельности;

14. Самонадеянность, самодовольство, непризнание социальных ограничений;

15. Склонность к риску.

Нравственные качества: стремление к нравственному самосовершенствованию; толерантность; нравственная культура.

Гражданские качества: социальная активность; способность отстаивать свои права; демократизм; гражданское мужество.

Интеллектуальные и деловые качества: креативность, творческий подход к делу; компетентность и профессионализм; системность и критичность мышления; прогностичность мышления.

Особенности характера и поведения: направленность на созидательную творческую деятельность; способность ставить и решать все более сложные задачи и проблемы; участие в реальных инновационных процессах и творческих проектах; трудолюбие; способность начатое дело доводить до конца.

«Само» – способности и «само» – процессы: ясная, глубоко продуманная «Я – концепция» творческого саморазвития; творчески самоопределившаяся или активно самоопределяющаяся личность; способности к самоуправлению; способности к самосовершенствованию, личному и профессиональному росту; способности к творческой самореализации.

Думается, что эти качества должны быть присущи каждому студенту или специалисту.

Таким образом, кроме креативности и направленности (мотивационной сферы), творчески одаренного человека отличает целый ряд качеств, характеризующих его отношение к делу, к себе и к другим людям, склонности, интеллектуальные, эмоциональные и волевые черты характера, нравственные, познавательные, эстетические и другие качества. По существу, они охватывают всю психологическую структуру личности и проявляются как индивидуальные неповторимые особенности человека. Формирование и развитие этих качеств у обучающихся становится целью общего и профессионального образования.

Литература.

1. Абдурахмонов Г.Н. Социокультурные особенности развития компонентов креативности у младших школьников (на примере российских и таджикских школьников) [Электронный ресурс] // Психологическая наука и образование PSYEDU.ru. 2015. Т. 7. №

2. URL: http://psyedu.ru/journal/2015/2/Abdurakhmonov.phtml(дата обращения: 10.09.2017).

3. Sharipov F.V. O‘QUVCHILAR IJODLIGINI RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASKTLARI // Zamonaviy tabiatshunoslik yutuqlari. – 2014. – No 10. – B. 61-70;

4. Абдурахмонов Г.Н. Социокультурные особенности развития компонентов креативности у младших школьников (на примере российских и таджикских школьников) [Электронный ресурс] // Психологическая наука и образование PSYEDU.ru. 2015. Т. 7. № 2. URL: http://psyedu.ru/journal/2015/2/Abdurakhmonov.phtml(дата обращения: 10.09.2017). Портал психологических изданий PsyJournals.ru — https://psyjournals.ru/journals/psyedu/archive/2017_n4/Shumakova [Особенности креативности в подростковом возрасте // Психолого-педагогические исследования — 2017. Том 9. № 4].

5.Щебланова Е.И., Шумакова Н.Б. Выявление и развитие общей одаренности детей в школьном обучении // Век психологии. К 100-летию сихологического института Российской академии образования. 1912-2012 / Под ред. В.В.Рубцова. СПб.: Нестор-История, 2012. С. 819−834.

6. Массен П., Конгер Дж., Каган Дж., Хьюстона. Развитие личности ребенка: Пер. с англ. — М.: Прогресс, 1987. — 272 с.

7. Дружинин, В. Н. Психология общих способностей [Текст] / В.Н. Дружинин. — 3-е изд. — СПб. : Питер, 2007. — 358 с.

8. Выготский, Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. Психологический очерк: Кн. для учителя. М: Просвещение,1991.

9. Занковский, А. И. Формирование творческих способностей: сущность, условия, эффективность // Сб. науч. тр. Свердловск: СИПИ,1990. С. 28.

10. Рустамов, Ш.Ш. (2022). Корреляционный анализ пример по психологии. Корреляции в психологии. Science and Education, 3(3), 1100-1106.

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Mambetiyarov Nauriz Saparbayevich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

YOSH FUTBOLCHILARGA HIMOYAVIY TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARNI O‘RGATISHDA QO‘LLANILADIGAN USLUBLARNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh futbolchilarga himoyaviy texnik-taktik harakatlarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan uslublarning o’ziga xos xususiyatlari o’rganilgan bo’lib, malakali futbolchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirishda ko’pgina mutaxassislarning ilmiy-amaliy ko’rsatma va tavsiyalari tahlil qilingan. Shuningdek yosh futbolchilarni maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini baholashda nazorat me’yorlari tuzilgan.*

Kalit so’zlar: *individuallik, taktik tayyorgarlik, qobiliyat, gimnastika, psixosomatika, layoqat, psixofiziologiya temperament, faoliyat, sog’lomlashtirish, layoqat, optimallashtirish.*

ОСОБЕННОСТИ ПРИЕМОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ ЗАЩИТНЫМ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИМ ДЕЙСТВИЯМ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены особенности методик, применяемых при обучении юных футболистов защитным технико-тактическим действиям, проанализированы научно – практические рекомендации и рекомендации большинства специалистов по повышению физической подготовленности квалифицированных футболистов. Также установлены нормы контроля при оценке уровня специальной физической подготовки юных футболистов.*

Ключевые слова: *индивидуальность, тактическая подготовка, способности, гимнастика, психосоматика, одаренность, психофизиология темперамент, активность, оздоровление, одаренность, оптимизация.*

DISTINCTIVE FEATURES OF THE TECHNIQUES USED IN TEACHING DEFENSIVE TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS TO YOUNG PLAYERS

Annotation. *This article explores the peculiarities of the techniques used to teach defensive technical and tactical actions to young players, analyzing the scientific and practical instructions and recommendations of many specialists in improving the physical fitness of qualified players. Control standards are also established when assessing the level of special physical fitness of young players.*

Keywords: *individuality, tactical training, ability, gymnastics, psychosomatics, competence, psychophysiology temperament, activity, wellness, competence, optimization.*

Kirish. O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach barcha sohalar kabi jismoniytarbiya va sport ham tamomila yangicha maqom yo‘nalishida shakllanib, yuksakcho‘qqi sari qanot yozmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning2017 yil 3 iyundagi “Ommaviy sportni va jismoniy madaniyatni yanadarivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori hamda futbol, kurash, tennisvaboshqa sport turlarini rivojlantirish to‘g‘risidagi Prezident Farmoni, 2018yil 16martdagi PQ - 3610-sonli “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2019 yil 4 dekabrdagi PF-5887-sonli “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutloq yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5282 sonli “Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va “Warkout” sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari qabul qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. malakali futbolchilarni tayyorgarligini oshirishda ko’pgina mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Mutaxassislar futbolchilarning maydonda o’ta samarali tarzda o’yin ko’rsatishlari uchun mashg’ulot o’tish jarayonini, nazariy va uslubiy to’g’ri yondoshish kerakligini ta’kidlashadi. R.Akromov (2000) o’zining ilmiy ishlarida futbolchilarning samarali o’ynashlari uchun musobaqaga tayyorgarlik ko’rishdagi har bir bosqichida(tayyorlov, umum, maxsus) jismoniy, texnik-taktik sifatlarni to’g’ri taqsimlanishi kerakligini e’tirof etadi.

Pagiev B.V. (1979) sport o'yinlarida doimo tezkor-kuch sifatlarning yuqori darajada bo'lishi kerakligini muhim deb biladi. Uning fikricha, jamoaviy o'yinda raqib bilan to'p uchun kurashda sakrovchanlik, kuch, tezlik, mohirona bajarila olsagina raqibdan ustun bo'la olish mumkin. Buning uchun esa tezkor-kuch sifatning mukammal darajada bo'lishi muhimdir.

Chanadi A.D. (1978) tadqiqot ishlari bo'yicha futbolchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik darajalari doimo yuqori bo'lishi, u futbol o'yinidagi vaziyatlardan jismoniy texnik-taktik sifatlarining bog'liqligi natijasi orqaligina chiqib ketishini ta'kidlaydi. A.D.Chanadi futbolchilarning musobaqa faoliyatlarini tahlil natijalariga ko'ra, maydonda yarim himoyachining o'yin funktsiyasini eng murakkab bo'lishini bildirgan. Texnik-taktik tayyorgarlik bo'yicha hujumdagi individual, guruhli harakatlarni mashg'ulotlarda jismoniy sifatlarga bog'lab o'tilishini A.D.CHanadi (1978), V.A.Lobanovskiy (1983), R.Akromov(1989)o'zlarining ilmiy ishlarida asoslab berishgan.

Tahlil va munozaralar. Futbol jamoalarida mashg'ulotlar butun yil davomida o'tkazilishi siklik xarakterga ega bo'ladi.

Mashg'ulotlarning yillik tsikli uch davrga:

- ✓ tayyorgarlik,
- ✓ musobaqa,
- ✓ o'tish davriga bo'linadi.

Tayyorgarlik davri ikki bosqichga – umumiy va maxsus tayyorgarlik bosqichlariga bo'linadi. Umumiy tayyorgarlik bosqichida asosiy e'tibor futbolchilarning har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rinishlariga qaratiladi. Bu bosqichdagi trenirovkaning asosiy normalari xilma-xil yo'nalishdagi maxsus umumiy va individual mashg'ulotlardan iborat bo'lib, bunda jismoniy tayyorgarlikka katta e'tibor beriladi. Tezlikni rivojlantirishga oid mashqlar, jumladan takroriy yugurish kichik-kichik qismlarga bo'linib bajariladi. Mashg'ulotlarda, kuchni, chidamlilikni chaqqonlik sifatlari bilan kompleks tarzda beriladi. Maxsus tayyorgarlik bosqichida bevosita musobaqalarga tayyorlanishishlari amalga oshiriladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik, jumladan tezlik-kuchni rivojlantirishga oid tayyorgarlik ishlari, bu bosqichdagi tayyorgarlik ishlarida yetakchi o'rinni egallaydi. Harakat ko'nikmalarini murakkablashtirilgan va o'yin sharoitlariga moslashishga ko'p vaqt ajratiladi, bajarilayotgan mashqlar yanada jadallashadi. Mashg'ulotning umumiy tayyorgarlik bosqichiga nisbatan chaqqonlikni rivojlantirish mashqlarining soni kamaytiriladi.

Ular ko'proq xilma-xil sakrashlar, o'yinlar va o'yin mashqlari ko'rinishida beriladi. Nazorat testlar bajariladi, bu bilan tayyorgarlik davridagi o'quv-mashg'ulot ishlari yakunlanadi. Musobaqa davrida musobaqalarda qatnashish va ularga tayyorlanish asosiy o'rinni egallaydi.

Texnik usullarni samarali bajarish asosini mushaklar ichidagi va mushaklar o‘rtasidagi koordinatsiya jarayonlari yoki koordinatsion qobiliyat tashkil qiladi. O‘yinchilarning o‘rgatilishi, ayniqsa futbol texnikasida yosh futbolchilarning o‘rganitilishi unga bog‘liq hisoblanadi. Koordinatsion qobiliyatlari yaxshi darajada rivojlanmagan holatda futbolchi professional darajaga erisha olishi mumkin emas.

Mahoratli o‘yinchilar jamoasiga taklif qilingan yosh futbolchilarning (17-19yosh) 92% qismining jismoniy jihatdan tayyorgarlik darajasi yuqori darajasiga ega bo‘lgan o‘yinchilarning model sifatidagi ko‘rsatkichlariga mos kelishi qayd qilinadi. Bunda musobaqalarda texnik-taktik harakatlarni bajarish son miqdori va sifati bilan o‘yinchilarning jismoniy tayyorgarligi integral darajasi o‘sishi o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi qayd qilingan. Olingan natijalar jismoniy tayyorgarlikning futbolchilar mahoratining boshqa tomonlari (texnika, taktika va boshqalar) bilan musbat bog‘liqligi mavjudligini tasdiqlaydi, bu holat proportsional bog‘liqlik ko‘rinishida emas, balki texnik-taktik imkoniyatning musobaqa sharoitida ro‘yobga oshirilishi darajasi orqali ifodalanishi kuzatiladi. Shunday qilib, futbolchilarning musobaqalardagi samaradorligi jismoniy tayyorgarlikning tezkor-kuchga oid komponentlari rivojlanish darajasiga, shuningdek 90 daqiqalik o‘yin vaqti davomida charchashga qarshi tura olish qobiliyati darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Musobaqalarda futbolchilarning samaralio‘yini jismoniy tayyorgarlik darajasining yuqori bo‘lishi muhimligi tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan.

Jismoniy tayyorgarlikning maqsadi – umumiy va maxsus tayyorgarlikning yuqori darajada bo‘lishini ta’minlovchi, organizmning funksional darajasini oshirish, harakat sifatlarini rivojlantirish, shuningdek musobaqa faoliyati sharoitida jismoniy sifatlarning maksimal darajada namoyon bo‘lishiga qodirlikni rivojlantirishdan tashkil topadi. Jismoniy tayyorgarlik – bu uzoq davomiylikdagi, futbolchilarning yuqori darajada tayyorgarligiga erishishga yo‘naltirilgan jarayon hisoblanadi. Jismoniy tayyorgarlikning bu darajasi o‘yin talablariga mos kelishi kerak. Masalan, agar samarali o‘yin uchun futbolchilar bir uchrashuv davomida 10-12 km masofanibosib o‘tishni talab qilsa, bundan 1,5-2 km dan kam bo‘lmagan masofa maksimal quvvatdan kam bo‘lmagan qiymatda bosib o‘tilsa, u holda barcha

turdagi chidamlilik va tezlik-kuch sifatlarining rivojlanishi darajasi unga har bir o‘yinda ushbu darajada chiqish qilish imkonini berishi talab qilinadi.

Agar, yuqorida keltirilganlarning barchasini yig‘indi ko‘rinishida umumlashtirsak, u holda ularning nisbatan eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatibo‘tish mumkin:

1. Umumiy va ixtisoslashtirilgan jismoniy tayyorgarlikning bir butun yagonaligi;
2. Futbolchilarning musobaqa o‘yinlarida va mashg‘ulotlar mashqlarida jismoniy sifatlar namoyon bo‘lishining bir butun yagonaligi;
3. Musobaqa o‘yinlarida va ma’lum bir aniq mashg‘ulotda jismoniy sifatlarning maksimal darajada namoyon bo‘lishiga yo‘naltirilishi;
4. Jismoniy tayyorgarlik jarayonining uzluksizligi;
5. Mashg‘ulotlar yuklamalarining variativ holatda o‘zgarishi;
6. Jismoniy tayyorgarlik jarayoni usullari va vositalarining o‘ylangan holatda individuallashtirilishi;
7. Jismoniy tayyorgarlik jarayonining siklik tavsifga egaligi va tipiga oidmashg‘ulotlarning bir qator sikllaridan foydalanish.

Futbolchilarda kuch va tezlikni rivojlantirishning eng ratsional vositasi–yengiluvchi – yenguvchi tavsifdagi kombinatsiyalangan dinamik ish hisoblanadi. Tezkorlikni rivojlantirish. Tezkorlik deganda odamni qisqavaqt Ichida xarakat bajarish qobiliyati tushuniladi.

Tezkorlik namoyon bulishining 4 xil shakli farqlanadi:

- reaktsiya vaqti. - yakka harakatlanish vaqti.
- harakatlarning maksimal tezligi.
- harakatni boshlanish tezligi

Insonning murakkab harakat jarayonidagi tezkorligi shu xislatning va boshqa omillar (qadam uzunligi, itarilish kuchi)ning namoyon bo’lishiga bog’liqdir. Tadqiqotlar ko’rsatishicha, futbolchilarning tezlik xislatlari quyidagilardan tashkil topadi:

1) Oddiy vaziyatdagi start tezligi.
2) Murakkab vaziyatdagi start tezligi.
3) Startda yugurish tezligi.
4) Mutloq tezlik.
5) Siltanuvchan – tormozlanish harakatlari tezligi.
6) Texnik usulni bajarish tezligi.
7) Bir harakatdan ikkinchi harakatga o’tish tezligi.

Zamonaviy futbolda yaxshi natijaga erishishda bir kator xarakatlarni samarali qo’llanilishi bilan xam ifodalanadi. Bular:

- maksimal tezlikda xarakatlarni bajarish;
- to’pni kiyin va kattik ta’kib ostida kabul kilish va uzatish;
- yukoridagi to’plarga buladigan baxslarda, yukori sakrovchanlikkobiliyatiga ega bulishlardir.

Yosh futbolchilarni maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini baholashda nazorat me’yorlari.

№	Mashqlar	Baxo		
		A’lo	Yaxshi	Qoniqarli
1.	30 mga yugurish	4,3	4,4	4,5
2.	400 mga yugurish	61,0	62,0	63,0
3.	Turgan joydan uzunlikka sakrash	240	230	220
4.	Uzok masofaga sakrash	80	75	70
5.	To’p olib yurish va darvozaga yakunlovchi zarbani berish	8,7	8,8	8,9

Futbolchini tayyorgarligida integral ko’rsatkich bo’lib, sport natijasi hisoblanadi va u texnik-taktik xarakatlarni samarali bajarilishi maxsus jismoniy tayyorgarligi va boshqa bir olimlarga boglik bo’ladi. Shu munosabat bilan nazariya va amaliyotlar maxsus jismoniy tarbiya va texnik tayyorgarlik darajasi orasidagi o’zaro bog’liqlikni o’rganish ahamiyatlidir.

Tezlik-kuch sifatlarini yaxshi rivojlanganligida futbolchilar yuqoridagi(xavoda) to’p uchun bo’ladigan bahslarda ko’prok ijobiy natijalarga erishishadi. Buni futbolchini qanchalik yuqoriga sakray olishii va shu bilan havoda to’p uchun kurashda ko’prok yutib chiqish ehtimoli bilan izoxlasa bo’ladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot ishi shuni takidlaydiki, yosh futbolchilarni musobaqa faoliyati natijalarini yukori bulishida, asosiy xal qiluvchilar bilan yuqori texnik va maxsus jismoniy tayyorgarliklar xisoblanadi. Bu o'z navbatida yosh futbolchilarni tayyorlaydigan murabbiylarga, o'quv-mashgulot jarayonlarida kompleks tayyorgarlikka e'tibor berishni taqozo etadi.

Musobaqa faoliyati kuzatilgan, yosh futbolchilarga nisbatan quyidagilar xarakterli bo'lgan;

- texnik-taktik harakatni har taraflamaligini yetarli bo'lmaganligidir;
- maqsadsiz to'pni olib yurish va raqibni aldab o'tishlarni o'rinsizqo'llash va shu bilan jamoani hujumdagi harakatlarini syokinlashtirishgaolibborish;
- o'yinchilarni pozitsiyani to'g'ri tanlay olmasligi;
- hujum harakatlarini samarasiz yakunlash;

«Individual texnik-taktik harakatlar qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik g'alabaga bo'lgan imkon ko'payadi» - deya, ta'kidlaydi I.A.Koshbaxtiev. U o'yinchilar o'yin davomida 100 dan ortiq, texnik-taktik harakatlarni bajarishni va samaradorlik koeffitsienti shunda 0,75% dan kam bo'lmasligini tavsiya etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Ommaviy sportni va jismoniy madaniyatni yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2017 yil 3 iyundagi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” – 2017.
3. Sh. Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2016 .
4. ГоломазовС.В., Чирва Б.Г. Москва. “Методика тренировки техникеигрыголовой”. 2001.
5. ГоломазовС.В., Чирва Б.Г. Москва. “Методика тренировки техникеигрыголовой”. 2001.
6. Елмуратова, А. (2022). Изучение морального самосознания студентов будущих спортивных педагогов. In Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования (pp. 522-524).
7. Arzimbetov, T. (2023). Sport jamoalariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(11), 24-25.
8. Jalgasbaevich, J. T. (2023). Emotional stability in athletes as the basis of a special psychological preparation process. epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(7), 143-146.

Erejepov Islam Yusupovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi o’qituvchisi

JISMONIY MADANIYAT VA OMMAVIY SPORT HARAKATINI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy madaniyat va ommaviy sport harakatini tashkil qilish va boshqarish xususiyatlari hamda jismoniy tarbiya umummadaniyatning tarkibiy qismi haqida ilmiy munozaralar olib borilgan. Bundan tashqari jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasini takomillashtirish ularning yosh avlodni jismonan barkamol inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyatini haqida so’z boradi.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, sport, ta’lim-tarbiya, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, individuallik, sport o’yinlari, faoliyat, intellektual salohiyat, individuallik, jismoniy mashg’ulot.*

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЯ ФИЗКУЛЬТУРНО-МАССОВЫМ СПОРТИВНЫМ ДВИЖЕНИЕМ

Аннотация. *В данной статье дана научная дискуссия об особенностях организации и управления движением физической культуры и массового спорта, а также о том, является ли физическое воспитание составной частью общей культуры. Кроме того, совершенствование теории и методики физического воспитания говорит об их значении в воспитании подрастающего поколения как физически совершенного человека.*

Ключевые слова: *физкультура, спорт, воспитание, умственное воспитание, эстетическое воспитание, трудовое воспитание, индивидуальность, спортивные игры, деятельность, интеллектуальный потенциал, индивидуальность, физическая активность.*

FEATURES OF THE ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF PHYSICAL CULTURE AND MASS SPORTS MOVEMENT

Annotation. *This article presents a scientific discussion about the features of the organization and management of physical culture and mass sports movement, and about the component of the universal culture of physical education. In addition, the improvement of the theory and methodology of Physical Education talks about their importance in educating the younger generation as a physically fit person.*

Key words: *physical education, sports, education, mental education, aesthetic individuality, sports games, activity, intellectual potential, individuality, physical activity.*

Kirish. Ma’lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funksiyalarning takomillashtirishi va sog‘lomlashtirishga olib keladi. Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta’minlamoqda. Turli sohalarda yo‘lga qo‘yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a’zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat’iyat ko‘rsatishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3610-son qaroriga muvofiq, institutda talaba-yoshlarni futbolga keng jalb qilish va uning ommaviyligini oshirish,

ular o‘rtasida o‘tkaziladigan sport musobaqalarning muntazamligini ta’minlash vazifalari keng miqyosda amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Biz jismoniy madaniyat va uning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati haqidagi muloqat va mulohazalarga kirishishdan oldin jismoniy madaniyat va u bilan bog‘liq asosiy tushunchalarga to‘xtalib o‘tishimiz zarur. Jismoniy madaniyat hozirda eng muhim ijtimoiy hodisa sifatida kishilar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati (JMNU) va u bilan bog‘liq bilimlarning vujudga kelishi hamda rivojlanishini eng qadimgi davrlarga bog‘lash mumkin. Dastlab, u halq og‘zaki ijodi namunalarida (Alpomish, Go‘rug‘li va boshqa halq dostonlari) tilga olingan bo‘lsada, u keyinchalik Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Pahlavon Maxmud va boshqa ko‘pgina sharq mutafakkirlarining asarlarida uchraydi. Ular JMNU ni inson hayotidagi ahamiyati, uni shaxsni shaklantirishdagi o‘rni masalalariga keng to‘xtalgan. Shuningdek, “Temurnoma”, “Temur tuzuklari”, “Boburnoma” kabi asarlarda ham jangchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularni qo‘rqmas, kuchli, chidamli, halq himoyasiga doimo tayyor turish kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalash vositasi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. JMNU ni vujudga kelishi va rivojlanish manbalariga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: - ijtimoiy hayot amaliyoti.

Jamiyatning jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishi yuqori bo‘lgan kishilarga ehtiyoji jismoniy madaniyat qonuniyatlarni bilishga intilishni yuzaga keltirdi.

- jismoniy tarbiya amaliyoti. Faqat jismoniy tarbiya jarayonidagina jismoniy madaniyatning hayot uchun zarurligi, u yuzasidan nazariy bilimlarni yanada rivojlantirish, yangi-yangi usullar va qonuniyatlar izlab topish, sinab ko‘rish imkoniyatlari bo‘ladi.

- faylasuflar, tarbiyachilar, tibbiyot olimlari tomonidan har tomonlama uyg‘un shakllangan shaxsni tarbiyalash to‘g‘risidagi ilg‘or g‘oyalarning mazmuni va vositalari. - shaxs jismoniy kamoloti yuzasidan davlat va jamiyatning g‘amxo‘rligi. - mamlakatda jismoniy madaniyatni rivojlantirish va kishilarni sog‘lom turmush tarzini kechirish yuzasidan qabul qilingan qonunlar va qarorlar.

- jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa o‘zaro aloqadorlikdagi fanlar bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari va ularning natijalari jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyatini vujudga kelishiga turtki bo‘lgan.

Albatta, Respuplikamizda JMNU rivojlanishiga nazariy va amaliy jihatdan o‘z ilmiy tadqiqot ishlari bilan ulkan hissa qo‘shgan olimlar. pegogika fanlari doktorlari T.S.Usmonho‘jayev, A.Q.Atayev, SH.H.Xonkeldiyevich, F.A.Kerimov, L.R.Ayrapedyans, E.A.Seytxalilov, D.J.Nasriddinov, Salomov R.S., R.D.Xalmuxamedov va boshqa ko‘plab olimlarni misol keltirish mumkin. O‘zbekistonda JMNU rivojlanishi jarayonida uning ko‘plab tarmoqlari, yo‘nalishlari bo‘yicha ham ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshirilgan. Masalan, JM harakatini tashkil etish va boshqarishda R.A.Abdumalikov, J.E.Eshnazarov, K.D.Yarashev, turizm va uni o‘qitish uslubiyatida R.A.Abdumalikov, T.X.Xoldorov, umumta’lim maktablari, Akademik litseylari va kasb-hunar kollejlarining o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalash bo‘yicha T.S.Usmonxo‘jayev, T.Moskoleva, M.Toirova, L.Seytlina va boshqalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalash bo‘yicha K.Maxkamjonov va boshqalar, maktabgacha ta’lim muassalarida bolalarning jismoniy tarbiyalash bo‘yicha X.A.Meliyev, Sport o‘yinlari va o‘qitish uslubiyati bo‘yicha L.R.Ayrapetyans, E.A.Seytxalilov va b., Yengil atletika va o‘qitish uslubiyati bo‘yicha H.T.Rafiyev, R.Q.Qudratov, K.T.Shokirjonova va boshqalar, Chaqiriqqacha jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha T.SH.Hayitov va boshqalar. Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va tarixi bo‘yicha Y.S.Shalomitskiy, K.P.Ten, R.A.Abdumalikov, V.M.Yaskov va boshqalar, Sport psixologiyasi bo‘yicha G‘. Shoumarov, Y.M.Masharipov, R.Abdurasulov, R. Gaynutdinov, X.B.Tulenova jismoniy madaniyatning falsafiy va ijtimoiy muammolarini hal qilish bo‘yicha E.K. Shaternikov, Sport va sportchi ma’naviyatini shakllantirish masalalari bo‘yicha A.X.G‘ulomov, D.T.Tangirov, Bolalar va o‘smirlar sport maktablari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha K.T.Shokirjonova, Xotin-qizlar va talaba-qizlar jismoniy madaniyati masalalari bo‘yicha R.Qoziyeva, SH.M.Xolova boshqalar Respublika JMNU ning tarmoqlarini rivojlanishiga hissa qo‘shgan va hissa qo‘shib kelmoqda. Ularning olib borgan ishlariga JMNU rivojlanishiga halqaro miqyosda ulkan hissa qo‘shgan rus olimlari L.P.Matveyev, V.A.Novikov, A.A.Gujalovsiky, V.P.Filin, M.Y.Nabatnikova, G.D.Xarabuga, N.I.Ponomarev, V.M. Vidrin, B.A.Ashmarin, Y.D.Jeleznyak, N.G.Ozolin, A.S.Puni, M.A.Godik, V.M.Zatsiorskiy, I.A.Terovanesyan, L.S.Xomenkov, V.K.Balsevich va boshqalar ilhomlantirganlar, ayrimlariga bevosita ilmiy rahbarlik ham qilganlar.

Tahlil va munozaralar. Bizning, bugungi mustaqil davlatimizda u bir qator muhim va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bularga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

-har bir fuqaroni salomatligini saqlash va mustahkamlash va u orqali millat genafondini yaxshilash;

-butun aholini, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tamonlama uyg‘un rivojlantirish va tarbiyalash;

-umumxalq jismoniy madaniyatini rivojlantirish;

-mehnat unumdorligini oshirish va jismoniy mehnat qadriyatini ulug‘lash;

-zarur holatda Vatan manfaati va chaqirig‘iga tayyor turish;

-dunyo hamjamiyati bilan tinchlik, do‘stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;

-har bir shaxsning moddiy va ma’naviy dunyoni anglash va mustaqil kamolga yetish va b.

JMS tarmog‘ini ijtimoiy sohaga yo‘naltirilganligi konsepsiyasidan kelib chiqib, uning jismoniy madaniyat va tarbiyaviy vazifalarni bajarishga qaratilgan ahamiyatini ta’kidlab o‘tish lozim. O‘z navbatida boshqaruvchi tuman madaniyat va sport ishlari bo‘limi boshlig‘i quyidagilarni ta’minlashi kerak:

1. Jismoniy madaniyati harakati amaliyotiga ilmiy va amaliy tadqiqot natijalariga asoslangan tavsiyalarni joriy etish.

2. Jismoniy madaniyat darajasini, ilk bolalik yoshdan boshlab aholi barcha qatlamlarining jismoniy madaniyat kasb ta’limini, jismoniy tarbiyasini amalga oshirish.

3. Jismoniy va ruhiy fiziologik tiklash, jismoniy madaniy hordiq va boshqa ommaviy tomoshabop va ko‘rgazmali tadbirlar orqali jismoniy madaniyatni targ‘ibot qilish.

4. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarni jismoniy madaniyat vositalari orqali oldini olish.

Jismoniy mashg‘ulot joylariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar jismoniy mashg‘ulot joylari gigiyenasi deganda eng avvalo darslar va sport mashg‘ulotlari, musobaqalari o‘tkaziladigan joylarning toza va ozodaligi tushuniladi. Shu asosda quyidagilar talab etiladi:

- sport zallari, o‘yin maydonlarini doimo supurib, yuvib tozalash;

- sport asbob-uskunalari, to‘plar va boshqa zarur jihozlar butun, toza va o‘z joylarida saqlanishi lozim;

- sport zallarini darsdan keyin yuvib-artish, o‘yin va yengil atletika maydonlarini darsdan oldin tozalash, iflosliklarga yo‘l qo‘ymasli;

- jismoniy madaniyat darslari, sport mashg‘ulotlari va musobaqalarda faqat sport kiyimi bilan shug‘ullanish, ularni doimo toza tutish, kiyimlarni boshqalar bilan almashtirmaslik;

- darslar va mashg‘ulotlardan keyin imkoniyat darajasida to‘la yuvinish, hech bo‘lmaganda qo‘l, yuz, bo‘yin va oyoqlarni yuvish lozim bo‘ladi;

- darslar va mashg‘ulotlarda kiyadigan kiyimlar toza bo‘lish bilan bir qatorda o‘ziga loyiq, yarashiqlik, ortiqcha bezaklar, nishonlar bilan ularni to‘ldirmaslik;

- tanada biron illat yoki lat yeyish natijasida jarohatlar paydo bo‘lganda tezda tibbiy xodimlarga ko‘rsatish;

- sport kiyimlarini uy yoki maktab sharoitidagi ba’zi yumushlar, supuribtozalashlarda kiymaslik va boshqalar.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish kelajagi ezgu maqsadni ko‘zlagan buyuk davlat barpo etishni taqozo etgani uchun muhim va ustuvor vazifadir. Binobarin, jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ommaviy sportini rivojlantirish, uni samarali boshqarish, bunda Vatan, xalq tinchligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan uslubiy talablarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yosh avlodning jismoniy, aqliy va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, ularning samarali jamoatchilik nazoratini ta’minlashga qaratilgan ommaviy sport musobaqalari juda ham rivojlanib bormoqda. Bu tizim ommaviy sport harakatini rivojlantirishga yordam beradi va mamlakat nufuzi, kasbiy mahorati va iste’dodiga erishish vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Абдуллаев М.Ж., Смурыгина Л.В. Организация физкультурнооздоровительных и спортивных мероприятий в общеобразовательной школе. учебное пособие. Buxoro. “Durdona” – 2015 yil.

2. Abdullayev M.J. “YENGIL ATLETIKA” O’rta va uzoq masofalarga yuguruvchilar uchun murabbiyining kasbiy-pedagogik faoliyati. O’quv qo’llanma. Buxoro. “Durdona” – 2015 yil. 3. Андрис Э.Р., Кудратов Р.К. Енгил атлетика. Ўқув қўлланма. –Т.: 1998 йил.

3. Елмуратова, А. (2022). Изучение морального самосознания студентов будущих спортивных педагогов. In Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования (pp. 522-524).

4. Arzimbetov, T. (2023). Sport jamoalariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(11), 24-25.

5. Jalgasbaevich, J. T. (2023). Emotional stability in athletes as the basis of a special psychological preparation process. epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(7), 143-146.

6. Ayapbergenovna, K. U. (2021). Improving the pedagogical profile of deviant behavior of minors through collective creative activity. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 448-452.

Nurmatov Nurhayot Nurziyot og`li
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Psixologiya kafedrasi o`qtuvchisi
E-mail: nurhayatnurmatov20@gmail.com

PEDAGOGLARDA FRUSTRATSION TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagoglarda frustratsion tolerantlikning psixologik xususiyatlari, tolerantlikning pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishdagi ahamiyati, shuningdek, tolerantlik va frustratsiya, tolerantlik madaniyati kabi tushunchalarga alohida to'xtalib o'tilgan.*

Tayanch tushunchalar: *frustratsiya, tolerantlik, frustrator, tabiiy tolerantlik, ma'naviy tolerantlik, axloqiy tolerantlik, obyektiv va subyektiv omillar, mobillik, ijodkorlik, hozirjavoblik, kognitiv komponent, emotsional komponent, xulq-atvor komponenti, hissiy rivojlanganlik, pedagogik refleksiya, o'z-o'zini baholash.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ФРУСТРАЦИОННОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Аннотация. *В данной статье основное внимание уделяется психологическим характеристикам фрустрационной толерантности у педагогов, значению толерантности в эффективной организации педагогической деятельности, а также таким понятиям, как толерантность и фрустрация, культура толерантности.*

Основные понятия: *фрустрация, толерантность, фрустратор, естественная толерантность, моральная толерантность, моральная толерантность, объективные и субъективные факторы, мобильность, креативность, присутствие, когнитивный компонент, эмоциональный компонент, поведенческий компонент, эмоциональное развитие, педагогическая рефлексия, самооценка.*

PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF FRUSTRATION TOLERANCE

Annotation*. frustration, tolerance, frustrator, natural tolerance, moral tolerance, moral tolerance, objective and subjective factors, mobility, creativity, presence, cognitive component, emotional component, behavioral component, emotional development, pedagogical reflection, self-esteem.*

Basic concepts: *frustration, tolerance, frustrator, natural tolerance, moral tolerance, moral tolerance, objective and subjective factors, mobility, creativity, presence, cognitive component, emotional component, behavioral component, emotional development, pedagogical reflection, self-esteem.*

Pedagoglik – insoniyat jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq deb hisoblanib, e'zozlab kelingan kasbdir. Psixologik nuqtai nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Bugungi shiddatli davr jamiyati ham o'qituvchiga bir qator talablarni qo'ymoqda. Ushbu talablarga to'la javob berish uchun o'qituvchida albatta, qator o'ziga xos xususiyatlar rivojlangan bo'lishi lozim.

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgandir. Shu nuqtai nazardan hozirgi zamonaviy o'qituvchilarning muhim xususiyatlaridan biri bu yosh avlodga ta'lim berish va tarbiyalash jarayonida o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishga to'sqinlik qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar natijasida yuzaga keladigan to'siqlar(frustratsiyalar)ni yenga olish va ularni to'g'ri qabul qila olish ya'ni frustratsion tolerantlik xususiyatlari hisoblanadi. Ushbu xususiyatlarni o'rganish va tahlil etishda avvalo, tolerantlik va frustratsiya tushunchalariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Rus psixologlaridan B.G.Ananev o'tgan asrning 60-yillarida tolerantlik atamasidan birinchi bo'lib foydalangan bo'lsa, bu fenomenning ijtimoiy psixologiyasini ilk marotaba Sankt-Peterburglik olima G.L. Bardiyer (2007) tadqiq etgan.

Tolerantlik tushunchasiga turli soha mutaxassislari ta'rif berib o'tganlar. Jumladan, tolerantlik falsafiy ma'noda — lotincha chidam, chidamlilik, toqat qilish, kengfe'llik ma'nosida «tolerantia» so'zidan olingan bo'lib, falsafada bag'rikenglik, halimlik va xayrixohlik tushunchalarini ifodalaydi. Tolerantlik –

insonning har qanday vaziyatda erkin faoliyat ko‘rsatish jarayonida oqilona me’yor va murosa muvozanatini ta’minlay bilish tamoyiliga rioya qilishi. Uning asosiy elementlari: demokratiya, sabr-chidam, mehr- shafqat, murosa-i madora, hamjihatlik, oqilona me’yor, o‘zaro hurmat, insonparvarlik, xalqparvarlik va boshqalar. Bu tamoyilning ijtimoiy muhitdagi o‘rnini belgilashda axloq, an’analar, jamoatchilik fikri, turmush tarzi, din, ishlab chiqarish usullari, jamiyatning intellektual-aqliy darajasi kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik ma’noda tolerantlik bu — individning o‘z asab va ruhiy muvozanatini tiklash, muvaffaqiyatli moslashish, adovatga yo'l qo'ymaslik va uni o‘rab turgan olam bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida muammoli va inqirozli vaziyatlarda tashqi muhit bilan faol aloqa qilish qobiliyatini belgilovchi birlashma, integral xususiyat sifatida ma’no-mazmun kashf etgan.

Tolerantlik — o‘zgalarning xulq-atvori, e’tiqodlari va qadriyatlarini erkin qabul qilish imkonini beruvchi ruhiy tayyorgarlik; o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan chidamlilik va bag‘rikenglik; shaxsiy qarash va nuqtai nazarlardan farqlanuvchi fikr va mulohazalariga bo‘lgan munosabatdir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tolerantliklik madaniyati bu – har bir insonning erkin yashash muhiti, dunyoqarashi, odobi, udumlari, hissiyoti, o'y-fikrlari, e’tiqodlari, amallariga nisbatan sabrli bo‘lish va hurmat qilish madaniyati, deb ta’rif berish mumkin. Bizning fikrimizcha, har qanday vaziyat yoki omil doirasida ham etnopsixologik va hududiy o‘ziga xosliklar hisobga olinishi zarur. Bu o‘rinda shu narsa hech qanday e’tirozsiz qabul qilinishi lozimki, hozirgi davrda o‘qitish va talim-tarbiya tizimining barcha jabhalarida faol ijtimoiy psixologik tayyorgarlik usullaridan foydalanish va foydalanilganda ham uning eng samarali, millat psixologiyasiga mos uslublarni keng targ‘ib etish va amaliyotlarda joriy etish lozim.

Tolerantlik fenomenining differensiyallashgan tushunchasiga quyidagilar kiradi:

• tabiiy tolerantlik — yosh bolalarga xos bo’lgan va uning shaxsiy «Men» sifatlari assotsiatsiyalashmagan — ochiqlik, mehribonlik, ishonuvchanlik («A» tipli tolerantlik);

• ma’naviy tolerantlik — insonning tashqi «Men»i bilan assotsiatsiyalashgan sabr, sabrlilik («B» tipli tolerantlik);

• axloqiy tolerantlik — ichki «Men» bilan assotsiatsiyalashgan qabul qilish va ishonch tuyg‘ulari («D» tipli tolerantlik).

Ushbu tolerantlik tiplariga batafsil to‘xtalib o‘tamiz:

«A» tipdagi tolerantlik — bu boshqa bir insonni so‘zsiz, tabiiy ravishda, boricha qabul qilish, unga nisbatan qadrli va aziz mavjudot sifatida munosabatda bo‘lishdir. Bunday tolerantlik yosh bola hayotida katta o‘rin egallaydi, chunki uning shaxs bo‘lib shakllanish jarayoni hali individual va ijtimoiy tajribalarni his etishga yetib bormagan. Tolerantlikning «A» tipi yosh bolalarning o‘z ota-onalarini, hattoki ular qattiqqo‘l munosabatda bo‘lganlarida ham — psixologik yoki jismoniy zo‘ravonliklar jarayonida ham mehribondek qabul qilinishining asosidir. «A» tipdagi tolerantlikning mavjud bo‘lishi yomon munosabatning namoyon bo‘lishidan psixologik, subyektiv himoyalanganlik va ota-onalari bilan ijobiy munosabatni saqlashga yordam beradi.

«B» tipdagi tolerantlik shaxs sifatida o‘zini ko‘rsatish uchun xarakterli bo‘lgan, individning shaxs bo‘lib shakllanish jarayonining ixtiyoriy qismi hisoblanadi. Ko‘pincha bu tip katta yoshdagilarga xos ekanligini alohida qayd etish lozim. Tolerant shaxs ko‘proq bosiqlikka harakat qiladi, bunda u ko‘pincha himoya mexanizmlaridan foydalanadi. Biroq ba’zida u o‘zining hayajonlarini, hissiyotlarini, aytmoqchi bo‘lgan noroziliklari va agressiyalarini yashiradi. Shuni aytish mumkinki, ko‘pincha «B» tipdagi tolerantlik haqiqiy bo‘lmagan, qisman namoyon bo‘luvchi, shartli, madaniy tolerantlikdir. Ya’ni bu tipdagi tolerantlikka misol keltiradigan bo‘lsak, quyidagicha ifodalarni ko‘rish mumkin: «Biz sizga sabr qilamiz, chunki ...»; «Sharoit shuni taqozo qiladiki, biz sizga chidashga majburmiz, chunki ...»; «Ayni paytda men o'zimdek bo‘la olmayman va o‘zimni sabrlidek qilib ko‘rsatib turishga majburman ...»; «Men boshqa narsa haqida o‘ylayman, lekin buni oshkor aytish ...». «B» tipdagi tolerantlik — bu berk, yashirin ichki agressiya bo‘lib, bunday sabrlilik bir qarashda sabrsizlikdan yaxshiroq bo‘lib ko‘rinsa-da, unisi ham, bunisi ham tabiatan bir xil hodisalar hisoblanadi. Ularning psixologik asosi bir xil bo‘lib, ular orasidagi farq sifat jihatdan emas, faqatgina son jihatdandir.

Shuni aytish mumkinki, «D» tipdagi tolerantlik — sabrsizlikning teskari tomoni bo‘lib, inson ustidan turli xildagi zo‘ravonlik, manipulyatsiya, uning subyektiv tavsiflarining suiiste’mol qilinishidan iboratdir. «D» tipdagi tolerantlik inson tomonidan atrofdagilar bilan bir qatorda o‘zini ham bir xilda qabul qilishdir. Zo‘ravonlik va manipulyatsiyaga qarama-qarshi bunday o‘zaro ta’sir etish boshqa inson uchun qadrli bo‘lgan ichki qadriyatlar, hayotning mazmuni, his-hayajonlariga hurmat bilan qarashni va ularni

to‘g‘ri qabul qilishni aks ettiradi. Bu haqiqiy yetuk, asl pozitiv tolerantlik bo‘lib, «A» va «B» tipdagi tolerantliklarga nisbatan inson haqiqatini chuqurroq va to‘liqroq anglashga asoslanadi. Demak, aynan mana shu tipdagi tolerantlik xususiyati yaxshi rivojlangan o’qituvchilar o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishlari va atrofdagilar bilan samarali munosabatlarni o'rnata olishlari mumkin. Inson shaxsida bu tolerantlik xususiyatlarining rivojlanishi va namoyon bo'lishi uning yoshiga hamda bir qator omillarga bog’liq hisoblanadi.

Kattalarning yosh bolalar bilan o‘zaro munosabatidagi muammo shundan iboratki, bolani emas, o‘zini-o‘zi qabul qilishini, ya’ni ota-onalarning o‘zlarini birlamchi qabul qilishlari va bu narsa qandaydir «soya»ni his etishni yuzaga keltiradi. «D» tipdagi tolerantlik bir qator muloqot amaliyotlarining o‘ziga xos xarakterli xususiyatlaridan hisoblanib, psixoterapevtik effektga egadir.

Endi esa keyingi tushuncha, frustratsiya tushunchasi haqida to'xtalib o'tamiz. Frustratsiya — bu maqsadga erishishga to‘sqinlik qiluvchi barcha narsalardir. Frustratsiya (lot. Frustratio — aldanish, rejalarning barbod bo‘lishi) — muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish yo‘lidagi faoliyatni izdan chiqaruvchi ruhiy holat. U kishining maqsadga erishishi yo‘lida uchraydigan, obyektiv ravishda yengib bo‘lmaydigan yoki sub’ektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo‘ladi.

Frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar frustrator deyiladi. Flustratsiya holati frustratorning kuchiga, jadalligiga bog‘liq. Frustratsiya holatida shaxsning vaziyatni to‘g‘ri baholash qobiliyati muhimdir. Shu bois turmushning noqulay ta’sirlariga qarshi kurashish uchun odam fe’l-atvoridagi barqarorlikni shakllantirish lozim. Frustratsiya ham boshqa ruhiy holatlar singari kishi fe’l-atvoriga xos yoki yangi xislatlarning boshlanishini ko‘rsatuvchi, shuningdek, o‘tkinchi holat bo‘lishi mumkin. Frustratsiya asosan, salbiy hissiyotlar uyg‘otadi. Frustratsiyaning turlari: tajovuzkor holat, apatiya, depressiv holat, g‘amginlik tuyg‘usi, o‘ziga ishonmaslik, kuchsizlik, ma’yuslik va boshqa. Frustratsiyaning tajovuzkor holati ko‘pincha o‘zini tuta olmaydigan, qo‘pol odamga xos bo‘la, depressiya holati o‘ziga ishonmaydigan shaxsga taalluqlidir. Ba’zan og‘ir tabiatli kishilarda ham shu xildagi holatni vujudga keltirish mumkin, lekin bu vaziyat uzoqqa cho‘zilmaydi.

Ma'lumki, frustratsiya obyektiv va subyektiv omillar bilan bevosita bog'liq. Agarda muammolar odamning psixologiyasi bilan bog‘liq bo'lsa, ular ichki yoki subyektiv deb ataladi, agarda muammo odamga bog'liq bo’lmagan vaziyatlarga taalluqli bo'lsa, ular tashqi yoki obyektiv deb ataladi. Pedagoglar faoliyatida yuzaga keladigan frustratsiyalarning obyektiv sabablarini ko'p holatlarda bartaraf qilish uchun albatta tashqi ta'sirlarni hisobga olish muhim. Lekin ulardan ko'pchiligi, odamning ichki psixologik xususiyatlariga yoki unda atrofdagi odamlar bilan yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi. Frustratsiyalarning sabablari emotsional o'z-o'zini boshqarish bilan ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Emotsional o'zini boshqarishdagi muvaffaqiyatsizliklar ichki sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Odamning bir-biri bilan raqobatlashuvchi qarshiligini yenga olishga qodir bo'lmagan turlicha, teng kuchli motivlari o'rtasidagi kurash;
2) Odamning irodasi bo'shligi;
3) Odamning xulqida noaniqlik va tartibsizlik yuzaga keltiradigan, bir-biriga mos kelmaydigan xarakter xususiyatlarining mavjudligi;
4) Odamning o'zi boshqara olmaydigan kuchli emotsional qo'zg'aluvchanligi;
5) Odamning o'ziga ishonchsizligi;
6) Qaror qabul qilishda va amalga oshirishda sustkashligi;

Obyektiv jihatdan mavjud bo'lgan sabablarga quyidagilar kiradi:

1) Odamning yuzaga kelayotgan vaziyatga juda ham kuchli bog'liqligi;
2) Odamning atrofdagilarga haddan tashqari shaxsiy va amaliy bog'liqligi;
3) Odam tushib qolgan vaziyatning noaniqligi va obyektiv sabablarga ko'ra unda oqilona qaror qabul qilish yoki amalga oshirish qiyin bo'ladi;
4) Atrofdagi odamlar bilan insonning murakkab qarama-qarshiligi.

Shundan kelib chiqqan holda, pedagogik faoliyatni samarali tashkil qilishda pedagog shaxsida yuqoridagi xususiyatlarga qarama-qarshi fazilatlar rivojlangan bo’lishi lozim. Bu pedagogning shaxsiy xususiyatlariga bevosita bog'liq hisoblanadi. Faoliyat jarayonida kelib chiqadigan to'siqlarni yengishda pedagoglar xulq-atvoridagi tolerantlikni ham shular jumlasiga kiritishimiz mumkin. Xulq-atvor tolerantligiga ko‘plab ko‘nikma va qobiliyatlarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, ular orasidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatamiz:

1) Tolerant fikr bildirish va o‘z nuqtai nazarini shaxsiy mulohaza sifatida himoya eta olish qobiliyati;

2) Boshqalarning fikriga tolerant munosabatda bo‘la olish qobiliyati, ya’ni o‘zining shaxsiy fikridan qanchalik farq qilishiga qaramasdan, boshqalarning ham o‘ziga xos fikri borligi va u ham bu fikrni bildirish huquqiga ega ekanligini tan olish;

3) Nizoli vaziyatlarda (qarama-qarshi nuqtai nazar, fikrlar to‘qnashuvi yuz berganda) tolerant bo‘la olish qobiliyati.

Qator pedagog olimlar ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va sifatlariga quyidagilarni kiritadilar: pedagogik fikrlashning tizimliligi, moslashuvchanlik, mobillik, ijodkorlik, hozirjavoblik, hissiy rivojlanganlik va pedagogik refleksiya. Ushbu xususiyatlarni ham psixologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, frustratsiya nisbatan tolerantlik tushunchasini yanada yaxshiroq yoritishga yordam beradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu xususiyatlar birinchi navbatda insonning nerv-fiziologik asoslariga, xususan, temperament xususiyatlariga bog'liqdir.

Masalan, moslashuvchanlik xususiyati har xil temperament egalarida turlicha namoyon bo'ladi. Xolerik va sangvinik tipidagi insonlarda turli sharoitlarga moslashish birmuncha oson kechsa, flegmatik va melonxolik tipidagi insonlar uchun bu hol bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Mobillik shaxsning yo’nalganligining alohida bir tipi hisoblanib, mobil tipli insonlar ish bilan mashg'ul paytida ham muloqotga juda tez kirishadi. Diqqati tez ko'chuvchan bo'lib, tez chalg'iydi. U tez gapiradi, doimo shoshadi, yuz ifodalari ham tez o'zgaradi, suhbat mavzusini ham tez-tez o'zgartirishga moyil, bu esa dars davomida o’quvchilarni zeriktirmaslikka yordam beradi. Gaplashib ketishi qanchalik oson bo'lsa, gapni tugatishi va yana ishini davom ettirishi shunchalik oson. Bu ham pedagogik faoliyatda qo'l keladi, chunki pedagog kun davomida atrofdagi ko'plab insonlar bilan muloqotda bo'lib (bu insonlar qatoriga o’quvchilar jamoasini, rahbariyat va hamkasblarini hamda o'quvchilarning ota-onalarini kiritishimiz mumkin), shu bilan birga zimmasidagi boshqa vazifalarni ham bajarishiga to‘g’ri keladi. Bu esa undan ko'p vaqtni talab qilganligi uchun qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Aynan shuning uchun ham mobillik xususiyati o'qituvchi uchun zarurdir.

Frustratsiya agressiyaning paydo bo‘lishi uchun motivatsiya hosil qiladi. D. Dollard va M. Millerning fikriga ko‘ra, frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sababga ko‘ra agressiyani namoyon qilish jamiyat yoki jamoatchilik tomonidan jazolanishi mumkin. Bunday jazodan qo‘rqish esa agressiya boshqa nishonga, obyektga yoki shaxsning o‘z-o‘ziga qaratilishi (suitsid sodir qilishi)ga sabab bo‘lishi mumkin (Dollard, 1939; Miller, 1941) Bu nazariyaning asosiy holatlari quyidagicha ifodalanadi:

- Frustratsiya har doim biror-bir shakldagi agressiyaga olib keladi.
- Agressiyani doimo chorlovchi masalalarda uchta omil hal qiluvchi ahamiyatga ega:

1. Subyekt tomonidan kutilayotgan bo‘lg‘usida erishiladigan maqsadga erishish darajasi — agar shaxs o‘z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi ancha vaqtga cho‘zilib ketsa, bunday hol albatta agressiyani chaqiradi.

2. Maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siq kuchi — shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi yo‘lida uchragan to‘siq yengib bo‘lmas darajada bo'lsa yoki shaxs tomonidan shunday deb tushunilsa, agressiya vujudga keladi.

3. Ketma-ket frustratsiyalar soni — agar maqsad yo‘lida bir to‘siq ortidan ikkinchisi, uning ortidan uchinchisi va bu davomiylik davom etaversa, bu albatta shaxsda agressiyani keltirib chiqaradi.

Ya’ni subyekt maqsadidan qoniqishni qay darajada ko‘p kutsa, bu yo‘lda to‘siqlar qay darajada kuchli bo‘lsa va to‘siqlar qay darajada ko‘p blokirovka qilinsa, agressiv xulq-atvorga turtki shuncha kuchli bo‘ladi. Frustratsiyalar ketma-ket sodir bo‘lganda ularning kuchi bir-biri bilan qo‘shilib, katta kuchdagi agressiv reaksiyani tug‘dirishi mumkin.

Shunday ekan pedagog shaxsida frustratsion tolerantlikni shakllantirish orqali uning faoliyatini to'gri yo'lga qo'yish, mavjud to'siqlarni o'z vaqtida bartaraf etish, bunda fikrlarning tizimililigi, moslashuvchanlik, ijodkorlik, mobillik, hozirjavoblik, hissiy rivojlanganlik kabi xususiyatlardan foydalangan holda fpedagogik faoliyatni tashkil etish, pedagogik jamoada ijobiy munosabatlar tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma / N. Ismoilova, D. Abdullayeva; 0 ‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent: 0 ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov, L.N.A. Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – Toshkent, 2015.

3. Z.N. Nishonova. P.S. Ergashev. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent. 2012.

4.Davletshin M.G. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya asoslari. -Toshkent: TDPU, 2006

Jumaniyazova Tamara Adambayevna
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi dotsenti

O‘QUVCHILARGA GIMNASTIKA MASHQLARINI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o’quvchilarni sport turlari bo’yicha tayyorlashda jismoniy va texnik tayyorgarlikni takomillashtirish, o’quvchilarni jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash yozilgan, unda mavzu bo’yicha adabiyotlarni o’rganilgan tahlil qilingan va umumlashtirilgan. O’quvchilarni sport turlari bo’yicha tayyorlashda jismoniy va texnik tayyorgarlikni takomillashtirishni ularni jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash dasturi ishlab chiqilgan tadqiqotlar tashkil etilgan va ilmiy asoslangan.*

Kalit so’zlar: *pedagogik omillar, ratsionalizatsiya, psixosporogramma, badiiy gimnastika, individual eksperimental psixologiya, individual tipologik xusussiyatlar, faoliyat, diqqat, sport o’yinlari, jismoniy qobiliyatlar.*

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ГИМНАСТИЧЕСКИМ УПРАЖНЕНИЯМ

Аннотация. *В данной статье описывается совершенствование физической и технической подготовки учащихся по видам спорта, воспитание физических способностей учащихся, анализ и обобщение изученной литературы по данной теме. Организованы и научно обоснованы исследования, направленные на совершенствование физической и технической подготовленности учащихся при подготовке их к занятиям спортом, разработана программа воспитания у них физических способностей.*

Ключевые слова: *педагогические факторы, рационализация, психоспорограмма, художественная гимнастика, индивидуальная экспериментальная психология, индивидуальные типологические особенности, активность, внимание, спортивные игры, физические способности.*

SPECIFIC PEDAGOGICAL FEATURES OF TEACHING GYMNASTICS EXERCISES TO STUDENTS

Annotation. *In this article, it is written to improve physical and technical training in training students in sports, to educate students in physical abilities, in which the literature on the topic is analyzed and summarized. The improvement of physical and technical training in the training of students in sports is organized and scientifically based studies in which a program for training them in physical abilities is developed.*

Key words: *pedagogical factors, rationalization, psychosporogram, rhythmic gymnastics, individual experimental psychology, individual typological characteristics, activity, attention, sports games, physical abilities.*

Kirish. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevtomonidan barcha sohalar qatori jismoniy tarbiyaga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Bunga misol sifatida barcha viloyat va tuman markazlarida sport majmualarining qurilayotganligini aytish mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviysportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada amalga oshirilayotgan ishlarda dasturi amal bo`lib xizmat qilmoqda.

Hozirda O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni, shu jumladan, gimnastikaning rivojlanish tarixi hamda uning taraqqiyotini tasavvur qilish uchun tarixiy taraqqiyot davriga ko‘z tashlamasdan o‘tish mumkin emas. O‘zbekiston hududida XVII-XIX asrda jismoniy tarbiya va sportning shujumladan, gimnastikaning mazkur mintaqada rivojlanishi va taraqqiy etishi Rossiyadagi jismoniy tarbiya va sport tarixiga bevosita bog‘liq bo‘lganini inkor qilib bo‘lmaydi. Biroq sobiq ittifoq davrida o‘zbek sportchilarini yuqori arenalarga chiqishiga nisbiy to‘sqinliklar mavjud bo‘lgan. Ayni paytda O‘zbekistonda jismoniytarbiyava sport bilan shug‘ullanishga keng imkoniyatlar yaratilgan. Mazkur vositalarning eng ommaviylaridan biri bo‘lgan gimnastika bu tizimda haqli ravishda muhim o‘rin egalladi. Gimnastika

mashg‘ulotlarining eng muhim vazifasi yosh avlodni bolalik chog‘idan boshlab, jismoniy va aqliy jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalash, ulardagi jismoniy va ma’naviy kuchlarni garmonik tarzda rivojlantirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Bolalar va o‘smirlarni jismonan hamda aqliy barkamol qilib shakllantirishda gimnastikaning o‘rni katta. Uning xilma-xil vosita va usullari boshlang‘ich jismoniy tarbiya vazifalarini bajarishda yuqori o‘rin tutadi. Bolalar va o‘smirlarda jismoniy, aqliy hamda harakat sifatlarini tarbiyalash uchun asos yaratilib, organizmni funksional, jismoniy mashqlar vositasi ta’sirida tashqi muhitga qarshilik ko‘rsatish imkoniyatlari o‘stiriladi. Gimnastikani juda katta gigienik-sog‘lomlashtirish ahamiyati bor. Qadimgi zamonning atoqli mutafakkirlaridan Gelen, Gippokrat, Plutarx, Beruniy, Ibn Sino gimnastikaning davolash va sog‘lomlashtirish vositasi sifatiga yuqori baho berishgan. O‘z zamonida rus olimlari I.M. Sechenov, I.P. Pavlov, I.N. Mechnikov, P.F. Lesgaftlar jismoniy mashqlarga, jumladan, gimnastika mashqlariga katta ahamiyat berib, «bu mashqlarni hayotiy faoliyat hamda ish unumdorligini oshirishini, organizmning kasallikka chidamliligini tarbiyalash va faol dam olishning eng yaxshi vositasi», deb tan olishgan.

O‘zbekiston Reespublikasining ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sport muhim o‘rinlarni egallagan bo‘lib, shu sohada gimnastika sport turi har bir ta’lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya va sport ishlarining asosiy tarkibidan o‘rin egallagan. Gimnastika sport turining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi. **Bular:**

1. Inson organizmining shakl va faoliyatini, jismoniy sifatlarini har tomonlama tarbiyalashga, takomillashtirishga, salomatligini mustahkamlashga, umrini uzaytirishga hamda faol yashashga xizmat qiladi.

2. Muhim hayotiy harakat, ko‘nikma va malakalari (shu jumladan, amaliy va sport ko‘nikmalari) ni shakllantiradi va maxsus bilimlar bilan qurollantiradi.

3. Axloqiy, irodaviy va estetik xislatlarni tarbiyalaydigan, jismoniy tarbiya sohasidagi zamonaviy yangi pedagogik texnologiya, fan yutuqlari asosida yaratilgan gimnastika mamlakatimizda yanada rivojlantirilib, odamlar hayotiga keng tatbiq etilmoqda.

Gimnastikaning uslubiy xususiyatlari. Gimnastikada mashqlarni qat’iy bir me’yorda bajarish, talabalar faoliyatini aniq uyushtirish uslubiga xos bo‘lib, uning natijasida yangi yangi malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun qulay sharoit yuzaga kelib, mehnat qobiliyatini oshirish borasida yuqori ko‘tarinki muhit yaratiladi.

Gimnastikaning uslubiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Inson organizmiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatish. Insonning barcha organlari funksiyalari gimnastika mashqlari yordamida ijobiy rivojlanadi va takomillashadi. Gimnastika mashg‘ulotlari orqali kishini umumiy jismonan va aqlan tarbiyalash hamda uning jismoniy sifatlarini har tomonlama barkamollikka yetkazishga erishish mumkin.

2. Xilma-xil jismoniy mashqlardan foydalanish organizmning morfologik funksional tarmoqlari va jismoniy sifatlari (kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chaqqonlik va chidamlilik)ni har tomonlama garmonik tarbiyalash va rivojlantirish jismoniy mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan bir vaqtda, asab tizimining moslashtirish mexanizmiga ta’sir ko‘rsatilib, uning moyilligi ortishi bilan sport texnikasining asoslari shakllana boradi.

3. Organizmning kerakli a’zolarini takomiilashtirish. Talaba o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni yechishda, organizm mushaklarini tarbiyalash kerak bo‘lgan qismlariga ta’sir qilishda xilma-xil mashqlar tanlab bajarish usullari aniq bo‘lishi natijasida, mushak-bo‘g‘im guruhiariga ta’sir etish orqali erishadi. Butalabalargakerakii jismoniy sifatlarning rivojlanishiga ko‘maklashadi va jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. O‘quv jarayonining qat’iy me’yorda bo‘lishi va jismoniy yuklamalarni aniq tartibga solish, ta’lim berish jarayonini tashkil qilish turli uslubiy usullardan foydalanish bilan bir qatorda, ta’lim berishning o‘ziga xos xususiy maqsad va vazifalarini birin-ketin hal qilish tamoyiliga bog‘liq. Bu holat jismoniy va boshqa sifatlarning tobora rivoj topishini ta’minlaydi. Jismoniy yuklamalarni ta’sirlanish sur’ati va chegarasini o‘zgartirish hamda mashqlarni ijro etish ketma-ketligini yo‘lga qo‘yish, turli qo‘shimcha og‘irlik va qurilmalardan foydalanish orqali sportchilarni tayyorgarlik darajasiga e’tiboran belgilasa bo‘ladi.

5. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishda mashqlarni uzluksiz murakkablashtirish va ularni uyg‘unlashtirish jarayonida mashg‘ulotlar natijasida talaba ko‘nikma hosil qilgandan so‘ng uning murakkab turiga o‘tiladi. Keyinchalik shu mashq va uning to‘plami ham murakkablashtiriladi, o‘rganilgan mashqlar belgisi ikkinchisiga qo‘shib bajariladi va ularga yangi yo‘llanma beriiadi.

Gimnastikaning umumiy va maxsus mashqlarini o‘rgatishga oid harakatli o‘yinlar

Hozirgi paytda harakatli o‘yinlarning asosiy vazifasi o‘z mazmuni va metodikasi bilan bolalarni jamiyatimiz talablariga muvofiq ravishda tarbiyalashni ta’minlash, ularda axloqiy, irodalilik imkoniyatlarini rivojlantirish, ijodkor va bunyodkorlarga xos bilim, ko‘nikma hamda malakalarni, o‘quvchilarga xos xarakterli xususiyatlarni sifatlarni shakllantirishdan iboratdir. Harakatli o‘yinlarini o‘rganish, ishtirokchilarning o‘zaro munosabati va xulqi o‘yin tanlashda uni ta’limiy vazifalariga mos kelishini, shuningdek, o‘yinda pedagog bosh rolni o‘ynashi lozimligini ko‘rsatib o‘tadi. Shu bilan birga P.F.Lesgaft harakatli o‘yinlarning vazifasi va rolini aniqlab, asosiy uslubiy ko‘rsatmalarni keltiradi, o‘yin materiallarini ikkita guruhgabo‘ladi.

Bular 1-guruh oddiy o‘yinlar, 2-guruh murakkab o‘yinlardir.

P. F.Lesgaft harakatli o‘yinlarni sistemali tarzda va muntazam ravishda o‘tkazish, qatnashuvchilarning faolligi v a mustaqilligini oshirishga harakat qilish zarurligini uqtirgan edi. O‘yin pedagogik omil bo‘lishi uchun unga pedagogik vazifa ongli va maqsadga muvofiq ravishda bog‘lanishi, undan tarbiyaviy maqsad hamda vazifalarni hal qilish uchun foydalaniladi. F.Lesgaft o‘zining jismoniy mashqlar tizimida o‘yinlarni jismoniy tarbiya vositasi sifatida ifodalaydi. O‘yin yordamida bola hayotga tayyorlanishni aytadi. P.F.Lesgaftning harakatli o‘yinlarni o‘tkazish uchun qo‘ygan talablari hozirgi paytgacha o‘z kuchini yoki ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, chunki u har bir o‘yin oldiga aniq maqsadlar qo‘yishi, o‘tkazilayotgan o‘yinlar qatnashuvchilarning kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o‘yin bilan shug‘ullanuvchilarga ijobiy emotsional ta’sir ko‘rsatishi lozimligini aniqlashi shart. Milliy xalq o‘yinlariga xos xususiyatlarning boyligi ham ularda xilma-xil tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi harakatli o‘yinlarni tashkil qilishvao‘tkazishda quyidagi asosiy vazifalarni nazarda tutishi lozim:

1. O‘quvchilarning jismoniy barkamolligiga salomatligining yaxshilanishi, chiniqishi, tana a’zolari va umumiy ish qobiliyatining o‘sishiga yordamberish.

2. O‘quvchilarda har xil sharoitda erkin harakat qilish imkonini beradigan bilim va kerakli harakat malakalarini hosil qilish.

3. O‘quvchilarda hayotiy faoliyatda yordam beradigan aqliy va iroda sifatlarini tarkib toptirish.

4. O‘quvchilarni turli o‘yinlar va jismoniy mashqlarga qiziqtirish, tartibga rioya qilishga odatlantirish.

5. O‘quvchilarda harakatli o‘yinlarni mustaqil holda tashkil etish va o‘tkazish uchun zarur bilim va malakalar hosil qilish.

Umumiy xulosa va tavsiyalar. Umumiy xulosa qilib aytganda o‘quvchilar jismoniy tarbiyasining vazifalari doimo o‘rgatish jarayonida uyg‘un holda hal etiladi. Bu vazifalar butun jismoniy madaniyat tizimining o‘quvchilarga ta’sir etishi tufayligina muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin. Buning uchun maktabning butun pedagogik jamoasi birgalikda ahil harakat qilishi, maktabda mashg‘ulotlarni tashkil etishning turli shakl va usullaridan, ayniqsa, ommaviy sport turlari bilan birga harakatli o‘yinlarda, barcha vositalari yaxlitligi (kompleksi) dan foydalanishni talab etadi. O‘quvchilarni jismoniy tarbiya va sport, shuningdek ommaviy sport turlari bilan muntazam shug‘ullantirish, shug‘ullanuvchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirishda harakatli o‘yinlardan muntazam foydalanib borish, shuningdek o‘quvchilardan tashkil etilgan sport turlari bo‘yicha jamoalarni ko‘plab musobaqalarda ishtirok etishini ta’minlash ulardan kelgusida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent “O‘zbekiston” – 2017 y.

2. Sh.Mirziyoev Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2016 y

3. Normurodov A.N. O‘zbek milliy o‘yinlari T.: - 1999 y. 18.

4. Rahimqulov K.D., Usmonxo‘jayev T.S. Jismoniy tarbiyadan bolalar va o‘smirlar uchun 1000 mashq hamda harakatli o‘yinlar. 2001y.

5. Raximqulov K.D. «Kichik yoshdagi bolalarning qaddi qomatini rivojlantirishga mo‘ljallangan mashqlar va harakatli o‘yinlar» 2001y.

6. Xojayev P, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B. “Harakatli o‘yinlar vaunio‘qitish metodikasi” Cho‘lpon nashriyoti T.: 2010 y.

7. I.I.Morgunova Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi o‘quvqo‘llanmaToshkent — «ILM ZIYo» - 2011 y

Allambergenova Baxargul Xudaybergenovna
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali tadqiqotchisi Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi o'qituvchisi

TALABALARGA CHET TILI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH – IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarga chet tili o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish mazmuni, tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirilgan hamda talabalarga chet tili o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish - ijtimoiy pedagogik zarurat haqida so'z boradi. Bundan tashqari talabalarda* chet tilini o'rgatish jarayonida xotiradan amaliy foydalanish yo`llari ochib berildi.

Kalit so'zlar: *kompetentlik, pedagogik texnologiya, motivatsiya, mnemonika, xotira, tafakkur, intelekt, kompetentsiya, ishonch, muvofaqqiyatga yo'nalganlik, mustaqil ta'lim.*

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ - КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннотация. *В данной статье определены содержание, структура, специфика и педагогические условия организации самостоятельного обучения студентов при обучении иностранному языку, а также рассмотрена социально-педагогическая необходимость организации самостоятельного обучения студентов при обучении иностранному языку. Кроме того, были открыты пути практического использования памяти в процессе обучения студентов иностранному языку.*

Ключевые слова: *компетентность, педагогическая технология, мотивация, мнемоника, память, мышление, интеллект, компетентность, уверенность, ориентация на соответствие, самостоятельное обучение.*

ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO STUDENTS - AS A SOCIAL PEDAGOGICAL NECESSITY

Annotation. *This article will talk about the content, structure, specifics and pedagogical conditions of organizing independent education in teaching foreign language to students, and the organization of Independent Education in teaching foreign language to students-social pedagogical necessity. In addition, in the process of teaching a foreign language in students, ways of practical use of memory were revealed.*

Key words: *competence, pedagogical technology, motivation, mnemonics, memory, thinking, intelect, competence, confidence, orientation towards success, independent education.*

Kirish. Jahon ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etish orqali zamonaviy kasbiy bilimlarni egallash, sifatli ta'lim olish uchun individual ta'lim dasturlarini yaratish, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish asosida o'quv-uslubiy ta'minotni modernizatsiya qilish, o'quv materialini ishlab chiqishda yangi didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish orqali bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy-metodik kompetentsiyalarini rivojlantirish muhim omillardan biriga aylanmoqda. Ta'limni global axborotlashtirish va masofaviy ta'limning jadal rivojlanishi yangi o'quv kompyuter dasturlarini yaratishni talab qilmoqda. Internet texnologiyalaridan keng foydalanish, multimedia, kompyuter grafikasi va raqamli ma'lumotlar algoritmlari talabalarni virtual borliqqa jalb etib, kelajakdagi kasbiy faoliyat muhitini simulyatsiya qilish orqali o'qitishning yangi usullarini ishlab chiqish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisda qilgan Murojaatnomasida «Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir"! Shu sababli hammamiz uchun

zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining turli jihatlari respublikamiz olimlari J.Jalolov, A.Nurmanov, T.K.Sattarov, L.T.Axmedova, O‘.H.Xoshimov; Ta'lim jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish masalalari respublikamiz olimlari B.Ziyomuhammadov, J.G‘.Yo‘ldoshev, N.S.Sayidahmedov, H.Qarshiboyevlar; chet tili o‘qitishda talabalarning mustaqil ishini takomillashtirishning mazmuni va metodikasini takomillashtirishning ayrim jihatlari M.Barakayev, T.Jo‘rayev, G.V.Zlotskiy, G.Izetayeva, S.I.Qo‘lmamatov, M.Tojiyev, N.R.G‘aybullayev, D.Yunusovalarning ilmiy tadqiqotlari ob’yekti hisoblanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamjamiyati (MDH) mamlakatlarida chet tili ta'limi muhitini rivojlantirishning texnologik jihatlari A.M.Bashmakov, S.V.Korovin, V.V.Meshkov, V.A.Starix, talabalarning mustaqil ishini takomillashtirish N.V.Smetanina, G.I.Sarantsev, L.P.Yakushkina, A.A.Drobishevskiy, kasbiy pedagogik faoliyatiga tayyorlash masalalari bo‘yicha Ye.N.Pryaxina, N.E.Pikina, V.Pugach, N.Sofronovalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan C.W.Cobb, G.Pimbley, P.H.Douglas, Dj.Dyui, I.F.Gerbardlarning ilmiy ishlarida mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish masalalari, Ch.Abbott, N.Anderson, F.Barbara, A.Connell, A.Edwards, M.Hammind, V.Jadhav, S.Kennewell, A.Sharma, S.Sharma, W.N.Chambers, E.L.Cowen, Locard James, F.Raymond, H.Tanner, C.Wickens kabi olimlar esa o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyati va ulardan foydalanish asoslari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Tahlil va munozaralar. Tadqiqotchi B.Muqimov tomonidan faoliyat va bilimlar darajalarining soni turlicha ajratiladi. Ularning ayrimlari, yangi o‘quv materialini o‘qitishni tashkil etishda o‘quvchilar o‘zlashtirishning uchta bosqichidan o‘tadi deb hisoblagan holda, ularga muvofiq bilimlarning uchta darajasini ajratishni tavsiya etadi:

- bilimlarni ongli ravishda qabul qilish va xotirada qayd etish darajasi;
- bilimlarni o‘xshash sharoitlarda, namuna bo‘yicha qo‘llashga tayyorlik darajasi;
- bilimlarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo‘llashga tayyorlik darajasi.

Talabalarga chet tilini o‘rgatishda mustaqil ta’lim olishning eng maqbul shakllarini tanlash, ulardan foydalanishning adekvat usullarini qo‘llash talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda, ularning amaliy faoliyat jarayonida mustaqil, ijodiy topshiriqlarni samarali bajarishlariga olib keladi.

Mustaqil ta’lim olish jarayonida talabalar o‘z qiziqish va motivlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ta’lim mazmunini, maqsad va vazifalarni belgilab oladilar. **Bu quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:**


1. siyosiy mustaqil ta’lim, ya’ni zamonaviy voqelikka nisbatan munosabat;
2. kasbiy mustaqil ta’lim - tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha mustaqil faoliyat olib borishga nisbatan intilish;
3. shaxsiy qiziqish asosida mustaqil ta’lim - fanlarni yanada chuqurroq o‘rganishga, shaxsiy–hayotiy rejalariga nisbatan;
4. o‘z iste’dodini va sevimli mashg‘ulotlarini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil ta’lim;
5. o‘z xarakterini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil ta’lim;

Tadqiqotlarimiz jarayonida talabalarga chet tili o‘qitishda mustaqil ta’lim samaradorligini ta’minlashga qaratilgan pedagogik va didaktik shart-sharoitlar aniqlashtirildi:

1. Moddiy-texnik shart-sharoitlar (o‘quv auditoriyalari, o‘quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, nusxa ko‘chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, magnitofonlar (audio, video), trenajyorlar, videoproektor va h.k.lar).
2. O‘quv-metodik meyoriy hujjatlar sifati (Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, metodik tavsiyanomalar, qo‘shimcha maxsus adabiyotlar, ko‘rgazmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar).
3. Professor – o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati.
4. Ijtimoiy va o‘quv-texnologik muhit (o‘qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalar va o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlari mazmuni, yo‘nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar).
5. O‘quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.

Keltirib o‘tilgan pedagogik shart-sharoitlardan tashqari mustaqil faoliyat strategiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot davomida talabalarda chet tilini o’rganish texnologiyalarini mustahkamlash borasida model ishlab chiqldi. 1-rasm



Chet tilini o’rganishda talabalarda o‘z ustida mustaqil ishlash faoliyatini samaradorlik ko‘rsatkichlari

So‘ngi yillarda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida talabalarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarni rivojlantirish muammosiga bo‘lgan e’tibor o‘sib bormoqda. Olimlar tomonidan pedagogik oliygohlarning talabalarida ta’lim jarayonida o’z ustida mustaqil ishlash ko’nikmalarini shakllantirishning yaxlit tizimini amaliyotda loyihalashtirilgan va moslashtirilganligiga qaramay, ilmiy loyihalashtirish sur’ati unga nisbatan bo‘lgan talab ortidan ulgurayotgani yo‘q. Ushbu fenomenning tadqiq etish jadalligi bugungi kunda jamiyatning ta’lim tizimidagi ro‘y berayotgan o‘zgarishlar tufayli keskin ko‘tarilgan. Ijodiy, faol, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash - jamiyatning o‘zgargan ijtimoiy buyurtmasiga muvofiq ta’lim tizimining yo‘nalishlari keng miqyosda o‘zgarib bormoqda. Davrning radikal o‘zgarishlari oliy ta’lim maktabidan ijtimoiy faol, erkin va ijodiy tafakkur qiladigan, yangi axborotlarni orttiradigan va uni baholay oladigan, anglangan tanlovni amalga oshiradigan, puxta o‘ylangan va adekvat qarorlar qabul qiladigan talabalarni tarbiyalashni talab qilmoqda.

Xulosa va tavsiyalar. Talabalarga chet tili o‘rgatishda mustaqil ta’limni tashkil etish uslubiyati va texnologiyasi hamda mustaqil ish jarayonida asosiy kompetensiyalar, ularning turlari, mazmun-mohiyati, soha olimlarining bo‘lajak mutaxassislarning mustaqil ta’limni tashkil etishning takomillashtirishga oid qator ishlari o‘rganildi, tahlil qilindi.

Talabalarga chet tili o‘rgatishda mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida interfaol o‘qitish metodlari, kompetensiyaviy yondashuvning mazmuni, mohiyati va hozirgi holati chuqur o‘rganilib, tahlil qilindi.

Talabalarning mustaqil ish jarayonida didaktik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish mazmuni chet tilini bilish darajasida muhim shaxsiy sifatlar, jumladan, mustaqillik, o‘z faoliyatini o‘zi tashkil etish va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlari rivojlandi.

Mustaqil ish jarayonida AKT va internetdan foydalanish usullari o’rganildi va takomillashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Занковский, А.Н. Организационная психология: учебное пособие для студентов специальности «Организационная психология» [Текст] / А.Н. Занковский. - 2-е изд. - М.: Флинта: МПСИ, 2012. - 648 с.
2. Зубов, Н.А. Как руководить педагогами: пособие для руководителей образовательных учреждений [Текст] / Н.А. Зубов. - 3-е изд., испр. и доп -М.: АРКТИ, 2015.- 140 с.
3. Arzimbetov, T. (2023). Sport jamoalariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(11), 24-25.
4. Jalgasbaevich, J. T. (2023). Emotional stability in athletes as the basis of a special psychological preparation process. epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(7), 143-146.
5. Ayapbergenovna, K. U. (2021). Improving the pedagogical profile of deviant behavior of minors through collective creative activity. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 448-452.

Shaniyazov Rashid Janabayevich
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi kata o'qituvchisi

SPORT MAKTABI O'QUVCHILARIDA O'ZINI - O'ZI BOSHQARISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sport maktabi o'quvchilarida o'zini o'zi boshqaruvni takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etilgan bo'lib, maktab o'quvchilarining sport musobaqalarida o'z-o'zini boshqarish texnologiyasini ilmiy jihatdan o'rganilgan va xulosa tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, sport maktabi o'quvchilarida o'zini o'zi boshqarishning rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik omillarni aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *shaxs, kuzatish, suhbat, faoliyat samaradorligi, o'zini o'zi boshqarish, xulq-atvor, komponent, irodaviy sifatlar, faoliyat samaradorligi.*

СОЦИАЛЬНО - ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ САМОКОНТРОЛЯ У УЧАЩИХСЯ СПОРТИВНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены педагогико-психологические особенности совершенствования самоконтроля у учащихся спортивной школы, научно изучена технология самоконтроля школьников на спортивных соревнованиях и разработаны заключительные рекомендации. Выявлены также педагогико-психологические факторы, способствующие развитию самоконтроля у учащихся спортивной школы.*

Ключевые слова: *личность, наблюдательность, беседа, результативность деятельности, самоконтроль, поведение, компонент, волевые качества, результативность деятельности.*

SOCIAL PEDAGOGICAL FEATURES OF SELF-GOVERNMENT IN STUDENTS OF A SPORTS SCHOOL

Annotation. *This article studied the pedagogical-psychological features of improving self-management in students of a sports school, scientifically studied the technology of self-control of schoolchildren in sports competitions and developed conclusion recommendations. Also, pedagogical-psychological factors that serve the development of self-government have been identified in students of a sports school.*

Key words: *personality, observation, conversation, efficiency of activity, self-control, behavior, component, volitional qualities, efficiency of activity.*

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish va sport maktabi o'quvchilarida yuksak bilim va iste'dod bilan bir qatorda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi: «Yoshlar uchun ochiq va sifatli o'qitish tizimini qaror toptirish, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish» vazifalariga asoslanib, shaxsda o'quv va jismoniy faoliyatida o'zini o'zi faollashtirish xususiyatini rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun asos yaratildi.

Bugungi davrda sport maktabi o'quvchilarining o'zini o'zi boshqarishini o'rganish muammosi mahalliy va xorijiy psixologiyaning diqqat markazida bo'lib, o'rganish yillari davomida ushbu masala bo'yicha yetarli bilimlar to'plangan.

O'z-o'zini boshqarish- bu turli darajadagi tashkiliy va murakkablikdagi bir qator tizimlarning maqsadga muvofiq ishlashi. Bu ushbu tizimlar faoliyatini tartibga solish darajalaridan biri bo'lib, uni amalga oshiradigan voqelikni aks ettirish va modellashtirishning aqliy vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan aks ettirishni ifodalaydi. U o'zining energiya, dinamik va mazmun-semantik tomonlari birligida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. V.A.Ganzenaning fikriga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish - bu ongning asosiy funksiyalaridan biri bo'lib, mahalliy psixologiya fanining klassiklari tomonidan aks yettirish bilan bir

qatorda alohida ta'kidlangan. Bu funksiyalarning aloqasi ta'minlaydi meyorda psixikaning yaxlitligi yo'q, barcha psixik hodisalarning birligini, turli xil psixik jarayonlarning integratsiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

G.Sh.Gabdreevaning fikriga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish, ko'proq psixologiyaning amaliy sohalari nuqtai nazaridan, bu sport maktabi o'quvchilarining holatini optimallashtirishning maxsus ruhiy mexanizmi ekanligini ko'rsatadi. O'z-o'zini boshqarishni tushunishga bunday yondashuv o'z-o'ziga ta'sir qilishning maxsus texnikasi va usullari mavjudligini nazarda tutadi.

Insonning o'zini o'zi boshqarish usulining o'ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat odamni «moslashtiradi», balki shu bilan birga samarali hayot yo'nalishini rivojlantirishni o'z ichiga oladi, o'z ontologik maqbulligi, o'zini hurmat qilish, yaxlitlik hissini uyg'otadi.

A.A.Kaseroning so'zlariga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish deganda, bu jarayon nafaqat o'z holatini optimallashtirishni, balki o'z shaxsiyati, uning hayot yo'li, ma'nolari, maqsadlari (o'zini o'zi anglash va o'z-o'zini anglash) darajasidagi boshqa shaxsiy boshqaruv jarayonlarini ham o'z ichiga olgan holda yanada kengroq tushunilishi mumkin. aniqlash), sub'ektning turli xil faoliyati darajasida: bu kognitiv faoliyatni boshqarish (xotira, ye'tibor, fikrlash xususiyatlarini boshqarish), faoliyat, xatti-harakatlar, aloqa (o'zini o'zi tashkil etish).

Mualliflar O.A.Konopkin, V.I.Morosanova va A.K.Osnitskiyning fikriga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish - bu sub'ekt tomonidan faoliyat maqsadlarini belgilash va oldinga qo'yish jarayoni, shuningdek, ushbu maqsadlarga yerishishni boshqarish. Yuqoridagi mualliflar o'z-o'zini boshqarish jarayonini sub'ektning turli jarayonlar, hodisalar va psixika darajalarining tizimli ishtiroki orqali amalga oshiriladigan maqsadli ichki faoliyati deb hisoblaydilar.

Tahlil. Insonni tadqiq qiluvchi ko'plab fanlar uni turli yo'nalishlarda o'rganib, o'zining obyekti sifatida nazariy asoslab kelmoqda.

Biologik nuqtai nazardan o'zini o'zi boshqarish sport maktabi o'quvchilari taraqqiyoti individ nasliy jihatdan orttirgan genetik dasturlarning amalda ro'yobga chiqishi tarzida tasavvur etiladi.

Sotsiologik yondashuvda esa sport maktabi o'quvchilarining madaniy-tarixiy muhit ta'sirida kamol topishini tan oladi. Ulardan farqli individual-psixologik yondashuv o'zini o'zi boshqarishni sport maktabi o'quvchilarining rivojlanishi, uning tana tuzilishi yoki konstitutsional jihatlari va asab tizimi tipining ta'siri borligini ta'kidlab, o'rganadi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida sport maktabi o'quvchilarining ijtimoiylashuv jarayonida o'zini o'zi boshqarishini o'rganish ijtimoiy-psixologik yondashuvni talab qiladi. Ijtimoiylashuvning bevosita mahsuli sifatida sport maktabi o'quvchilari ijtimoiy psixologik tizimini o'rab turgan ijtimoiy muhit ta'sirida o'rganadi.

O'z-o'zini boshqarish - bu:

• o'tkazish jarayonlariga asoslangan faoliyatni dasturlashning maxsus darajasi.

• Insonni his-tuyg'ulari va tajribalari bilan boshqarish.

• Shaxsiy psixofiziologik funktsiyalarda ham, umuman olganda neyropsixik sharoitlarda ham maqsadli o'zgarish.

• Xarakter va harakat uslubini maqsadli, ongli tanlash.

• insonning xulq-atvor faoliyatini "ichki" boshqarish;

• sport maktabi o'quvchilarining xulq-atvori va faoliyatida tashqi va ichki o'zaro ta'sir va boshqalar.

Ko'rinishlarning xilma-xilligi bilan o'z-o'zini boshqarish quyidagi tuzilishga ega:

1.Uning ixtiyoriy faoliyatining subyekt tomonidan qabul qilingan maqsadi;

2.Faoliyatning muhim shartlari modeli;

3.Haqiqiy bajariladigan harakatlar dasturi;

4. Faoliyat muvaffaqiyati mezonlari tizimi;

5.Haqiqiy erishilgan natijalar haqida ma'lumot;

6.Haqiqiy natijalarning muvaffaqiyat mezonlariga muvofiqligini baholash;

7.Faoliyatni tuzatish zarurati va tabiati to'g'risidagi qarorlar.

O'z-o'zini boshqarish - bu boshqarishning yopiq zanjiri va axborot jarayoni bo'lib, uning tashuvchilari voqelikni aks ettirishning turli xil aqliy shakllaridir. Faoliyat turiga va uni amalga oshirish shartlariga qarab, u turli xil aqliy vositalar - hissiy aniq tasvirlar, g'oyalar, tushunchalar va boshqalar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Subyekt tomonidan qabul qilingan maqsad harakatlar dasturini tuzish shartlarini aniq belgilamaganligi sababli, faoliyatning muhim shartlarining o'xshash modellari bilan natijaga erishishning

turli usullari bo'lishi mumkin. O'z-o'zini boshqarishning umumiy qonuniyatlari o'ziga xos sharoitlarga va turli faoliyatning xususiyatlariga, subyektning shaxsiy fazilatlariga va uning harakatlarini tashkil etish odatlariga qarab individual shaklda amalga oshiriladi.

Sharq mutafakkirlari o'smirlarda o'zini o'zi boshqarishning kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roliga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy hayotda shaxsning roliga katta e'tibor qaratadi. Tashqi muhit va odamlar insonlar orasidagi uyg'unlikni bo'lishi o'quvchilarda ijobiy va salbiy sifatlarning shakllanishiga ta'sir qilishi va shu bois o'quvchilardagi o'zini boshqarishda ijtimoiy muhitni muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning qarashlarida, inson va borliqni birga munosabatda bo'lishi, shaxslararo munosabatlarni takomillashuvidagi roli haqida juda ko'plab talqinlar keltirilgan. O'smirlardagi har xil ehtiyojlarni qondirish uni kamolot cho'qqisiga olib boradi va bu uning o'zini o'zi boshqarishini yanada shakllantiradi, deb aytiladi. Shuningdek, uning asarlarida o'smirlarning psixologik xususiyatlari hamda ijtimoiylashuvning roli ko'rsatib o'tiladi.

Ruhiy (affektiv) holatlarning fiziologik jarayonlarga ta'siri haqidagi nazariyani Abu Ali ibn Sino shakllantirgan. U o'z asarlarida o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq his-tuyg'ularning ma'lum shakllarini tushuntirib, ularning tanadagi o'zgarishlar bilan bog'liq ma'lumotlarni yozib qoldiradi. U insonning og'riqli tanadagi buzilishlarini baholashda uning ruhiy holatini hisobga olish zarurligini takidlaydi. Tibbiyotni psixologiya bilan birlashtirish, ya'ni g'oyasini ilgari so'rgan.

O'z-o'zini boshqarishning shaxsiy jihatlariga oid zamonaviy tadqiqotlarning aksariyati shaxsiyatning o'zini o'zi boshqarish uslubi konsepsiyasiga asoslanadi. Shaxsiy xususiyatlar faoliyatning o'zini o'zi boshqarishning o'rnatilgan individual usullari prizmasi orqali faoliyatga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi gipoteza birinchilardan bo'lib V.I.Morosanova ta'kidlagan.

K.A.Abulxanova-Slavskaya o'z ilmiy mushohadalarida sport maktabi o'quvchilarining shaxsiy o'zini o'zi boshqarishning tuzilishi motivlar, his-tuyg'ular, irodadan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ushbu uchta komponent inson xatti-harakatlarini nazorat qilishni belgilaydi. Tadqiqotchi tashqi (faoliyatni bajarishga qo'yiladigan talablar) va ichki (shaxsiy xususiyatlar) nisbatini ifodalovchi o'zini o'zi boshqarish rivojlanishining uchta darajasi haqida gapiradi.

Birinchi darajadagi sport maktabi o'quvchilari o'z xususiyatlarini faoliyat normalari bilan muvofiqlashtiradi;

ikkinchidan, uning layoqatliligini optimallashtirish bilan faoliyat ko'rinishlarini rivojlantiradi;

uchinchi darajada, sport maktabi o'quvchilari o'zining faoliyatining ijodiy xususiyatini namoyon etib faoliyat subyekti sifatida zarur bo'lgan maqbul loyiha va usulni yaratadi.

Xulosa. Pedagogika va psixologiya fanlarida o'z-o'zini boshqarish tushunchasiga ko'plab yondashuvlar mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin. Inson psixikasining turli tomonlarini o'rganish bo'yicha turli mualliflarning fikrlarini umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkinki, o'z-o'zini boshqarish - bu psixikaning turli hodisalari, jarayonlari va darajalari orqali amalga oshiriladigan sport maktabi o'quvchilarining ichki maqsadli faoliyati. Sport maktabi o'quvchilarining o'zini o'zi boshqarish haqidagi bilimlari doimiy ravishda to'ldiriladi va kengayadi, ammo ular talqinlarning noaniqligi va qarashlarning nomuvofiqligi bilan ajralib turadi, bu yesa ushbu sohadagi tadqiqot ishlarini davom yettirish va asosiy e'tiborni o'z-o'zini rivojlantirishga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni http://lex.uz/doss/3107036

2. Sh.V.Azizova Yuqori sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatini boshqarishning psixologik xususiyatlari psixologiya f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi Toshkent – 1988 yil 145-bet

3. Антилогова, Л.Н. Саморегуляция психических состояний личности: монография / Л.Н. Антилогова, Е.А. Черкевич. – Омск : Изд-во ОмГПУ, 2010. – 219 с.

4. Коломенский, Й.Л. Психология взаимоотношений в малих группах (обшие и возрастние особенности): учеб. пособие для студентов пед. спетс. висш. учеб. завед. / Й. Л. Коломенский. – 2-е изд., перераб. и доп. – Минск: ТетраСистемс, 2000. – 432 с.

5. Arzimbetov, T. (2023). Sport jamoalariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(11), 24-25.

6. Jalgasbaevich, J. T. (2023). Emotional stability in athletes as the basis of a special psychological preparation process. epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(7), 143-146.

Астанкулова Дильнур Фуркат кизи
Соискатель Узбекского государственного университета физического воспитания и спорта Нукусский филиал

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СПОРТСМЕНОВ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ГИМНАСТИКОЙ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены педагогико-психологические особенности спортсменов, занимающихся художественной гимнастикой, а также воспитание физических способностей учащихся посредством общих и специальных упражнений гимнастики. Кроме того, был проведен анализ ряда научных исследований по развитию художественной гимнастики.*

Ключевые слова: *физкультура, индивидуализация, ловкость, быстрота, выносливость, упражнения, физкультура, педагогика, художественная гимнастика, гимнастические упражнения, специальные упражнения.*

BADIIY GIMNASTIKA BILAN SHUG'ULLANADIGAN SPORTCHILARNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy gimnastika bilan shug'ullanadigan sportchilarning pedagogik psixologik xusussiyatlari hamda gimnastikaning umumiy va maxsus mashqlari orqali o'quvchilarni jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash haqida fikr mulohazalar yuritilgan. Bundan tashqari badiiy gimnastikani rivojlantirish to'g'risidagi bir qator ilmiy izlanishlar tahlili olib borilgan.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy tarbiya, individuallashtirish, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, mashqlar, jismoniy tarbiya, pedagogika, badiiy gimnastika, gimnastika mashqlari, maxsus mashqlar.*

PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ATHLETES INVOLVED IN RHYTHMIC GYMNASTICS

Annotation. *This article reflects on the pedagogical psychological characteristics of athletes involved in rhythmic gymnastics and on the education of physical abilities of students through general and special exercises of gymnastics. In addition, an analysis of a number of scientific studies on the development of rhythmic gymnastics has been carried out.*

Key words: *physical education, individualization, agility, agility, endurance, exercise, physical education, pedagogy, rhythmic gymnastics, Gymnastics exercises, special exercises.*

Введение. В настоящее время художественная гимнастика является одним из самых популярных видов спорта. Колоссальные достижения европейских спортсменок Юлии Барсуковой, Алины Кабаевой, Ирины Чащиной, Евгении Канаевой, Маргариты Мамун, Яны Кудрявцевой и многих других показывают многогранность и красоту такого явления, как художественная гимнастика, и продвигают этот вид спорта, продвигая его в больших масштабах. Усманова, E. S. Крючек, E. N. Медведева, P. N. Терехина, художественная гимнастика: история, состояние и перспективы развития. Этим видом спорта занимается большая часть детей всех возрастов. Стремление родителей взять своего ребенка в художественную гимнастику привело к появлению множества спортивных и развлекательных коллективов. В эти группы вовлекаются дети дошкольного возраста (от трех лет), но учебной программы для них нет. Чаще всего тренеры используют программу автоматической спортивной тренировки на начальном этапе, что приводит к ускорению тренировок. При этом не учитываются психологические и физиологические особенности детей этого возраста. В результате такой подход приводит к травмам и отсутствию мотивации заниматься художественной гимнастикой.

Психологическая подготовка спортсменов подробно разбиралась в психологии спорта и рассматривалась отечественными и зарубежными психологами спорта.

«Художественная гимнастика - это сложнокоординационный (технико-эстетический) олимпийский вид спорта, в котором спортсменки соревнуются в техническом мастерстве и выразительности исполнения сложных движений телом в сочетании с манипуляциями предметами (скакалка, обруч, мяч, булавы, лента) под музыку».

«Специфическими двигательными действиями в художественной гимнастике являются упражнения с различными по фактуре предметами (скакалкой, обручем, мячом, булавами и лентой), движения телом, акробатические, преакробатические, танцевальные и хореографические элементы. Эти элементы наиболее точно характеризуют специфику этого вида спорта и считаются его основным содержанием».

Специалисты в области художественной гимнастики утверждают, что благодаря значительному диапазону сложности гимнастических упражнений, вариативности подходов и приёмов, применяемых при освоении технических действий в занятиях художественной гимнастикой, удается расширять двигательные возможности, добиваться гармоничного развития, воспитывать занимающегося данным видом спорта эстетически. В то же время к занимающимся предъявляются и особые требования, отражающие специфику именно художественной гимнастики. Даже на начальном этапе занятий (5-7 лет) гимнастки должны обладать такими координационными способностями, которые позволяют овладевать одиночными и композиционными действиями свободного характера и с манипулированием спортивными предметами. У гимнасток должны быть развиты способности к сохранению различных равновесий статического и динамического характера. А так же есть высокое требование вида спорта быть пластичной и обладать чувством ритма, слышать музыку и согласовывать с ней свои действия.

Также специалисты в области художественной гимнастики выделяют её специфику, как вида спорта, связанного с развитыми тактильными ощущениями гимнастки (чувство предмета). Работа с тем или иным предметом отличается целым рядом признаков (формой, весом, конструкцией, распределением массы и её геометрией и т.п.), а также необходимостью выполнять с ним различные манипуляции, определяют их разнообразие, трудность, зрелищность и многосторонность соответствующей подготовки с ним.

В свою очередь такие упражнения совершенствуют двигательную координацию, пространственно-временную ориентировку, быстроту, точность реакции и движений. «Характерная специфика взаимодействия гимнастки с предметом требует постоянной концентрации внимания, двигательной памяти и «чувства предмета» при выполнении элемента или композиции»

Musiqa san’ati u bilan shug‘ullanuvchilardan yuksak insoniylik, ma’naviy poklik va nihoyatda nozik didni talab etadi. Yoshlarni ma’nan barkamol, ruhan tetik qilib tarbiyalashda musiqiy nafosat olamining o‘rni beqiyosdir. Bugungi kunda musiqa madaniyati darslarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talablariga mos ravishda olib borishlik musiqa o‘qituvchisi oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bois umumta’lim maktab «Musiqa madaniyati» darslarining kasbiy standartini ishlab chiqishda fanning boshqa fanlardan o‘zining zamon taraqqiyoti rivoji bilan hamohang bo‘lgan xususiyatlari bilan farqlanishini aytib o‘tish joiz. Har bir fanning o‘ziga xos xususiyati bo‘lishi tabiiydir. Musiqa o‘qitishning ham o‘ziga xos tomonlari ko‘p, albatta. Bu uning tashkiliy tuzilishi va amaliy ijrochilik bilan bog‘liq ko‘rinishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuning uchun darsning har bir faoliyat turida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin. Musiqa o‘qituvchisi kasbi insondan doimo o‘z shaxsini takomillashtirish, o‘zining musiqiy qiziqishlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi. Musiqa o‘qituvchisi nafaqat o‘z mutaxassisligi «sirlarini» a’lo darajada bilishi lozim, balki ta’lim tizimidaq o‘quvchilarning mafkuraviy dunyoqarashlarini, tushuncha va tasavvurlarini shakllantirishda, estetik didini yuksak darajada o‘stirishda lozim bo‘lgan bilimlarga ega bo‘lishi shart.Musiqa madaniyati o‘qituvchisining kasbiy standartida quyidagi muhim jihatlar o‘z aksini topishi zarur;-musiqa asbobini yaxshi chalishi, yoqimli ovozda kuylashi (darsda gram yozuvlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi, ammo o‘qituvchining jonli ijrosi bolalarda katta hissiyot hosil qiladi);-nozik musiqiy did va rivojlangan musiqiy eshituv qobiliyatiga ega bo‘lishi;-musiqiy-nazariy bilimlar doirasiga ega bo‘lishi;-musiqiy asarlarni badiiy-pedagogik tahlil qila olishi;-dirijyorlik malakalarini ko‘rsata olishi;-musiqani boshqa badiiy fanlar bilan uzviy bog‘lay olishi;-musiqa ta’limi va tarbiyasidagi yangi usul, vositalarni, zamonaviy texnologiyalarni egallashi va ulardan oqilona foydalana olishi katta ahamiyat kasb etadi.Hozirgi davrda musiqa muallimi kasbi, faoliyati, professional tayyorgarligiga bo‘lgan talablar ilmiy-pedagogik izlanishlarga asos bo‘lmokda. Bu borada taniqli musiqachi-pedagoglar, haqidagi esdaliklar, ularning pedagogik faoliyatlari natijalarini o‘rganishga qaratilgan bir qator izlanishlar ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon musiqa o‘qituvchisining ijodiy faoliyatida pedagogik mahorat quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi:-musiqa tarbiyasida yangi usul va vositalarni izlashda, ularni an’anaviy usullar bilan mohirona bog‘lab olib borishda;-hayot va musiqa san’ati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsata olish va o‘rgatishda;-musiqaning mazmuni va ma’nosini bolalarga etkazishda, fanlararo aloqani amalga oshirishda;-musiqa o‘qituvchisining o‘z ustida doimo ishlashi va ijodiy izlanishida

Xulosa. Xulosa qilib, aytganda, musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydigan san’at turi ekanligi. Bundan tashqari, musiqa inson ruhi va aqliy rivojiga bebaho ta’sir o‘tkazadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo‘shilishiga axloqiy soflik, san’atga va hayotga estetik munosabat - shaxsning to‘laqonli kamolga yetishida muhim shartlardir. Bu oliyjanob maqsadga erishishda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bolalar musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir. Shifokorlarning fikricha, sokin kuy yurak qon tomirlarining bir maromdagi harakatini ta’minlar, sho‘x kuy-qo‘shiqlar esa tushkun kayfiyatimizni ko‘tarishga yordam berar ekan. Ta’lim

metodlari haqida aytadigan bo‘lsak, o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy yo‘naltirish yo‘llarini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarori.
2. Насритдинова, М. (2023). Artpedagogik yondashuv asosida bolajak musiqa ta’limi oqituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(4), 241-246.
3. Abduganiev O.Developing Student Civil Competency //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
4. Ho’jayeva M. “Umumta’lim maktablarida musiqa o’qitish metodikasi” O’z.D.K.tahrir-nashriyot bo’limi. Toshkent., 2008-yil.
5. Yusupova N. “Musiqa savodi, metodikasi va ritmika”. “Musiqa” nashriyoti. Toshkent., 2010-yil.
6. D.A. Karimova “Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. Darslik. T: 2021y.
7. D.A.Karimova “Musiqiy pedagogik mahorat asoslari” O‘quv qo‘llanma. T: Moliya iqtisod 2008 y.

Internet saytlar

1. www:pedagog.uz.
2. www:ziyonet.uz.
3. www:school.edu.uz.

Xudoyarova Ziyoda Maratovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"O'zbek va xorijiy tillarni o'qitish markazi"
ingliz tili sektori katta o'qituvchisi

TALABALARDA O'ZINI O'ZI RIVOJLANTIRISHNING PEDOGAGIK PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINI

Abstract. *The article describes the development of students' self-development skills and creative abilities in professional activities. . In addition, students are able to effectively organize the educational process, have high empathic abilities, a communicative culture, experience in self-learning, interaction skills, the ability to use time wisely, it is noted that they must have experience in conducting interactive learning, competence in collaborative teaching methods and peer teaching skills communication.*

Key words: *Psychology, thinking, pedagogy, competition, skill, formation, innovation, innovation process, innovative activity, educational technology, project, educational problem, teaching methods, primary education, academic ability, pedagogical process.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ САМОРАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация*. В статье описано развитие навыков саморазвития студентов и творческих способностей в профессиональной деятельности. . Кроме того, студенты способны эффективно организовать учебный процесс, обладают высокими эмпатическими способностями, коммуникативной культурой, опытом самообучения, навыками взаимодействия, умением разумно использовать время, отмечено, что они должны иметь опыт проведения интерактивного обучения, компетентность совместных методов обучения и навыки преподавания по принципу равного общения.*

Ключевые слова: *Психология, мышление, педагогика, конкуренция, умение, формирование, инновация, инновационный процесс, инновационная деятельность, педагогическая технология, проект, образовательная проблема, методы обучения, начальное образование, академическая способность, педагогический процесс.*

PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF SELF-DEVELOPMENT IN STUDENTS

Annotatsiya. *Maqolada bugungi kunda talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish malakalari hamda kasbiy faoliyatdagi ijodkorlik kabi xususiyatlarni rivojlantirish ishlari yoritiladi. . Bundan tashqari, talabalar ta'lim–tarbiya jarayonini samarali tashkil eta olishda, yuqori empatik qobiliyatga, kommunikativ madaniyatga, o'z-o'zini o'rganish tajribasiga, o'zaro ta'sir eta olish malakasiga, vaqtdan oqilona foydalana olish ko'nikmasiga, interfaol ta'lim olib borish tajribasiga, hamkorlikda o'qitish usullari kompetensiyasiga hamda teng aloqadorlik tamoyili orqali o'qitish ko'nikmalariga ega bo'lmoqlirlari keltirib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *Psixologiya, fikrlash, pedagogika, kompitetsiya,ko'nikma, shakllanish, innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, pedagogik texnologiya, loyiha, ta'limdagi muammo, ta'lim metodlari, boshlang'ich ta'lim, akademik qobiliyati, pedagogik jarayon*

Kirish. Bugungi kunda talabalarning ilm olishi, ta'limda samaradorlik va muvaffaqiyatga erishish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bizning tadqiqotimiz talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish konsepsiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Ta'lim muhitining "o'xshash" sharoitida talabalarning o'quv faoliyatini o'zlashtirish darajasi har xil bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Boshqa tomondan, turli ta'lim dasturlarida o'qiyotgan talabalar o'quv faoliyati tarkibiy qismlari shakllanishning past darajasini ko'rsatishi mumkin. Shu munosabat bilan ta'lim faoliyatining rivojlanishiga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiladigan sabablarni aniqlash, ularni rivojlantirsh yoki bartaraf qilishga doir choralar ishlab chiqish, ta'lim faoliyatining rivojlanish darajasini belgilovchi omillar mavjudligini tadqiq qilish lozimdir. Bizning fikrimizcha, bunday omillar sifatida talabalarning psixologik xususiyatlari: shaxsning kognitiv, motivatsion, xulq-atvor xususiyatlarini

e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

E.I.Rogovning so'zlariga ko'ra, ta'lim jarayoni talabalarning bilim darajasiga qarab passiv va faol turdagi ta'lim usullariga ajratiladi [129]. Passiv o'qitishda talaba o'quv faoliyatining ob'ekti sifatida harakat qiladi. Shuningdek, ushbu jarayonda talabalar professor-o'qituvchilar tomonidan berilgan materiallarni o'zlashtirishlari hamda uni ko'paytirishlari lozim sanaladi.

Mazkur turdagi ta'lim odatda, ma'ruza shakldagi dars mashg'ulotlarida namoyon bo'ladi. Ushbu holatda talabalar bir-birlari bilan o'zaro hamkorlik qilmaydilar va hech qanday muammoli vaziyat hal etilmaydi. Faol turdagi ta'limda esa, talabalar ko'proq darajada o'quv faoliyatining sub'ektiga aylanadilar. Bunda talabalar o'qituvchilar bilan teng muloqotga kirisha oladilar, bilimlarni o'zlashtirishda faol ishtirok etib, ijodiy ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Yuqoridagi xususiyatlar orqali, o'quv guruhlari bilan ishlash jarayonida o'zaro psixologik ta'siri amalga oshiriladi. Psixologik ta'sir - bu shaxs yoki bir guruhning psixologik holatini o'zgartirish, shuningdek undagi xulq-atvorni o'zgartirish ya'ni biror shaxsni yoki guruhni boshqalar tomonidan o'zgartirilishidir. Demak, talabalar shaxsga psixologik ta'sir etishning qoidalarini puxta o'zlashtirsalar, keyinchalik har qanday guruhiy sharoitda samarali faoliyat olib bora oladilar. Ta'limda psixologik ta'sir etishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga quyidagilar kiradi.

– Emotsional infeksiya – o'z emotsional holatni boshqa kishilarga o'tkazish jarayoni ya'ni psixofizik aloqa;

– O'zaro identifikatsiya – guruhiy faoliyatda o'zini o'zi aniqlash;

– Guruhiy adaptatsiya (moslashish);

– Hissiy – irodaviy ta'sir – ma'lumotlarni uzatish va egallashdagi o'zaro takliflarning mavjudligi;

– Ishontirish – shaxsning ongini o'zgartirish orqali, unda shaxsda munosabat, qarashlar shakllantiriladi;

– Imitatsiya - bu ongli yoki ongsiz ravishda namuna olish, harakatlar va xulq-atvor uslublarini o'zlashtirish va hokazo.

Demak, taqlid qilish natijasida guruh normalari va qadriyatlari shakllanadi va u kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Shaxsga ta'sir qilishning bunday usuli keyinchalik, insonni mantiqiy fikrlashga, muammolarni hal qilishga undaydi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida Gerbachevskiyning "Shaxs intilish darajasi" metodikasi, A.V.Karpova tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxsdagi refleksivlikni o'rganish metodikasi», metodikalaridan foydalanildi.

Gerbachevskiyning «Intilish darajasi» testi.

Ushbu so'rovnoma shaxsning motivatsion sohasini o'lchashga xizmat qiladi. Sinaluvchiga yuklatilgan toshiriqni belgilangan bosqichi yakunlangach so'rovnoma savollarini diqqat bilan o'qib chiqish va javob berish ko'rsatiladi. Sinaluvchilarda birinchi bosqich vazifalari hal etilsa-da, ammo vazifalarning davomi borligini esda tutish kerakligi aytiladi. Har bir savolga tartibli va ketma-ketlikda javob berishi qayd etib boriladi. Sinaluvchilarga shunday ko'rsatma beriladiki, siz unga qo'shilasizmi yoki yo'q shunga ko'ra shkalalardan birini doiracha oling deb ta'kidlanadi. Siz javoblaringizni quyidagiga asoslanib berishingiz mumkin deb so'raladi: to'liq qo'shilaman +3, +2-qo'shilaman, +1-qisman qo'shilaman; -3-mutlaqo qo'shilmayman, -2 qo'shilmayman, -1-qisman qo'shilmayman, agar siz hech biriga qo'shilmasangiz -0 aylana ichiga olib qo'yishingiz mumkin degan ta'kid so'raladi. So'rovnoma quyidagi shkalalardan tashkil topgan:

-ichki motiv-topshiriqlarning jalb etuvchanligi, topshiriqqa nisbatan qiziqishning mavjudligi;

-bilish motivi-sub'ektning o'z faoliyat natijalariga qiziqishi, natijalardan qoniqishi;

-qochish motivi-natijalarni past bo'lishi va qoniqmaslikni keltirib chiqarishidan qochish;

-musoboqalashuv motivi-natijalarini blshqalarnikidan ustunroq bo'lishiga intilishi;

-faoliyatni almashtirish motivi-faoliyatni o'zgartirish xohishini paydo bo'lishi, boshqa faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga urinish;

-o'zini e'zozlash motivi-faolitni qat'iy turib amalga oshirish, yangidan yangi murakkab vazifalar qo'yish va amalga oshirishga intilish;

-natijalarning ahamiyatliligi-sabab va oqibat tamoyiliga ko'ra, muhim shart-sharoitlarga ko'ra ish tutish, faoliyat natijalariga shaxslik mazmunini berish;

-topshiriqlarning murakkabligi-vazifalarning murakkabligi;

-irodaviy quvvat-topshiriqlarni bajarishdagi irodaviy quvvatning namoyon bo'lishi;

-natijalarga erishganlik darajasining bahosi-ushbu faoliyat yo'nalishiga ko'ra o'z imkoniyatlarini baholashi;

-o'z imkoniyatlarining bahosi-imkoniyatlarini baholash;

-quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi-natijalarga erishishda kuchlarni safarbar etishi;

-natijalarning kutilganlik darajasi-faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi;

-natijalarning qonuniyati-natijalarning motivatsiya tuzilmasiga ta'siri, unga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar, natijalarni tasodiflarga, vaziyatlarga va shaxsiy imkoniyatga bog'liqligi;

-tashabbuskorlik-qo'yilgan topshiriq qanchalik tashabbus asosida yoki biron bir kishining rahbarligi ta'siri tarzda amalga oshiriladi.

2-metodika

"Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish metodikasi" (A.V. Karpov)

Keyingi metodikamiz bu - "Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish metodikasi"ni diagnostika qilish metodikasi bo'lib, ushbu metodika rus psixologiya Anatoliy Viktorovich Karpov tomonidan ishlab chiqilgan.

Refleksiya (lotincha aks ettirish) - insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi. Kishini kishi tomonidan idrok qilinishini ikkilangan oynadagi aks ettirishga o'xshatish mumkin. Odam boshqa kishini aks ettirar ekan, shu bilan birga o'zini ham aks ettiradi, agar kishi o'zi muloqotga kirishadigan kishilar haqida to'liq, ilmiy asoslangan axborotlarga ega bo'lsa, ular bilan bexato aniqlikda o'zaro ta'sir o'rnatishi mumkin. Biroq sub'ekt hamma vaqt bunday aniq ma'lumotga ega emas. Shuning uchun u boshqalar xatti-harakatining sabablarini o'ylab chiqishga majbur bo'ladi. Boshqa kishining harakatlarini tushuntirish uchun faoliyat motivlari, his-tuyg'ular, intilish va fikrlashning o'ylab chiqarilishi kauzal atributsiya deb ataladi.

Refleksivlik - bu shaxsning o'z "men" ligidan tashqariga chiqish, fikrlash, o'rganish, "men" timsolini biron-bir voqea yoki xodisalar bilan taqqoslash, tahlil qilish qobiliyatidir. Refleksivlik, impulsivlikdan farqli o'laroq, shaxslarning faoliyatga kirishishidan oldin ichki ravishda barcha gipotezalarni ko'rib chiqadigan, ularga noto'g'ri tuyulgan narsalarni tashlab, "muammoni"hal qilishning turli variantlarini hisobga olgan holda, ataylab, ehtiyotkorlik bilan qaror qabul qiladigan odamlarni xarakterlaydi. Ushbu metodika 27 ta savoldan iborat bo'lib, shulardan 15 tasi tasdiq, 12 tasi esa inkor shaklida tuzilgan. Natijalar uch asosiy kategoriyaga ajratilgan holda interpritatsiya qilinadi. Agar natija 7 ta tasdiqqa teng yoki undan katta bo'lsa usul natijalari yuqori darajada rivojlangan refleksivlikni ko'rsatadi.

Refleksiya - bu shaxsning o'z harakatlari va holatlarini tushunishga qaratilgan ichki aqliy faoliyati; insonning o'z ma'naviy dunyosini o'zi bilishi;

Refleksiya - bu shaxsning ichki dunyosi bilan o'zaro aloqasi jarayonida psixikaning turli darajalarida (ongli, ongsiz) amalga oshiriladigan aqliy faoliyati orqali o'zini o'zi tashkil etishdir.

Refleksivlik metodining umumiy talqini ushbu xususiyatning boshqa bir qator muhim xususiyatlarini belgilovchi nazariy materialga asoslanadi. Ushbu fikrlarni quyidagi bayonotlarda umumlashtirish mumkin:

Refleksivlik psixik xususiyat sifatida aks ettirish bilan bog'liq bo'lgan integrativ ruhiy voqelikning asosiy qirralaridan biridir.

Natijalarni sharhlashda uchta toifaga asoslaniladi. 7-chegaradan yuqorisi refleksivlikning yuqoriligini, 4-7 chegaralar o'rtacha ko'rsatkichni, 1-4 chegaralar esa refleksivlikning past darajasini bildiradi. 8 dan 10 gacha bo'lgan test bo'yicha yuqori natijalar, ya'ni 7 dan ortiq miqdor shuni ko'rsatadiki, bunday insonlar o'z faoliyati va boshqa kishilarning hatti-harakatlarini tahlil qilishga, ularning o'tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi harakatlarining sabab va oqibatlarini aniqlashga o'ta moyil bo'ladi. Bunday shaxslar asosan voqea va xodisalarning kichik detallarigacha batafsil o'ylash istagida bo'lishadi, ularni oqibatlarini oldindan tahlil qiladi hamda o'z hatti-harakatlarini doimiy tarzda diqqat bilan rejalashtirishadi.

Bunday odamlar asosan, boshqa shaxslarni tushunishi, o'zini uning o'rniga qo'yishi, uning xatti-harakatlarini oldindan tahmin qilishi va shaxslarning o'zi haqidagi tasavvurlarini bashorat qila olish layoqatiga ega bo'lishadi.

O'rtacha test natijalari 4 tadan 7 tagacha ustunlar oralig'ida bo'ladi.

1 dan 3 gacha bo'lgan test bo'yicha past natijalar, ya'ni 4 ta ustundan kam bo'lishi, shaxslardagi voqea hodisalar qanday yuz bergani, hatti-harakatlarni keltirib chiqargan sabablar va ularning oqibatlari haqida ko'proq o'ylashi mumkinligini ko'rsatadi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, A.Karpov tomonidan ishlab chiqilgan "Refleksiya darajalarini aniqlash" metodikasi orqali biz quyidagi xususiyatlarni aniqlashimiz mumkin.

1. Vaziyatli refleksiya
2. Retrospektiv refleksiya

3. Perspektiv refleksiya

Vaziyatli refleksiya - vaziyatli aks ettirish, haqiqiy vaziyatda inson xulq-atvori bilan bog‘liq holatning namoyon etilishida bevosita o‘zini o‘zi idora qilish, uning tarkibiy qismlarini tushunish, tahlil qilish va sub’ektning o‘z harakatlarini vaziyatga bog‘lash, ularni o‘zgaruvchan sharoit va o‘z holatiga mos muvofiqlashtirish qobiliyatini ta’minlaydi.

Retrospektiv refleksiya - o‘tmishda sodir bo‘lgan hodisalarni tahlil qilish tendensiyasida namoyon bo‘ladi. Ushbu holatda retrospektiv refleksiyani predmeti sifatida shart-sharoit, bo‘lib o‘tgan voqealar tafsiloti, o‘tmishda qilingan xatolari va motivlarini tashkil etadi.

Perspektiv refleksiya - kelgusi faoliyatni, xulq-atvorni tahlil qilish, rejalashtirish, faoliyat natijalari bashoratlash va boshqa shunga o‘xshash funksiyasi bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Perspektiv refleksiya xulq-atvor xususiyatlari - o‘z xatti-harakatlari tafsilotlarini puxta rejalashtirish, kelajakdagi hodisalarga bo‘lgan munosabat dinamikasining namoyon etilishini belgilaydi.

Xulosa. Ijtimoiy faol o‘qituvchini aniqlash avvalo, undagi kasbiy faoliyat motivlari, qiziqishlari, kasbiy yaroqlilik xususiyatlari, ishga bo‘lgan ishtiyoqi, kognitiv ehtiyojlari ko‘lami kabilarni psixologik unsurlarni o‘rganishdan boshlanishi lozim, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy faolligi hamda ularning kasbiy faoliyatidagi tashabbuskorlik xususiyatlarining asosi sifatida, ularga xos davogarlik darajasi hamda raqobatdoshlik ko‘nikmalari tashkil etadi.

Adabiyotlar.

1. Карелин А.А. Психологические механизмы межличностного общения: Учеб. пособие для работ.служб занят., психологов и соц.работников/А.А. Карелин. Саратов, 2006. – 76 с.

2. Колпакова Л.М. Психологические механизмы формирования межличностных отношений в диаде «учитель-ученик» в условиях педагогической деятельности (на примере старших школьников): Автореф. дис. . канд. психол. наук. Казань, 1997. – 32 с;

3. Қулжонов Е.А. Психологическиуе особенности осужденних подростков и проблеми коррексии их поведениУ. Автореф. дис…канд. психол. наук. Т.: ТГПИ, 1997. – 20 с.

4. Рогов М.Г. Мотиватsiя учебной и коммерческой деятельности студентов: социально-психологический аспект. -Казань, Изд-во КГТУ, 1998. – 156 с.8.

5. Лейтес Н.С. Возрастная одаренность и индивидуальные различия. - М.: Московский психолого-социальный институт. - 2008. - 480 с.

6. Ладенко И.С. О роли рефлексии в самоорганизatsii интеллектуальных систем/И.С. Ладенко // Мысли о мыслях: Сб. науч. тр./Отв. ред. И.С. Ладенко. Новосибирск, 2005. – 420 с.

7. Hutmacher W. Key competencies for.: Europe // Report of the Symposium Berne, switzerland 27-30 march, 1996. Council for cultural cooperation a secondary education for europe. Strasburg., 1997. C.11

Mirzobobur Bahodirovich Qambarov
Buxoro davlat universitetiU mustaqil izlanuvchisi

PEDAGOGIK TIZIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNING HUQUQIY MASALALARI

Abstract. *How important it is to use best practices and technologies to organize the educational process now. It is a very urgent task to make young people interested in reading, to instill spiritual immunity in their minds, and to solve educational issues by fully forming life skills in them. The article discusses the need to implement educational activities in the pedagogical system.*

Key words: *life skills, issue, education, activity, process, environment, youngs, source, law, duty.*

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

Annotatsiya. *Hozirda ta'lim jarayonini tashkil etish uchun ilg'or tajriba va texnologiyalarni qo'llash qanchalik muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni mutolaaga qiziqtirish, ular ongiga ma'naviy immunitetni singdirish, hayotiy ko'nikmalarni ularda to'laqonli shakllantirish orqali tarbiyaviy masalalarni hal etish o'ta dolzarb vazifa hisoblanadi. Maqolada pedagogik tizimda tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish zarurati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *hayotiy ko'nikmalar, masala, tarbiya, faoliyat, jarayon, muhit, yoshlar, manba, huquq, burch.*

LEGAL ISSUES OF EDUCATIONAL ACTIVITY IN THE PEDAGOGICAL SYSTEM

Аннотация. *Насколько важно сейчас использовать лучшие практики и технологии для организации образовательного процесса. Очень актуальная задача — заинтересовать молодежь чтением, воспитать в ее сознании духовный иммунитет, решить образовательные вопросы путем всестороннего формирования у них жизненных навыков. В статье рассматривается необходимость реализации образовательной деятельности в педагогической системе.*

Ключевые слова: *жизненные навыки, вопрос, образование, деятельность, процесс, среда, молодежь, источник, право, обязанность.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonda yashaydigan yoshlar ta'lim va tarbiya olar ekan, ularning aqliy rivojlanishini, tafakkurini yangilash, o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni kiritish orqali ularda erkin hamda mustaqil fikrlash, ijodkorlikni rivojlantirish o‘ta muhim vazifa sanaladi. Chunki hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etmoqda. Zero, olam, insonning hayotda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tasavvurlar kundan kun o‘zgarmoqdaki, bunda tafakkur va olamni tushunishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o‘tish yuz bermoqda.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur 14 yoshida taxtni egallab, mamlakatni boshqarishga majbur bo'lgan. Abu Ali ibn Sino qomusiy bilimlarni ham mutolla asosida o'rganib, ilm-fan sohasida dovruq qozongan. Buyuk sarkarda Amir Temur o'z donoligi va ilmi bilan adolatli davlat qutishga erishgan. Alisher Navoiyning g'azal mulkining sultoniga aylanishida ham mutolaa va go'zal tarbiya sabab bo'lgan. Ularning bunday maqomga erishishlarida oilaviy muhitda tarbiyalanganlik, ilmu ma'rifatga qiziqish, mutolaaga bo‘lgan muhabbat beqiyos rol o‘ynagan. Ilm-ma'rifat orqali tarbiyalanuvchida ijobiy va salbiy xislatlarni farqlash, ilm olish nimaligini idrok etib uning qadriga yetish ko'nikmalari paydo bo'lishining bosh sababi ham shunda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

“Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Zarbulmasal” singari mumtoz asarlar zamirida huquqiy masalalar, an'anaviy axloqiy tarbiya tajribasi o'z aksini topadi. Ko'pgina mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining ma'naviy meroslari kishiga o‘z-o‘zini tanqidiy tahlil etishga yo'naltiradi.

Tarbiyaviy faoliyat masalalari mamlakatimizda qonun va qonun osti hujjatlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, bu hujjatlarda keng jamoatchilik uchun tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishning turli mexanizmlari keltirib o'tilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qaroriga muvofiq, ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi shakllantirildi. Hujjatda oliy ta'lim

tashkilotlarining pedagogik bo‘lmagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalari uchun ixtiyoriy ravishda o‘zlashtiriladigan pedagogik tayyorgarlik modullarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish, tarbiyaviy faoliyat bilan shug’ullanuvchi “O‘zbekkino” Milliy agentligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda ta’lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka to‘g‘ri yetkazish maqsadida o‘qituvchilik kasbini ulug‘lovchi videoroliklar, ilmiy-ommabop ko‘rsatuvlar, badiiy va hujjatli filmlarni ishlab chiqish, televideniye orqali doimiy namoyish qilsin hamda ijtimoiy reklama sifatida ularni televideniye va radiokanallarda joylashtirish vazifasi berildi.

Natijalar.

Ana shunday tarixiy asosga ega mamlakatimizda ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat tajribasi kundan kunga boyib, sayqallanib borishi lozim. Bunda tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish muhiti qandaydir vaqt, qandaydir makon tanlamasligi lozim. Shuningdek, tarbiyaviy faoliyat masalalari ta’lim tizimining turli bosqichlarida, turli shakllarda amalga oshirilmog’i lozim.

Shuningdek, tarbiyaviy faoliyat masalalari kishi ongining ma’naviy tashkillashtirishi uchun eng muhim ma’lumotlar bera olish, shaxsning estetik dunyoqarashini shakllantira oladigan hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan, ma’naviy tarbiya bera oladigan jarayonni hozirlash muhitini sifatli tashkil etish asosida qurilishi lozim.

“Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish” ustuvor vazifalar etib belgilandi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga binoan, Yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularni turli yot g‘oya va tahdidlardan asrash, o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-ma’rifiy va madaniy merosini fundamental asosda nashrga tayyorlash, chop etish va keng ommaga yetkazish, shuningdek, uni o‘rganish metodikasini ishlab chiqib, amalda qo‘llash chora-tadbirlarini amalga oshirish, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish masalalariga asosiy vazifa sifatiga qarash muhimligi ko’zda tutiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali asosda yanada takomillashtirish, jamiyatda, jumladan, uning har bir bo’g’inida, ya’ni, oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvini rivojlantirish, hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish hamda mazkur jarayonning huquqiy-normativ, ilmiy-pedagogik, texnik, texnologik jihatlarini takomillashtirish imkoniyatlari kengaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60- son, 2019-yil 8 - oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy, axloqiy va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni o‘qitish va tarbiyalash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3907-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4884-son, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 997-sonli qarorlari hamda tarbiyaviy faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish vazifalari pedagogik faoliyat uchun muayyan darajada asos bo’lib hisoblanadi.

Muhokama.

Bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash muammosini o‘rganish jarayonida “yurisprudensiya”, “huquqshunoslik”, “tarbiyaviy faoliyat”, “kasbiy tayyorgarlik”, “kasbiy pedagogik tayyorgarlik”, “axloq”, “burchni anglash”, “huquq”, “mas’uliyat” tushunchalarini mazmunan o’rganish va ular mohiyatini ochib berishga e’tibor qaratildi.

Ma'lumki, "yurisprudensiya" – huquqiy ijtimoiy normalarning alohida tizimi sifatida, huquqning alohida tarmoqlarini, davlat va huquq tarixini, davlat va umuman siyosiy tizimning faoliyatini o'rganuvchi fan. Huquqshunoslik – eng qadimgi ijtimoiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning tarixan vujudga kelishi huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Yunon falsafasida huquqshunoslikning eng muhim nazariy muammolari o'rtaga tashlangan bo'lsa, rim huquqshunoslari huquqiy tushuncha va tuzilmalarni ishlab chiqqan edilar, bu tushuncha va tuzilmalar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Jamiyat hayotida o'z burchini anglaydigan va o'ziga xos mas'uliyatni his etish masalasi muhim hisoblanadi. "burchni anglash" tushunchasi – shaxsning o'zi mansub bo'lgan jamoa, jamiyat oldida muayyan talablar asosida zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatni ongli ravishda his etish. Burch ta'lim-tarbiya jarayonida tarkib topadi. Burch shaxsning o'z-o'ziga talabchanligi tarzida namoyon bo'ladi.

"Burch hissi"- shaxs axloqining asosiy mezonlaridan biri. Burch - shaxsning axloqiy faoliyatini ifodalovchi mas'uliyatlilik, onglilik, vijdonlilik kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim jarayonida oila bilan hamkorlikda talabalarda burch hissini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega.

"Axloq"-xulq so'zining ko'plik shakli, kishilar orasida munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos qoidalari majmui. U ma'naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha hamdir. Kishi axloqidagi yaxshi odatlar insonning o'z manfaatini jamiyat manfaatlariga mos-lashtirishga, ayrim o'rinlarda jamiyat manfaatlari yo'lida o'z hayotiy maqsadlari, manfaatlarini o'zgar-tirishga imkon beradi. Pedagogik jarayonlarda ularni shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa.

Huquq muammolari hozirgi demokratik jamiyatda va huquqiy davlatda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi, huquqshunoslik tuzilish jihatdan bir qancha tarmoqlarga bo'lingan: davlat huquqi, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, xalqaro huquq, davlat va huquq tarixi, siyosiy bilimlar tarixi. davlat va huquq mohiyatini, huquqshunoslikning boshqa umumiy masalalarini o'rganuvchi umumiy davlat va huquq nazariyasi fani alohida o'rinda turadi. Huquqshunoslik umumiy nazariy fangina bo'lib qolmay, shu bilan birga amaliy fan ham hisoblanadi. Sud tibbiyoti, sud psixiatriyasi, kriminalistika, kriminologiya, yuridik psixologiya va boshqa yurisprudensiyaning amaliy turi hisoblanadi.

Huquqshunoslik fani inson dunyoqarashi, uning huquq va davlat to'g'risidagi tasavvuri, tushuncha va bilimlari shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Huquqshunoslikning g'oyaviy ta'siri insonning huquqiy madaniyati rivojlanishiga, huquq talablarini qadrlab, unga rioya etishiga yordam qiladi. Bu bilan jamiyatda huquqiy axloq va huquq-tartibot qaror topishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samiyeva, Sh. X., Aslanova, N. X. O'quvchilarda matnni o'qish va uni tushunish darajasini shakllantirish. Monografiya. Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2023. B-6
2. Pedagogika. Ensiklopediya 1-qism. 97-b
3. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, H.M. Tojiboyeva, G.M. Nazirova, M.A. Umaraliyeva "Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari". "O'zbekiston Respublikasi O'zPFITI" nashriyoti, T.:2014
4. https://lex.uz/docs
5. https://uz.wikipedia.org

Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi
kafedrasi mudiri PhD, dotsent
E-mail: kabrorxonovna@mail.ru

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida ekanligi atroflicha tahlil etilgan, yoritilgan, xulosalangan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tizim, pedagog, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchi, kasbiy-pedagogik kompetentlik, amaliyot, rivojlanish, natija, xulosa.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В данной статье анализируется, выделяется и делается вывод о развитии профессионально-педагогической компетентности будущих учителей начальных классов как актуальная проблема.*

Ключевые слова: *образование, система, педагог, будущий учитель начальных классов, профессионально-педагогическая компетентность, практика, развитие, результат, вывод.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS AS A CHALLENGING PROBLEM

Abstract. *In this article, the development of professional-pedagogical competence of future primary school teachers is analyzed, highlighted and concluded as an urgent problem.*

Key words: *education, system, pedagogue, future primary school teacher, professional-pedagogical competence, practice, development, result, conclusion.*

So‘nggi yillarda ijtimoiy voqelik doimiy va jadal ravishda o‘zgarib borayotganligi, ta’lim sohasida islohotlarning faol amalga oshirilishi, jamiyatning mutaxassis-pedagoglarga bo‘lgan talablari darajasining o‘sib borayotganligi, ta’limga kelajakka sarmoya sifatida qaralishi kabi sabablar o‘qituvchi shaxsining ma’lum kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi taqozo etmoqda.

Ta’limni rivojlantirish modernizatsiyalash bilan bog‘liq jarayonlarning faollashuvi bilan tavsiflanib, ta’limni zamonaviy hayot ehtiyojlariga moslashtirish maqsadida ta’lim jarayonini tizimli va strukturaviy jihatdan o‘zgartirish, ta’limni uzluksiz yangilash amaliyotini ishlab chiqish, kasbiy-pedagogik jarayonlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va istiqboldagi ehtiyojlariga va talablariga yo‘naltirishga doir ijtimoiy zaruriy mexanizmlarini yaratish bilan xususiyatlanadi.

R.X.Djurayev, U.Inoyatov, Z.K.Ismailova, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, O.X.To‘raqulov, A.R.Xodjaboyev, J.A.Hamidov, S.Y.Ashurova kabi olimlar bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash, kasbiy kompetentlik va tayyorgarligini rivojlantirish muammolari[1] yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Tadqiqot ishimiz doirasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish muammolarini aniqlashtirish va tahlil etish maqsadida jarayonga salbiy ta’sir etuvchi jihatlarga alohida e’tibor qaratildi.

Kasbiy-pedagogik kompetensiya - bu shaxsning psixologik-pedagogik bilim sohasidagi kompetensiyalari majmuida ifodalangan integral xususiyatini anglatib, shaxsning ijtimoiy va qadriyatli jihatlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoniga faol ta’sir ko‘rsata olish, pedagogik jamoada ijtimoiy va qadriyatli funksiyalarni bajarish, xatti-harakatlarning salbiy ko‘rinishlarining oldini olish va

[1] Каримова Н.Н. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш. Пед. фан. фалсафа доктори (PhD) дис. Тошкент – 2018., 130 Б. 5-6 бет.

bartaraf etish imkonini beradi[1]. Mazkur kompetentlik kasbiy va pedagogik kompetensiyalarning integrativ xususiyatlari majmuini aks ettiruvchi shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishga qaratilgan shaxsiy va kasbiy fazilatlari hamda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishni ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va mahoratining o‘zaro muvofiqligini anglatadi.

Ta’limga oid lavozimlarning malaka xususiyatlariga ko‘ra, o‘qituvchi “ta’limning turli shakllari, usullari, metodlari va vositalaridan, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan, shu jumladan axborot va raqamli ta’lim resurslaridan foydalangan holda talabalarni o‘qitish va tarbiyalashni amalga oshiradi, psixologiya fani, rivojlanish psixologiyasi va maktab gigiyenasi, shuningdek, talabalar bilan joriy va zamonaviy texnologiyalarni muhokama qiladi, bilimlarni rivojlantirish, ko‘nikmalarni egallashni hisobga olgan holda fan bo‘yicha talabalarning o‘rganish samaradorligi va natijalarini baholaydi, pedagogik va raqamli ta’lim sohasidagi yutuqlarga asoslangan treninglar o‘tkazadi. Biroq, shunga qaramay, pedagog ta’limni rivojlantirish bilan aloqador muammolarini hal qilishda asosiy ishtirokchi bo‘lib, bu ta’lim sohasiga oid islohotlarni amalga oshirishda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning ajralmas sharti hamdir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy, tashkiliy-boshqaruv kabi turlari, vazifalari, bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar: umummadaniy, kasbiy, fanga doir kompetensiyalari hamda kasbiy kvalifikatsiyalari, shuningdek bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fanlar dasturlariga qo‘yiladigan umumiy talablar belgilab berilgan. Biroq, ushbu talablar doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlash jarayoni yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, kelgusi kasbiy faoliyatda ta’lim oluvchilarda jamoasida ilmiy manbalar bilan ishlash, mavjud ma’lumotlarni tahlil etish, izlash va qo‘llashga doir ko‘nikmalarining yetishmasligi, ularni amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq muammolar, ta’lim oluvchilar va pedagogik jamoa bilan muloqotda turli qiyinchiliklarning kuzatilishi aniqlandi.

Ta’lim makonida bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish, uning ijodiyligini rivojlantirish avvalo, yuqori malakali ijodkorlik sifatlariga ega boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash muammosi bilan bog‘liq. Ushbu muammolarni hal qilish birinchi navbatda, o‘quv jarayonida kasbiy mahoratga bog‘liq bo‘lib, bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘rganishga, ularda borliqni noodatiy kashf etishga qiziqishini kuchaytirishi bilan birgalikda, kelgusida o‘quvchi shaxsida kognitiv faollik, ijodiy fikrlash, o‘zini-o‘zi tahlil qilishga qodir shaxsni shakllantirishga yordam berdi.

Pedagogika fani va amaliyoti bir xil ijodkor insonni faqat ijodkorgina tarbiyalashini ishonchli isbotlaydi. Ushbu nuqtai nazardan, professional mutaxassisni shakllantirishga yo‘naltirilganligi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda, shaxsning ijodiy rivojlanishi, uning yangilik va tajribaga ochiqligi, pedagogik mahorati, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy faoliyatda o‘zini namoyon qila olish qobiliyatiga ustuvor ahamiyat beriladi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish mazmuni shaxsning nafaqat kognitiv-aksiologik balki, kasbiy-ijodiy, kasbiy-metodik ko‘nikma va mahoratini shakllantirishni ham taqozo etadi. Biroq, maktab amaliyotida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan o‘quv materialini original loyihalashga tayyorligi, ta’limning nostandart shakllaridan erkin foydalana olish, o‘quv jarayonining turli sub'ektlari bilan samarali hamkorlik qilish, birgalikda ijodiy yaratuvchanlik faoliyatini amalga oshirishda ma’lum kamchiliklar aniqlandi. Bu esa, oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash mazmuni, shakllari hamda ularda tarkib toptiriladigan kasbiy-ijodiylikning mavjud holati bilan talab qilinadigan darajalari o‘rtasidagi tafovut bilan bog‘liq.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash va ularning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda ma’lum shart-sharoitlarni tashkil etish, pedagogik kadrlarning kasbiy mobilligini shakllantirish zarurati ortib bormoqda.

Bugungi kunda ta’lim fuqarolarning ijtimoiy harakatchanligi omili sifatida qaralib, shaxsga yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishga imkon berishini, uning sifati esa mamlakat obro‘-e’tiboriga bevosita ta’sir etishini, davlatning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashini hisobga olsak, yuqori malakali kadrlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mobilligini shakllantirishni ta’minlovchi kasbiy tayyorgarlikning innovatsion shakllarini izlash zarur.

O.A.Polejaevaning fikriga ko‘ra jamiyatning rivojlanishi bevosita har bir shaxsning madaniy va intellektual kapitaliga bog‘liq bo‘lib, bunda muhim vazifani insonlarning “boshlang‘ich qobiliyatlari"ni tan olish va takomillashtirilishini ta’minlaydigan maxsus kasbiy kompetensiyalar bajaradi”. “...mobillikni

[1] Третьяк Ирина Георгиевна Профессионально-педагогическая компетентность педагога // СНВ. 2014. №4 (9). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/professionalno-pedagogicheskaya-kompetentnost-pedagoga (дата обращения: 20.04.2024).

rivojlantirish kasbiy ta'limning ajralmas qismi emas. Biroq, ushbu yangi shakllanish kasbiy kompetentsiyani ta'minlash vositasi hisoblanadi. Shu sababli, mutaxassisni kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishda uning mobillik xususiyatlarini inobatga olish lozim"[1]. Demak, kasbiy mobillik mutaxassisning harakatchanligi, ijtimoiy vaziyatlarga tezkorlik bilan moslashuvining manbai hisoblanib, ushbu sifat kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda dolzarb sanaladi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni shaxslararo munosabatlarda faol ishtirok etish, hozirjavoblik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan faollik, mutaxassislikka doir yuqori darajadagi kognitiv tayyorgarlik hamda zaruriy kasbiy va shaxsiy fazilatlarning o'zaro aloqadorligi va birligini taqozo etadi. Bu esa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kelgusi kasbiy faoliyatida kuzatilishi mumkin bo'lgan "oqsoq"liklarni oldini olishga imkon beradi deb hisoblaymiz.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi o'ziga xos mutaxassislik sohasi sifatida nazariy ma'lumotlarni tahlil qilish, ishonchli ilmiy manbalardan foydalanish, yangi ma'lumotlarni mustaqil ravishga o'rganish va dars jarayoniga tatbiq etish bilan bog'liq xususiyatlarni ham taqozo etadi. Biroq, sohaga doir adabiyotlarni emperik o'rganish natijasida bo'lajak o'qituvchi shaxsida mazkur jihatlarni o'zida mujassammlashtiruvchi axborot kompetentligining yetarli darajada rivojlanmaganligi natijasida kelgusi kasbiy faoliyatda ayrim noqulayliklar kuzatilishiga sabab bo'lishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримова Н.Н. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш. Пед. фан. фалсафа доктори (PhD) дис. Тошкент – 2018., 130 Б. 5-6 бет.

2. Третьяк Ирина Георгиевна Профессионально-педагогическая компетентность педагога // СНВ. 2014. №4 (9). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/professionalno-pedagogicheskaya-kompetentnost-pedagoga (дата обращения: 20.04.2024).

3.Кочарян Т.Э. Развитие методической компетентности преподавателя среднего профессионального учебного заведения в условиях постдипломного образования: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук - Ставрополь: ФГОУ ВПО СПИ, 2004. - 179 с.

4. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Тошкент давлат педагогика университети. 60110500 – Бошланғич таълим бакалавриат таълим йўналишининг малака талаблари. Тошкент-2022.

5.Игнатова Ольга Ивановна Развитие творческих способностей будущих учителей начальных классов в процессе педагогической практики // Проблемы современного педагогического образования. 2018. №61-1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-tvorcheskih-sposobnostey-buduschih-uchiteley-nachalnyh-klassov-v-protsesse-pedagogicheskoy-praktiki-1 (дата обращения: 24.04.2024).

6. Сысоева С. О. Основы педагогического творчества: учебник. / С. О. Сысоева. - К.: Миллениум, 2006. - 346 с.

7. Белякова Н.В. Профессиональная мобильность педагогических кадров как показатель их успешности в условиях перехода на стандарты нового поколения // Сборник материалов Ежегодной международной научно-практической конференции «Воспитание и обучение детей младшего возраста». 2014. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/professionalnaya-mobilnost-pedagogicheskih-kadrov-kak-pokazatel-ih-uspeshnosti-v-usloviyah-perehoda-na-standarty-novogo-pokoleniya (дата обращения: 24.04.2024).

[1] *Мищенко В.А., Черкасов А.В.* 2012. Теоретические аспекты формирования профессиональной мобильности студентов вузов на современном этапе реформирования высшего образования // Педагогическое образование и наука. №5. С.81

Ziyomuhammad Ne'matov Bahodir o‘g‘li
Nizomiy nomidagi TDPU
"Boshlang'ich ta'limda matematika va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: ziyonematov1997@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. *Ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ta’lim faoliyati vositalarini bosqichma-bosqich interiorizatsiya qilish ham yordam beradi. Ta’lim jarayoni rivojlanib borar ekan, o‘quvchi yozish, o‘qish va atrofida barcha narsalarga e’tiborli bo‘ladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ham, umuman o‘quvchilarni psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash.*

Kalit so‘zlar: *ijodiy fikrlash, rivojlantirish, raqamli texnologiyalar, boshqarish, ta’lim faoliyati, o‘quvchi, mexanizmlar, umumiy o‘rta ta’lim, ta’lim texnologiyalari hamda vositalar.*

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Развитию творческого мышления способствует также постепенная интернализация средств учебной деятельности. По мере развития учебного процесса ученик становится внимательным к письму, чтению и всему, что его окружает. Психолого-педагогическая поддержка студентов в целом, как для развития творческого мышления.*

Ключевые слова: *творческое мышление, развитие, цифровые технологии, менеджмент, образовательная деятельность, обучающийся, механизмы, общее среднее образование, образовательные технологии и инструменты.*

METHODS OF DEVELOPING CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract. *The development of creative thinking is also helped by the gradual internalization of the means of educational activities. As the educational process develops, the student becomes attentive to writing, reading and everything around him. Psychological and pedagogical support for students in general, both for the development of creative thinking.*

Key words: *creative thinking, development, digital technologies, management, educational activities, learner, mechanisms, general secondary education, educational technologies and tools.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martda “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qarorida Umumiy o‘rta ta’limga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’limning o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzviy aloqadorligini ta’minlash maqsadida[1] boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarda o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o‘zini o‘zi nazorat qilish, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslarini egallashni ta’minlashga yo‘naltiriladi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun umuman o‘quvchilarni psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash uchun ham boshlang‘ich sinf yoshi va o‘spirinligi alohida ahamiyatga ega. Birgalikda ushbu ikki yosh davri ijodiy o‘sish nuqtai nazaridan rivojlanishning eng dinamik segmentini namoyish etadi.

Ta’lim faoliyatining psixologik tomoni o‘quvchilar tomonidan turli xil mazmundagi va har xil murakkablik darajasidagi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni hamda shu bilimlardan foydalanish usullarini o‘zlashtirish jarayoni hisoblanadi. O‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni individual faktlarni yodlash bilan cheklanib qolmaydi, bu ijtimoiy tajribani shaxsiy bilan birlashtirish, har bir yangi faktda sub’ektiv va amaliy qismni topish bilan bog‘liq.

O‘quv jarayoniga kirish faktining o‘zi o‘quvchining motivatsion ehtiyoj sohasini rag‘batlantiradi, ko‘plab ehtiyojlarni qondiradi va pirovardida barqaror motivlarni shakllantiradi. O‘rganish bilan o‘quvchi

o‘zining yangi, hozirgi, o‘tmishi va kelajagi dunyosini ko‘rishni boshlaydi, butun hayoti yangi mazmunli faoliyat - kognitiv o‘rganish faoliyati ta’sirida ranglanadi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ta’lim faoliyati vositalarini bosqichma-bosqich interiorizatsiya qilish ham yordam beradi. Ya’ni ta’lim jarayoni rivojlanib borar ekan, o‘quvchi yozish, o‘qish va mavzularni sanash atrofida barcha e’tiborini va harakatlarini jamlashni to‘xtatadi. Maktabning birinchi sinfining oxirida o‘quvchilar ilgari o‘rganilgan va tarjima qilingan ko‘nikmalardan yanada murakkab masalalarni hal qilish vositasi sifatida foydalanadilar. Ichki harakatlar rejasi shakllantiriladi, bu ijodiy fikrlashning kuchli dvigateli, chunki "koagulyatsiya" va "suvga cho‘mish" dan keyingi aqliy jarayonlar bir-biriga yaxshiroq bog‘lanib, osonroq ishlaydi. Diqqat va idrok fikrlashga bo‘ysunadi, ufqning kengayishi va fikrlashning rivojlanishi tufayli xotira tuziladi. O‘rganish ruhiy jarayonlarni o‘zboshimchalikka undaydi va iroda sohasining rivojlanishi bunga qo‘shimcha ravishda yordam beradi[3].

Tadqiqot maqsadi. Yangilangan ta’lim mazmuniga binoan o’qitish jarayonini tashkil etishda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillariga qat’iy rioya qilish, zamonaviy interfaol ta’lim metodlari hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, o’qitishni tashkil etishning eng samarali usullaridan foydalanish lozimligini hamda mazkur jarayonda o’qituvchi mas’uliyati va vazifalarini yanada oshirishni belgilab berdi.

Tadqiqot usullari. Kuzatish, ilmiy manbalar va ilmiy tadqiqot ish natijalarini pedagogik-psixologik tahlil qilish, taqqoslash, pedagogik tajriba-sinov.

	O‘qish savodxonligi	**Yozish**	**Og‘zaki bayon qilish**
Ijodiy qobiliyatlarini riojlantirish	jamiyat tomonidan talab qilinadi	tovush va harflar ko‘nikmasini mukammal egallash	antiqiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirishga yordam beradi

O‘quv faoliyati, boshqa narsalar qatori, o‘quvchining rivojlanayotgan ijodiy tafakkurini sub’ektiv ahamiyatga ega bo‘lgan motivga turtki beradi. Ijodiy faoliyat har tomonlama rag‘batlantiriladi va ijobiy baho bilan taqdirlanadi. O‘z navbatida, bu motivning o‘zgarishi bilan to‘la: ko‘pincha kichik o‘quvchilar uchun ijobiy baho va maqtov topilgan echimdan ko‘ra muhimroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan bunday munosabati, mohiyatan, tabiiy va davrning yosh xususiyatlariga javob beradi. Ma’lumki, ijodiy qarorning sub’ektiv ahamiyati motivi bu yoshdagi o‘quvchilarda beqaror va o‘ta nomukammal bo‘lib qoladi, garchi u birinchi bo‘lib ularning rivojlanishining ontogenetik tarixida paydo bo‘lsa [4].

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ijodiy fikrlashining yana bir xususiyati Kovalenko, N.V. Kochelaeva, E.L. Yakovleva va boshqa A.B.ning tadqiqotlarida tasvirlangan.

Og‘zaki fikrlash muammolarni hal qilishning stereotipli usullarini istashda namoyon bo‘ladi. Ijodiy fikrlashda bu tushunchalar vazifasi nuqtai nazaridan ma’lumotlardan tashqariga chiqa olmaslik, tavsiya etilgan materialning bir xil ishlashida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Yuqorida aytilganlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, maktabdagi o‘quvchilik davrida ijodiy fikrlash sifat jihatidan ham, moddiy jihatdan ham, protsessual yo‘nalishlarda ham rivojlanadi va bu rivojlanish, avvalo, o‘quvchi uchun yangi bo‘lgan va shu tufayli yuzaga kelgan ta’lim faoliyati bilan bog‘liq.

Aqliy aloqalardagi o‘zgarishlar, ong va shaxsiyat ustidan nazoratni kuchaytiradigan, fikrlashning yanada samarali shakllarining kamolotini oshiradigan funktsional aloqalarni ajratish mumkin. O‘quvchining aqliy voqelikdagi bu va boshqa o‘zgarishlar hanuzgacha nomukammal, ammo etarlicha to‘liq va moslashuvchan ijodiy faoliyatni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, bu esa o‘z navbatida psixikaning sanab o‘tilgan yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish uchun vosita hisoblanadi.

Biroq, ijodiy fikrlash yosh o‘quvchining shaxsiyatiga juda bog‘liq bo‘lib, uning rivojlanish istiqbollari bevosita barcha aqliy tuzilmalarni keyingi ta’lim va rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu bosqichda ijodiy rivojlanishdagi eng muhim yutuqlar quyidagilardir: ijodiy fikrlash uslubini o‘zlashtirish, nazariy-empirik tizimga muvofiq erkin analitik-sintetik faoliyatni o‘zlashtirish.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martda “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 6108 - sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni.

4. Hakimov F. THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE MANAGEMENT OF GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – Т. 4. – №. 02. – С. 164-168.

Azamatova Nigina Yoqubjon qizi
Osiyo xalqaro universiteti magistr

O'ZBEK ALIFBOSINING YARATILISH TARIXI VA MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Dunyoda hech bir kitob murg'akkina bolakay uchun ma`naviyat ko'zini ochishda alifbega teng kelolmaydi. Unda alifbe darslikmi yoki kitob? U bolaga savod sabo'ini berishda darslik, lekin uning ma`naviy dunyosiga vatan, ona, er, qo'yingki, borliq olam tushunchalarini ilk bora olib kirishi bilan mo'jizaviy kitob vazifasini o'taydi. Shu sababli bunday kitobni yaratish behad mas`uliyatlidir. U hech qanaqa ilmiy yoki badiiy nomga ega emas, balki har bir xalq amal qilayotgan milliy alifbolarning boshlang'ich harflari nomlari qo'shilmasidan hosil bo'lgan so'zdan nom olgan.*

Kalit so'zlar: *alifbe, darslik, saboq sug'diy, xorazmiy, runiy, monaviy, uyg'ur, Savodi ta`lim , Yakka baytlar, yozuv, harf.*

ИСТОРИЯ И ПРОБЛЕМЫ СОЗДАНИЯ УЗБЕКСКОГО АЛФАВИТА

Аннотация. *Ни одна книга в мире не сможет сравниться с алфавитом в раскрытии духовных глаз маленькому ребенку. Алфавит – это учебник или книга? Это учебник для обучения грамоте ребенка, но она служит и чудодейственной книгой, впервые знакомящей с понятиями Родины, матери, мужа и даже вселенной в его духовном мире. Поэтому создание такой книги – это очень ответственно. У него нет никакого научного или художественного названия, но он был назван по названию начальных букв национального алфавита, используемого каждым народом.*

Ключевые слова: *алфавит, учебник, урок сугдийский, хорезмийский, рунический, нравственный, уйгурский, грамотность, отдельные стихи, письмо, буквы.*

HISTORY AND PROBLEMS OF CREATING THE UZBEK ALPHABET

Abstract. *Not a single book in the world can compare with the alphabet in opening the spiritual eyes of a small child. Is the alphabet a textbook or a book? This is a textbook for teaching a child to read and write, but it also serves as a miraculous book, introducing for the first time the concepts of the Motherland, mother, husband and even the universe in his spiritual world. Therefore, creating such a book is very responsible. It has no scientific or artistic name, but was named after the initial letters of the national alphabet used by each nation.*

Key words: *alphabet, textbook, lesson Sugdian, Khorezmian, runic, moral, Uyghur, literacy, individual poems, writing, letters.*

O'z yozuviga ega jahon xalqlarining barchasida bola ko'z ochib ko'radigan, aniqrog'i, yozish va o'qishni ilk bor o'rgata turib kishilik tomonidan yaratilgan ma`naviyat mulkiga ochqich vazifasini bajaradigan mo''tabar bir kitob bor. U hech qanaqa ilmiy yoki badiiy nomga ega emas, balki har bir xalq amal qilayotgan milliy alifbolarning boshlang'ich harflari nomlari qo'shilmasidan hosil bo'lgan so'zdan nom olgan. Shu bois lotin alifbosida ish ko'radigan yunonlarda "alfa" va "beta" yoki "vita" harflari nomi bilan "alfavit", nemislarda, inglizlarda va fransuzlarda "alfapit" deyilsa, qadimda arab alifbosida ish ko'rganligi bois o'zbeklarda, tojiklarda "alif" va "be" harflari nomi bilan "alifbo", moldovanlarda esa ular alifbosidagi to'rt harf -"al-bu-ni -tse" yoki "a -be -che -dar" nomlari bilan "albunitse" yoki "abechedar", nihoyat ieroglif yozuvi bilan ish ko'riladigan xitoylarda "xay" va "pyan" ierogliflaridan tuzilgan "xay-pyan" tarzidagi nomlar bilan yuritiladi. Dunyoda hech bir kitob murg'akkina bolakay uchun ma`naviyat ko'zini ochishda alifbega teng kelolmaydi. Unda alifbe darslikmi yoki kitob? U bolaga savod sabo'ini berishda darslik, lekin uning ma`naviy dunyosiga vatan, ona, er, qo'yingki, borliq olam tushunchalarini ilk bora olib kirishi bilan mo''jizaviy kitob vazifasini o'taydi. Shu sababli bunday kitobni yaratish behad mas`uliyatlidir.

Turkiy xalqlarning sug'diy, xorazmiy, do'lbarjin (runiy), monaviy, uyg'ur kabi o'z qadimiy yozuvlari bo'lgani tarixdan ma`lum. Lekin, VII -VIII asrlarda arablar Movarounnahrni bosib olgach, bor kuch

va imkoniyatlari bilan bu yozuvlarni ham, shu yozuvlardagi bitiklarni ham yo'qotish siyosatini olib bordi, o'rniga zo'ravonlik bilan o'z yozuvini joriy etdi. Xalqimiz bu yozuvga o'n to'rt asr davomida amal qildi.

Arablar boshda bu yozuvni erli aholiga o'zaki shaklda o'rgatishga kirishgandilar. Bu bilan muqaddas qur`oni Karimning o'zaki nozil qilinganiga asoslangandilar. Shu maqsadda arab alifbosidagi barcha harflarni maxsus moslashtirilgan taxtachaga yozib, har bir harf nomini o'z tartibiga ko'ra qiroat bilan o'qib yodlash va shaklini esda qoldirish asosida o'rgata boshladilar, Ehtimol arab alifbosi yozilgan shy taxtachalarni alifbe yaratish yo'lidagi dastlabki izlanishlar natijasi o'laroq qarash mag'bulroqdir. har qalay dastlabki maktablarning boshida faqat o'qish asosida ish ko'rishgani, yozishni o'rgatish maqsadini ko'zlamagani ham pgu fikrimizni dalillashi mumkin.

Keyinchalik yozishdan ham saboq beruvchi maxsus maktablar paydo bo'la boshlagach, boshda shu maktablarda ham taxtakachlardan foydalanilgan bo'linsa-da, ulardan asosiy maqsadga erishi qiyinligini anglashga olib keldi. Natijada yozuvni o'rgatishga mo'ljallangan maxsus tavsiya - bitiklar yokи qo'llanmalar yaratish masalasi kun tartibiga qalqib chiqa boshladi. Manbalar arab yozuvini o'rgatishga bag'ishlangan ana shunday ilk bitik 908 - 909 yillarda Isxoq binni Ibrohim Tamimiy tomonidan yozilgan "Tuhfai vomiq" risolasi ekanligini qayd etadi. Biroq uning asari qismati hanuzgacha noma`lum. Abu Ali ibn Muqlo (x asr)ning ham shunday asari borligi e`tirof qilingan. Lekin bizgacha Ibn Bavvob (XI asr)ning 22 baytdan iborat "qasidai roiya" manzumasi etib kelgan. U yozish qoidadarini she`r bilan ifodalagan ilk alifbe (abiytsedariy) namunasidir. SHundan so'ng arab alifbosidagi harflarni hajman nuqtalar bilan belgilash odatga kirdi va shu xildagi alifbe manzumalar yaratila boshlandi. Jumladan, hoji Mirali Tabriziyning she`riy "Mufradot" va nasriy "Medodul xutut" (Xatlar (yozuvlar) rangi), Sulton Ali Mashxadiyning "Sirot ul -xat" (Yozuv (xat) sirlari), Darvesh Muhammad binni Do'stmuhammad Buxoriyning "Favoyid ul -xutut" (xatning foydalari, 1587) asarlari dunyoga keldi. (qarang: A. Murodov o'rta Osiyo xattotlik san`ati tarihidan Toshkent: "Fan", 1971, 28 - 6). Shuningdek, yozuvni o'rgatishda "Badoiy ul -insho" (Badiiy insholar), "Munshaot" (Maktublar) va "Dastur ul -kuzzot" (qozilar uchun dastur) kabi qo'llanmanoma asarlardan ham foydalanilgan. Biroq bu asarlarning barchasi arab yo fors - tojik tilida bo'lganidan turkiyzabon hamushrning bolalari tushunuviga birmuncha qiyinchilik tug'dirgan. SHu qiyinchilikni bartaraf etishning davr taqazosiga aylana borishini anglagan SHermuhammad Munis, Boborahim Mashrab, Mirzosalim Mirzoraxim o'g'li Salimiy va Anbar otin singari ijodkorlar XVII -XIH asrlar davomida alifbo - g'azal, alifbo -muhammas, "Savodi ta`lim" va "Yakka baytlar" singari alifbo - manzumalarini o'zbek tilida yaratdilar. Nihoyat 1909 yilda Pir taxallusli Said Salohiddinxo'ja ibn Olovid-dinxo'ja yaratgan o'zbekcha "Mufradot" Toshkentda G'ulomxasan Orifjonov matbaasida bosilib chiedi. Shuni ta`kidlash joizki, bu kitob fors -tojik tilidagi "Mufradot"ning o'zbekchaga tarjimasidir. Unga ko'ra arab alifbosini o'rganish 3 bosqichda amalga oshirilgan:

Birinchi bosqich mufradot davri deyilib, 1-2 yilgacha davom etgan. Mufradot so'zining ma`nosidan ayonlashayotirki bu bosqichda arab alifbosidagi har bir harfni alohida - alohida, toq yoki yakka xolda yozish o'rgatilgan. So'ngra harfni harfga qo'shib yozish davri boshlangan. Murakkabot deyilguvchi bu bosqichda harf o'zidan oldingi yoki keyingi harfga qanday bo'lanishi - murakkab qilinishi mashq qilingan. Tabiiyki, bunda bo'g'in ko'chirish mashq asosini tashkil etilgan. Nihoyat uchinchi bosqichda - so'znи to'lasincha yozishga ko'chilganki, bu muqattaot davri deyilgan. Bunda, asosan, qit`alar (muqataot - qit`aning ko'pligi ma`nosida), ikkiliklar ruboiylarni ko'chirib yozish etakchi tamoyilga aylangan. Shundan keyin tolibul ilmlarga mustaqil holatda qarindoshlariga duoyi salomlar (xatlar) va har xil ish qo'ozlarini yozish o'rgatilgan.

Shuni eslatish joizki, Boborahim Mashrab va Mirzosalim Mirzorahim o'g'li Salimiylarning alifbe - g'azali va alifbe - muhammasi hurufi dalolat san`ati asosida yozilgan bo'lsa, Anbar otinning "Yakka baytlar" alifbe - manzumasi xurufi xijo san`ati negizida bitilgan.

Mashrabning alifbe - g'azali 16 bayt (32 satr)dan iborat; har satri arab alifbosidagi bir harf bilan boshlangan. Shoir shu harfdar dalilligida o'zining olloh jamoliga oshiqligi tuyg'ularini tasavvufona ruhda izhor etishga intiladi;

Te -tilovat qilg'ay erdim oyati ruxsoringni,
Se - savobi xatmi qur`on intiho qildim bu kun.

Mirzosalim Mirzorahim o'g'li Salimiy ham Mashrab an`analariga sodiq, biroq u o'zining 6 band (30 satr) alifbe - muhammasida Mashrabdan farqli o'laroq lirik qahramonning ijtimoiy noroziligi ifodasiga e`tiborini qaratib, arab alifbosidagi har bir harfning shakliy ko'rinishini shafe keltirib, o'zi yashagan jamiyatning insonni qay ko'ylarga solayotganidan shikoyatini dalillashni ko'zlaydi:

"Alif"dek qomatim sarv erdi umrim jo'nborida,

Bukildi "be" kabi tushdi qarilik rahguzorida,
Tanim "te"dek tovona erdi ayyomi bahorida,
Sanou hamd etardim "se" kabi tasbih torida,
Ki emdi "jim" kabi jismim yiqilmoqdir mazorida.

Anbar otin esa hurufi ^ijo usulida bitgan "Yakka baytlar" alifbe - manzumasida insoniylikni shara-flash yo'lini tutgan. Unda arab alifbosidagi 27 harfning har biriga alohida - alohida she`r bitilgan. Biroq ular bag'ishlov yoki tavsif harakterida emas, balki o'sha harfning faol ishtiroki asosida ifodalagan tovushni idrok etishni qulaylashtirish maqsadida bitilgan to'rtlik, sakkizlik va o'nlik shaklidagi poetik tizmalardir. SHoira ularda shunchaki tovushni xis etishni ko'zlash bilan cheklanmaydi, bil`aks ularda murg'ak qalblarga ijtimoiy - axloqiy saboq berishni ham ko'zlaydi, Chunonchi, "alif" ta`rifini odamiylik moxiyatini ochishga qaratarkan, Alisher Navoiyning "Odamiy ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami" hikmatidan ijodiy oziqlana turib, uni odamiylikning bosh sharti - vatanga uyg'unlikdan iborat fuqarolik tuyg'usini uyg'otuvchi vosita darajasida talqin qiladi:

Odam ersang ma`ni bil dona - dona,
Vatan erur senga ikkinchi ona,
So'zlamasdan oldin so'zingni sina,
Har bir so'zdir umring ichinda sina (v).

Satrlar oxiridagi "na" hijolari "alif" bilan tugagan, ayni vaqtda u o'sha satrlarning ham, demakki, satrlarda ifolalangan poetik ma`no va satrdagi ritmik butunlikning ham intihosi, yakuni. SHoirda "alif" belgisi ifodalagan tovushga shu xilda jilo beradi, unga shu qadar xilma -xil poetik yuk yuklaydu.

O'zbek maktablarida yozuv va uning qoidalarini o'rgatishda Shermuhammad Munisning 1804 yilda yozgan "Savodi ta`lim" manzumasi ayricha ahamiyatga ega bo'ldi. 352 misradan iborat bu alifbe manzumada dastlab xusni xatdan saboq bergan ustozi,mashhur hattot Ibn Hojibga minnatdorchilik bild-irilgach, so'ng uning yozilish ablarini bayon etib, qalam va xatning ahamiyati, xat yozish asboblari va ularni yozishga shay tutish talablariga to'xtaladi, xatning kishilik madaniyati taraqqiyotidagi ahamiyatini uqtiradi. Nihoyat arab alifbosidagi 28 harfning har biriga poetik tavsif berishga o'tadi, har bir harfning necha nuqtalik hajmga egaligi va tabiatda mavjud nimagadir o'xshashligini ta`kidlab, o'sha harfning yozma shaklining xotirada mustahkam o'rnashuviga yo'l ochada. Chunonchi:

Zo uch nuqtayu, lek sarkash,
Qilsa bo'lur oni qushga o'xshash.

Shoir shu xilda harf, obrazining ko'rimliligiga, predmetliligiga erishadi va keyinchalik yaratilajak alifbelarda ko'rgazmali harf metodiga asoslanilishiga yo'l ochib beradi. Shu mantiqqa asos-lanilsa, yuqorida nazardan o'tkazilgan alifbe - manzumalar o'zbek alifbosini yaratish yo'lida o'ziga xos izlanishlar bosqichi bo'lganligini, binobarin, bu dastlabki omil ekanligini e`tirof etish to`g`ridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Абдуллаев Й. Ҳамроҳим. - Т.: Ўкитувчи,1996
2, Бегматов Э., Исматуллаев Н. Ўзбек имлоси. - Т.: ФАН,1979.
4. Бегматов Э. Киши номлари имлоси.- Т.: ФАН,1970.
5. Джамалханов Х.А. Основм узбекской графики. - Т.: ФАН,1991.
6. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўкув кўлланма. 1-кисм. -Т.:Низомий номли ТДПУ босмахонаси ,2004.
7.Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili Darslik.- T.:,2005.
8.Камолов Ф. (Фахри Камол). Ўзбек орфографияси ҳақида. - Т.: Ўкувпед дав нашр,1957.
9.Маҳмудов Н.М. Тил ва ёзув.- Т.: Ўзбекистон, 1987. Ю.Рафиев Абдурозиқ. Лотин ёзувига асосланган узбек алифбоси ва имлоси. - Тошкент, 2003.
11. Рахматуллаев Ш. Орфография қоидалари - саводхонлигимиз асоси.-Т.: ФАН, 1980.
12. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси.- Т.: Университет,2002.

Субхонкулов Жахонгир Рустам Угли
Университет мировых языков Факультет английской филологии.
Учитель английского языка

ПОНЯТИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ В ТРАДИЦИОННОЙ И В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В последнее время к феномену метафоры регулярно обращаются философы, логики, социологи, психологи, лингвисты, литературоведы, представители гуманитарных наук. Сегодня на ее основе сформировались перспективные направления и ведущие источники теории концептуальной метафоры, основанной на принципе родственной связи (сходства) в лингвистике, а также сложный научный прототип когнитивного подхода к исследованию. Несмотря на то, что знаний и навыков о метафоре в лингвистике достаточно, интерес к ней растет все больше. Это связано с переходом метафоризации на качественно новый этап в связи с актуализацией исследований взаимодействия языка и психических явлений. В данной статье мы попытались уточнить понятие концептуальной метафоры в традиционной и когнитивной лингвистике.*
Ключевые слова: *когнитивная метафора, лингвистика, метафорическое мышление, потребность, восприятие, поведение, метафорическая проекция, когнитивное картирование.*

AN'ANAVIY VA KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA KONSEPTUAL METAFORA KONTSEPTSIYASI

Anotatsiya. *So'nggi paytlarda metafora hodisasiga faylasuflar, mantiqchilar, sotsiologlar, psixologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va gumanitar fan vakillari ham muntazam ravishda murojaat qilmoqdalar. Bugun tilshunoslikda oilaviy bog'liqlik (o'xshashlik) tamoyiliga asoslangan konseptual metafora nazariyasining istiqbolli yo'nalishlari va yetakchi manbalari shuningdek,uning asosida tadqiqotga kognitiv yondashuvning murakkab ilmiy prototipi shakllandi. Tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha bilim va ko'nikmalar mavjud bo'lishiga qaramay, unga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa, til va psixik hodisalarning o'zaro ta'siridagi tadqiqotlarning dolzarblashuvi tufayli metaforizatsiya sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada An'anaviy va kognitiv tilshunoslikda konseptual metafora tushunchasini yoritib berishga harakat qildik.*
Kalit so'zlar: *kognitiv metafora, lingvistika, metaforik tafakkur, ehtiyoj, idrok, xatti-harakat, metaforik proyeksiya, kognitiv xaritalash.*

THE CONCEPT OF CONCEPTUAL METAPHOR IN TRADITIONAL AND COGNITIVE LINGUISTICS

Abstract. *Recently, philosophers, logicians, sociologists, psychologists, linguists, literary scholars, and representatives of the humanities have regularly addressed the phenomenon of metaphor. Today, promising areas and leading sources of the theory of conceptual metaphor based on the principle of kinship (similarity) in linguistics have been formed on its basis, as well as a complex scientific prototype of the cognitive approach to research. Despite the fact that there is enough knowledge and skills about metaphor in linguistics, interest in it is growing more and more. This is due to the transition of metaphorization to a qualitatively new stage in connection with the actualization of research on the interaction of language and mental phenomena. In this article, we tried to clarify the concept of conceptual metaphor in traditional and cognitive linguistics.*
Key words: *cognitive metaphor, linguistics, metaphorical thinking, need, perception, behavior, metaphorical projection, cognitive mapping.*

Вводная часть. Зарождение метафоры как языкового феномена приписывается работам Аристотеля, в его «Риторике» и «Поэтике». В этих работах были заложены основы субституции и сравнения, присущие метафоре. И, хотя метафору Аристотеля нельзя отличить от гиперболы или метонимии, в его определениях отражён многоаспектный и диффузный подход к метафоре. Аристотель определяет метафору так: «несвойственное имя, перенесённое с рода на вид, или с вида на род, или с вида на вид, или по аналогии»; «создавать хорошие метафоры – значит подмечать сходство»; «говоря о действительном, соединять с ним невозможное» [2., с.669, 672, 179] Из этих

определений можно предположить, что для Аристотеля метафора выполняет номинативную функцию (перенос имени на не свойственный ему денотат) и эстетическую функцию (средство украшения речи) «создавать хорошие метафоры – значит подмечать сходство». В этом периоде метафора рассматривалась как мощное средство передачи сложных идей при помощи образов. Следует подчеркнуть, что метафору в античное время воспринимали исключительно как языковое явление, игнорируя связь метафоры с мыслительной деятельностью человека.

Анализ литературы. В дальнейшем метафора развивается в рамках литературоведения (Б.В. Томашевский, Г.О. Винокур), стилистики (В.В. Виноградов, Н.Д. Арутюнова, И.Р. Гальперин, И.В. Арнольд, М.П. Брандес) и философии (Ж.Ж. Руссо, Г.В.Ф. Гегель, Х. Ортега-и-Гассет, Э. Кассирер, Ф. Ницше). И.В. Арнольд определяет метафору как скрытое сравнение, целью которой является установление важной черты определённого феномена [1., с.124]. И.Р. Гальперин же относит метафору к стилистическим приёмам: «метафора — это уже факт не только лексикологии, но и стилистики.» [4., с.4] В своей работе «Очерки по стилистике английского языка» И.Р. Гальперин опровергает устоявшее определение метафоры как скрытое сравнение. Он пишет, что метафора соединяет два явления по сходству отдельных признаков, а «сравнение же сопоставляет предметы, понятия, не отождествляя их, рассматривая их изолированно.» [4., с.127] С лингвистической точки зрения И.Р. Гальперин рассматривает метафору как взаимодействие двух значений (словарного или контекстуального) на основе сходства между обозначаемыми ими объектами.

С другой стороны, философы и учёные романтического склада воспринимали метафору как нечто, чего невозможно избежать; как выражается Н.Д. Арутюнова «фатальной неизбежностью» [3., с.8] И в этом смысле метафора воспринимается не только единственным способом выражения мысли, но и способом мышления. Ницше писал «"Вещь в себе" (ею была бы именно чистая, бесследственная истина) совершенно недостижима... Возбуждение нерва становится изображением! Первая метафора. Изображение становится звуком! Вторая метафора. И каждый раз полный прыжок в совершенно другую и чуждую область... Мы думаем, что знаем кое-что о самих вещах, когда говорим о деревьях, красках, снеге и цветах; на самом же деле мы обладаем лишь метафорами вещей, которые совершенно не соответствуют их первоначальным сущностям». Основываясь на словах Ницше можно предположить, что познание в принципе метафорично.

Э.Кассирер приходит к выводу что языку свойственно метафорическое мышление. Первичному человеку было необходимо говорить метафорически не потому, что этот человек хотел поэтически выразить свои мысли, а из-за нехватки выражений, которые удовлетворили бы потребности его духа [5., с.34].

Э.Кассирер различает базисную метафору от языковой метафоры, он определяет языковую метафору как перенос одного понятия, сущность которого уже известна с другим аналогичным понятием; тогда как источником базисной метафоры, по мнению Э.Кассирер, является магическое мышление. Также как и простейшее языковое выражение требует от человека «преобразования определённого мировозренческого или эмоционального содержания в звук», так и мифологический образ возникает в процессе переноса повседневного и обычного в ранг «священного, мифологически и религиозно значимого» [5., с.36]. Автор заключает, что метафора — это не просто языковое средство украшения речи, а функция мышления, «…одно из конститутивных условий существования языка» [5., с.39].

Результат и анализ.

С переходом науки на антропоцентрическую парадигму, учёные всё чаше стали исследовать язык в аспекте человеческой деятельности. В работе Дж. Лакоффа и М. Джонсона «Метафоры, которыми мы живём» авторы отводят метафоре приоритетную роль в процессе мышления “… метафора пронизывает нашу повседневную жизнь, причем не только язык, но и мышление и деятельность. Наша обыденная система понятий, в рамках которой мы думаем и действуем, по сути своей метафорична” [6., с.25] Анализируя повседневную речь, авторы заметили, что обыденная речь метафорична и метафоры структурируют наши мысли, восприятие, действия и поведение. Метафоры настолько часто используются в повседневной речи, что их сложно заметить.

Дж. Лакофф и М. Джонсон утверждают, что концептуальная метафора имеет два семантических пространства или домена, первое из которых представляет собой конкретное понятие, а второе абстрактное. Согласно теории концептуальной метафоры абстрактная идея, которая воспринимается при помощи конкретного понятия называется target domain или цель, а конкретное понятие называется source domain или источник. Эти два пространства связываются между собой, что позволяет идеям и знаниям из сферы источника «source domain» систематизировать понятия

из сферы цели «target domain» (чаще всего понятия из сферы цели абстрактные), этот феномен называется «метафорическая проекция»/ «metaphorical mapping» или «когнитивное отображение»/ «cognitive mapping». Авторы выделяют следующие типы когнитивных метафор: структурные метафоры, ориентационные, онтологические (метафоры сущности и субстанции, метафоры вместилища).

Первым типом концептуальных метафор авторы называют структурной метафорой, например argument is war, time is money являются не только основой общения, но и влияют на восприятие абстрактных понятий и как на эти понятия реагирует индивид. Авторы приводят пример time is money, современное сообщество понимает и систематизирует абстрактное явление время при помощи домена источника деньги или ценность. В качестве иллюстрации приводится целый ряд примеров: I have invested a lot of time in her. You are running out of time. You don't use your time profitably. He is living on borrowed time. Из вышеуказанных примеров можно установить, что слова и словосочетания (to run out of, profitably, borrowed) из сферы денег упорядочивают и систематизируют сферу времени. Поэтому термин времени осознаётся как нечто, что мы можем потратить на кого-то или на что-то (I have invested a lot of time in her.), или как сущность, которую можно занять (He is living on borrowed time.). Метафоры структурирующие один концепт при помощи другого концепта авторы называют структурными метафорами "… что можно назвать структурными метафорами, т.е. случаи, когда один концепт метафорически структурирован в терминах другого" [6., с.35].

Ранее были упомянуты метафоры, структурирующие абстрактные явления. Но функции метафоры не заканчивается на этом, метафоры организуют целую систему концептов во взаимодействии друг с другом. Такие метафоры Дж. Лакофф и М. Джонсон называют ориентационными метафорами "Мы будем называть такие понятия ориентационными метафорами, так как многие из них связаны с ориентацией в пространстве". [6., с.35] По мнению авторов, ориентационные метафоры основаны на культурном и физическом опыте человека (эти понятия будут рассмотрены ниже). Ориентационные метафоры показывают бинарность человеческого мышления. Такие понятия из сферы физического опыта человека как: вверх-низ, внутри-снаружи, передняя сторона-задняя сторона систематизируют разные понятия, аспекты человеческой деятельности. Приводятся примеры: он поднимается по карьерной лестнице (he is climbing up the career ladder), его заработок снизился в прошлом году (his income fell last year) и т.д. Дж. Лакофф и М. Джонсон утверждают, что ориентационные метафоры образуют целую систему концептов, которые составляют систему успех – верх, неудача – низ.

Следующий тип метафор называется онтологическими метафорами, деятельность материальных объектов позволяет воспринимать человеческий опыт в качестве объектов или веществ, если понадобиться вычленить их части и обращаться с ними как с единообразными сущностями или веществами. «Стоит только отождествить части нашего опыта с объектами или веществами, появляется возможность ссылаться на них, относить их к определенным категориям, группировать и определять их количество — и тем самым размышлять о них.» [6., с.49] При помощи онтологических метафор не дискретные и неразграниченные объекты такие как, горы, изгороди и улицы воспринимаются как чётко разграниченные или определённые. По мнению авторов, именно при помощи онтологических метафор можно определить границы пространств, объектов и явлений; а это в свою очередь способствует лучшему взаимопониманию между коммуникантами.

По мнению Дж. Лакоффа и М. Джонсона рассмотрение человеческого опыта в виде объекта создаёт иллюзию того, что человек понимает то явление, о котором идёт речь. Это позволяет говорящему отсылаться, оценивать количество, рассматривать разные аспекты, определять причины и устанавливать причинно-следственные связи абстрактных явлений. Авторами приводится пример inflation is lowering standard of living, if there's much more inflation, we'll never survive, we need to combat inflation и т.д. Из этих примеров можно вынести концептуальную метафору inflation is an entity. Понимание инфляции, как независимой сущности, способствует ссылаться на неё, определять её количество, выделять определённые стороны, тем самым, создавая иллюзию того, что абстрактное явление поддаётся пониманию.

Раннее обсуждались онтологические метафоры сущности и субстанции, но Дж. Лакофф и М. Джонсон не ограничиваются только этим и развивают онтологические метафоры, дальше добавляя в категорию онтологических метафор метафоры вместилища. Понимание тела в качестве вместилища выработало подсознательное проецирование и другие объекты с внутренней частью

и внешней поверхностью. Явными примерами этого проецирования являются дома и комнаты, когда человек перемещается с одной комнаты в другую, это понимается как движение из одного контейнера в другой. В качестве иллюстрации авторы приводят метафору visual fields, границы нашего зрения концептуализируются как контейнер, а то, что находится внутри него понимается как его содержимое – субстанция. В этих примерах: The ship is coming into view, I have him in sight, He's out of sight now [6., с.56]. Онтологические метафоры способствуют не только пониманию пространства, а событиям, действиям и состояниям тоже. "События и действия метафорически концептуализируются как объекты, занятия как вещества, состояния как контейнеры." [6] Are you in the race on Sunday? There was a lot of good running in the race. Как мы видим в этих примерах забег (race) действие понимается как вместилище, а участники забега, старт и финиш, занятие бегом концептуализируются как содержимыми вместилища.

Из этого вытекает вопрос: как в речи сложно заметить онтологические метафоры? Согласно авторам, онтологические метафоры используются настолько часто, что они воспринимаются как метафоры, а как обычное, само собой разумеющиеся феномены (выражения). Более того они являются "неотъемлемой частью модели внутреннего мира человека, свойственной нашей культуре; большинство людей мыслит и действует на языке этой модели" [6., с.54]

Изучая особенности метафоры структурировать наше мышление, нельзя не упомянуть роль культуры в формировании когнитивных метафор. Авторы теории когнитивной метафоры отмечают, чтобы метафора укоренилась в концептуальной системе человека она должна согласоваться культурным восприятием народа. Возьмём метафору more is better, more is up что согласуется с восприятием человека в таких сферах, например, чем больше денег, тем лучше; чем больше богатства, тем лучше и т.д. Но нужно иметь ввиду такие метафоры не всегда согласуются с реальностью, например, inflation rate is going up или crime rate is going up противоречат метафоре more is better.

Рассматривая проблему концептуальную метафору Дж. Лакофф и М. Джонсон заметили, что, когда какая-то сущность объясняется или описывается при помощи другого конкретного явления какие-то его аспекты высвечивается (highlighting) а какие-то затемняются (hiding). В качестве примера авторы приводят концептуальную метафору argument is war, концепт спор интерпретируется в аспекте войны. Следовательно участники спора воспринимаются как воюющие стороны, кто-то атакует, а кто-то защищается (напр. He attacked every weak point in my argument.); или спор — это нечто, чего можно выигрывать или проигрывать (напр. I've never won an argument with him) но такой аспект спора, как например сотрудничество упускается.

Согласно Дж. Лакоффу и М. Джонсону понимание абстрактных идей в значительной степени основано на физическом опыте человека. То есть деятельность материальными объектами позволяют рассмотреть абстрактные идеи тем же способом. Подходящим примером служит Time is a road, когда говорят о времени как о "дороге", время воспринимается как нечто, по чему можно двигаться, пройдя от точки А к точке Б. Это метафорическое использование физической концепции (движение в пространстве) помогает понять и описать время. "В действительности мы осознаем, что ни одну метафору нельзя понять или адекватно описать изолированно, без учета ее эмпирических оснований." [6., с.43]

Проблема концептуальной метафоры получила дальнейшую разработку в трудах многих российских и зарубежных исследователей. Н. Д. Арутюнова отмечает связь концептуальной метафоры с когнитивными науками целью которых является изучение человеческих когнитивных структур (восприятие, язык, мышление, память, действие), которые связаны со способностью человека к усвоению, переработке и трансформации знания. «В метафоре стали видеть ключ к пониманию основ мышления и процессов создания не только национального специфического видения мира, но и его универсального образа» [3., с.6]

По мнению Н.Д. Арутюновой неиссякаемым источником метафоры является интуитивное чувство сходства. Способности человека «идентифицировать индивидные объекты (т.е. узнавать лица), устанавливать сходство между областями, воспринимаемыми разными органами чувств (напр. твёрдый металл и твёрдый звук) и улавливать общность между конкретными и абстрактными объектами (ср.: вода течёт, жизнь течёт)» неразрывно связаны образным мышлением. [3., с.8] Автор заявляет, что взаимодействие сенсорных механизмов и психики раскрывает у человека возможность «сопоставлять несопоставимое и соизмерять несоизмеримое», тем самым порождая метафору. По мнению Н.Д. Арутюновой метафора выполняет творческую функцию в языке, к которым относятся «развития синонимических средств, появления новых значений и их нюансов,

создания полисемии, развития систем терминологии и эмоционально- экспрессивной лексики.» [3., с.8]

Связь метафоры и мышления дали толчок к открытию новой, познавательной функции метафоры. Метафора не только формирует представление об объекте, но и определяет способ и стиль мышления о нём. Н.Д. Арутюнова приводит пример один из ключевых метафор “society is a building”. Эта метафора отражает устройство общества и выделяет в нём такие элементы как базис т.е. фундамент, опоры, кирпичи, иерархические слои, а фундаментальные изменения, которые происходят в обществе рассматриваются как его перестройка. Помимо этого, когда говорят об обществе используются такие термины как building, falling apart, structure, foundation и т.п.

Источником метафоры по мнению Арутюновой является способность человека улавливать и создавать сходство между очень разными классами объектов. «Метафора отвергает принадлежность объекта к тому классу, в который он на самом деле входит, и утверждает включенность его в категорию, к которой он не может быть отнесен на рациональном основании. Источник метафоры – сознательная ошибка в таксономии объектов.» [3., с.17] Арутюнова полагает, что метафора играет первичную роль в процессе мышления и становится результатом появления новых понятий.

Заключение

Подводя итоги можно сделать следующие выводы,

1. Когнитивный подход к анализу языковых явлений в частности к метафоре, трактуемый не только как стилистический прием но и как способ мышления и концептуализации передаваемой информации способствует декодированию глубинной семантики этого явления.
2. Когнитивная и художественные метафоры базируются на единых когнитивных механизмах взаимодействия концептуальных доменов, способствующих генерированию новых концептуальных смыслов, тем не менее характеризуются рядом отличительных признаков: а) контекстуальным детерминизмом. Б) разветвлённой сетью ассоциаций в) индивидуальной картины мира.

Список использованной литературы.

1. Арнольд, Ирина Владимировна. *Стилистика. Современный английский язык*. Общество с ограниченной ответственностью ФЛИНТА, 2010.
2. Аристотель 1983 – Аристотель. Никомахова этика // Аристотель. Сочинения. Т. 4. М.: Мысль, 1983 [Aristotelis Ethica Nicomachea (Russian translation)].
3. Арутюнова, Нина Давидовна. "Метафора и дискурс." Теория метафоры. 1990. 5-32.
4. Гальперин, Илья Романович. "Очерки по стилистике английского языка." (1958). 9 (1990).
5. Кассирер, Э., et al. "Теория метафоры." М.: Прогресс
6. Лакофф, Джордж, and Марк Джонсон. Метафоры, которыми мы живем. Общество с ограниченной ответственностью УРСС, 2004.

Komilova Muxtaramxon
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

O‘ZBEK VA INGLIZ ANTROPONIMLARINING CHOG‘ISHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada antroponimlar haqida nazariy ma’lumotlar, o‘simlik va gullar, hayvonlar hamda shaxsning xissiy-emotsional holatini anglatuvchi ismlar, ularning o‘zbek va ingliz tillaridagi chog‘ishtirish masalalari borasida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Onomastik, onomastik birlik, onomastik material, antroponim, semantika, etimologiya.*

ПРОБЛЕМЫ ЗАКЛЮЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО АНТРОПОНИМА

Аннотация. *В данной статье представлены теоретические сведения об антропонимах, названиях растений и цветов, животных и эмоциональном состоянии человека, а также их сравнение на узбекском и английском языках.*

Ключевые слова: *Омонастика, омонастическая единица, омонастический материал, антропоним, семантика, этимология.*

PROBLEMS OF CONCLUSION OF UZBEK AND ENGLISH ANTHROPONYM

Annotasion. *This article provides theoretical information about anthroponyms, names of plants and flowers, animals, and the emotional state of a person, and their comparison in Uzbek and English languages.*

Key words: *Onomastic, onomastic unit, onomastic material, anthroponym, semantics, etymology.*

Onomastika muammolarini o‘zbek tilshunos olimlari bu sohaga o‘tgan asrning 1960-yillaridan boshlab katta qiziqish bilan e’tibor bera boshladilar. O‘zbek tili onomastikasi o‘zbek tilshunosligida hozirga kelib rivojlangan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirda o‘zbek onomastikasining antroponimika, toponimika, gidronimika, etnonimika, kosmonimiya, zoonimiya va boshqa shu kabi yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va monografiyalar e’lon qilindi. Onomastik birlikning o‘zbek antroponim yo‘nalishiga o‘z hissasini qo‘shgan va bu soha rivojiga buyuk ilmiy izlanishlarni olib borgan E.Begmatovning ilmiy izlanishlari soha rivojiga yangiliklarni olib kirdi va tub burilishlarni yasadi. 1965-yilda “O‘zbek tili antroponimikasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiya ishini himoya qilgan. Mazkur yo‘nalishning ilmiy tadqiq etilishiga asos solgan. Hozirgi kunga qadar antroponim yo‘nalishi doirasida bir qancha salmoqli, keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borildi va ilmiy ishlar amalga oshirildi.

YA.Menajiev, X.Azamatov, D.Abdurahmonov va E.Begmatov kabi olimlar o‘zbek antroponimlarining semantikasi va etimologiyasi masalalari doirasida “Ismingizni ma’nosi nima?” nomli risolani e’lon qilganlar. Mazkur risolada ismlarning ma’no mazmunini amaliy o‘rganishga harakat qilganlar[2].

XX- asrning 70- yillariga kelib o‘zbek nomshunosligi mustaqil soha sifatida rivoj topa boshladi. O‘zbek antroponimika yo‘nalishiga oid tadqiqotlar sadxi kenggaya boshladi. Antroponimlar (ism, laqab, taxallus va b)ning madaniy- ma’naviy va lisoniy jihatlari amaliy o‘rganila boshlandi. Ular xalqlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar qatorini belgilashi, etnik farqlanishi borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi [3].

XX-asrning 90-yillariga kelib o‘zbek antroponimiyasida tarixiy nomshunoslik yoki tarixiy antroponimiya masalalari maxsus o‘rganildi. Masalan, Sh.Yoqubov va B.Bafoyevlarning “Navoiy” asarlarida olib borgan antroponimik tahlillari maktab o‘quvchilariga tushunarli o‘rganish uchun qulayliklarga va mumtoz asarlarni oson o‘zlashtirishlariga sabab bo‘ldi. Alisher Navoiy ijodida qo‘llanilgan kishi nomlari, geografik, astronomik va boshqa nomlarning o‘rganilganligi sohada yangi ilmiy izlanishlar boshlanishiga turtki bo‘ldi. Bugungi kunda: antroponimika, toponimika yo‘nalishlarida tadqiq etilishi va tahlil qilinishi zarur bo‘lgan asarlar bisyordir. O‘zbek antroponimikasini qancha ko‘p o‘rganib, tahlil qilinsa-da, bu yo‘nalishning biz bilmagan serqirra jabhalari ochilib bormoqda.

O‘zbek antroponimikasining yana bir muammosi poetik yoki badiiy antroponimika masalalari bilan bog‘liq. Ya’ni badiiy asarlarda qo‘llangan kishi ismlari, umuman, atoqli otlar faqat nominativ funksiyani emas, balki bir qancha funksional-uslubiy xususiyatlarni ifodalashga hizmat qiladi. Mana shu masala keyinchalik o‘zbek antroponimikasida E.B.Magazanikning nomzodlik dissertatsiyasi va monografiyasida

antroponimlarning lingivistik kategoriya, onomastilistika va uning rus adabiyotshunosligida tadqiq etish masalalari o‘rganildi [1].

Insoniyatning paydo bo‘lishi unga beriladigan ismni ham tashkil topishiga asos bo‘ldi. Ismlar ma’naviy, siyosiy, ijtimoiy, psixologik ahamiyatga egadir. Ismlar qanday shaklda bo‘lishiga qarab, kishilarni alohida, o‘ziga xos shaxs, uning individualligini ko‘rsatishga ishora qiladi va boshqalardan farqlash uchun ham hizmat qiladi. Demak ismsiz inson yo‘q. Ismlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ular hayotimizda ommabop, zamonaviy, islomiy, kam qo‘llanishi yoki umuman qo‘llanilmasligi, eskirgan yoki tarixiy ismlar bo‘lishi mumkin.

Bilamizki, bola tarbiyasining ilk kunlari uning uchun chiroyli, mos, mazmundor, ma’noli ism tanlab qo‘yishdan boshlanadi. Chaqaloqqa o‘zbekcha ismlar bilan birga islomiy arabcha ismlar ham chaqaloqlarga qo‘yib kelinmoqda. Ismlar ham ijtimoiylashuv jarayonini aks ettiruvchi eng muhim omil hisoblanadi. Bir ism boshqa tillarda ma’no, mazmun jihatdan bir xil bo‘lsa-da, biroq shaklan boshqacha ko‘rinishida uchrashi tabiiy. Hamma xalqlarda bo‘lgani kabi o‘zbek va ingliz tillaridagi ism qo‘yishning o‘xshashlik tomonlarini solishtirish orqali ko‘rib chiqamiz.

Bag‘ishlov ismlar – memorativlar o‘zbek va ingliz tillarida o‘xshash, mazmunan ham, ma’no jixatdan ham o‘xshash bo‘lgan hayvon, o‘simlik va qushlar nomidan kelib chiqib qo‘yiladigan ismlar. Ota onalar farzandining kuchli, qo‘rqmas, dovyurak bo‘lishini istab, kuchlilik timsoli sifatida chaqaloqqa ism beradilar.

Hayvonlar nomidan kelib chiqib qo‘yiladigan ismlar.

O‘zbek	Ingliz
Arslon, Bo‘rivoy, Sherxon, Qo‘chqor, Qo’ziboy, Olmaxon.	Arthur, Tiger, Cat

Arslon, Bo‘rivoy, Sherxon, Qo‘chqor, Qo‘ziboy – bu ismlar o‘quvchilarga tushunarli. Biroq ingliz variantidagi Arthur bilan Artorius bitta ildizdan kelib chiqqan bo‘lib, Artur “ayiq” degan ma’noni anglatadi.

Tiger - bu inson bolasiga qo‘yiladigan ism emas edi. Biroq, bu “Tiger” tushunchani ism sifatida qo‘llanishni mashhur golfchi Tayger Vuds jamoatchilik ongiga kiritdi. Keyinchalik aktyor Tayger Drew-Honey, Paula Yeyts va Maykl Xatchenslar Tiger nomi bilan tanilgan.

Cat - Ketrin uchun uy hayvonlari nomi sifatida ishlatiladi (yoki Katrin uchun Kat). Ya’ni bunda hayvonlarning fe’l-atvoridagi ijobiy xususiyatlarning inson bolasida ham mavjud bo‘lishligiga ishora qilinadi.

O‘simlik va gullar nomidan kelib chiqgan uning chiroyi, nafosatliligi, poklikni anglatuvchi ismlar.

O‘zbek	Ingliz
Nilufar, Shamshod, Nargis, Lola	Rose, Olive, Lily

Rose (Atirgul)- iliqlik, tabassum, go‘zallik, jo‘shqinlik, sevgi, muhabbat ramzi. Rose Lesli - shotlandiyalik aktyor, HBO telekanalidagi “Taxtlar o‘yini” serialidagi roli bilan tanilgan..

Olive (Zaytun) - bu zaytun daraxti degan ma’noni anglatuvchi inglizcha nom bo‘lib, bu ism inglizlarda erkak va ayollarga qo‘yiladi. Zaytun novdasining ramziyligi tufayli bu nom tinchlik, do‘stlik, hotirjamlik kabi tushunchalarni anglatadi. Zaytun gulchambari an’anaviy ravishda chempionlar tomonidan g‘alaba ramzi sifatida kiyiladi. Shuningdek, unumdorlik ramzi sifatida ham qabul qilingan.

Lily (nilufar gul)- sof, oq, begunoh kabi ma’nolarni anglatadi. Lili Jeyms - ingliz aktyori va modelyeri. Lili, shuningdek, “Garri Potter” serialidagi Garri Potter onasining ismi. Demak hayvonlarning ismlari orqali insonning kuchliligiga ishora qilinsa, o‘simliklar bilan esa noziklik, nafislik jihatlari e’tiborga olingan.

Baxtiyorlik, noziklik, nafislik, chaqqonlik, erkinlik, kuchlilik, tezkorlik- qushlar nomini anglatuvchi ismlar.

O‘zbek	Ingliz
Lochin, Burgutali, To‘tixon, Qaldirg’och	Robin, Sparrow, Paloma, Feniks

Robin- Bu ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “mashhur, yorqin” degan ma’noni anglatadi. Biroq bu ayni paytda mashhur qizil ko‘krakli qushning nomi.

Sparrow (chumchuq)- Oddiy jigarrang qushdan noodatiy nom, ba’zan taxallus sifatida ishlatiladi.

Paloma- palumbusdan olingan bo‘lib, kabutar degan ma’noni anglatadi. Bu tinchlikning universal ramzi.

Feniks- yunoncha ism “quyuq qizil” degan ma’noni anglatadi, lekin ayni paytda afsonaviy qushning nomi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz antroponimlarini chog‘ishtirish orqali o‘rganish, tadqiq etish har ikki millat ruhiyatining o‘xshashligi, ism qo‘yishda motivlarning ustunligi, yagonaligi, o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishni oshirishga, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishga, ayni paytda tillarni o‘qitish va o‘ganishda samarali natijalarga olib kelishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. Услубий қўлланма. *Самарқанд давлат университети.* 2011.-110.
2. Бегматов Э. *Ўзбек тили антропонимикаси*. Тошкент: Фан. 2013.-264.
3. Komilova M.X. Ingliz va o‘zbek antroponimlarining o‘xshash va farqli jihatlarining chog‘ishtirma tadqiqi. *International Journal of Education, Social Science & Humanities.* ISSN:2945-4492.Impact factor 2023:7.502 2011-2015. Finland academic research science publishers. doi:10.5281/8003227.
4. Komilova M.X. Ingliz va o‘zbek etnik guruh vakillarining farzandga ism berish motivlari. *Pedagogika илмий-назарий ва методик журнал*, 5-сон. 2023. 36-41 бетлар.
5. Komilova M.X. O‘zbek va ingliz onomastikasida antroponimlarning o‘rganilishi. International scientific and practical conference “Actual issues of primary education: problems, solutions and development prospects” 2024. 208-209.
6. https://www.emmasdiary.co.uk/baby-names/baby-names-inspired-by-animals
7. https://www.peanut-app.io/blog/space-baby-names

Saidova Rayhon Bekmurodovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqanddavlat universiteti dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

"QUTADG'U BILIG" ASARIDA SHOIRLAR XUSUSIDAGI MULOHAZALAR TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi ijod ahli—shoirlar haqida keltirilgan fikrlar tahlilga tortiladi. Sharq va turkiy xalqlar adabiyotidagi shoirlik xususidagi fikrlar bilan muqoyasa qilinadi. "Shohnoma" tipidagi asarlar orasida "Qutadg'u bilig"da keltirilgan shoirlar mavqeyi, nozik did sohibi ekanliklari, nom qoldirishga sababchi toifilagi yoritib beriladi. Mumtoz adabiyotdagi shoirlar bilan bog'liq qalam va kotiblar xususidagi Yusuf Xos Hojibning didaktik baytlari tahlilga tortiladi. She'r poetikasi bilan bog'liq aruz vazni xususiyatlari, "Qutadg'u bilig" asaridagi badiiy san'atlar tahlili shoirlar bilan bog'liq fasl misolida ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *shoir, she'r, qalam, kotib, didaktika, "Qutadg'u bilig", madh, badiiy san'atlar.*

В ПРОИЗВЕДЕНИИ «КУТАДГЮ БИЛИГ» ХАРАКТЕРНО ДЛЯ ПОЭТОВ. ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОММЕНТАРИЙ

Аннотация. *В данной статье анализируются мнения о творческих людях-поэтах в произведении Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу Билиг». Сопоставляется с представлениями о поэзии в литературе восточных и тюркских народов. Среди произведений типа «Шахнома» поясняется положение поэтов, упомянутых в «Кутадгу Билиг», а также то, что они обладают утонченным вкусом и причиной их известности. Анализируются дидактические стихи Юсуфа Хоса Хаджиба о перьях и писцах, относящиеся к поэтам классической литературы. Характеристики арузной массы, связанные с поэтикой стихотворения, анализ художественных искусств в произведении «Кутадгу Билиг» раскрываются на примере главы, посвященной поэтам.*

Ключевые слова: *поэт, стихотворение, перо, секретарь, дидактика, «Кутадгу билиг», гимн, изобразительное искусство.*

IN THE WORK "KUTADG'U BILIG" IT IS CHARACTERISTIC OF THE POETS INTERPRETATION OF COMMENTS

Annotatsion. *This article analyzes the ideas about creative poets in Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu Bilig" and compares them with the ideas about poetry in the literature of Eastern and Turkic peoples. Among the works of the "Shahnoma" type, the poets mentioned in "Kutadgu Bilig" are distinguished and have a refined taste, and the reason for their popularity is explained. Yusuf Khos Hajib's didactic verses about pens and scribes related to poets in classical literature are analyzed. The characteristics of aruz weight related to the poetics of the poem, the analysis of artistic arts in the work "Kutadgu Bilig" are revealed on the example of the chapter related to poets.*

Key words: *poet, poem, pen, secretary, didactics, "Kutadgu bilig", anthem, artistic arts.*

Sharq va turkiy xalqlar adabiyotida epik turning klassik namulari bo'lgan dostonchilik olamida she'r-u shuur, shoirlik, so'z va qalam masalalari chuqur tahlil qilinadi. Shunday ulug' dostonlardan biri "Qutadg'u bilig" olti yarim ming bayt, ya'ni bir ming uch yuz misradan oshiq she'rdan iborat bo'lgan turkiy adabiyotdagi hajman salmoqli va mazmundor asar hisoblanadi. Bunday yirik hajmli she'riy asarning yaratilishi adabiyot tarixida o'sha davr uchun ulkan hodisa edi. XX asr o'rtalaridayoq bu nodir asarning qofiya usuli batafsil sinchiklab o'rganib chiqildi[1]. "Qutadg'u bilig" muqaddimasida nasrdan so'ng yetmish yetti baytdan iborat she'riy muqaddima keladi. Har bir fasldan xulosalanib, to'rtlik shaklida xitob mazmunidagi she'rlar keltiriladi. Bunday she'rlar "endi shoir so'zini eshit, dono so'zini tingla" kabi so'zlar bilan xitob qilinadi va shu holatda faslga xulosa yakunlanadi. Diqqat tortuvchi tomoni shundaki, "shoir yoki dono so'zi" shaklida keltirilgan misralarda xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan hikmatli so'zlarni, iboralarni she'riy qoliplarga solib, ulardan fikrini anglatish yo'lida unumli foydalangan. "Shoir so'zi - dono so'zi" tarzida ifodalangan she'riy misralarda qadimgi turkiy xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan masal, maqol janriga murojaat qiladi. Ma'lumki, misrada aforizmlardan

[1] Малов С.Е. Памятники древнютуюркских писменности. - М., Л.: 1951. Стр.97

foydalanish, maqol keltirish, ya'ni irsoli masal san'ati deb yuritiladi. Misol tariqasida xalqimizda "Sut bilan kirgan jon bilan chiqar" maqoli mavjud. Shu maqoldan foydalanib Yusuf Xos Hojib go'zal she'riy tizmalarni yaratgan:

O'rung sut bila kirsa ezgu qiliq,
O'lum tutmag'uncha evurmas yo'riq.

Asarning nazmda yaratilgan asosiy qismi masnaviy she'riy shaklida, fasllar so'ngida xulosa tarzida keltirilgan yakunlovchi misralar to'rtlik shaklda va kitob nihoyasidagi uchta fasl qasida ko'rinishida ifodalangan. Yaratilish davri jihatidan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari bilan aynan bir vaqtga to'g'ri kelsa-da, Qoshg'ariy xalq qo'shiqlarini barmoq vaznida ifodalaydi, "Qutadg'u bilig" esa aruz vaznining shohlar haqidagi asarlar bitiladigan mutoqorib vaznida yozilgan. Bu haqida adabiyotshunos F.Kuprulzoda: "Bu manzuma do'g'rudan do'g'ruya "Shohnoma" vaznila yozilmish va Eronning butun qabil asarlarinda o'ldug'i gibi masnaviy shakli ixtiyor edilmishdur. U zamonaki turkcha kendi bunyasina yobonji o'lan aruz vaznila tabiiy birdan birga imtizoj idmayajagi uchun nazm cho'q saqt va qusurlidir va ishta bir cho'qlarning uni hijo vaznila yozilmishda itmalarining boshlicha sabablarindan birida budur"[1], - deydi. O'zbek she'riyatining mohir sinchisi Abdurauf Fitrat "Qutadg'u bilig" asariga to'xtalib, savdo-sotiq va madaniy aloqalar sababli Qoraxoniylar davlatining Eron va Arabiston bilan yaqin aloqada bo'lganligi sababli Yusuf Xos Hojib arab va fors madaniyati bilan yaqindan tanishib, "Shohnoma"dan ta'sirlanib, shu uslubda hatto uning vaznini saqlagani holda "Qutadg'u bilig"ni yozganligini aytib, "…vazn juda tuzuk chiqqan, ba'zi joylaridan "Shohnoma" ohangining isi kelib turadur"[2], - deydi. Asar mazmunan pand-nasihat ruhida bo'lganligi boisidan hayotning barcha mavzularini atroflicha qamrab oladi. Turli kasb-kor egalari haqida bahs yuritiladi, chunonchi shoirlar haqida ham alohida to'xtalib o'tadi. Uning fikricha, shoirlar juda ulug' kishilar, ular insonlarni ham madh qiladilar, ham fosh qiladilar, ularning tili qilichdan keskir, xotira yo'llari esa qildan ham nozik. Shundan chuqur, teran mazmunli so'zlarni eshitish uchun ularga quloq solish kerak, biroq tiliga ilashib qolmaslik kerakliginin qayd etadi:

Basa keldi shair bu so'z terguchi,
Kishig o'gguchilar yema yerguchi.
Qilichda etigrak bularning tili,
Yana qilda yinchka bu xatir yo'li.

Ular o'gsalar, o'gdi elka barir,
Qali so'ksalar, ati artab qalir[3].

Mazmuniy tabdili:
Yana keldi shoir – bu so'z terguvhi,
Kishin madh etuvchi yoki so'kguchi.
Qilichdan ham o'tkir bularning tili,
Va qildan nozikroq xotirlash yo'li.
Ular maqtasa, madhi elga borar,
Agar so'ksa , inson nomi bulg'onar.

Shoir inson nomini el yodida yaxshi, ezgu amallari bilan eslanishi uchun tarixga muhrlovchi, kishilarning yomon ishlari ham qalamlari bilan yozib abadiyatgacha yetkazuvchi toifa hisoblanadi. Yana bir jihatga e'tibor qaratilganki, u ham bo'lsa, shoirning hech kim diqqat qaratmaydigan nozik jihatlarga qadar ahamiyat berish zakosidir. Shoir zoti "qildan nozik" xotira fahmi bilan olamda ro'y berayotgan jamiki narsalarga o'zining aniq, haqqoniy bahosini jur'at bilan ayta olishi, dadil fikrlarni o'rtaga qo'yishi, nozik fahmlanadigan mavzularni ham ko'zdan qochirmasligi lozim bo'lgan ijod kishisi hisoblanishi yuqoridagi ta'rifda ko'zda tutilgan. Shu tariqa, ko'plab fasllar xulosasida shoir o'ziga o'zi xitob qilib, xulosalarni shu tarzda yakunlaydi. Masalan, Elig va Oyto'ldi suhbatida hukmdor davlat ramzi sanalmish Oyto'ldiga uzoq vaqt qo'lida saqlanib qolishi uchun nimalar qilishi lozimligini so'raydi. Mol-davlat

[1] Fuat Kuprulzoda. Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar. - Istanbul, 1919, 26-bet.
[2] Abdurauf Fitrat. Firdavsiy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. - Toshkent: "Ma'naviyat", 48-bet.
[3] Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - T.: "Fan" nashriyoti, 1971. 656-bet.

qo'lida abadiy bo'lmog'ini istaganlar shirin tilli bo'lmoqliklari buning shartlaridan biri ekanligi aytiladi. Shoirlarning so'ziga shahd-u shakar qo'shib so'zlashlarini bu fikriga namuna qilib keltiradi. Asarda beglikda zulmni qoralab, adolatni ulug'lagan qarashlarida ham shoir tilidan xulosa qiladi. So'zlash odobi haqidagi faslda shoir shunday tashbeh qiladi: tilni so'z bilan bezash, uning chiroyini ochadi, xushro'y qiladi.

Munar menzetu aydishair so'zi
Tli so'z bile tuzdi achti yuzu.

Beglar dong qozonib, shuhrat taratishi uchun o'zini besh narsdan uzoq tutishi kerakligini so'zlab shoir nasihatlariga amal qilganlikning kafolatini quyidagi misralarda anglatadi:

Munar menzetu so'zni shair ayur,
Bu shair so'zi tutsa, so'zke bayur.

Mazmuni: "shoir qilgan nasihatlarga amal qilib, uning maslahatini quloqqa olsang, so'zini tutsang, so'zga, tajribaga boyiysan".

Asar markazlashgan Qoraxoniylar davlat tuzumining idora etilishida qilich va qalam timsollari orqali adolatli siyoat haqidagi fikrlarini olg'a suradi. Hukmdor biror elni qilich bilan qo'lga kiritsa-da, elni idora qilishda qalam bilan idora qilinadi. Yarog' vositasi bo'lgan qilich elni tez fursatda bosib olishga xizmat qilgani bilan qalam bo'lmasa, qo'l kuchi bilan idora qilib bo'lmaydi. Tasarrufida el va qishloqlarni qalam bilan idora qilgan beg maqsad qilgan narsalaridan bahramand bo'lishi osonlashadi.

Qilich birla aldi ko'p el alg'uchi,
Qalam birla basti ul el basg'ichi.
Qilich birla olsa bolur terk elig
Qalam bolmag'incha basumas elig.
Qalam birla tutsa qayu kend ulush
Tileg tegrur anda tuzuka ulush.

Kotib, ya'ni xat bituvchi qanday bo'lmog'i kerakligi haqida O'gdulmishning Eligga aytgan javoblarida ham el qilich vositasida olingani bilan qalam orqali boshqarilishi haqidagi fikr takroran keltiriladi. Bu bilan Yusuf Xos Hojib adolatning kuchi naqadar ulug'ligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Hududlarni kengaytirishda, xalqlarni bo'ysundirishda qilichning o'rni beqiyos bo'lgani bilan qalam kuchi bilan el tuziladi va xazina boyitish, hisob-kitob ishlarining borishida qalamning ulkan xizmati bor. Shu o'rinda shoir tashbehning go'zal ko'rinishini qo'llaydi:

Qilich qan tamizsa begi el alir,
Qalamda qara tamsa altun kelir.

Shunday misollar bilan qalamning tinchlik, adolat, to'g'riso'zlik kabi ma'nolar ifodasi yoniga ohoriy topilma qalamning xazinaga pul yig'ishi, sarmoyani sarhisob qilish vositasi ekanlini qo'shadi. Qalam timsoli qut-baraka, xazinani ushlab turuvchi moya kabi yangi mazmun kasb etadi.

Asarning "Shoirlar bilan aralashishni o'rgatadi" faslida shoirlar nozik so'zlarni fahmlash uchun ularning so'zlarini eshitmoq lozimligi uqtiriladi. Shoirlar *daqiqfahm* sohiblari bo'lganliklaridan anglashilmagan so'zlarning mazmunini ular ochib bera oladilar. Nazm sohiblari butun borlig'i qalbi bilan ma'nolar dengiziga kirib, undan gavhar, inju, yoqut olib chiqadilar:

Tatig' yinchka so'zlar uqayin tesa
Bulardin eshit so'z uqulg'ay basa.
Tenizka kirur ko'rsa ko'nglung tugal,
Guhar yunjnu yaqut chiqarur masal.

Shoirlar kishilarning qilgan amallarini asarlarida yozib qoldirganlari boisidan ularning ishlari xalq yodida saqlanib qoladi. Shu sababdan kishilar nomlari tarixda yomon ishlar bilan eslanmasligi uchun shoirlar oldida bir qadar mas'uliyat sezganlar, xunuk odatlari, yomon ishlari bilan shoirlarning tillariga

tushib el orasida badnom bo'lishdan tiyilganlar. Ular bilan munosabatni ijobiy saqlashga uringanlar. Tarixda nomlari ezgu nom bilan xotirlanishini istaganlar Qalam ahlini sevintiradigan amallar bajarishgan. Kishilarda o'z-o'zidan obro'-nufuzlarini shoirlardan "sotib olish", shu yo'l bilan xalq oldidagi nufuz va shonini saqlb qolish andishasi ustun bo'lgan. Yusuf Xos Hojib ta'rifidan ko'rinib turibdiki, shoirlar o'z davrining ma'lumot-u xabarlarini tarixga muhrlaganliklari boisidan, ularda ma'lum ma'noda jamiyat axloqini tartibga solish mas'uliyati ham bordek ko'rinadi.

Xullas, Yusuf Xos Xojib qarashlarida shoirlar har bir elning ko'zgusi bo'lib, ular tufayli tarix jonlanadi, insonlarda yaxshi xislatlar shakllanadi, avlod va ajdodlar orasida aloqalar bog'lanadi. Shu bilan birga shoir mahorati tufayli so'z qadri oshadi, "shoir so'zi - hikmat va donolik" kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
2. Абу Наср Фаробий. Шеър санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. –186 б.
3. Адабиёт назарияси. Икки томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.
4. Алишер Навоий: қомусий луғат. (Маъсул муҳаррир: Ш. Сирожиддинов) – Тошкент: "Шарқ", 2016. – 536 б.
5. Алишер Навоий: қомусий луғат. (Маъсул муҳаррир: Ш. Сирожиддинов) – Тошкент: "Шарқ", 2016. – 480 б.
6. Аристотель. Поэтика (Поэзия санъати ҳақида). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 152 б.
7. Атоуллоҳ усайний. Бадойиъу с-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – 400 б.
8. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. – Тошкент: "Адолат", 2004. – 192 б.
9. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёсул-луғот. Иборат аз се ҷилд. Ҷилди I. Алиф-Шин. – Душанбе: Адиб, 1987. – 480 с.
10. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёсул-луғот. Иборат аз се ҷилд. Ҷилди II. Сод – Ё. – Душанбе: Адиб, 1988. – 416 с.
11. Хос Хожиб Юсуф. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – 964 б.
12. Малов С.Е. Памятники древнютуюркских писменности. - М., Л.: 1951. Стр.97
13. Fuat Kuprulzoda. Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar. - Istanbul, 1919, 26-bet.
14. Abdurauf Fitrat. Firdavsiy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. - Toshkent: "Ma'naviyat", 48-bet.

UDK: 37.1174:371.31

Sariyev Sharafjon Urozbayevich
Nizomiy nomidagi TDPU, "Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi
dotsent vazifasini bajaruvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: shon-sharaf1973@mail.ru
ORCID ID: 0009-0008-4420-5223

BOSHLANG'ICH SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutq va uni o'stirish muammosi haqida fikr yuritilib, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash jarayonida nutq o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari va usullari, nutqni rivojlantirishning didaktik talablari, unga nisbatan metodik yondashuvlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq, nutq o'stirish, matn, matn ustida ishlash, nutq o'stirish usullari.*

РАЗВИТИЕ РЕЧИ НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема речи и ее развития, описываются особенности и методы развития речи в процессе работы над текстом на уроках читательской грамотности в начальных классах, дидактические требования развития речи и методические подходы к ней.*

Ключевые слова: *речь, речевое развитие, текст, работа над текстом, методы развития речи.*

SPEECH DEVELOPMENT IN READING LITERACY LESSONS IN PRIMARY CLASSES - AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. *This article examines the problem of speech and its development, describes the features and methods of speech development in the process of working on text in reading literacy lessons in primary school, didactic requirements for speech development and methodological approaches to it.*

Key words: *speech, speech development, text, work on text, methods of speech development.*

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti eng sodda aloqalardan murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy munosabatlarga tomon o'sib borish asosida kechgan. Agarda eng sodda aloqalar – ibtidoiy jamoa tuzumidagi urug' a'zolarining ko'p holatlarda bir-birlariga oziq-ovqat manbayi, yuzaga kelayotgan xavf-harakatlarni tashkil etish yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatishiga asoslangan bo'lsa, murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy munosabatlar – ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolik majburiyatlarini bajarish (masalan, soliq to'lash) jarayonida subyektlarning bir-birlari bilan kundalik hamda kasbiy faoliyatni tashkil etishda ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning to'g'ri, oqilona tashkil etilishi, birinchidan, hal qilinayotgan masalaning ijobiy yeshimga ega bo'lishini, ikkinchidan, vaqtning tejalishini, ushinchidan, samimiy muloqot jarayonining yuzaga kelishini ta'minlaydi. Mazkur jarayonda eng muhim omillardan biri nutq sanaladi.

Yosh avlodning ma'naviy kamolotida qadimdan nutq madaniyatiga alohida ahamiyat berib kelingan. Xususan, Unsurul-Maoliy Kaykovus o'zining "Qobusnoma" nomli asarida farzandiga qarata shunday deydi: "... Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har ne so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o'xsharsankim, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas. ...So'zni bag'oyat ulug' bilg'il, so'z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdir. Qay bir so'zniki bilsang, joyini o'tkazmay aytkil, vaqtni zoye qilmagil, yo'q ersa donishga sitam qilg'on bo'lg'aysan. Har so'z desang, rost degil va bema'nilikni da'vo qilguvchi bo'lmag'il" [1,51-52].

Nutq faqat fikrni ifodalash, axborot almashish, til vositalaridan foydalanish jarayoni yoki uning hosilasi [2,67]gina emas, balki shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi asos ham ekanligi

psixologik va biologik nuqtayi nazardan isbotlangan. Shu sababli yosh avlodda ilk bolalikdan nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

Har bir davlatning ta'lim sohasida bolalarda nutq o'stirish tizimning asosiy tarkibiy elementi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekistonda ham uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichlari – maktabgacha va boshlang'ich ta'lim davrida bolalarda nutqni o'stirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishi etib belgilangan. Global axborotlashuv va innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi, inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Shaxs nutqini o'stirishda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlari boshlang'ich davr bo'lishi inobatga olinsa, ularning takomillashtirilishi, "boshlang'ich ta'lim mazmunini to'liq integrallashtirish, mazkur mazmunda ta'lim-tarbiya elementlari uyg'unligini ta'minlash"[3,15]ning naqadar dolzarb ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Nazariy tahlil "nutq" tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko'rsatdi. Xususan, "Pedagogik ensiklopedik lug'at"da nutq "insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo'lib, u fikrni ifodalash vositasi bo'lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi" [4, 15], "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)" [5, 424-425], deya e'tirof etiladi. Psixologlar tomonidan nutq "odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki o'zaro aloqa o'rnatish yoki o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni" [6, 192], deb ta'riflangan. Metodik olimlar tomonidan nutq "kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solish" [7, 300] sifatida ham talqin etilgan. Bir so'z bilan aytganda, nutq ijtimoiy subyektlarning til vositasida amalga oshiriladigan faoliyat turidir.

Nutqda quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi:

1) fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratiladi, tugallangan mavzuni ifodalaydi, logik va grammatik qoidalar asosida tuziladi, mustaqil, tugallangan, o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadi (u bog'lanishli nutq deb ataladi) [7, 321];

2) og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi;

3) og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish yagona jarayonda keshadi;

4) og'zaki va yozma nutq orasida jiddiy tafovutlar mavjud;

5) nutq muloqot chog'ida ishtirok etuvshilarning soniga ko'ra dialogik va monologik kabi turlarga bo'linadi;

6) dialog og'zaki nutqning keng tarqalgan turlaridan, nutqiy muloqotning tabiiy shakllaridan biri bo'lib, ikki yoki bir necha shaxs o'rtasida keshadi;

7) og'zaki nutq, tabiatiga ko'ra, ko'proq suhbat shaklida yuzaga keladi;

8) nutqning juda muhim shakllaridan biri sanaladigan monolog dialogga nisbatan mazmunni ifodalash ushun til vositalarini tanlash, nutqning qurilishiga ko'ra bir qadar an'anaviylikka ega.

Nutq o'stirish ta'lim taraqqiyoti tarixida hamisha dolzarb masalalardan bo'lib kelgan. Jumladan, eski maktablarda qiroatxonlikning keng miqyosda yo'lga qo'yilishi hamda o'qitishda usuli tahajji, usuli maddiya, usuli savtiyaga amal qilinishi bevosita nutq o'stirish bilan bog'liq. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida usuli jadid maktablari ushun yaratilgan "Ustodi avval", "Sabzazor", "Adibi avval", "Adibi soniy", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Rahbari najot", "Risolayi asbobi savod", "Qiroat kitobi", "O'qish kitobi" darsliklarida ham nutq o'stirish yetakchi o'rin tutgan. "Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga saboq berganlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechgani yo'q. Ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, XX asrning 20-yillarida maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o'rganish tizimi buzildi: grammatik, orfografik ko'nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Savod o'rgatishda yaxlit so'z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlarni ta'minlamadi, puxta, to'g'ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi. Keyinchalik 1931-yil 5-sentabr «Boshlang'ich va o'rta maktab haqida»gi, 1932-yil 25-avgust «Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari rejimi haqida»gi qarorlar yuqoridagi kabi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o'quv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o'qituvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi qayta tiklandi". Bu haqida, shuningdek, U.Dolimovning «Turkistonda jadid maktablari» nomli kitobida qiziqarli dalillar keltirilgan. Ko'rinadiki, nutq o'stirish va uning asosida turuvshi savod

o‘rgatish muammosi uzoq tarixga ega. U tabiiy sur’atda hamisha ilg‘or fikrli ziyolilarning e’tiborini o‘ziga jalb qilgan.

Nutq o‘stirish – shaxs tomonidan og‘zaki va yozma badiiy til me’yorlari: to‘g‘ri talaffuz, urg‘u, grammatika, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini o‘zlashtirish orqali unda tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalangan holda ravon so‘zlash malakalarini rivojlantirishni ifodalovshi pedagogik jarayon. O‘z mohiyatiga ko‘ra nutq o‘stirish shaxs, jumladan, o‘quvchi tomonidan og‘zaki va yozma badiiy til me’yorlari: to‘g‘ri talaffuz, urg‘u, grammatika, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini amaliy o‘zlashtirish, tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanish, ravon so‘zlash malakalariga ega bo‘lishini ta’minlovchi metod, usul, vositalar yordamida pedagogik qo‘llab-quvvatlash, to‘g‘ri yo‘naltirish, zarur o‘rinlarda kerakli choralarni ko‘rish hamda jarayonga rahbarlik qilishni anglatadi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra “nutq o‘stirish” tushunchasi ko‘p holatlarda “nutqni rivojlantirish” tushunchasiga muqobil sifatida qo‘llaniladi. Ayniqsa, rus tilida olib borilgan tadqiqotlar, mazkur tilda yaratilgan adabiyotlarda maktabgacha tarbiyalanuvchilar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘y-fikrlari, kechinmalari (ichki nutq)ni tashqi nutqqa aylantirish xususida so‘z yuritilganda tayanch tushuncha sifatida “nutqni rivojlantirish” qabul qilingan. Ayni o‘rinda “ichki nutq” tushunchasining mohiyatini ham yoritib o‘tish maqsadga muvofiqdir: ichki nutq – til yordamida ifoda etilmagan va yozilmagan fikriy nutq bo‘lib, u shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan murojaatini ifodalaydi. Har qanday nutqda bo‘lgani kabi ichki nutq ham o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Xususan, ichki nutq aniq grammatik shaklga ega bo‘lmay, u tushuncha – alohida ma’noli so‘zlar hamda yaxlit iboralar yordamida shakllanadi.

Darhaqiqat, ta’limiy g‘oyalar taraqqiyoti tarixining barcha bosqichlarida ham shaxs nutqini o‘stirishga alohida e’tibor qaratib kelingan. Ayniqsa, notiqlik san’atining eng yuksak bosqichlari – qadimgi Rim va Yunonistonda yosh avlod nutqini rivojlantirish, ularda nutq, so‘z kushi yordamida ijtimoiy subyektlarga ta’sir ko‘rsatish, hatto, ijtimoiy guruhlarni ta’sirchan, yuqori darajada hissiy-estetik bayon etilgan nutq yordamida boshqarish qobiliyatini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lishiga erishilgan.

Bugungi kunda ham nutqni rivojlantirish boshlang‘ich sinflar oldiga qo‘yilayotgan muhim vazifa sanaladi, binobarin, nutq har qanday aqliy faoliyatning asosi va insoniy muloqot vositasi bo‘lib, uning yordamida ta’lim tizimi oldida turgan tilshunoslik, psixologik-pedagogik, metodik-didaktik xarakterga ega o‘qitish ishlarining sifatini yaxshilashga erishiladi.

Nutq o‘stirish boshlang‘ich ta’lim tizimida uzviylik asosida amalga oshiriladi, bir butun o‘qish jarayoniga amaliy yo‘nalish beradi va bolalarning ongli o‘qish, uqqanlarini tushunarli qilib so‘zlab berish, savodli yozishga o‘rgatadi. Bolalarning yosh xususiyatini va saviyasini hisobga olgan holda, ona tili va adabiyotdan boshlang‘ich bilim beriladi va shular asosida ularning nutqi boyitiladi.

Har bir odamning nutqi bolalik shog‘idan boshlab o‘sib boradi. Bola kattalar bilan muloqot qilishi natijasida tilni egallaydi va nutq jarayonida o‘rganganlarini qo‘llaydi. Bolalar nutqining o‘sishida ularning maktabda o‘qishi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Bola maktabga kirmasdan oldin o‘zi qanday gapirayotganligi ustida o‘ylab o‘tirmasdan, o‘z nutqidan aloqa va bilish vositasi tariqasida foydalanadi. Maktabda esa bola gaplashayotgan til o‘qitiladigan va o‘rganiladigan ilm bo‘lib qoladi. Bola o‘z ona tilining grammatikasi bilan shug‘ullanishi natijasida o‘z nutqini grammatika qoidalariga muvofiq sur’atda ongli ravishda tuzishni o‘rganadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish ta’limning keyingi bosqichlari muvaffaqiyatini ta’minlashning muhim omillaridan hisoblanadi. Shu bois, boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi” va “Ona tili” predmetlari bo‘yisha yaratilgan dasturlar hamda bir qator ilmiy-metodik adabiyotlarda mazkur masalaga alohida e’tibor qaratilgan.

“O‘qish savodxonligi” ham boshlang‘ich sinflarda asosiy o‘quv predmetlaridan biri hisoblanadi. Zero, mazkur o‘quv predmeti yordamida o‘quvchilarning savodini shiqarishga erishiladi, harflarni tanish va o‘qitish asosida kitobga, kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otiladi, atrof-muhit haqidagi bilimlari boyitiladi. O‘quv predmetining asosiy vazifalaridan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, uning malakaga o‘sib o‘tishini ta’minlashdir.

“O‘qish savodxonligi” darsliklarida berilgan matnlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni matn mazmunini to‘g‘ri tushunish, ongli va ifodali o‘qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o‘rganilayotgan materialning mazmuni, o‘quvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma, malakalari darajasiga ko‘ra amalga oshiradi. O‘quvchilarni asar matnini o‘qishga tayyorlashda, birinchi

navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g‘oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e’tibor qaratiladi. O‘qish faoliyati ham nutqning alohida ko‘rinishi hisoblanadi.

O‘quvchining o‘z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to‘g‘ri ifodalay olishi uning o‘quv-bilish faolligi darajasini, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O‘qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish yuzasidan qo‘yilgan savol va topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo‘llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko‘proq o‘zi uchun yangi so‘z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

7-9 yoshdagi bolalarda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutqni egallashi asosida ularda turli matnlar haqida ma’lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolalarda hali o‘zi yozgan fikrlarni, so‘z va harflarni nazorat etish ko‘nikmasi yetarlisha rivojlanmagan bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Mustaqil ijodiy ishlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma’lumot to‘plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma’lum ketma-ketlikda amalga oshirish, reja tuzish ko‘nikmasini hosil qiladi. Jumlalarni to‘g‘ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so‘zlarni topish va ularni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, o‘z xatolarini topa olish va to‘g‘rilash aqliy rivojlanishning ko‘rsatkishlaridan hisoblanadi” [8, 220].

Ma’lumki, nutqda insonning fikrlari bilan birgalikda his-tuyg‘ulari ham ifodalanadi. Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish savodxonligi” darsliklarida keltirilgan badiiy matn namunalarini o‘rganish orqali o‘quvchilar ushbu jihatni ham o‘zlashtiradilar. Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasviriy imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko‘ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik zavq berish, ta’sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Shunday ekan, badiiy matn ustida ishlashda nutq o‘stirish ushun keng imkoniyatlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, har tomonlama barkamol, erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalashda o‘quvchilar nutqini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari oldidagi ushbu vazifani to‘laqonli bajarish ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning bog‘lanishli nutqini talab darajasida o‘stirish bilan shambarchas bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida nutq o‘stirish ishining matn asosida amalga oshirilishi bu jarayonda samarali yutuqlarni qo‘lga kiritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O‘qituvchi, 2006.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / 5 jildli. Uchinshi jild. A.Madvaliyev tahriri ostida. Tahrir hay’ati: E.Begmatov va boshq. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
3. Safarova R., Musaev U., Musaev P., YUsupova F., Nurjanova R. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo‘llari. – T.: Fan, 2005.
4. Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar / Gl. red. B.M. Bim-Bad. 3-izdaniye, stereotipnoye. – M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 2009.
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi / 12 jildli. 6-j. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
6. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
7. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi / Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari ushun darslik. – T.: Noshir, 2009.
8. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar ushun entsiklopediya. Tuzuvshi M.N.Aminov, mas’ul muharrir A.M.Majidov. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI"

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar "Antiplagiat" tizimi yordamida tekshiriladi).

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo‘yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbasi ko‘rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo‘lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo‘lishi shart.

2. Maqolaning nomi 12 so‘zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo‘lishi lozim.

3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta'lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo‘lsa ularning har biri haqida to‘liq ma'lumotlar berilishi shart; (barcha ma'lumotlar 3 tilda:o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart)

4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo‘limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e'tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak) (3 tilda:o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo‘lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *Nazvaniye knigi*. Gorod: Izdatelstvo. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. *Nazvaniye jurnala*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti "O‘quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo‘yicha prorektor" psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ***(3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)***
https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak. **(3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)**
Kalit so‘zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)**

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)

NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo‘lishi shart)

Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *Nazvaniye knigi*. Gorod: Izdatelstvo. Elektron manzili. URL:
2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. *Nazvaniye jurnala*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:
3. Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O‘ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

Mundarija /Содержание/Contents

	19.00.00 – PSIXOLOGIYA
3	**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna** Uyushmagan yoshlarning motivatsion sohalarini o‘rganishning o‘ziga xos jihatlari
7	**Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna** Oilada ona va farzand munosabatlarining o‘ziga xosligi
11	**Eshmanov Otabek Baxriddin o'g'li, Abdurasulov Rustam Abduraimovich** O‘smir sportchilarning shaxs xislatlarini stressga barqarorlik darajasi bilan aloqadorligi
16	**Ruziyev Nodirbek Ikromovich** Harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
20	**Kudratova Lola Ravshanovna** Uyushmagan yoshlar ijtimoiy psixologik portretining o’ziga xos xususiyatlari
22	**Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o‘g‘li** Shaxs kommunikativ xulq-atvorining internet tarmog‘ida namoyon bo‘lishi
28	**Ishonkulova Norbiye Islomovna** Oilalarda destruktiv nizolarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar
33	**Kozimova Nigora Abduqahorovna** Oliy ta`limda tahsil oladigan talabalarining o`quv faoliyatiga moslashuvi
38	**Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o‘g‘li** Yoshlar qadriyatlar tizimi transformatsiyalashuvini psixologik taxlili
41	**Pulatova Gulnoza Murodilovna** Kichik maktab yoshidagi bolalarda bilingvizmning tafakkur jarayoniga ta’siri
46	**Ruzmetova Zilolakhon Dilmuradovna** The role of imagination, creativity and play in language learning and development
49	**Kobilova Feruza Tolibovna** The role of psychology and culture in teaching communicative skills of english language
53	**Mohigul Umirovna Tohirova** Organization of empirical study of socio-psychological adaptation and integration of individuals with visual impairments
62	**Yarmatova Sevara Tolibovna** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy xayol namoyon bo’lishining yosh farqlari
66	**Barotov Xumoyin Sharifovich** Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari kasbiy kamolotida sotsial-psixologik kompetentlikning o‘rni va ahamiyati
70	**Djumaniyazova Muxayya Xusinovna** Talabalar o`quv motivatsiyaga ta`sir qiluvchi omillarning emperik tahlili
78	**Zakirova Muxabbat Sabirovna** O‘qituvchining kasbiy muammolari va stressi: psixologik yordam va charchashning oldini olish
83	**Qayumov Baxtiyor Zokirjon o’gli** O‘quvchilarda kreativlikni psixologik jihatdan rivojlanishini empirik tadqiq etish
87	**Shonazarov Asror Maxmaisoyevich** Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishning uslubiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
94	**Нарбашева Мехри Ачиловна** Традиционная игра как социально - психологический феномен
100	**Namozova Latofat Rustamovna** Yuqori sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini ta’minlashning nazariy asoslari

105	**Абдусаматова Шахло Саитмуратовна** Толерантность как научный феномен
109	**Usmonov Sherzod Axmadjonovich** Maktabgacha yoshda oilaviy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati
113	**Sharipov Soatjon Roziqovich** Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida psixologik xususiyatlarning o'rni va ahamiyati
118	**G'aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna** Bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlashning pedagogik -psixologik asoslari
121	**Kalillayeva Ulbosin Ayapbergenovna** Xulqida buzilish mavjud bo'lgan o'smirlarning kasb tanlash motivatsiyasining samaradorligi
124	**Arzimbetov Tileubergen Tilepbergenov** Talabalarda sport faoliyati motivlarini rivojlantirishning pedagogik psixologik xususiyatlari
128	**G'aybullayev A'zam Ahadovich** Urf-odat va an'analar –yoshlarda milliy qadriyatlarni shakllantiradigan ijtimoiy psixologik mezon
135	**Axmedova Zarrina Jamilovna** Boshlang`ich sinf o'quvchilarini moslashtirish uchun psixologik sharoitlarning ijtimoiy xususiyatlari
139	**Quliyev Yorqin Krimovich** Tashkilotlarda xodimlarning daxldorligini shakllantirish omillari
144	**Hasanov Jamshid Shokir o`g`li** O'smirlarda xavotirlanishning gender xususiyatlari
147	**Omonova Nargiza Raximovna** Talabalardagi kreativlik qobiliyatlarni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlar
153	**Tuychiyeva Shaxlo Shavkatovna** Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida stressga barqarorlikni oshirishning psixologik imkoniyatlari
157	**Azimov Asqadjon Axtamovich** Tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilarni muloqotdagi qiyinchiliklarini o'rganishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari
160	**Qodirov Obid Safarovich** O'smirlarda jinoyatlarni oldini olishda huquqiy tushunchalarni rivojlantirish
165	**Avezov Olmos Ravshanovich** O'quvchilarning ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini namoyon bo'lishi
173	**Тажибаев Шохрух Максудович** Психосоматические проявления профессионального стресса у школьных педагогов
178	**Сатторов Миршод Эркинович** Методика исследования совершенствования самоуправления у учащихся спортивных школ
182	**Gulamova Lobar Xakimovna** Yoshlarda huquqiy munosabat shakllanishining psixologik asoslari
185	**Inamov Alisher Kosim o'g'li** Kasbiy adaptatsiyani muammosining nazariy-metodologik asoslari
189	**Kulatova Svetlana Yuldashevna** O'smirlarda destruktiv axborotlarni qabul qilishning psixologik omillari
192	**Raxmatova Nodira Imamovna** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantishning psixologik omillari

196	**Sadatova Nodira Musurmonovna** Voyaga yetmagan o‘smirlar hulq-atvoridagi psixologik o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi omillar
200	**Eshboyev Shoxruz Xon Farxodovich** Nizolar dinamikasi va rivojlanish fazalari
203	**Adilova Shoxida To‘ychiyevna** Shaxs xulq-atvorida suitsidga moyillikni aniqlashning psixologik xususiyatlari
209	**Кадыров Камолиддин Батырович, Каланходжаева Камила Ботирходжаевна** Исследование взаимосвязи эмоционального интеллекта у сту-дентов с соотношением сиг-нальных систем
214	**Turaxanov Ummatali Davlatovich** O‘z-o‘zini identifikasiya qilishning ijtimoiy-psixologik shartlari
219	**Сулетбаева Элла Серикбаевна** Этнопсихологические особенности семьи: сравнительный анализ
223	**Останов Шухрат Шарифович** Развития креативности у подростков
	13.00.00 – PEDAGOGIKA
227	**Mambetiyarov Nauriz Saparbayevich** Yosh futbolchilarga himoyaviy texnik-taktik harakatlarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan uslublarning o’ziga xos xususiyatlari
231	**Erejepov Islam Yusupovich** Jismoniy madaniyat va ommaviy sport harakatini tashkil qilish va boshqarish xususiyatlari
235	**Nurmatov Nurhayot Nurziyot og`li** Pedagoglarda frustratsion tolerantlikning psixologik xususiyatlari
239	**Jumaniyazova Tamara Adambayevna** O‘quvchilarga gimnastika mashqlarini o‘rgatishning o‘ziga xos pedagogik xususiyatlari
242	**Allambergenova Baxargul Xudaybergenovna** Talabalarga chet tili o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etish – ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida
246	**Shaniyazov Rashid Janabayevich** Sport maktabi o’quvchilarida o’zini - o’zi boshqarishning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari
249	**Астанкулова Дильнур Фуркат кизи** Педагогико-психологические особенности спортсменов, занимающихся художественной гимнастикой
253	**Оталиева Аделья Рахметовна** Повышение технико-тактической подготовки юных каратистов инновационными мето-дами
256	**Nurmedov Nurmuxammed Axmed o’g’li** Ta’lim tarbiya jarayonida milliy va harakatli o‘yinlardan foydalanishning zamonaviy usullari
260	**Kamolov Shavkatjon Xadjiyevich** Musiqa fani o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari
264	**Xudoyarova Ziyoda Maratovna** Talabalarda o’zini o’zi rivojlantirishning pedogagik psixologik mexanizmlarini
268	**Mirzobobur Bahodirovich Qambarov** Pedagogik tizimda tarbiyaviy faoliyatning huquqiy masalalari
271	**Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida

274	**Ziyomuhammad Ne'matov Bahodir o‘g‘li** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari
	10.00.00 – FILOLOGIYA
277	**Azamatova Nigina Yoqubjon qizi** O’zbek alifbosining yaratilish tarixi va muammolari
280	**Субхонкулов Жахонгир Рустам Угли** Понятие концептуальной метафоры в традиционной и в когнитивной лингвистике
285	**Komilova Muxtaramxon** O‘zbek va ingliz antroponimlarining chog‘ishtirish masalalari
288	**Saidova Rayhon Bekmurodovna** “Qutadg’u bilig” asarida shoirlar xususidagi mulohazalar talqini
292	**Sariyev Sharafjon Urozbayevich** Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida nutq o‘stirish – pedagogik muammo sifatida

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBO-ROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL
№5 (9) 2024

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Ray-osatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar
instituti ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2024.
№ 5. - 302 b.